Asosiy qism. Addiktiv xulq-atvor muammosi psixologiya, tibbiyot, sotsiologiya va pedagogika fanlari kesishgan nuqtada o‘rganiladigan murakkab va ko‘p qirrali hodisadir. Mazkur fenomenning nazariy asoslari bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tahlil qilingan:

Psixoanalitik yondashuv vakillari addiksiyani shaxsning ichki ongsiz konfliktlari hamda himoya mexanizmlarining yetishmovchiligi natijasida yuzaga keladigan namoyon bo‘lish shakli sifatida talqin qiladilar.

Gumanistik psixologiya namoyandalari esa qaramlikning kelib chiqishini shaxsning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish ehtiyojlari to‘silib qolishi (frustratsiya) bilan izohlaydilar.

Ts.P. Korolenko tadqiqotlarida addiktiv xulq-atvor - real hayotdagi muammolardan qochish va psixologik diskomfortni kamaytirishga qaratilgan destruktiv moslashuv (adaptatsiya) shakli sifatida talqin etiladi.

V.D. Mendelevich addiksiyani shaxsning voqelikni idrok etish va unga moslashish tizimidagi buzilishlar bilan bog‘liq kompleks psixologik fenomen sifatida baholaydi.

So‘nggi yillarda addiksiyalarni o‘rganishda biopsixososial model ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu modelga ko‘ra, qaramlik faqatgina bitta omil sababli emas, balki biologik predispozitsiyalar (irsiy moyillik), individual psixologik xususiyatlar va ijtimoiy muhitning o‘zaro miks ta’siri natijasida shakllanadi.

Mazkur maqolada ilmiy bilishning quyidagi nazariy va metodologik usullaridan foydalanish ko‘zda tutildi:

- ilmiy adabiyotlarni qiyosiy-tahliliy o‘rganish.
- tizimli va tizimli-tuzilmaviy yondashuv.
- umumlashtirish va qiyoslash.
- ilmiy manbalarni kontent-tahlil qilish.
- nazariy modellashtirish.

Tadqiqotning fundamental metodologik asosini zamonaviy psixologiyada yetakchi o‘rin egallagan biopsixososial yondashuv tashkil etadi.

Addiktiv xulq-atvor tushunchasining mohiyati. “Addiksiya” (ingl. addiction) termini lotincha "addictus" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “bog‘lanib qolgan”, “giyohvand”, “qaram bo‘lgan” degan ma’nolarni anglatadi. Psixologik nuqtai nazardan: addiktiv xulq-atvor - shaxsning o‘z ruhiy holatini sun’iy ravishda o‘zgartirish, ijobiy emotsiyalarni shakllantirish yoki emotsional noqulaylikdan qochish maqsadida ma’lum bir faoliyat vaqtiga yoki moddaga patologik darajada bog‘lanib qolishidir.

Zamonaviy klinika va psixologiya amaliyotida addiktiv xulq-atvorning quyidagi asosiy xususiyatlari ajratib ko‘rsatiladi:

- qaramlik obyektiga kuchli ehtiyoj;
- xatti-harakat ustidan nazoratning pasayishi yoki yo‘qolishi;
- tolerantlikning (bardoshlilik dozasining) ortishi;
- abstinent sindromning (sindrom otmeni) kuzatilishi;
- ijtimoiy faoliyatning inqirozga yuz tutishi va cheklanishi;

– salbiy oqibatlarga qaramasdan xulq-atvorning surunkali davom etishi.

Addiktiv xulq-atvorning psixologik mexanizmlari

Mexanizm turi	Tavsifi va namoyon bo‘lishi
Emotsional regulyatsiya buzilishi	Addiktlarda salbiy emotsiyalarni konstruktiv boshqarish ko‘nikmalari sust bo‘ladi. Stress va xavotirni yengish uchun eng oson "korreksiya" vositasi sifatida addiksiyaga murojaat qilinadi.
Kognitiv buzilishlar	O‘z xatti-harakatlarini noto‘g‘ri oqlash (ratsionalizatsiya), muammoning mavjudligini inkor etish (*denial*) va javobgarlikni boshqalarga yuklash tendensiyasi.
Qochish (Eskapizm) strategiyasi	Shaxs hayotiy muammolarni real hal qilish o‘rniga, ulardan virtual yoki moddiy illatlar olamiga vaqtinchalik qochish yo‘lini tanlaydi.
Neyrobiologik mukofotlash tizimi	Miyadagi dopaminergiya tizimining sun’iy faollashuvi natijasida organizmda addiktiv xulq-atvorni qayta-qayta takrorlash patologik motivatsiyasi mustahkamlanadi.

Addiktiv xulq-atvorning zamonaviy tasnifi

Zamonaviy psixologiya va psixiatriyada xalqaro klassifikatsiyalarga muvofiq addiksiyalar ikki yirik guruhga ajratiladi:

1. Kimyoviy addiksiyalar (Moddalarga qaramlik):

a) Alkogolizm;

b) Narkomaniya va toksikomaniya;

c) Nikotin (tamaki va elektron sigaretlar) qaramligi.

2. Nokimyoviy (Xulqiy / Behavioral) addiksiyalar:

a) Internet-addiksiya va ijtimoiy tarmoqlarga tobe’lik;

b) Geyming (kompyuter va video o‘yinlar qaramligi);

c) Ludomaniya (qimor va stavka o‘yinlari);

d) Shopogolizm (kompulsiv xaridlar) va ishga qaramlik.

Addiktiv Xulq-Atvorning Shakllanish Omillari

Addiksiyaning rivojlanishi ko‘p determinantli jarayon bo‘lib, quyidagi uchta ustun tizimning o‘zaro salbiy integratsiyasidan yuzaga keladi:

1. Biologik omillar

– irsiy-genetik moyillik (oilada qaramlik holatlarining mavjudligi);

– markaziy nerv tizimining individual-tipologik xususiyatlari;

– neyromediatorlar (dopamin, serotonin) almashinuvining tug‘ma disbalansi.

2. Psixologik omillar

– adekvat bo‘lmagan (past) o‘zini-o‘zi baholash;

– yuqori impulsivlik va emotsional labillik (beqarorlik);

– frustratsiyaga va stressga chidamlilik darajasining (coping) pastligi;

– neyrotizm va yuqori darajadagi shaxsiy xavotirlilik.

3. Ijtimoiy omillar

– oila mikromuhitidagi destruktiv munosabatlar va surunkali nizolar;

– gipoproteksiya (ota-ona nazoratining mutloq sustligi) yoki aksincha giperproteksiya;

– salbiy xulq-atvorga ega tengdoshlar guruhiga taqlid qilish;

– ommaviy madaniyat, agressiv marketing va ijtimoiy media manipulyatsiyalari.

Addiktiv xulq-atvor profilaktikasining psixologik jihatlari

Zamonaviy preventiv (oldini olish) psixologiyada addiktiv xulq-atvor profilaktikasi quyidagi strategik yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

1. Aholining psixologik savodxonligini oshirish: Stress-menejment va psixogigiyena qoidalarini yoshlikdan shakllantirish.

2. Emotsional intellektni (EQ) rivojlantirish: O‘z his-tuyg‘ularini anglash va ularni konstruktiv boshqarish ko‘nikmalarini o‘rgatish.

3. Koping-strategiyalarni shakllantirish: Qiyin hayotiy vaziyatlarda muammoni yechishga qaratilgan sog‘lom xulq-atvorni shakllantirish.

4. Oilaviy psixoprofilaktika: Ota-onalar va farzandlar o‘rtasida emotsional yaqinlik va sog‘lom kommunikatsiyani tiklash.

5. Psixologik korreksiya va reabilitatsiyada: bugungi kunda Kognitiv-bixevioral terapiya (KBT), U. Millerning Motivatsion intervyu metodi hamda tizimli oilaviy psixoterapevtik yondashuvlar eng yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlariga ega bo‘lib qolmoqda.

Xulosa. Addiktiv xulq-atvor zamonaviy psixologiya fanida murakkab, dinamik va ko‘p omilli biopsixososial fenomen sifatida talqin qilinadi. Uning genezisida biologik moyillik, shaxsiyatning psixologik zaifliklari va ijtimoiy muhitning nojo‘ya ta’siri o‘zaro uzviy zanjir hosil qiladi.

Raqamli texnologiyalar asrida yuzaga kelayotgan yangi turdagi nokimyoviy addiksiyalar shaxsning ijtimoiy va psixologik salomatligiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Shu sababli, milliy va global darajada addiksiya muammosini tizimli o‘rganish, uning profilaktikasi va korreksiyasiga qaratilgan innovatsion psixologik dasturlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish fanning eng dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. American Psychiatric Association. *Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5-TR).* – Washington, DC, 2022.
2. Griffiths M.D. *The Components Model of Addiction within a Biopsychosocial Framework* // Journal of Substance Use. – 2005. – Vol. 10(4). – P. 191–197.
3. Короленко Ц.П., Дмитриева Н.В. *Психосоциальная аддиктология.* – Москва: Академический проект, 2012.
4. Менделевич В.Д. *Психология зависимой личности.* – Москва: МЕДпресс-информ, 2018.
5. Young K.S. *Internet Addiction: Symptoms, Evaluation and Treatment.* – New York, 2019.
6. Grant J.E., Potenza M.N. *Behavioral Addictions: Clinical Characteristics and Treatment.* – New York: Oxford University Press, 2021.
7. Miller W.R., Rollnick S. *Motivational Interviewing.* – New York: Guilford Press, 2023.
8. Kardefelt-Winther D. *Conceptualizing Internet Use Disorders* // Addiction Research and Theory. – 2020. – Vol. 28(4). – P. 307–314.
9. Brand M., Wegmann E., Stark R. et al. *The Interaction of Person-Affect-Cognition-Execution (I-PACE) Model for Addictive Behaviors* // Neuroscience and Biobehavioral Reviews. – 2019. – Vol. 104. – P. 1–10.
10. World Health Organization. *International Classification of Diseases (ICD-11).* – Geneva, 2022.

NARKOMANIYA. QUVVATLOVCHI MARKAZLARNING SHAKLLANISHI VA GEDONIK KOMPONENTLAR BILAN KECHUVCHI EHTIYOJ SIKLI

Yarashov Azizbek Lazizlovich

BuxDU Psixologiya ta’lim yo`nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada narkomaniya va toksikomaniyaning psixologik hamda ijtimoiy mohiyati, ularning o‘smirlar ruhiyatiga salbiy ta’siri, giyohvandlikning shakllanish omillari va ehtiyojlar sikli tahlil qilingan. Shuningdek, giyohvandlikning degenerativ, biologik, psixodinamik, tizimli-yo‘naltirilgan hamda ijtimoiy nazariyalari yoritilib, quvvatlovchi markazlarning shakllanishi va gedonik komponentlar bilan bog‘liq ehtiyojlarning yuzaga kelish mexanizmlari izohlangan.

Kalit so‘zlar: narkomaniya, toksikomaniya, giyohvandlik, psixotrop moddalar, gedonik komponent, ehtiyoj sikli, eyforiya, o‘smirlar psixologiyasi, qaramlik, psixodinamik nazariya, ijtimoiy nazariya, profilaktika, shaxs tanazzuli, markaziy asab tizimi.

Abstract: This article analyzes the psychological and social essence of drug addiction and substance abuse, their negative impact on adolescent psychology, as well as the factors contributing to the development of addiction and the cycle of needs. The study also examines degenerative, biological, psychodynamic, system-oriented, and social theories of addiction, highlighting the formation of reinforcement centers and the mechanisms of needs associated with hedonic components. Particular attention is given to the effects of narcotic substances on the human psyche, personality degradation, the causes of drug addiction among adolescents, and preventive measures.

Keywords: drug addiction, substance abuse, narcotic substances, psychotropic substances, hedonic component, need cycle, euphoria, adolescent psychology, dependency, psychodynamic theory, social theory, prevention, personality degradation, central nervous system.

Аннотация: В данной статье рассматриваются психологическая и социальная сущность наркомании и токсикомании, их негативное влияние на психику подростков, а также факторы формирования зависимости и цикла потребностей. Освещаются дегенеративные, биологические, психодинамические, системно-ориентированные и социальные теории наркомании, раскрываются механизмы формирования центров подкрепления и потребностей, связанных с гедоническими компонентами. Особое внимание уделяется воздействию наркотических веществ на психику человека, деградации личности, причинам распространения наркомании среди подростков и мерам профилактики.

Ключевые слова: наркомания, токсикомания, наркотические вещества, психотропные вещества, гедонический компонент, цикл потребностей, эйфория, психология подростков, зависимость, психодинамическая теория, социальная теория, профилактика, деградация личности, центральная нервная система.

Kelib chiqishi organik bo‘lgan ko‘plab har xil moddalar orasida shundaylari ham borki, ular inson psixikasi (ruhiyati)ga spetsifik (o‘ziga hos) ta’sir ko‘rsatadi. Ularning ayrimlari inson a’zolarining ichki resurslarini xavfli darajada faollashtirib yuborsa, boshqalari - bo‘shashuvchanlik (xom xayollik) yoki uyquni keltirsa, uchinchisi esa jazovali telbalikka o‘hshash holatlarni yuzaga keltirib, hayotiy real dunyodan, hayotdan ajratib, eshitish-ko‘rish galyutsinatsiyasini (miya chalg‘ishi) ko‘zgaydi. Bular giyohvand moddalar bo‘lib, ular uch guruhga bo‘linadi: narkotik moddalar, toksik moddalar, alkogol va nikotin. Insonning narkotik moddalarga bo‘lgan achinarli havasi narkomaniya (giyohvandlik) deb ataladi. Giyohvandlik - ijtimoiy xatarli ruhiy xastalik bo‘lib, eyforiyaga (kayfga) erishish maqsadida turli kimyoviy birikmalarni qabul qilish tufayli markaziy asab tizimining alohida zona (joy)larini sun’iy qo‘zg‘atishdan iborat. Giyohvandlik holatini qo‘zg‘atadigan moddalar doirasi nihoyatda keng: psixotrop xabdorilardan tortib to maishiy kimyo vositalarigacha. Giyohvand moddalarga shuningdek alkogol va nikotin ham kiradi, ular boshqa narkotiklarga nisbatan bir muncha xavfsiz bo‘lsada, lekin ularga zamin hozirlovchilar sifatida xatarlidir [8, 9, 10].

So‘nggi paytda giyohvandlik va toksikomaniya so‘zlari bir muncha odatiy hodisa sifatida ko‘rinib qolgan toksikomaniyaning ikki yo‘nalishini belgilab olish uchun qo‘llanilmoqda. Giyohvandlik − klassik narkotiklarga (qoradori, nasha, kokain va boshqalar) achinarli qullik bo‘lsa, toksikomaniya esa − ruhiyatga ta’sir ko‘rsatuvchi imkoniyatlarga ega bo‘lgan, har xil moddalarni qabul qilishdir: turli xabdorilar, suyuqliklar va h.k. U yoki bu toksik moddalarni iste’mol qiluvchilarni narkomanlar (giyohvandlar) va toksikomanlar deb atashadi (so‘ngisi, ayniqsa o‘smir va o‘spirin yoshidagilarni qamrab olmoqda).

O‘smirlarning giyohvandlikdan sarhushlik ko‘rinish xuddi kattalardagi kabi kechadi, lekin shaxs tanazzuli esa bir muncha ilgariroq sodir bo‘ladi. O‘smirlarda jizzakilik, shiddatli hujumkorlik va qo‘pollik bilan kechadigan psixopatizatsiya (devonalik) ancha tez rivojlanadi. Ularda kattalarga nisbatan giyohvandlik moddalarga bo‘lgan yengib bo‘lmas intilish bir muncha

tezkor tarzda nomoyon bo‘ladi, o‘smirlar ularga etishish va qo‘lga kiritishda ancha qiyinchiliklarga duch kelganlari bois, ular topish va qo‘lga kiritish bir muncha osonroq bo‘lgan narkotik va toksik vositalarga ruju qo‘ya boshlaydilar. O‘smir yoshdagilar uchun giyohvand moddalar katta xavf tug‘diradi, shunchaki, uni bir marta qabul qilishning o‘ziyoq psixikaga ayanchli ta’sir o‘tkazadi. Bu o‘rinda, nafaqat mushohada qilishning oliy shakli, etnik va ahloqiy tushunchalarning xususiyati buziladi va ular rivojlanishdan to‘xtab qoladi, balki rivojlanayotgan qobiliyatlar ham yo‘qoladi, o‘smir tezda aqliy, his-hayajonli va ma’naviy munosabatlarda inqirozga uchrab oqsaydi.

O‘smirlarning giyohvandlikka o‘rganishi tez yuz beradi. “Oq ajal” uning iste’molchisini tezda o‘z “qo‘liga” aylantirib qo‘yadi. Narkotik moddani iste’mol qilayotgan o‘smir iloji boricha ota-onasining ko‘ziga tashlanmaslikka, yakkalikka intiladi, ular bilan suhbatlashishni keskin qisqartiradi, buning o‘rniga boshqa yangi tanishlar, do‘stlari paydo bo‘ladi. Ularda o‘qishga, ilm egallashga va ma’naviy yuksalishga bo‘lgan intilish keskin susayib, pulga bo‘lgan ehtiyoj ortadi. Oiladagi muammolar bilan qiziqmaydi. Ularning kayfiyati sharoitga bog‘liq bo‘lmagan holatda o‘zgarib, agressiv harakatlari kuchayishi kuzatiladi [8, 9, 10, 11].

Giyohvandlik azob-uqibatli, giyohvand moddalarni yengib bo‘lmas darajadagi qullikdir. Umumta’lim maktablarining o‘quv-tarbiyaviy ish rejalarida shu masalaning aks etishi va doimiy nazorat ostiga olinishi, o‘quvchi-yoshlarni ommaviy sport seksiyalari va musobaqalari, to‘garaklar va madaniy tadbirlarga keng jalb qilishning samarali yo‘llarini qo‘llash, maktab, mahalla, oila hamkorligidan, homiy tashkilotlar va tadbirkorlarning amaliy yordamidan va imkoniyatlaridan keng foydalanib, ularni bu ishga jalb qilish lozimdir. Umumta’lim maktablarida giyohvandlik va narkotik moddalarning zarari to‘g‘risida yozma ishlar olinishi, o‘quvchi yoshlar, o‘qituvchilar o‘rtasida narkodispanser xodimlari bilan hamkorlikdagi davra suxbatlari, munozaralar, seminarlar o‘tkazilishi, kutubxonalar “Giyohvandlik va narkotik moddalar zarari va unga qarshi kurash”ga oid plakatlar, ko‘rgazmali stendlar va narkotik moddalarning zarari to‘g‘risida o‘quvchilarning rasmlar ko‘rgazmasi o‘tkazilishi va boshqa tegishli adabiyotlardan iborat burchaklar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Ta’lim muassasalarida giyohvandlik va narkotik moddalarni iste’mol qilishga “moyil” bo‘lgan o‘quvchi-yoshlarni aniqlash, ularni maktab ichki nazorati hisobiga olish ishlari maktab pedagogik jamoasi, tibbiyot xodimi, maktab psixologining va ota-onalarning o‘zaro hamkorligidagi ishi bo‘lmog‘i kerak. Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyatida o‘quvchilarning xarakteridagi o‘zgarishlari, qiziqishlariga alohida ahamiyat berishlari va befarq bo‘lmasliklari alohida o‘rin tutadi.

Hozirgi vaqtda giyohvandlik shakllanishining sabablari to‘g‘risida ko‘plab nazariyalar (fikrlar) mavjud. Ulardan eng ko‘p tarqalganlarini ko‘rib chiqamiz.

1. *Degenerativ nazariyalar.* Ularda giyohvandlik asosan “ayniyotgan” shaxslarga xos bo‘lgan nuqson shaklida ko‘riladi. Narkotiklarga eng ko‘p o‘rganish psixopatik, infantil yoki ipoxondrik-melanxolik, ba’zan vegetativ-og‘riqli kompleksli (migren) shaxslarda uchraydi. Shuningdek, miyaning organik kasalliklarini boshidan o‘tkazgan, oligofreniya, tutqanoq bilan kasallanganlar unga tezda o‘rganadi. Jinoyat olamida giyohvandlarning ancha miqdori tubanlashgan elementlar va fohishalar orasida, ya’ni biz delinkventlar deb belgilagan shaxslar orasida kuzatiladi. Narkotik moddalar juda qimmat turadi, shuning uchun ularni iste’mol qilishga ruju qo‘yganlar ularni topish uchun har qanday usullarni izlashga majbur bo‘ladilar. Bir qator mualliflar giyohvandlikka moyillik nasldan naslga o‘tadi deb ko‘rsatadilar.

2. *Biologik nazariyalar.* Bolaning u yoki boshqa sabablar ta’siri ostida rivojlanish jarayonida ma’lum miya hosilalari, birinchi navbatda - kishining hissiyotiga javob beruvchi limbik tizimi shikastlanadi degan taxminlar mavjud. Bu shikastlanishlar juda nozik bo‘lib, chamasi, neyronlar (bosh miyasi hujayralari) o‘rtasida muloqot va aloqalar o‘rnatish darajasida, shuningdek neyronlarning o‘z tuzilishlari darajasida sodir bo‘ladi. Bosh miyaning to‘g‘ri rivojlanishi turli sabablar ta’sirida: mexanik shikastlanishlar (miya chayqalishlari), yuqumli kasalliklar, ayniqsa virusli, turli-tuman zaharlanishlar, shu jumladan oziq-ovqatdan og‘ir zaharlanishlar natijasida, shuningdek ruhiy zarbalar natijasida buzilishi mumkin. Hayvonlarda o‘tkazilgan tajribalarda aniqlanishicha, bolalar ota-onasidan ajratib qo‘yilgan hollarda ularda endorfinli retseptorlar

faolligi ortadi, bu esa xavotirlik tuyg‘usi va notinch axloq yuzaga kelishiga olib keladi. Shubhasiz, inson bolalarida ham xuddi shu holat sodir bo‘ladi. Opiy ta’siriga beriluvchan retseptorlarning yuqori faolligi narkotik yoki alkogolning ortiq miqdori bilan muvozanatlashadi, bu esa suiiste’molchilik sababi bo‘lib xizmat qiladi.

3. *Psixodinamik nazariyalar.* Geroin ta’siriga qaramlik va tegishli hayot tarzini kechirish mazkur nazariyalarda shaxsning “Men”ining sekinlashgan rivojlanishga moslashuvi deb ko‘rib chiqiladi. Ruhiyat buzilishlarining xos shakllanishi uchun keskin davr separatsiya-individuallashish bosqichining rivojlanishi hisoblanadi.

“Men” - voqelik tamoyillariga muvofiq ravishda ongsiz intilishlar va uning istaklarini boshqargan holda hayot talablariga moslashish imkonini beruvchi ruhiy tuzilishdir. U butun hayot davomida uzluksiz ravishda, lekin bolalikda - tezroq, chaqaloqlikdan boshlab rivojlanib boradi.

Separatsiya - shaxs rivojlanishining boshlang‘ich davri bo‘lib, unda shaxsning o‘zini tashqi dunyodan ajratib olishi sodir bo‘ladi va atrofdagi obyektlar bilan faol o‘zaro munosabatlar jarayoni boshlanadi.

“Me’yoridan ortiq - Men” - “Men”ga nisbatan sudya yoki senzor rolini o‘ynovchi, axloqiy ong, o‘zini-o‘zi kuzatish va ideallar shakllanishiga javobgar bo‘lgan ruhiy bosqich; ota-onalarning talablari va taqiqlari interiorizatsiyasi natijasida hosil bo‘ladi [3,8, 9, 10].

Bu davrda shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usi, ichki turtkilarni boshqarish va “me’yoridan ortiq Men” funksiyasi rivojlanadi. Agar bola ota-onasidan bir-biriga qarama-qarshi ko‘rsatmalar olsa, unda uning axloqida noaniq cheklashlar va ahamiyatli zotlarga mutelik vujudga keladi. Agar kelgusida ular uning yonida bo‘lmasa, bu jiddiy his-hayajonli yo‘qotishga aylanadi. Bunday vaziyatda bolada aybdorlik tuyg‘usi rivojlanadi, u unga nisbatan muhabbat tuyg‘usi yo‘qolishiga o‘zini sababchi deb biladi. Natijada unda og‘riqli ta’sirga ega bo‘lgan ishonchsizlik, hech kimga keraksizlik va qoniqtirilmagan muhabbatga ehtiyoj tuyg‘usi rivojlanadi. Bu vaqtda unda muhabbatga bog‘lanib qolish va qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyoj darhol sun’iy obyekt - narkotik yordamida qanoatlantirilishi mumkin.

Narkotiklar iste’mol qilishdan qiynalish ushbu ichki nizoni hal etish hisoblanadi. Bunday holda, giyohvand xuddi narkotikka qaram bo‘lib qolgani kabi, unga hamroh bo‘lgan azoblanishga ham qaram bo‘lib qoladi. Giyohvand narkotik iste’mol qilishdan oldin ham, iste’mol qilganidan keyin ham - odamlardan unga bevosita yordam berishlarini so‘rashga layoqatsiz bo‘ladi. U o‘zini rad etilishi qo‘rquvidan himoya qiluvchi manipulyativ axloq vositasida vaziyatni nazorat qiladi. Bunday axloqning maqsadi istakni zudlik bilan qondirish hisoblanadi. Giyohvandlar kelajakka ishonmaydilar, ular uchun boshqalarga nisbatan ishonchsizlik, shuningdek o‘ziga bo‘lgan ishonchning umuman mavjud emasligi xosdir. Umume’tirof etilgan fikrlarga ko‘ra, giyohvandlar hayot quvonchlarini qabul qilmaydilar, ular muvaffaqiyatdan qo‘rqadilar, ularning axloqi destruktiv xulq-atvorda - asossiz tajovuzkorlik yoki suitsidal harakatlarda namoyon bo‘ladi. Aslida esa ularning muvaffaqiyatdan qo‘rqishi bu muvaffaqiyat uzoqqa cho‘zilmasligi, qachondir tugashi va ular yana xuddi bolaligidagidek chidab bo‘lmaydigan og‘riq, ko‘ngil qolishi va boshqa salbiy hissiyotlarni tuyishlari mumkinligi to‘g‘risidagi qo‘rquvga asoslangan bo‘ladi. Shu bois, bu qo‘rquvni yengish uchun giyohvand ongsiz ravishda o‘z muvaffaqiyatini buzishga intiladi. Demak, giyohvandni yana boladek tobelikda bo‘lishiga va majburiyatga ega bo‘lmaslikka urinayotgan shaxs sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Ilk ehtiyojlarini darhol qondirish bilan tavsiflanuvchi bunday inqirozlar ota-onadan ajralish jarayonida ishonch va xavfsizlik muhiti mavjud bo‘lmagan tashvishli erta bolalikning natijasi hisoblanadi. Shunday qilib, narkotiklarga qaramlikni qattiq hayajonda yuzaga kelgan og‘riqni yengillashtirish va bir qancha vaqtga o‘zini boshqarish va ishlash layoqatini oshirishga yo‘naltirilgan adaptiv axloq sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Bir qator tadqiqotchilar, narkotiklar qabul qilish vaqtidagi eyforiya (ko‘tarinki kayfiyat) holatini ta’riflashda uni shahvoniy tabiatga kiritadilar va libidonoz faoliyatining buzilishi ko‘rinishidagi o‘ziga xos farmakogenli orgazm sifatida baholaydilar. Demak, jinsiy munosabatlardan olinadigan lazzat farmakogen tabiatga ega bo‘lgan lazzat ta’siri bilan almashtiriladi. Sevgi obyektlariga boshqa zaruriyat bo‘lmaydi va giyohvand mazkur holatda o‘zining benuqson ekanligini his qiladi, zero, u bilan boshqa hech narsa sodir bo‘lmaydi. Lekin

keyin farmakotimik krizis boshlanadi, undan chiqib ketishning esa uchta yo‘li mavjud: 1) suitsid, bunda bemor uning quvonchi abadiy bo‘ladi deb hisoblaydi; 2) vaqtinchalik remissiyaga qochish; 3) psixoz - ruhiy kasallikning boshlanishi.

4. *Tizimli-yo‘naltirilgan nazariyalar.* Giyohvandilik bu yerda oilaviy yoki boshqa munosabatlar tizimida patologik (nuqsonli) muvozanat natijasi kabi ko‘rib chiqiladi. Shaxsiy munosabatlarda giyohvand hamkoriga undan kuchliroq bo‘lish imkoniyatini beradi. O‘smir giyohvandlar uchun “uydan uzilish” muammosi xosdir. Bu yerda giyohvandlik soxta mustaqillik va soxta individuallashuvni qo‘lga kiritish uchun xizmat qiladi. Bu ota-onalarning o‘ta qat'iy g‘amxo‘r yoki aksincha, ularning to‘liq befarq bo‘lgan holatlarida sodir bo‘ladi. Shunday qilib, ota-onalar tomonidan erta jarohatlanish bolani “salbiy bog‘lanishi”, “xo‘rlanish vahimasi”ga olib keladi. Hatto, u ulg‘ayganda ham, ota-onalari uning uchun avvalgidek ularga tobe bo‘lgan va ulardan uzila olmaydigan o‘ta ahamiyatli shaxslar bo‘lib qoladi, yoxud o‘zini inkor qilishgacha bo‘lgan salbiy e'tibor va baholash obyekti hisoblanadi.

5. *Ijtimoiy nazariyalar.* Mazkur nazariyalar narkotiklarni suiste’mol qilishni jamiyatning disfunksiyalanishi natijasi deb hisoblashadi. Mualliflarning fikricha, odamlar jamiyatdagi bosimdan qochish yoki ularning me’yorlariga qarshi norozilik belgisi sifatida narkotik iste’mol qiladilar. Ushbu nazariya ayrim tarafdorlarining ta’kidlashicha, birorta ham giyohvandni davolash ta’siri ostiga tushirib bo‘lmaydi, chunki u jamiyatni disfunksiyalovchi giyohvandlikning haqiqiy sababiga ta’sir ko‘rsata olmaydi. Ularning ta’kidlashicha, davolash faqatgina o‘z mohiyatiga ko‘ra na kasal, na anomal bo‘lgan odamlarni sharmanda qilishi mumkin. Bu nuqtai nazarni aksariyat amerikaliklar harbiy harakatlar vaqtida geroin iste’mol qilishga qiziqib qolgan Vyetnam urushi faxriylarining normal hayotga qaytishlari bilan hech qanday muammosiz uni iste’mol qilishdan voz kecha olganliklari holati bilan tasdiqlanadi [1,2,5, 6, 12].

Zamonaviy psixologiya narkotiklar iste’mol qilishning bir nechta sababiy darajalarini ajratadi.

Birinchi daraja - ongsiz bo‘lib, tug‘ilish vaqtidagi shikastlanishga aloqador bo‘ladi. Tug‘ilish vaqtidagi jarohat ruhiyatdagi salbiy jarayonlarning aksariyati uchun asos bo‘ladi, chunki oddiy ongli harakatlar yo‘li bilan ulardan qutulish imkoni bo‘lmagani sababli, bu salbiy hissiyotli zararni inson o‘z ichida olib yuradi. Bu darajada shaxsning boshlang‘ich tuzilishi va narkotiklar hamda stimulyatorlarni iste’mol qilishning asosiy qo‘zg‘atuvchi sabablari hosil bo‘ladi.

Ikkinchi daraja - intuitiv, tana xotirasiga asoslanadi. Bizning barcha salbiy hissiyotlarimiz tanamizda bukuvchi mushaklar va rostlovchi mushaklar o‘rtasidagi harakatga turtki beruvchi mushaklar va uni ushlab turuvchi mushaklar o‘rtasidagi kuchlanish ko‘rinishida aks etadi. Bu kuchlanishni iroda kuchi yoki biron-bir shunga o‘xshash kuch bilan yumshatish mumkin emas. Shu vaqtning o‘zida, narkotiklar va stimulyatorlar, tanaga ta’sir ko‘rsatgan va ong holatini o‘zgartirgan holda shunday imkoniyatni beradi.

Uchinchi daraja - ongli, simptomni (alomatni) kuchaytirish shaklida. Qandaydir ichki muammoning hal bo‘lishi uchun inson ongli ravishda go‘yo uning barcha ko‘rinishlarini kuchaytirgan holda o‘zining oxirgi holatiga, bema’nilik darajasigacha yetkazishi mumkin. Bu holda, uning eng oxiriga yetish uchun vaziyatni ataylab keskinlashtirishda va muammo hal bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Boeree C. G Personality Theories. PsychologyDepartment Shippensburg University. 1997
2. Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright © 2005.-550 p.
3. Kamilova N.G‘. Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi: Uslubiy qo‘llanma. – T., 2008.
4. Kleyberg Yu.A. Psixologiya deviantnogo povedeniya: Ucheb. posobie dlya vuzov. – M., 2001.
5. Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – 910 p.
6. Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - R. 553-593.
7. Nelson-Djouns R. Teoriya i praktika konsultirovaniya. SPb.: Piter, 2000. -464 s.
8. Nishanova Z.T., Tulyaganova. Sh.T. O‘smirlik davrida qo‘rquv holatlarining namoyon bo‘lishi: Uslubiy qo‘llanma. – T., 2009.

9. Olimov L.Ya va boshq. Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi. “Buxoro viloyat bosmaxonasi Mchj nashriyoti” Buxoro 2019. B-. 474.
10. Olimov L.Ya. va boshq. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. B:. Buxoro viloyat bosmaxonasi. 2018. – 178 b.
11. To‘laganova G.K. Deviant xulq psixokorreksiyasi. T. 2015.y.
12. Змановская Э.В. Девиантология: (Психология отклоняюшегося поведения): Учеб. пособие для студ. висш. учеб. заведений.- М., 2003. - 288 с.

VOYAGA YETMAGANLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA ULARNING PROFILAKTIKASI

Zarifova Maftuna Rasulbek qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ijtimoiy-psixologik sharoitda voyaga yetmaganlar o‘rtasida deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik mexanizmlari, determinantlari va ularning oldini olish masalalari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida o‘smirlar psixologiyasida kechadigan inqirozlar, emotsional-irodaviy sohadagi o‘zgarishlar va ijtimoiy adaptatsiya muammolari tizimli o‘rganilgan. Maqolada deviant xulq-atvor fenomenining psixologik mohiyati, uning tarkibiy komponentlari, shakllanish bosqichlari va unga ta’sir etuvchi ichki (endogen) hamda tashqi (ekzogen) omillar keng yoritilgan. Shuningdek, voyaga yetmaganlarda sog‘lom ijtimoiy-psixologik xulq-atvorni shakllantirishda motivatsion, kognitiv, emotsional va refleksiv mexanizmlarning ahamiyati ochib berilgan hamda amaliy profilaktika choralari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: voyaga yetmaganlar, deviant xulq-atvor, psixologik mexanizm, o‘smirlik davri inqirozi, emotsional-irodaviy soha, ijtimoiy adaptatsiya, aksentuatsiya, frustratsiya, profilaktika, korreksiya, pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash.

Kirish. XXI asrda shiddat bilan rivojlanayotgan axborotlashgan jamiyatda inson kapitalini rivojlantirish va yosh avlodni sog‘lom psixologik muhitda tarbiyalash davlat siyosatining eng muhim strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va huquqiy barqarorligi bevosita voyaga yetmagan yoshlarning nafaqat jismoniy sog‘lomligi, balki ularning psixologik barqarorligi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy xulq-atvor me’yorlariga moslashish darajasi bilan ham bog‘liqdir.

Bugungi kunda voyaga yetmaganlar psixologiyasida, ayniqsa, o‘smirlik davrida kuzatilayotgan asab-ruhiy zo‘riqishlar, suitsidallik elementlari, agressivlik hamda ijtimoiy normalardan chetga chiqish (deviatsiya) holatlari zamonaviy pedagogik va amaliy psixologiyaning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Statik ma’lumotlar va amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va ijtimoiy salbiy harakatlarning zamirida ko‘p hollarda ularning yosh xususiyatlariga xos bo‘lgan ichki psixologik inqirozlar va ushbu inqirozlarni bartaraf etishga qaratilgan kompensator mexanizmlarning noto‘g‘ri yo‘naltirilganligi yotadi.

Deviant xulq-atvor shunchaki tarbiyasizlik yoki huquqiy ongning pastligi natijasi emas, balki shaxs psixostrukturasi, emotsional-irodaviy sohasi hamda mikromuhit (oila, maktab, tengdoshlar) o‘rtasidagi mutanosiblikning buzilishidan dalolat beruvchi murakkab psixologik jarayondir. Shu sababli, voyaga yetmaganlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ichki psixologik mexanizmlarini chuqur tadqiq etish, ularning profilaktikasi va korreksiyasining samarali tizimini yaratish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. oyaga yetmaganlar psixologiyasi va ularda deviant xulq-atvor shakllanishi muammosi uzoq yillardan buyon jahon va mahalliy psixologiya fanining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. G‘arb va sharq psixologiyasida ushbu fenomen turli deterministik nuqtai nazarlardan o‘rganilgan.
Jumladan, A.Bandura o‘zining ijtimoiy-kognitiv nazariyasida deviant xulq-atvorni atrof-muhitdagi modellarni kuzatish va taqlid qilish orqali o‘zlashtiriladigan ijtimoiy fenomen sifatida

baholaydi. Uning fikricha, o‘smir o‘z mikromuhitida (yoki media makonda) agressiya va zo‘ravonlik modellarini ko‘p kuzatsa, unda ushbu xulq-atvorni legitimlashtirishga qaratilgan kognitiv mexanizmlar ishga tushadi.

L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasiga ko‘ra, voyaga yetmaganlar psixologiyasidagi har qanday og‘ishlar oliy ruhiy funksiyalar rivojlanishidagi ijtimoiy va biologik omillarning nomutanosibligidan kelib chiqadi. Vigotskiy o‘smirlik davrini "ijtimoiy situatsiyaning o‘zgarishi" va shaxs ichki dunyosining qayta qurilishi davri deb hisoblab, undagi inqirozlarni ijtimoiy adaptatsiyaning buzilishi bilan bog‘laydi. Xarakter aksentuatsiyalari va ularning deviant xulq-atvorga ta’sirini o‘rgangan olimlar K.Leonhard va A.E.Lichko o‘smirlardagi xarakter xususiyatlarining haddan tashqari bo‘rtib chiqishi (masalan, gipertimlik, gisteroidlik yoki shizoidlik) muayyan ijtimoiy stressorlar ta’sirida bevosita deviant yoki delinkvent xulq-atvorni keltirib chiqarishini eksperimental isbotlaganlar.

Shuningdek, Z.Freyd va uning izdoshlari (psixodinamik yo‘nalish) deviantlikni ID (ichki instinktlar) va Super-EGO (ijtimoiy taqiqlar) o‘rtasidagi ziddiyat hamda himoya mexanizmlarining (sublimatsiya, regressiya, proeksiya) nosog‘lom ishlashi natijasi deb bilishgan. Zamonaviy tadqiqotchilardan R.Merton o‘zining anomiya nazariyasida ijtimoiy maqsadlar va ularga erishishning qonuniy vositalari o‘rtasidagi tafovut o‘smirlarni innovatsiya (jinoyat) yoki retrogradlik (regressiya) yo‘liga boshlashini ta’kidlaydi.

Muhokama. DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI.

Tadqiqot natijalari va nazariy tahlillar asosida voyaga yetmaganlarda deviant xulq-atvor shakllanishining to‘rtta asosiy psixologik mexanizmini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Motivatsion-ehtiyojli mexanizm. O‘smirlik davrida shaxsning eng muhim ijtimoiy-psixologik ehtiyojlari – o‘zini namoyon qilish, tengdoshlar orasida yetakchi o‘rin egallash va mustaqillikka erishish hisoblanadi. Agar ushbu ehtiyojlar ijtimoiy maqbul faoliyatlar (sport, ilm-fan, san’at) orqali qondirilmasa, muqobil (deviant) yo‘llar faollashadi. O‘smir guruhda o‘z "men"ini tasdiqlash uchun huquqbuzarlik, ichkilikbozlik yoki jamoat tartibini buzish kabi destruktiv yo‘llar bilan diqqat tortishga intiladi.

2. Kognitiv-regulyativ mexanizm. Bu mexanizm o‘smirning axborotni qayta ishlash, vaziyatni baholash va qaror qabul qilish qobiliyati bilan bog‘liq. Deviant yoshlarda ko‘pincha "kognitiv buzilishlar" (cognitive distortions) kuzatiladi. Ular atrofdagilarning neytral harakatlarini ham o‘zlariga nisbatan dushmanlik yoki tahdid deb baholaydilar (giperbolizatsiya). Natijada, ularning javob reaksiyasi mudofaa xarakteridagi agressiya ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, o‘z harakatlarining kelajakdagi oqibatlarini prognoz qilish qobiliyatining pastligi (impulsivlik) kognitiv regulyatsiyaning sustligidan dalolat beradi.

3. Emotsional-irodaviy mexanizm. Emotsional sohadagi beqarorlik, affektiv holatlarga tez tushish, emotsional labillik va emotsiyalarni boshqara olmaslik (aleksitimiya) deviantlikning eng faol mexanizmlaridan biridir. O‘smir ichki stress, xavotir va tushkunlikni irodaviy nazorat qila olmaganligi sababli, emotsional kuchlanishdan xalos bo‘lish (razryadka) uchun tashqi obyeklarga nisbatan destruktiv harakatlar sodir etadi.

4. Refleksiv-baholovchi mexanizml. Refleksiyaning pastligi – o‘smirning o‘z xatti-harakatlariga chetdan baho bera olmasligi, o‘zgalar his-tuyg‘ularini tushunish (empatiya) qobiliyatining rivojlanmaganligidir. O‘z-o‘zini baholashning adekvat emasligi (haddan tashqari yuqori yoki juda pastligi) tashqi muhit bilan doimiy konfliktlarni keltirib chiqaradi.

ILMIY-AMALIY TAVSIYALAR

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

Ilm-fan va axborot texnologiyalari integratsiyasi: O‘smirlarning kompyuter va gadjetlarga bo‘lgan qiziqishini destruktiv o‘yinlar yoki zararli saytlardan foydalanishdan to‘g‘ri tomonga yo‘naltirish. Maktab darsliklarida va tarbiyaviy ishlarda raqamli resurslar, xususan, foydali psixologik testlar va interaktiv platformalarga ulanuvchi QR kodlardan keng foydalanish tizimini rivojlantirish. Erta diagnostika va "Xavf guruhi" bilan ishlash: Ta’lim muassasalarida proektiv metodikalar

(Lüscher rang testi, xarakterologik so‘rovnomalar) yordamida o‘smirlarning psixoemotsional holatini muntazam monitoring qilib borish.
Interaktiv psixologik treninglar: Voyaga yetmaganlarda kognitiv sohani rivojlantirish uchun "Stressni boshqarish", "Empatiyani rivojlantirish", "Konfliktlarni muqobil hal etish" mavzularida tizimli psixologik treninglar o‘tkazish.
Oila-maktab-mahalla hamkorligi modeli: Ota-onalar uchun o‘smirlik davri inqirozlari va ularning farzandlari bilan samarali muloqot o‘rnatish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi "Pozitiv ota-onalik" psixologik kurslarini tashkil etish.

Xulosa. Voyaga yetmaganlar psixologiyasida deviant xulq-atvorning shakllanishi – bu ichki shaxsiy beqarorlik va tashqi ijtimoiy-psixologik dezadaptatsiyaning o‘zaro ziddiyatli ta’siri mahsulidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, og‘ishgan xulq-atvor mexanizmlari negizida o‘smirning emotsional ehtiyojlari qondirilmasligi, kognitiv nazoratning sustligi hamda chuqur ichki frustratsiya yotadi.

Voyaga yetmagan yoshlar bilan olib boriladigan profilaktika ishlari faqatgina ma’muriy yoki jazo choralari bilan cheklanib qolmasdan, balki ularning chuqur psixologik mexanizmlariga ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilishi lozim. O‘smir shaxsini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning refleksiv va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ijodiy-ijtimoiy salohiyatini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi deviant xulq-atvor ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada kamaytirish va ularning jamiyatga ijtimoiy adaptatsiyasini ta’minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. New Jersey: Prentice Hall, 1986.
2. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
3. Lichko A.E. Psixopatii i aksentuasii xaraktera u podrostkov. – Leningrad: Medisina, 1989.
3. Leonhard K. Akzentuierte Persönlichkeiten. – Berlin, 1976.

II-SHO‘BA. YOSHLARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

OILAVIY MUNOSABATLAR, HARBIY XIZMAT VA PSIXOLOGIK ALOQANING XIZMATCHILAR RUHIY SALOMATLIGIGA TA'SIRI

Abdullayev Shoxzod
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti,
magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy munosabatlar va harbiy xizmat o'rtasidagi psixologik aloqaning xizmatchilap ruhiy salomatligiga ta'siri ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilingan. Oila harbiy xizmatchining asosiy psixologik tayanchi ekanligi, oilaviy aloqaning uzilishi yoki zaiflashishi chaqiriluvchi yoshlarda depressiya, tashvish va maladaptiv xulq-atvorga olib kelishi mumkinligi J.Bowlby ilova nazariyasi, A.Maslouning ehtiyojlar piramidasи va zamonaviy harbiy psixologiya tadqiqotlari asosida asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari harbiy xizmat davrida oilaviy aloqani qo'llab-quvvatlashning amaliy yo'llari va ota-onalar hamda juftlar uchun psixologik tayyorgarlik dasturlarining zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: harbiy xizmat psixologiyasi, oilaviy aloqa, ruhiy salomatlik, psixologik tayanch, separatsiya stressi, ilova nazariyasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, moslashuv.

Аннотация: В данной статье на основе теории привязанности Дж. Боулби, пирамиды потребностей А. Маслоу и современных исследований военной психологии научно анализируется влияние психологической связи между семейными отношениями и военной службой на психическое здоровье военнослужащих. Установлено, что семья является ключевой психологической опорой военнослужащего, а ослабление или разрыв семейных связей может привести к депрессии, тревожным расстройствам и дезадаптивному поведению. Предложены практические пути поддержания семейных связей в период военной службы.

Ключевые слова: психология военной службы, семейная связь, психическое здоровье, психологическая поддержка, сепарационный стресс, теория приложения, социальная поддержка, адаптация.

Abstract: This article scientifically analyzes the impact of the psychological connection between family relations and military service on servicemen's mental health, drawing on Bowlby's attachment theory, Maslow's hierarchy of needs, and contemporary military psychology research. It is established that family serves as the primary psychological support for a serviceman, and the weakening or disruption of family ties can lead to depression, anxiety disorders, and maladaptive behavior. Practical approaches for maintaining family connections during military service are proposed, along with recommendations for psychological preparation programs for parents and partners.

Keywords: military service psychology, family connection, mental health, psychological support, separation stress, application theory, social support, adaptation.

KIRISH: Oila - insonning eng asosiy ijtimoiy va hissiy tayanchidir. Psixologiya fanida oilaviy aloqa shaxsning psixologik barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu haqiqat harbiy xizmat sharoitida yanada keskin namoyon bo'ladi: yaqinlaridan uzoqda, qattiq tartib-intizom va mas'uliyat ostida xizmat qilayotgan yosh erkak uchun oilasi bilan bo'lgan psixologik aloqa hayotiy ahamiyat kasb etadi [1]. O'zbekistonda harbiy xizmat muddati davomida minglab yosh erkaklar o'z oilalaridan ajralib, yangi muhitga ko'chib o'tadilar. Milliy statistika ma'lumotlariga ko'ra, harbiy xizmat yoshidagi erkaklar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Bu ajralish - psixologiyada "separatsiya" deb ataluvchi holat - ko'plab xizmatchilarda ruhiy qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilasi bilan mustahkam psixologik aloqasini saqlab qolgan harbiy xizmatchilar stress va ruhiy og'irliklarga nisbatan ancha chidamliroq bo'ladi [2]. Harbiy psixologiya fanining rivojlanish tarixi shuni ko'rsatadiki, xizmatchilapning jangovar samaradorligi ko'p jihatdan ularning ruhiy holatiga, ruhiy holati esa

bevosita oilaviy munosabatlar sifatiga bog'liq. Birinchi va Ikkinchi Jahon urushlarida ham, keyingi mintaqaviy konfliktларда ham mazkur bog'liqlik empirik jihatdan tasdiqlangan [3]. Ushbu tadqiqotning maqsadi - oilaviy munosabatlar bilan harbiy xizmat o'rtasidagi psixologik aloqaning mohiyatini ochib berish, xizmatchilap ruhiy salomatligiga ta'sirini ilmiy-nazariy asosda tahlil qilish va aloqani saqlash hamda mustahkamlash yo'llarini amaliy jihatdan asoslashdan iborat.

Oilaviy aloqaning psixologik ahamiyatini tushunishda ingliz psixiatri Jon Bowlby tomonidan XX asrning 60-yillarida ishlab chiqilgan "ilova nazariyasi" (attachment theory) muhim ahamiyat kasb etadi. Bowlby ta'limotiga ko'ra, inson bolaligi davridanoq yaqin kishilariga nisbatan mustahkam hissiy bog'liqlik (attachment bond) ni shakllantiради. Bu bog'liqlik shaxs hayotining barcha davrlarida shu jumladan, kattalar yoshida ham ruhiy barqarorlikning asosi bo'lib qoladi [4]. Bowlby nazariyasida uchta asosiy ilova turi ajratiladi: xavfsiz ilova (secure attachment), tashvishli ilova (anxious attachment) va qochuvchi ilova (avoidant attachment). Xavfsiz ilova shakllanган shaxslar uzoqlashtiruvchi sharoitlarda ham psixologik barqarorligini saqlab qolish qobiliyatiga ega. Aksincha, tashvishli ilova tipi xos shaxslar separatsiya sharoitida kuchli hissiy inqirozni boshdan kechiradilar [4]. Abraham Maslou ehtiyojlar piramidasida "tegishlilik va muhabbat" ehtiyoji uchinchi, ya'ni asosiy fiziologik va xavfsizlik ehtiyojlaridan so'ng darhol keladigan qatlam sifatida joylashtirilgan. Bu degani: inson o'z yaqinlari bilan hissiy aloqada bo'lmasa, uning yuqori darajadagi ehtiyojlari hurmat va o'z-o'zini ro'yobga chiqarish to'liq qondirilishi mumkin emas. Harbiy xizmat kontekstida bu nazariya ayniqsa muhim: oilasidan uzoqlashgan xizmatchi, agar aloqa yetarli bo'lmasa, asosiy psixologik ehtiyojlaridan mahrum bo'lgan holda og'ir psixologik yuklamalar ostida ishlashga majbur bo'ladi [5]. Zamonaviy tadqiqotchilardan Richard Tedeschi va Lawrence Calhoun "travmadan keyingi o'sish" (post-traumatic growth) nazariyasini ilgari surib, qiyin hayotiy tajribalarning shaxsni ruhiy jihatdan yuksaltirishga xizmat qilishi mumkinligini isbotladilar. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, bu o'sish jarayonida oilaviy qo'llab-quvvatlash hal qiluvchi rol o'ynaydi [6]. Harbiy xizmatga chaqirilish ko'pchilik yoshlar uchun hayotida birinchi marta uzoq muddat oilasidan ajralib qolish tajribasi. Bu holat psixologiyada "separatsiya stressi" (separation stress) nomi bilan tadqiq etilgan bo'lib, u bir necha bosqichda kechadi. Birinchi bosqich "protest" bosqichi: xizmatchi yangi muhitga qarshilik ko'rsatadi, uy va oilaga bo'lgan intilish juda kuchli bo'ladi. Bu bosqichda asabiylashuv, uyqu buzilishi va diqqatning tarqoqligi kuzatiladi. Ikkinchi bosqich "umidsizlik" bosqichi: qarshilik susayadi, lekin o'rnini tushkunlik va passivlik egallaydi. Uchinchi bosqich "moslashuv" bosqichi: xizmatchi yangi muhitga ko'nikadi, lekin bu ko'nikish sog'lom ham, patologik ham bo'lishi mumkin [4]. 2019-yilda Germaniyada o'tkazilgan keng ko'lamli tadqiqotda (n=1240) harbiy xizmatning dastlabki 3 oyida xizmatchilapning 67% da tashvish belgilari, 43% da uyqu buzilishi va 28% da klinik ahamiyatga ega depressiv simptomlar aniqlangan. Mazkur simptomlarning asosiy triggeри sifatida oilaviy ajralish, oilaga bo'lgan xavotir va oilaviy muloqot imkoniyatining cheklanganligi ko'rsatilgan [7]. Separatsiya stressining jismoniy oqibatlari ham ilmiy jihatdan tasdiqlangan: kortizol (stress gormoni) darajasining oshishi, immunitet tizimining zaiflashishi, qon bosimining ko'tarilishi va yurak-qon tomir kasalliklari xavfining ortishi. Bu ma'lumotlar separatsiya stressini faqat psixologik emas, balki biomedik muammo sifatida ham ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi [2]. Oilaviy aloqaning xizmatchilap ruhiyatiga ijobiy ta'siri haqida jahon harbiy psixologiyasida ko'plab empirik tadqiqotlar mavjud. Ushbu tadqiqotlar uchta asosiy yo'nalishda kuchli natijalar bermoqda:

AQSh armiyasining Walter Reed ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 2016-yilda o'tkazilgan tadqiqotda (n=2850) oilasi bilan haftasiga kamida 3 marta muloqot qilgan xizmatchilapning stressga chidamliligi boshqalarga nisbatan 41% yuqori ekanligi aniqlangan. Bundan tashqari, ushbu guruhda ruhiy buzilish tashxisi qo'yilish ehtimoli 2,3 baravar past bo'lgan [3]. Bu raqamlar oilaviy muloqotning tibbiy ahamiyatga ega psixologik himoya omili ekanligini aniq ko'rsatadi. Isroil Mudofaa kuchlari harbiy psixologik xizmati tomonidan 2018-yilda nashr etilgan hisobotda oilasi bilan faol muloqotdagi xizmatchilapning vazifalarni bajarish samaradorligi 29% yuqori, intizomiy qoidabuzarliklar esa 37% kam ekanligi qayd etilgan. Bu aloqa bevosita "askar motivatsiyasi" bilan bog'liq: "oilam uchun" degan his kuchli ichki harakatlantiruvchi omilga

aylanadi [1]. Sog'liqni saqlash tashkilotining 2022-yilgi hisobotiga ko'ra, harbiy xizmatchilapда suitsidal xatti-harakatlar ehtimoli umumiy aholuga nisbatan 1,5 baravar yuqori. Biroq oilaviy qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilgan harbiy qismlarda bu ko'rsatkich 52% ga kamaygan. O'zbek psixologiyasida ham "yaqinlar qo'llab-quvvatlashi" omili shaxsning psixologik xavfsizligini ta'minlovchi asosiy manba sifatida qaraladi [2]. Ijtimoiy psixologiya fanida "ijtimoiy bufer effekti" (social buffering effect) deb ataluvchi hodisa mavjud. Sheldon Cohen va Thomas Willsning klassik tadqiqotlarida (1985) isbotlanishicha, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash stress omillarining salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu hodisa harbiy muhitda ham o'z tasdig'ini topgan: oilasi bilan yaqin aloqadagi xizmatchilap xuddi shu stressli vaziyatga oilaviy aloqasiz xizmatchilarga nisbatan psixologik jihatdan kamroq zarar ko'radi [6]. Harbiy xizmat davri nafaqat xizmatchining o'ziga, balki uning oilasiga ham jiddiy psixologik ta'sir ko'rsatadi. Bu "ikki tomon muammosi" deb atash mumkin bo'lgan holat o'ziga xos tadqiqot yo'nalishi sifatida rivojlanib kelmoqda. Xizmatchining oilasi nuqtai nazaridan: Onalar, otalar va juftlar uzoq muddat xavotirda yashaydi. Amerikalik tadqiqotchi Deborah Gibbs va hammuallif larining 2007-yildagi tadqiqotida harbiy xizmatchilapning turmush o'rtoqlari orasida depressiya ko'rsatkichi 33% ni tashkil etgani, bu esa umumiy populyatsiyadagi ko'rsatkichdan 2 barobar yuqori ekanligi aniqlangan [7]. O'zbekiston sharoitida esa onalar uchun farzandning harbiy xizmatga ketishi kuchli hissiy yuklamaga aylanishi milliy o'ziga xoslik hisobga olinganda yanada yorqin namoyon bo'ladi. Rol ziddiyati muammosi: Harbiy xizmat xizmatchini yangi "askar" identiteti bilan tanishtiradi. Bu yangi identitet ba'zida "o'g'il", "turmush o'rtoq" yoki "ota" kabi oilaviy rollar bilan ziddiyatga kirishishi mumkin. Psixologiyada bu holat "rol konflikti" (role conflict) deb nomlanib, shaxs ichki qarama-qarshilikni hal qila olmay ruhiy qiynalishiga olib keladi [5].Oilaviy qarorlar muammosi: Xizmat davomida oilada muhim qarorlar qabul qilinishi lozim bo'lgan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin uy sotib olish, farzand tarbiyasi, moliyaviy masalalar. Bunday vaziyatlarda xizmatchining yetarli darajada ishtirok eta olmasligi oilaviy munosabatlarga putur yetkazishi va xizmat yakunida munosabatlarni qayta o'rnatishda jiddiy qiyinchilik tug'dirishi mumkin [4]. Harbiy qismlarda xizmatchilarga belgilangan vaqtda oilasi bilan video yoki telefon aloqa qilish imkoniyatini yaratish. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aloqaning tartibliligi muhim: bir haftalik muntazam suhbat tartibsiz, lekin tez-tez bo'ladigan qisqa muloqotlarga nisbatan psixologik samaradorligi 27% yuqori [3]. Bu suhbatlar uchun ma'lum bir kun va vaqtni belgilab qo'yish xizmatchida kutish va tayyorgarlik his-tuyg'usini shakllantirib, ijobiy emotsional holat yaratadi.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, suitsidal xulq-atvorning kelib chiqishi biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro integratsiyasi bilan bog‘liq murakkab jarayon hisoblanadi. Shu bois mazkur muammoni tadqiq etishda kompleks yondashuv asosida yoshlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Yoshlar orasida suitsidal xulq-atvorning ortib borishi zamonaviy jamiyatning eng murakkab ijtimoiy-psixologik muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur hodisa faqat individual psixik buzilish yoki emotsional beqarorlik natijasi emas, balki ijtimoiy munosabatlar tizimidagi transformatsiyalar, oilaviy muhitdagi inqirozli holatlar, axborot makonining destruktiv ta’siri hamda shaxsning stressogen vaziyatlarga moslashuv mexanizmlarining izdan chiqishi bilan chambarchas bog‘liq kompleks fenomen hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida yoshlarning ruhiy jihatdan ta’sirchanligi ortib borayotgani suitsidal xavf omillarining yanada murakkablashuviga sabab bo‘lmoqda.

Tadqiqot tahlillari shuni ko‘rsatadiki, yoshlar orasida suitsidal fikr va harakatlarning shakllanishida oiladagi emotsional sovuqlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi,

tengdoshlar bilan kommunikativ ziddiyatlar, kiberbulling, psixoemotsional stress hamda zararli odatlarga moyillik muhim determinant sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, shaxsning o‘zini anglash jarayonidagi ichki konfliktlar, hayotiy maqsad va qadriyatlarning noaniqligi, umidsizlik va frustratsion holatlar suitsidal xavfning kuchayishiga zamin yaratadi. Demak, suitsidal xulq-atvorni bir yoqlama yondashuv asosida emas, balki biopsixososial konsepsiya doirasida kompleks tahlil qilish zarurati mavjud.

Shuningdek, tadqiqot davomida sog‘lom turmush tarzining suitsidal xulq-atvor profilaktikasidagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslandi. Muntazam jismoniy faollik, sport, ratsional ovqatlanish, mehnat va dam olish muvozanati hamda ma’naviy-ma’rifiy tarbiya yoshlarning emotsional barqarorligini ta’minlovchi muhim preventiv omillar sifatida namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, sog‘lom turmush tarziga asoslangan psixoprofilaktik faoliyat yoshlarning stressga chidamliligini oshirish, ijtimoiy moslashuvini yaxshilash va hayotiy motivatsiyasini shakllantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi.

Mazkur muammoning samarali yechimi oila, ta’lim muassasalari, psixologik xizmat tizimi, sog‘liqni saqlash organlari hamda jamiyatning o‘zaro integratsiyalashgan hamkorligini talab qiladi. Xususan, ta’lim muassasalarida psixologik monitoring tizimini kuchaytirish, stress-menejment va media savodxonlikka oid treninglarni joriy etish, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularda tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish suitsidal xavfni kamaytirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, yoshlar orasida suitsidal xulq-atvorning oldini olish jamiyatning ma’naviy, pedagogik va psixologik salohiyatini birlashtiruvchi uzluksiz profilaktik tizimni shakllantirishni talab etadi. Yoshlarning ruhiy salomatligini muhofaza qilish, ularda ijobiy hayotiy pozitsiyani rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish orqali barkamol, ijtimoiy faol hamda psixologik jihatdan barqaror avlodni tarbiyalash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Émile Durkheim. Suicide — Paris: Félix Alcan, 1897. — 462 p. — B. 125–138.
2. Aaron Beck. “Depression: Clinical, Experimental and Theoretical Aspects”. — New York: Harper & Row Publishers, 1967. — 370 p. — P. 214–228.
3. Hans Selye. “The Stress of Life”. — New York: McGraw-Hill Book Company, 1956. — 324 p. — P. 56–74.
4. E.G‘oziyev. “Umumiy psixologiya”. — Toshkent: O‘qituvchi, 2002. — 512 b. — 286–301-betlar.
5. V.M.Karimova. “Psixologiya”. — Toshkent: Sharq nashriyoti, 2010. — 436 b. — 198–210-betlar.
6. Nishonova Z.T. “Pedagogik psixologiya”. — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2015. — 320 b. — 145–159-betlar.
7. Yo‘ldoshev B.X. “Deviant xulq-atvor psixologiyasi”. — Toshkent: Tafakkur, 2019. — 284 b. — 97–118-betlar.

KOPING VA HIMOYA MEXANIZMLARINING TURLI YOSH DAVRLARDA IFODALANISHI

Qurbanova Shaxloxon Bahodirovna

Ma’mun universiteti, “Psixologiya” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Maqolada boshqaruv xatti-harakati bilan bir qatorda psixologik himoya va muvaffaqiyatli boshqarish xatti-harakatlarini tahlil qilishga harakat qilindi. Shuningdek, psixologik himoya va koping-xatti-harakatlar qiyosiy o‘rganilib, muvaffaqiyatli boshqarish xatti-harakati to‘g’risida nazariy ma’lumotlar keltirildi. Muvaffaqiyatli boshqarish uslublari shakllanayotganda psixologik himoya mexanizmlari ularning o‘rnini egallashi, o‘zini-o‘zi tartibga solish yuqori, ongli nazorat darajasiga ko‘tarilishi haqida ma’lumotlar thlil qilindi.

Kalit so‘zlar: muvaffaqiyatli boshqarish xatti-harakati, muvaffaqiyatli boshqarish uslubi, xatti-harakatlarni nazorat qilish, psixologik himoya, koping va himoya mexanizmlari.

Аннотация. В статье наряду с управленческим поведением была предпринята попытка проанализировать психологическую защиту и успешное управленческое поведение. Также проведено сравнительное изучение психологической защиты и копинг-поведения, представлены теоретические данные об успешном управленческом поведении. Проанализированы данные о том, что при формировании успешных методов управления механизмы психологической защиты заменяют их, саморегуляция поднимается до высокого уровня сознательного контроля.

Ключевые слова: успешное управленческое поведение, успешный стиль управления, контроль поведения, психологическая защита, копинг и защитные механизмы.

Abstract. The article attempted to analyze psychological defense and successful management behaviors alongside managerial behavior. A comparative study of psychological defense and coping behavior was also conducted, and theoretical data on successful management behavior were presented. Data were analyzed indicating that when successful management methods are formed, psychological defense mechanisms take their place, and self-regulation rises to a high level of conscious control.

Keywords: successful management behavior, successful management style, behavior control, psychological defense, coping, and defense mechanisms.

«Koping» tushunchasi psixologiyada uch sohaning kesishmasida yuzaga kelib, shaxsiyat psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va salomatlik psixologiyasi g’oyalari asosida rivojlangan. Taxminan 40 yil davomida «stress-koping» ilmiy paradigmasi doirasida rivojlanib kelgan, ayniqsa xorijiy psixologiyada faol rivojlanmoqda. Rus psixologiyasida ushbu yo‘nalish 1990-yillardan boshlab rivojlanib, «koping» atamasi «muvaffaqiyatli boshqarish» deb tarjima qilingan [1].

Hozirda koping-xatti-harakatlar yoki muvaffaqiyatli boshqarish xatti-harakati subyektga stress yoki murakkab hayotiy vaziyat bilan ongli harakat strategiyalari orqali, shaxsiyat xususiyatlari va vaziyatga mos usullar bilan kurashish imkonini beradigan maqsadli ijtimoiy xatti-harakat sifatida tavsiflanadi. Bu – ongli xatti-harakat bo‘lib, subyektning vaziyat bilan faol o‘zaro aloqasiga qaratilgan bo‘lib, vaziyatni o‘zgartirish yoki unga moslashish sifatida ham tahlil qilinadi [2]. Muvaffaqiyatli boshqarish koping-resurslar asosida va koping-strategiyalar yordamida amalga oshiriladi.

Koping-resurslar – bu stressli vaziyatlarda optimal moslashuvni ta’minlash imkonini beruvchi shaxsiy va ijtimoiy muhitning xususiyatlari to‘plamidir.

Koping-strategiyalar esa shaxsning qabul qilgan tahdidga berayotgan dolzarb javobi hisoblanadi. Koping mexanizmlar odam tomonidan ongli va maqsadli qo‘llanilgani sababli, muvaffaqiyatli boshqarish xatti-harakati shaxsning faoliyat omillari qatoriga kiradi.

Muvaffaqiyatli boshqarish uslubi esa nisbatan barqaror shaxsiy xususiyat bo‘lib, uning faol shakllanishi o‘smirlik davriga to‘g‘ri keladi. Muvaffaqiyatli boshqarishning yagona konsepsiyasi mavjud bo‘lmasdan, insonning murakkab hayotiy vaziyatlarda xatti-harakatini o‘rganishdagi qiyinchilikni aks ettirishi mumkin. Shu bilan birga, empirik tadqiqotlar ma’lumotlari koping muammosining alohida tadqiqot sohasi sifatida mavjudligini tasdiqlaydi. Stressning kognitiv yoki tranzaktsion nazariyasi muallifi R. Lazarus kopingni individning stress ta’sirini yumshatish va moslashish maqsadida sarflagan kognitiv va xatti-harakat kuchlarining yig‘indisi sifatida tushungan[7].

R.Lazarus shuningdek, stress va muvaffaqiyatli boshqarishni tushuntirishda kognitiv baholashning rolini o‘rganib, baholash kopingning birlamchi determinant ekanligini, odam vaziyatni qanday baholasa, shunday tarzda uni boshqarishini bildiradi.

Fiziologik chidamlilik nazariyasiga ko‘ra, stressorni chaqiriq yoki chidamlilik sinovi sifatida qabul qilish, takroriy davriy simpatik faollikning oshishi tufayli organizmning qarshilik ko‘rsatish ko‘rsatkichlarini yaxshilashi mumkinligi, agar stressor tahdid sifatida baholansa, u salbiy his-tuyg‘ularni keltirib chiqarishi bu esa sog‘liq uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi

mumkinligi bildirilgan. Hozirda muvaffaqiyatli boshqarish xatti-harakati dinamik jarayon sifatida qaralib, insonlar qiyinchiliklarga duch kelganda qo‘llaydigan intrapsixik, amaliy yo‘naltirilgan va ijtimoiy strategiyalar bilan bog‘liqligi, maqsad – bezovta qiluvchi vaziyatni o‘zgartirish va jismoniy hamda psixologik farovonlikni yaxshilash ekanligi aniqlashtirilgan.

Koping jarayoni alohida bosqichlar shaklida ifodalanib, dastlab, shaxs ma’lum bir vaziyatni tahdidli yoki ehtiyojlarni qondirishga to‘sqinlik qiluvchi deb tasniflashi, bu esa unga xavotir va stressor bilan kurasha olmaslik tufayli frustratsiya hissini uyg‘otishi, uni mudofaa xatti-harakatlari pozitsiyasini egallashga majbur qilarkan. R. Lazarus bu javobni «shok davri» deb atagan, bunda shaxs kelajak uchun kuch to‘plar ekan. Keyingi bosqich – «himoyaviy tortilish» bosqichi bo‘lib, moslashuvga yordam berishi yoki uni qiyinlashtirishi mumkin ekan. Bu holatda adaptiv xatti-harakatning maqsadi – stressli vaziyatda maqbul va optimal yechim topishidadir. U nafaqat ma’lum bir bezovta qiluvchi vaziyatni yengishga qaratilgan, balki shaxsga munosib muvaffaqiyat va g‘alaba hissini berishi va kelajakda shunga o‘xshash vaziyatlarga tayyorlash imkonini ham berarkan. Bunday xatti-harakat modeli biologik jihatdan mustahkamlangan hisoblanadi [7].

Noadaptiv xatti-harakatlar ham mudofaa vazifasini bajarib, ko‘pincha xavotirni kamaytirmasligi va kelajakda samarali hisoblanmasligi mukin. Noadaptiv koping modellari misoliga muammoni kun sayin kechiktirish yoki uning mavjudligini inkor etish, shuningdek, yanada noadaptiv va hatto buzuvchi usullar, masalan, spirtli ichimlikni iste’mol qilishlarni kiritish mumkin [4].

Koping xatti-harakatlariga ko‘plab klassifikatsiyalar eltirilgan bo‘lib, R. Lazarus va S. Folkmanlar muammoga yo‘naltirilgan koping uslubini ajratishgan. Bunga asosan, shaxs bevosita qiyin, stressli vaziyatga murojaat qilib uni hal qilishi, emotsional yo‘naltirilgan uslubida shaxs stressli vaziyatdan kelib chiqqan his-tuyg‘ularni susaytirishi yoki minimallashtirishga harakat qilishi, ammo vaziyatning o‘ziga murojaat qilmasligi mumkin ekan[7]

Tadqiqotchilardan I.M.Granovskaya va R.M.Nikolskayalar koping-strategiyalarni shartli ravishda uch guruhga ajratishgan:

1. **Xatti-harakatlar** – tashqi va ichki omillar sabab bo‘lgan taranglikni kamaytirishning turli xatti-harakat strategiyalari;
2. **Emotsional qayta ishlash** – taranglik manbasini kamaytirish yoki ijtimoiy yordam izlash maqsadida emotsional bo‘shashish;
3. **Kognitiv strategiyalar** –stress tarangligini subyektiv baholashni o‘zgartirish va shunga mos ravishda vaziyatni nazorat darajasini o‘zgartirish orqali neytrallashtirishga imkon beruvchi strategiyalardir[3].

Kanadalik tadqiqotchilar Pol Kon va Kollen Obren-Vud hamda ularning hamkasblari ta’kidlashich, individual koping uslubi shakllangandan so‘ng, har bir insonda u nisbatan barqaror bo‘lib qolarkan. Biroq alohida strategiyalardan foydalanish xususiyatlari vaziyatga bog‘liq bo‘larkan. Masalan, noaniqlik vaziyatida ko‘proq emotsional va noproduktiv uslublar qo‘llanilib, nisbatan aniq vaziyatlarda esa produktiv uslublar afzal ko‘rilar ekan. Pol Kon moslashuvchanlik (adaptivlik) konsepsiyasini taklif qilib, u koping uslublarining ketma-ketligi sifatida qaralgan. Adaptiv koping uslublaridan izchil foydalanishning muayyan algoritmiga ega bo‘lsa-da, ayni paytda vaziyatga faol moslashib boradigan yetarlicha moslashuvchan tuzilma hisoblanadi [8].

Koping xulq-atvor psixologiyasi subyekt xulq-atvori sifatida tushunishga asoslangan yondashuv sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, muammoni o‘rganishda yangi yo‘nalishni belgilash imkonini bergan.

Tizimli hamda subyekt-faoliyat yondashuvida esa xulq-atvorni nazorat qilish individuallikning integrativ xususiyati sifatida qaraladi va xulq-atvorni psixologik darajada tartibga solish shakli deb tushuniladi. U maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni ta’minlashi, shu faoliyat o‘zini nazorat qilishning (self-control) asosi hisoblanishi tahlil qilingan. Xulq-atvorni nazorat qilishda uchta tarkibiy qism ajratilgan:

-harakatlarni nazorat qilish – xulq-atvoriy namoyonlarni nazorat qilish;

-emotsiyalarni nazorat qilish – emotsional regulyatsiya;

-kognitiv nazorat – faoliyatni kognitiv tahlil qilish, oldindan ko‘ra bilish va rejalashtirish qobiliyati [5].

Aytish mumkinki, nazoratning bir tarkibiy qismi yetishmovchiligi odatda boshqa tarkibiy qismlarning kompensator rivojlanishi bilan uyg‘unlashib, bunda xulq-atvor nazorati tarkibiy qismlarining o‘zaro nisbatlari individual xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim.

Yuqorida qayd etilganidek, koping xulq-atvor uslublarining shakllanishi o‘smirlik davriga to‘g‘ri kelib, bu paytda xulq-atvorni nazorat qilish allaqachon shakllangan bo‘lar ekan.

Erika Fraydenberg tadqiqotiga ko‘ra, produktiv bo‘lmagan koping strategiyalaridan foydalanish cho‘qqisi qizlarda 12–14 yoshga, o‘g‘il bolalarda esa 14–16 yoshga to‘g‘ri kelar ekan. Natijaga ko‘ra, turli yosh davrlariga turli strategiyalar mos kelishini aniqlangan. Jumladan, 12–16 yoshga kelib, ma’naviy va jismoniy faollik kabi strategiyalar deyarli qo‘llanilmas, 15 yoshda esa «mutaxassisga murojaat qilish» strategiyasidan foydalanishda keskin pasayish kuzatilarkan[5].

Psixologik himoya — eng kam anglanadigan daraja bo‘lib, u yetarli darajada anglanmaydigan intilish hamdir. Xulq-atvorni nazorat qilish oraliq darajada joylashgan bo‘lib, u qisman anglanadi va ham anglanmaydigan, ham anglanadigan konkret tuzilmalarga tayangan holda amalga oshar ekan. Koping xulq-atvor esa to‘liq anglanadi va mohiyatan moslashuvning ijtimoiy jihatdan maqbul, ahamiyatli shakli hisoblanarkan. Produktiv koping esa yaxshi moslashgan xulq-atvordir.

Psixologik himoya tushunchasi dastlab psixoanaliz paradigmasi doirasida tavsiflangan psixik hodisa bo‘lib, hozirgi vaqtda ushbu ilmiy konstruktni rivojlantirish bilan nafaqat chuqur psixologiya va psixoterapiya vakillari, balki boshqa yo‘nalishdagi tadqiqotchilarda ham qiziqish uyg’otgan. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, psixologik himoya mexanizmlarining faollashuviga inson uchun jiddiy sinov bo‘ladigan, ma’lum darajada uning ichki resurslaridan ustun keladigan va uning aktual rivojlanish darajasidan tashqariga chiqadigan vaziyatlar turtki bo‘lishi bildiriladi. Psixologik himoya muayyan obyektiv hodisaning o‘zi bilan emas, balki ushbu hodisaning inson uchun subyektiv ahamiyati bilan belgilanib, psixologik himoyaning asosiy vazifasi vaziyatni real hal etish emas, balki psixologik noqulaylikni bartaraf etishdir. Shu ma’noda, himoya faqat aktual vaziyat doirasida faoliyat ko‘rsatiladi, ya’ni u go‘yo ayni vaziyatning «izidan borishi» izohlangan [6].

Xulosa qilib aytish mumkinki, himoya mexanizmlarining ustunligi ko‘proq emotsional yo‘naltirilgan, passiv koping uslublari bilan bog‘liq ekanligini, faol va muammo yechimiga yo‘naltirilgan koping strategiyalari esa shaxsning o‘zini-o‘zi boshqarish, refleksivlik va ixtiyoriy nazorat jarayonlari bilan bevosita aloqadorligini ko‘rsatar ekan. Bu holat o‘z navbatida, shaxsning psixologik moslashuvi samaradorligi ko‘p jihatdan koping uslublarining rivojlanganligi va ongli boshqarilish darajasiga bog‘liqligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari himoya mexanizmlari va koping uslublari o‘rtasidagi nisbat shaxsning stressli vaziyatlarga moslashish usulini belgilab berishini, konstruktiv koping strategiyalarining ustunligi esa shaxsning psixologik barqarorligi, moslashuvchanligi va rivojlanish salohiyatini ta’minlashda yetakchi omil ekanligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Анцыферова Л. И. Личность в трудных жизненных условиях: переосмысление, преобразование жизненных ситуаций и психологическая защита // Психологический журнал. 1996. № 1. С. 3–18.

2. *Крюкова Т. Л.* Психология совладающего поведения. Кострома, 2004

3. Никольская И. М., Грановская Р. М. Психологическая защита у детей. СПб: Речь, 2001.

4. Cooper, Cary L., Cooper, Rachel D., Eaker, Lynn H. Living with Stress – Harmondsworth, UK; London: Penguin Books, 1988.

5. Frydenberg E. Coping competencies: what to teach and when // Theory Into Practice. Wntr, 2004. P. 43–66.

6. Honey K. L., Morgan M., Bennett P. A stress-coping transactional model of low mood following childbirth // Journal of Reproductive and Infant Psychology.2003. № 2. P. 129–143.

SALOMATLIKNI ASRAYDIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNI TA’LIM JARAYONIDA QO‘LLASH

Radjabov R.F. *Urganch innovatsion universiteti.*
“Boshlang‘ich ta’lim va psixologiya” kafedrasi dotsenti.
Rajabboyeva O’ M – *Urganch tuman 8-son umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi*

Annotasiya. *Mazkur maqola umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilariga fan predmetlarini o‘qitishda salomatlikni asraydigan texnologiyalaridan foydalanish-ning o‘ziga xos xususiyatlariga ochib berishga bag‘ishlanadi. Maqolada maktablar ‘quvchilariga sanoat miqyosida qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi zararli qo`shimchalar (konservatlar) haqida tushuncha va bilimlar berish masalalari tahlil qilingan va bu bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni yaxshilashga doir takliflar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar*: ta‘lim, salomatlik , muhit, kasalliklar, shart-sharoitlar, sanitariya-gigiyena, zararli qo‘shimchalar, konservantlar* , belgilanishi, ta’siri, oqibatlri, chora-tadbirlar.

Аннотация. *Данная статья посвящена раскрытию специфических особенностей использования здоровье сберегающих педагогических технологии в преподавании общеобразо-вательных предметов учащимся общеобразовательных средних школ. В статье анализи-руются проблемы обеспечения школьников знаниями о вредных добавках (консерванты) в продуктах питания промышленного производства и предлагаются рекомендации по улучшению работы в этой области.*

Ключевые слова: *образование, здоровье, окружающая среда, болезни, условия, санитария и гигиена, вредные добавки, консерванты, определение, воздействие, последствия, меры.*

Annotation. *This article is devoted to the disclosure of specific features of the use of health-saving pedagogical technologies in teaching general education subjects to students of comprehensive secondary schools.* The article analyzes the areas of using team tasks in teaching subject topics using gamification technologies, the sequence of work performed, the features of assessing and motivating student work, and also presents proposals for improving the work carried out in this regard.

Keywords: *education, health, environment, diseases, conditions, sanitation and hygiene, harmful additives, preservatives, definition, impact, consequences, measures.*

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik omillar salbiy ta’sirida aholining sog‘ligi sekin bo‘lsada pasayayotganligini kuztaish mumkin. Kassaliklarning yosharishi, allergik kasalliklarning ko‘payishi kuzatilmoqda. Bu borada maktab o‘quvchilarining sog‘liqlarini ham yaxshi deb bo‘lmaydi. Bu muammolarni hal qilishda aholida sohlom turmush tarzini va to‘g‘ri ovqatlanishni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan YAngi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi Prezident Farmoni loyihasiga ko‘ra, “To‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzi” umummilliy harakatini yo‘lga qo‘yish taklif etilmoqda. Harakat quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- aholiga smartfon va mobil ilovalar yordamida o‘z sog‘lig‘i va ovqatlanishini nazorat qilishni o‘rgatish, to‘g‘ri ovqatlanish bo‘yicha mobil ilova yaratish;

- bolalarga mo‘ljallangan nosog‘lom oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar, bolalar oziq-ovqat mahsulotlari hamda energetiklar, dori vositalari, biologik faol moddalar reklamasiga talablarni kuchaytirish;

-ta’lim muassasalarida bolalar va yoshlar uchun tavsiya etilmaydigan mahsulotlar, shu jumladan tarkibida shakar, tuz, transyog‘lar miqdori yuqori bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari, ta’m va rang beruvchi qo‘shimchalar ro‘yxatini tasdiqlash va iste’molini kamaytirish;

- mahalliy mahsulotlar turlaridan kelib chiqib, aholining har bir xavf guruhi va kasallik turlari uchun alohida-alohida sog‘lom ovqatlanishga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqish;

- yoshi, tana tuzilishi, turmush tarzi va kasalliklarga moyilligidan kelib chiqib, bolalar, kattalar va keksalar uchun to‘g‘ri ovqatlanish, sog‘lomlashtirish mashqlari va gigiena qoidalari to‘plamini yaratish;

-ish joylarida xodimlarning jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishi va sog‘lom ovqatlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish. [7]

Shunday ekan bu boradagi ishlarni aynan umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan boshlash maqsadga muvofiqligi ko‘rinib turibdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki ko‘plab omillarning o‘sib borayotgan bolalar organizmiga ta’siri tufayli so‘nggi o‘n yilliklarda bolalar salomatligi darajasi, doimiy ravishda pasayib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchining sog‘lig'ini saqlashga yordam beradigan ta’lim-tarbiyani tashkil qilishni taqozo qilmoqda. Dars jarayoniga salomatlikni tejaydigan texnologiyalar kiritilishi bu muammoni echishi mumkin.

Salomatlikni asraydigan pedagogik texnologiyalar - bu ta’lim muassasasida bolalarning sog‘lig'ini saqlash va yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar majmuidir. Ular o‘z ichiga o‘qituvchilar va bolalar uchun xavfsiz o‘quv jarayonini ta’minlaydigan pedagogik, psixologik, tibbiy dasturlar va yondashuvlarni ham oladi. Sog‘liqni saqlash pedagogikasi-ning maqsadi maktab oquvchilarining sog‘ligini muayyan ta’limiy tarbiyaviy ta’sirlar va tadbirlarni qo‘llagan holda ta’minlashdir. Maktablarda haqiqiy salomatlikning yuqori darajasi oquvchilarini zaruriy didaktik materiallar bilan qurollantirish, sog‘likni saqlash uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu ishlarni amalga oshirish natijasida o‘quvchilarni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirishni va uni targ‘ib qilishni , ularda sog‘lom turmush madaniyatini tarbiyalashni nazarda tutadi. Maktabni bitirgach o‘quvchi attestat bilan birga sog‘lom turmush tarziga amal qilishi va buni boshqalarga ham o‘rgatib o‘zining baxtli keljagiga qadam qo‘yadi.

Maktab o‘quvchilarini sog‘lom turmush tarziga ta’lim berish va ularni sog‘lom turmush tarziga tayyorlash ko‘pchilikning maktab o‘quvchilari bilan ishlashdagi asosiy yo‘nalishiga aylanishi kerak. Pedagogik faoliyatning asosiy ishi o‘quvchilarga shaxsiy yo‘naltirilgan yondashuv asosida amalga oshiriladi, bu hayotiy omillarga taalluqlidir, buning natijasida talabalar jamoaviy yashashni o‘rganadilar. [5.43] Agar ta’lim falsafasi “nima uchun o‘qitish kerak?” degan , ta'lim mazmuni - "nima o‘rgatish kerak?" degan, keyin pedagogik texnologiyalar "Qanday qilib o‘rgatish kerak?" degan savolga javob bersa, unda salomatlik nuqtai nazaridan, javob bunday bo‘ladi: ta’lim sub’ektlarining sog‘lig‘iga zarar etkazmaydigan o‘quvchilar va o‘qituvchilar orasidagi pedagogik jarayonni nazarda tutadi. Maktabda salomatlikni tejaydigan texnologiyalarni qo‘llash bugungi davr talabidir. Salomatlikni tejaydigan texnologiyalar quyidagilarga imkon beradi: - bitiruvchining ijtimoiy etukligini shakllantirish; - o‘quvchilarga o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon berish; - o‘quvchilarning fiziologik salomatligini qo‘llab-quvvatlash va saqlash.

Salomatlikni asraydigan texnologiyalar turlari:

Himoya - profilaktika: bolalarni sog‘lig'iga salbiy ta’sirlardan himoya qilishga qaratilgan (sanitariya-gigiyena talablari, tozalik, emlashlar va boshqalar)

Kompensatsion - zararsizlantirish: har qanday salbiy ta'sirni zararsizlantirish uchun ishlatiladi. (jismoniy tarbiya, parhezni mustahkamlash va boshqalar)

Rag‘batlantiruvchi texnologiyalar: bola tanasining o‘z resurslarini faollashtirishga imkon beradi (qattiqlashish, jismoniy faoliyat).

Axborot va ta’lim: masalalarda savodxonlik darajasini ta’minlash uchun mo‘ljallangan salomatlik. Salomatlikni asraydigan ta’lim texnologiyasi quyidagilarga asoslanadi: - bolalarning yosh ususiyatlari, - o‘qitish shakllari va usullarining o‘zgaruvchanligi; - dvigatel va statik yuklarning ptimal kombinatsiyasi, - kichik guruhlarda o‘rganish, - hissiy jihatdan qulay muhit yaratish, - o‘rganish uchun ijobiy motivatsiyani shakllantirish; - talabalar o‘rtasida sog‘liqni saqlash masalalari bo‘yicha bilimlarni rivojlantirish.

Salomatlikni asraydigan pedagogik texnologiyalari:

- Tashkiliy-pedagogik: ular ortiqcha ish, jismoniy harakatsizlik va boshqa dekaptiv holatlarning oldini olishga yordam beradigan o‘quv jarayonining tuzilishini belgilaydi.

- Psixologik-pedagogik texnologiyalar: o‘qituvchining darsdagi faoliyati va dars vaqtida bolalarga ta’siri bilan bog‘liq.

- Tarbiyaviy va tarbiyaviy: o‘quvchilarni sog‘lig'iga to‘g'ri g‘amxo‘rlik qilishni o‘rgatish, ularni sog‘lom turmush tarziga undash, yomon odatlarning oldini olish, ota-onalarni tarbiyalash va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Ta’limdagi salomatlikni asraydigan texnologiyalar - bu, aslida, maktablar, o‘qitish va tarbiyalash jarayonini tashkil etishda ana shu shart-sharoitlar, sog‘lom ta’lim muhitini, sog‘liqni saqlash va mustahkamlash uchun shart-sharoitlarni ta’minlaydigan chora- tadbirlar va tizimli chora-tadbirlar majmuidir. O‘quvchilarda salomatlik va sog‘lom turmush tarzi qadriyatini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Bolalar va o‘smirlarni tarbiyalash va o‘qitish sharoitlari ularning salomatligini shakllantirishga katta hissa qo‘shadi. Gigienik jihatdan to‘liq yashash muhiti ta’lim muassasalarini yaxshilash va sanitariya holati bilan belgilanadi. Har xil turdagi ta’lim muassasalarida maktab infratuzilmasiga qo‘yiladigan gigienik talablar tizimida isitish, shamollatish, suv ta’minoti, kanalizatsiya, gaz yoki elektr plitalari bilan jihozlangan oshxonaning mavjudligi talablari mavjud. To‘liq maktab muhitini yaratishning navbatdagi sharti - sog‘liqni saqlash infratuzilmasi mavjudligi: jismoniy mashqlar bilan davolash uchun sport zalining mavjudligi; tibbiy ofis va jihozlar; stomatologiya kabineti va jihozlari; ovqat xonasi va uning jihozlari; barcha o‘quvchilar uchun yuqori sifatli bepul ovqatlanishni tashkil etishni nazarda tutadi. Mutaxassislarning zarur malakali kadrlari bilan 100% ta’minlash: jismoniy tarbiya o‘qituvchilari; pedagogik psixologlar; nutq terapevtlari; mutaxassis katta hamshira; mutaxassis stomatolog; psixologik-logopedo-tibbiy-pedagogik xizmatning mutaxassis kuratorlarni o‘z ichiga oladi . Maktabning sog‘lig'ini saqlash faoliyati: klinik tekshiruv; profilaktik emlashlar; salomatlik kunlari va haftalari; sport maktablari ta’tillari; hududiy sport musobaqalarida qatnashish; o‘quvchilar bilan salomatlik haqida suhbatlar; ota-onalar bilan salomatlik suhbatlari; vitaminlash; sinf va maktab dizayni "Salomatlik burchaklari" kabi ishlar bilan amalga oshiriladi. Salomatlikni saqlash va mustahkamlashga yordam beradigan an’anaviy ish shakllaridan tashqari, maktabda "maktab kasalliklari" deb ataladigan kasalliklarning oldini olish uchun tuzatuvchi davolash tartiblari va usullaridan foydalanish kerak. "Maktab kasalliklari" ining (yaqinni ko‘ra olmaslik, noto‘g‘ri turish) oldini olish va tuzatish ko‘p jihatdan tabiiy va sun’iy yoritishning gigienik me’yorlariga, maktab mebellarining o‘lchamining o‘quvchining yoshi-antropometrik parametrlariga mos kelishiga bog‘liq. O‘quv yukining kattaligi miyopiya kasalligini ko‘p hollarda rivojlanishiga olib keladi/bu kasallikni oldini olishning o‘ziga xos usullari orasida ko‘zning kuchlanishini bartaraf etish va ko‘zlar uchun maxsus gimnastikadan foydalanish nazarda tutadi. Qomatning qattiq buzilishlarning oldini olish va tuzatish uchun to‘g‘ri holatni shakllantirish va umurtqa pog‘onasining mavjud funktsional buzilishlarini barqarorlashtirish uchun gimnastikadan foydalanish kerak. Qomatni to‘g‘rilash uchun maktabda va uyda fizioterapiya mashqlari, holatni yaxshilashga yordam beradigan o‘yinlar, umumiy mustahkamlovchi massaj o‘tkazilishi kerak. Kuz-bahor davrida maktabda shamollashning oldini olish uchun o‘quvchilar ovqatlanish tarkibini vitaminlarga boy qo‘shimchalar bilan boyitishni amalga oshirish kerak. Fizika fani predmetining termodinamika asoslari bo‘limi mavzularini o‘rganishda o‘quvchilarga “bug‘lanish”, “qaynash”, “kondensatsiya” hodislarini o‘rganishlarida bu jarayonlarning inson salolmatligi uchun qanday axamiyat kasb etishi hayotiy misollar bilan tushuntirio‘tilishi maqsadga muvofiq. O‘quvchilarga nima uchun qaynatilgan suv ichishlarinpig taviya qilinishi va issiq ovqatlar tanavvul qilishlari zarurligi asoslab berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Nima uchun bug‘da pishirilgan oziq – ovqatlarning inson organizmi uchun foydaliligi va qovurilgan taomlarning inson organizmiga og‘irlik tug‘dirishi tushuntirib berilishi yaxshi natijalarga olib keladi. O‘quvchilarning ushbu fan predmetiga qiziqishlarini oshiradi. Texnologiya fanini o‘qitish sog‘likni saqlash tamoyillarini dars mavzulariga, darslardagi turli vazifalarga organik ravishda moslashtirish imkonini beradi. Ularning mazmuni ko‘p vaqtni amaliy ishlarga bag‘ishlaganda, o‘quvchi organizimidagi taranglikni bartaraf etishga, stressni oldini olishga yordam beradi va maktabda o‘quvchilarining

sog‘lom rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Texnologiya fani “Pazandachilik” bo‘limini o‘rganishda o‘quvchilar oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibi, ularning energiya qiymati, insonning oziq-ovqatdan olinadigan energiyaga bo‘lgan ehtiyoji va oziq-ovqat tarkibidagi vitaminlar miqdori bilan tanishadilar. O‘quvchilarni o‘z vaqtida va muvozanatli ovqatlanish zarurligiga jalb qiladi. Maktab o‘quvchilari sog‘lom ovqatlanish talablarini hisobga olgan holda menyu tuzishni o‘rganadilar, uni tayyorlash jarayonida oziq-ovqat bilan sodir bo‘ladigan jarayonlar haqida kerakli ma'lumotlarni oladilar. Ular ovqatlanish madaniyati, shuningdek, asosiy sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish bilan tanishadilar. Darslarda o‘quvchilar taomlar tayyorlanadigan masalliqlarning tarkibi va ulardan taom tayyorlashda foydalanish qoidalari bilan tanishadilar. Ammo so‘nggi ma'lumotlarga ko‘ra, siz kechki ovqatni juda kech qilishingiz mumkin, asosiysi nima yeyishingiz. Proteinlarga ha, uglevodlar yo‘q! Axir, jismoniy faollik + to‘g‘ri ovqatlanish tanamizni har qanday sinovlarga chidamli qiladi va bizning qomatimiz mukammaligini garovidir. Bundan tashqari ushbu jarayonda ota-onalarning maktab pedagogik jamoasi bilan hamkorligi ham muhim o‘rin tutadi. Ota-onalarga ishonib topshirilgan eng muhim vazifa uyda o‘quvchining kundalik rejimiga rioya qilish va sog‘lom muvozanatli ovqatlanishni nazorat qilishlaridir. Umum maktab va sinflardagi yig'ilishlarda o‘qituvchilar ota-onalarni bolalarning sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlashni tashkil etishning asosiy tamoyillari bilan tanishtiradilar. O‘quvchining ovqatlanishi qanchalik to‘g‘ri va muvozanatli bo‘lishiga qarab, uning sog‘lig‘i, ma'naviy kayfiyatlari, mehnat qobiliyati va o‘quv faoliyatining sifati, tananing jismoniy holati kelib chiqadi. “Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi” oid mavzularni o‘rganishda o‘quvchilar pazandalik taomlarini tayyorlash texnologiyasi bilan tanishadilar. Bugun maktab o‘quvchilariga quyidagi yo‘nalishlarda sog‘lom ovqatlanish, sog‘lom turmush tarzi haqida asosiy ma‘lumotlarga e‘tibor qaratilmoqda: - ovqatlanish va salomatlik o‘rtasidagi bog‘liqlik; - muvozanatli ovqatlanishning ahamiyati; - turli xil ovqatlarga bo‘lgan ehtiyoj; - sport bilan shug'ullansangiz, qanday qilib to‘g‘ri ovqatlanish kerak; - yilning turli vaqtlarida nima eyish kerak; - ortiqcha ovqatlanish xavfi haqida; - ovqatlanishning kun tartibiga, parhezga, gigienik qoidalariga rioya qilishning ahamiyati. Shuningdek, o‘quvchilarga bugungi kunda oziq-ovqat mahsulotlarida nitratlar va pestitsidlarning mavjudligi va ular bilan ishlash usullari haqida xabar berilishi, shuningdek, mahsulotlarning saqlash muddati va yangiligini aniqlashga e’tibor qaratish lozim. Bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan uzoq muddat saqlanishi ko‘zda tutilgan oziq-ovqat mahslotlariga tarkibiga jiddiy e’tibor qaratishni zarurligini ko‘rsatmoqda. Chunki uzoq muddat saqlanishga mo‘ljallangan mahsulotlar tarkibiga “E” klassiga kiruvchi qo‘shimchalar qo‘shiladi. Bu to‘g‘rida ishlab chiqaruvchi o‘zining mahsuloti etiketkasida yoki uning o‘ramida, g‘ilofida, idishida, qadog‘ida ushbu mahsulot tarkibiga oid ma’lumot keltiradi. Biroq ushbu mahsulotlar tarkibidagi ushbu qo‘shimchalarga o‘quvchilarning ko‘pchiligi ko‘p ham e’tibor qaratavermaydi. Misol sifatida " Lays " brendi ostida ishlab chiqarilgan chiplar. Uning tarkibidagi E-621 - monosodyum glutamat ozuqa qo‘shimchasi allergik reaktsiyalar keltirib chiqarib bolalarga salbiy ta'sir qilishi aniqlangan.[6] Ushbu zararli qo‘shimchalar (konservantlar) to‘g‘risida o‘quvchilarga to‘liq ma’lumotlar berilishi va ulardan oziq –ovqat mahsulotlarini inson salomatligi uchun qanday xavf – hatarlar mavjudiligidan ularni xabardor qilish maqsadga muvofiq. Ta’lim jarayonida salomatlikni asraydigan pedagogik texnologiyalar qo‘llanishi o‘quvchilarning nafaqat yaxshi bilim olishlariga balkim ularning uzoq yillar sog‘lom turmush kechirishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Базарный В. Ф. Здоровье и развитие ребенка: экспресс-контроль в школе и дома : практическое пособие / В. Ф. Базарный. – М.: АРКТИ, 2005. – 174 с.

2. Isabaeva M.M. Innovatsion ta’lim muhitida sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini tarkib toptirish texnologiyasi. – Zamonaviy ta’lim. 2016. №10. – B.46-51.

3. Коледа, В. А. Основы мониторинга функционального и физического состояния студентов / В. А. Коледа, В. А. Медведев, В. И. Ярмолинский. – Минск : Бел. гос. ун-т, 2005. – 126 с.

4.Mannapova N.Sh. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik asoslari. – Jurnal “Xalq ta’limi” 2018. -№3. B.50-54.

5. Смирнов Н. К. Здоровьесберегающие образовательные технологии в современной школе.- М.: АПК и ПРО, 2002.- 121 с.

6. Цымбаль М.В. др. Содержание опасных пищевых добавок в некоторых продуктах. . – Журналь “Проблемы современного педагогического образования” 2010.

7. https://president.uz/uz/lists/view/5980

BOLALARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONA VA PEDAGOG HAMKORLIGINING AHAMIYATI

Radjapova Dilnura Anvarbekovna
Ma’mun universiteti “Psixologiya” yo’nalishi talabasi
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori. (PhD).dotsent.
Razakova Rayxan Saylaubekovna taqrizi asosida

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ota-ona va pedagog hamkorligining ahamiyati yoritilgan. Sog‘lom turmush tarzining asosiy tarkibiy qismlari, bolalarda sog‘lom odatlarni rivojlantirish usullari hamda oila va ta’lim muassasasining o‘zaro hamkorligi natijasida erishiladigan samaralar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari sog‘lom avlodni tarbiyalashda pedagog va ota-onalarning hamkorlikdagi faoliyati muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, ota-ona, pedagog, hamkorlik, maktabgacha ta’lim, sog‘lom avlod, jismoniy tarbiya, gigiyena, tarbiya.

Аннотация. В данной статье освещается важность сотрудничества родителей и педагога в формировании здорового образа жизни у детей. Проанализированы основные компоненты здорового образа жизни, методы развития здоровых привычек у детей, а также результаты, достигаемые в результате взаимодействия семьи и образовательного учреждения. Результаты исследования показывают, что совместная деятельность педагогов и родителей является важным фактором в воспитании здорового поколения.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, родители, педагог, сотрудничество, дошкольное образование, здоровое поколение, физическая культура, гигиена, воспитание.

Abstract. This article highlights the importance of collaboration between parents and educators in fostering a healthy lifestyle in children. The main components of a healthy lifestyle, methods for developing healthy habits in children, and the results achieved through the interaction between the family and the educational institution are analyzed. The research results demonstrate that the joint activity of educators and parents is an important factor in raising a healthy generation.

Keywords: healthy lifestyle, parents, educator, cooperation, preschool education, healthy generation, physical education, hygiene, upbringing.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlod salomatligini mustahkamlash va ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Sog‘lom turmush tarzi inson salomatligini saqlash, kasalliklarning oldini olish va hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Ayniqsa, bolalik davrida shakllangan odatlar insonning keyingi hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolaning sog‘lom bo‘lib voyaga yetishida oila va ta’lim muassasasining o‘rni beqiyosdir. Ota-onalar farzand tarbiyasining birlamchi subyekti bo‘lsa, pedagoglar ushbu jarayonning ilmiy-pedagogik asosda tashkil etilishini ta’minlaydi. Shu sababli sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ota-ona va pedagog hamkorligi alohida ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ota-ona va pedagog hamkorligining ahamiyatini ochib berish hamda ushbu hamkorlikning samarali shakl va usullarini tahlil qilish.

- ✓ Sog‘lom turmush tarzi tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritish;
- ✓ bolalarda sog‘lom odatlarni shakllantirish omillarini aniqlash;
- ✓ ota-onalarning sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishdagi rolini o‘rganish;

- ✓ pedagoglarning sog‘lomlashtirish faoliyatidagi vazifalarini tahlil qilish;
- ✓ ota-ona va pedagog hamkorligining samarali shakllarini tavsiflash[1].

Sog‘lom turmush tarzi insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligini ta’minlovchi hayot kechirish usuli hisoblanadi. Uning tarkibiga to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik, shaxsiy gigiyena, kun tartibiga rioya qilish va zararli odatlardan voz kechish kiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalari asosan taqlid qilish orqali shakllanadi. Bola ota-onasining kundalik faoliyatini kuzatadi va ulardan o‘rnak oladi.

Agar oilada sog‘lom ovqatlanish, sport bilan shug‘ullanish va gigiyena qoidalariga amal qilish odat tusiga kirgan bo‘lsa, bolada ham ushbu fazilatlar shakllanadi. Pedagoglar esa ta’lim-tarbiya jarayonida sog‘lom turmush tarzining nazariy va amaliy jihatlarini bolalarga singdirib boradilar. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, harakatli o‘yinlar, sog‘lomlashtirish daqiqalari, gigiyena mashqlari va mavzuli suhbatlar bu boradagi samarali vositalar hisoblanadi. Ota-ona va pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlik quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

- ✓ ota-onalar yig‘ilishlari;
- ✓ seminar va treninglar; sport musobaqalari;
- ✓ sog‘lomlashtirish tadbirlari;
- ✓ individual maslahatlar;
- ✓ ochiq mashg‘ulotlar;
- ✓ sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha targ‘ibot ishlari[2].

Bunday hamkorlik natijasida bolalarda sog‘lom odatlar shakllanadi, ularning jismoniy rivojlanishi yaxshilanadi hamda sog‘lig‘ini asrashga bo‘lgan mas’uliyat hissi ortadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish ham ota-onalar bilan hamkorlikni yanada mustahkamlaydi. Turli messenjerlar, elektron platformalar va onlayn uchrashuvlar orqali ota-onalarga tavsiyalar berish, bolalarning rivojlanish natijalari bilan tanishtirish imkoniyati yaratiladi[3].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki: oila va ta’lim muassasasi hamkorligi mavjud bo‘lgan hollarda bolalarda sog‘lom odatlar tezroq shakllanadi;

ota-onalarning pedagogik savodxonligi bolalarning sog‘lom turmush tarziga rioya qilish darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

sport va sog‘lomlashtirish tadbirlarida ota-onalarning ishtiroki bolalarning motivatsiyasini oshiradi;

pedagog va ota-onalarning yagona talab asosida ishlashi tarbiya samaradorligini kuchaytiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bugungi kunda ta’lim va tarbiya jarayonining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Sog‘lom turmush tarzi elementlari – to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik, shaxsiy gigiyena, kun tartibiga rioya qilish hamda salomatlikka ongli munosabatni shakllantirish – avvalo oilada, keyinchalik esa ta’lim muassasasida mustahkamlanib boradi. Shu sababli ushbu jarayonning samaradorligi ota-ona va pedagoglarning o‘zaro hamkorligiga bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqotlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ota-onalar va pedagoglar o‘rtasida muntazam hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan taqdirda bolalarda sog‘lom odatlarning shakllanishi tezlashadi, ularning jismoniy va ruhiy rivojlanish ko‘rsatkichlari yaxshilanadi hamda sog‘lom hayot tarziga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Ayniqsa, sport tadbirlari, sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari, ota-onalar uchun seminar va treninglar, individual suhbatlar hamda oilaviy loyihalar bu borada samarali natija beradi.

Bundan tashqari, ota-onalarning pedagogik madaniyati va sog‘lom turmush tarzi haqidagi bilimlarini oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki bola ko‘proq kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qiladi. Oilada sog‘lom muhit yaratilishi, pedagoglarning esa ushbu jarayonni ilmiy-metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlashi bolada sog‘lom turmush tarziga oid mustahkam ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ota-onalar va pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada takomillashtirish imkonini beradi. Elektron

platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn muloqot vositalari orqali sog‘lom turmush tarziga oid tavsiyalar berish, tajriba almashish hamda bolalarning rivojlanish natijalarini muhokama qilish mumkin.

Umuman olganda, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda oila va ta’lim muassasasining birgalikdagi faoliyati sog‘lom, ma’nan yetuk, jismonan barkamol va ijtimoiy faol avlodni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi. Kelajakda ushbu hamkorlikni yanada rivojlantirish, ota-onalar bilan ishlashning innovatsion shakllarini keng joriy etish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berkinova Ch.I. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uslublari. – Toshkent, 2025.
2. Umarova M. Maktabgacha ta’limda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish. – Toshkent, 2025.
3. Ibragimova D.D., Azimova D.S. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni. – Toshkent, 2025.
4. Sobirova L.B. Bolalarda sog‘lom turmush tarzi va uni shakllantirish xususiyatlari. – Toshkent, 2024.

EKSPERIMENTAL GURUHLARDA ILMIY YOZUV KOMPETENSIYASINING RIVOJLANISH DINAMIKASI

Rahimova Indira Qudrat qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
Tayanch doktoranti
irakhimova123@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada lingvistika va ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish talabalarida ilmiy yozuv kompetensiyasining rivojlanish dinamikasi tahlil qilingan. Tadqiqotda maxsus akademik yozuv dasturining samaradorligi pedagogik eksperiment, testlar va statistik tahlillar asosida baholangan. Natijalar eksperimental guruhda ilmiy matn tuzish, manbalar bilan ishlash, akademik halollik va IMRAD strukturasi bo‘yicha kompetensiyalar sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. Shuningdek, ilmiy yozuvni raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalash va uni boshqa fanlarga tatbiq etish imkoniyatlari yoritilgan.

Tayanch iboralar: ilmiy yozuv kompetensiyasi; akademik yozuv; eksperimental guruh; dinamik rivojlanish; IMRAD formati; plagiat va akademik halollik; raqamli ta’lim texnologiyalari; diagnostik baholash; lingvistik ta’lim; universitet talabalari.

Аннотация. В данной статье анализируется динамика развития компетенции научного письма у студентов лингвистического и социально-гуманитарного направлений. В исследовании эффективность специальной программы академического письма оценивалась на основе педагогического эксперимента, тестов и статистического анализа. Результаты показали, что в экспериментальной группе значительно повысились компетенции по составлению научного текста, работе с источниками, академической честности и структуре IMRAD. Также освещены возможности интеграции научного письма с цифровыми технологиями и его применения в других дисциплинах.

Ключевые слова: компетенция научного письма; академическое письмо; экспериментальная группа; динамическое развитие; Формат IMRAD; плагиат и академическая честность; цифровые образовательные технологии; диагностическая оценка; лингвистическое образование; студенты университетов.

Abstract. This article analyzes the development dynamics of scientific writing competence among students majoring in linguistics and social sciences. In the study, the effectiveness of the special academic writing program was evaluated based on pedagogical experiments, tests, and statistical analysis. The results showed a significant increase in the experimental group's

competencies in scientific text composition, resource management, academic integrity, and the IMRAD structure. The possibilities of integrating scientific writing with digital technologies and its application to other disciplines are also highlighted.

Keywords: scientific writing competence; academic writing; experimental group; dynamic development; IMRAD format; plagiarism and academic integrity; digital educational technologies; diagnostic assessment; linguistic education; university students.

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ilmiy-tadqiqot faoliyati va akademik yozuv madaniyatiga qo‘yilayotgan talablar sezilarli darajada kuchayib, talabalardan ilmiy maqola, tezis va bitiruv ishlarini xalqaro standartlar asosida yozish kutilmoqda. Ilmiy yozuv kompetensiyasi – bu talabaning ilmiy g‘oyani mantiqan asoslangan, tizimli va halol shaklda yozma matn ko‘rinishida ifodalay olish qobiliyati bo‘lib, u nafaqat til ko‘nikmalarini, balki ilmiy tafakkur, axloq va axborot madaniyatini ham qamrab oladi. Xalqaro amaliyotda ilmiy maqolalar uchun IMRAD (Introduction, Methods, Results, and Discussion) formati universal standart sifatida qabul qilingan bo‘lsa-da, bu formatni talabalarga bosqichma-bosqich o‘rgatish bo‘yicha metodik yondashuvlar hali ham izchil takomillashtirilmoqda.

Mavjud tadqiqotlar akademik yozuvni o‘qitish samaradorligi ko‘pincha darslik va nazariy ma’lumotlarga tayyorlanishi, amaliy yozuv faoliyati, keng o‘qish va refleksiv tahlil elementlari esa yetarli darajada integratsiyalashmaganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, plagiatga qarshi kurashish bo‘yicha huquqiy va texnik vositalar joriy etilayotganiga qaramay, talabalarning intellektual halollik tamoyillarini ongli ravishda qabul qilishi va ichkilashtirishi ko‘p jihatdan akademik yozuv darslarining mazmuni va metodikasiga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, eksperimental guruhlarda ilmiy yozuv kompetensiyasining rivojlanish dinamikasini o‘rganish, samarali o‘qitish modelini ishlab chiqish va amaliy tavsiyalar berish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – lingvistika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalardan tashkil topgan eksperimental guruhlarda ilmiy yozuv kompetensiyasining bosqichma-bosqich rivojlanish dinamikasini aniqlash va tahlil qilishdir. Shu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: talabalarning dastlabki (diagnostik) ilmiy yozuv darajasini aniqlash; IMRAD formatiga asoslangan o‘quv moduli va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish; pedagogik eksperimentni o‘tkazish; oraliq va yakuniy baholash natijalarini solishtirish; kompetensiya rivojlanishining sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish.

Metodlar. Tadqiqot kvazi-eksperimental dizayn asosida tashkil etildi; bunda mavjud akademik guruhlar saqlangan holda ulardan eksperimental va nazorat guruhlari sifatida foydalanildi. Kvazi-eksperimental yondashuv real o‘quv jarayonini buzmagan holda yangi metodikani amaliyotga sinov tariqasida tatbiq etish imkonini berdi. Eksperimental guruhlarda ilmiy yozuv bo‘yicha maxsus ishlab chiqilgan, bosqichma-bosqich kompetensiya shakllantirishga qaratilgan o‘quv dasturi joriy etildi. Nazorat guruhlari esa amaldagi, an’anaviy akademik yozuv fani dasturi asosida, ya’ni odatiy ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida ta’lim oldi. Guruhlar ustida ishlashda tashqi omillarni (o‘qitish sohasi, semestr davomiyligi, auditoriya yuklamasi, kreditlar soni va h.k.) imkon qadar tenglashtirishga harakat qilindi, shunda farq asosan o‘qitish metodikasi bilan bog‘liq bo‘lishi ta’minlandi.

Ishtirokchilar. Tadqiqotda filologiya va lingvistika yo‘nalishida tahsil olayotgan 2-kurs talabalari ishtirok etdi, chunki bu bosqichda talabalar akademik yozuv bilan allaqachon tanish bo‘lgan, biroq ilmiy maqola yozish bo‘yicha mukammal kompetensiyani hali to‘liq egallamagan bo‘ladi. Ishtirokchilarni guruhlarga taqsimlashda tasodifiy-tanlab (randomizatsiya elementlari saqlangan holda) yondashuvidan foydalanildi: mavjud akademik guruhlar ro‘yxati shakllantirilib, ichki omillar (jinsi nisbat, oldingi semestr o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, til darajasi) bo‘yicha maksimal muvozanatga erishishga harakat qilindi. Har bir guruhda o‘rtacha bir xil miqdorda talaba bo‘ldi; o‘quv ishlaridan olingan ma’lumotlar asosida GPA (o‘rtacha ball) ko‘rsatkichlari va til kompetensiyasi darajalari (masalan, CEFR bo‘yicha B1–B2 oralig‘i) solishtirildi va jiddiy farqlar

bo‘lmasligiga alohida e’tibor berildi. Shu tariqa, eksperimental va nazorat guruhlarining boshlang‘ich pozitsiyalari imkon qadar bir xil sharoitda bo‘lishi uchun zamin yaratildi.

Diagnostik vositalar. Ilmiy yozuv kompetensiyasi darajasini har tomonlama aniqlash maqsadida bir nechta diagnostik vositalar tizimli ravishda qo‘llanildi.

- Pre-test. Maxsus ishlab chiqilgan yozma test IMRAD strukturasining asosiy bo‘limlari (Kirish, Metodlar, Natijalar, Munozara) mazmuni va funksiyasini tushunish darajasini aniqlashga qaratildi. Test savollari yopiq (variant tanlash), yarim ochiq (qisqa javob) va ochiq (izohlash, taqqoslash) turdagi topshiriqlardan iborat bo‘lib, talabaning nazariy bilimlari bilan birga mantiqiy fikrlashini ham ko‘rsatib berdi.
- Diagnostik esse. Har bir talabaga kichik ilmiy muammo yoki mavzu (masalan, til hodisalarining zamonaviy talqini, nutq madaniyati muammolari, tarjima strategiyalari) bo‘yicha 400–500 so‘zli mini-maqola yozish topshirildi. Bu topshiriq orqali talabalar ilmiy uslubdan foydalanish, fikrni mantiqiy rivojlantirish, manbalarga tayanish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari aniqlashtirildi.
- Talaba portfeli. Kurs davomida talabaning barcha yozma ishlari – konspektlar, qisqa ilmiy sharhlar, referatlar, mini-maqolalar va yakuniy ilmiy ish – elektron yoki qog‘ozli portfel ko‘rinishida jamlandi. Portfel tadqiqot davomida kompetensiyaning dinamik rivojlanishini tahlil qilish imkonini beruvchi asosiy sifat manbai bo‘lib xizmat qildi.

Baholash mezonlari sifatida quyidagi omillar inobatga olindi: matnning strukturaviy yaxlitligi (kirish, asosiy qism, xulosa va ichki bo‘limlar o‘rtasidagi bog‘liqlik), mantiqiy ketma-ketlik (g‘oyalarning izchilligi, argumentlarning logik bog‘lanishi), manbalar bilan ishlash sifati (adabiyotlar sharhi, havolalar aniqligi, bibliografiya talablarga mosligi), stilistik-grammatik aniqlik (imlo va punktuatsiya, ilmiy uslubga mos leksika) hamda akademik halollik (plagiat unsurlarining yo‘qligi, parafraz va tizimli iqtiboslashdan to‘g‘ri foydalanish).

Eksperimental ta’sir mazmuni. Eksperimental guruhlar uchun 1 semestr (taxminan 15–16 hafta)ga mo‘ljallangan “Ilmiy yozuv va IMRAD formati” o‘quv moduli ishlab chiqildi. Modul tarkibida nazariya, amaliy yozuv mashg‘ulotlari va refleksiv tahlil elementlari uyg‘unlashtirildi. Modul asosiy komponentlari:

IMRAD bo‘limlarini tahlil qilish va modellashtirish. Talabalarga turli sohalarda yozilgan ilmiy maqolalardan olingan namunaviy matnlar berilib, har bir bo‘limning funksiyasi, til xususiyatlari, tipik iboralari va strukturaviy elementlari (masalan, muammo bayoni, maqsad, gipoteza, metod tavsifi, natija taqdimoti, cheklovlar, tavsiyalar) ajratib ko‘rsatildi. Shundan so‘ng talabalar o‘zlari uchun “andaza” IMRAD reja-modellarini tuzdilar.

Extensive reading mashg‘ulotlari. Autentik (haqiqiy jurnallarda e’lon qilingan) ilmiy maqolalar ustida keng ko‘lamli o‘qish ishlari olib borildi. Talabalar maqola strukturasi, argumentatsiya ketma-ketligi, jadval va rasmlardan foydalanish uslublarini kuzatib borishdi va o‘zlarining yozuv amaliyotiga transfer qildilar.

Bosqichma-bosqich yozuv (process writing). Yozuv jarayoni bir necha bosqichga ajratildi: g‘oya generatsiyasi va rejalashtirish, draft (qoralama) yozish, revising (mazmuniy tahrir), editing (til va stilistika tahriri), yakuniy variant tayyorlash. Har bir bosqichda o‘qituvchi va tengdoshlar (peer review) tomonidan fikr-mulohazalar berilib, talabalar matnni qayta ishlashni o‘rgandilar.

Iqtiboslash va bibliografiya. Alohida mashg‘ulotlar ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, GOST va boshqa xalqaro uslublar (masalan, APA, Vancouver) bo‘yicha havola va adabiyotlar ro‘yxatini rasmiylashtirishga bag‘ishlandi. Talabalar to‘g‘ri iqtibos (quotation), parafraz (paraphrase) va umumlashtirish (summary) usullarini amalda sinab ko‘rdilar.

Plagiat turlari va oldini olish. Muhokama va keys-stadi (keyslar) asosida plagiatning ochiq va yashirin shakllari, o‘z-o‘ziga plagiat, “copy-paste” amaliyoti, internet manbalaridan ongli foydalanish kabi masalalar ko‘rib chiqildi. Talabalar real hayotdan va ta’lim jarayonidan olingan misollar asosida plagiatning oqibatlari va intellektual halollikning ahamiyatini muhokama qildilar.

Ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish. Ma’lumotlar uch bosqichda yig‘ildi:

1. Dastlabki diagnostika – semestr boshlanishidan oldin pre-test va diagnostik esse o‘tkazildi, boshlang‘ich portfel shakllantirildi.

2. Oraliq baholash – semestr o‘rtalarida (taxminan 7–8-haftalarda) talabalarga qisqa IMRAD tipidagi mini-maqola yozish vazifasi berildi, bunda ayniqsa metodlar va natijalar bo‘limiga e’tibor qaratildi.

3. Yakuniy baholash – semestr oxirida to‘liqroq ilmiy maqola yoki kurs ishi formatida yakuniy yozma ish topshirildi va portfel to‘liq ko‘rinishda tahlil qilindi.

Har bir bosqichda talabalarning yozma ishlari ikki nafar mustaqil ekspert tomonidan ko‘r-ko‘rona (blind review) usulida, ya’ni muallifning shaxsi ko‘rinmaydigan shaklda baholandi. Reyting shkala 5 yoki 10 ballik tizim asosida ishlab chiqilib, har bir mezon (strukturaviylik, mantiq, manbalar, til, halollik) bo‘yicha alohida ball qo‘yildi. Ekspertlar ballari o‘rtacha arifmetik orqali birlashtirildi va ularning o‘rtasidagi farq yuqori bo‘lsa, uchinchi ekspert fikri ham inobatga olindi.

Statistik tahlilda guruhlararo va guruh ichidagi o‘zgarishlar ko‘rsatkichlari solishtirildi (masalan, pre-test va yakuniy test ballari o‘rtasidagi farq, portfel bo‘yicha umumiy reyting balining o‘sish foizi). Sifat jihatdan tahlil qilishda esa kontent-tahlil usuli qo‘llanib, matnlarning strukturaviy o‘zgarishi, argumentatsiya chuqurligi, til uslubining ilmiylashuvi va manbalar bilan ishlash strategiyalari bosqichma-bosqich o‘rganildi.

Etik masalalar. Tadqiqot boshlanishidan avval ishtirokchilar (va zarur hollarda ularning ota-onalari yoki vasiylari)ga tadqiqot maqsadi, jarayon bosqichlari, ma’lumotlar qanday ishlatilishi haqida batafsil ma’lumot berildi va yozma rozilik (informed consent) olindi. Talabalar tajribada ixtiyoriy ishtirok etishlari, istalgan bosqichda hech qanday salbiy oqibatsiz chiqib ketish huquqiga egaligi bilan tanishtirildi. Yozma ishlardagi shaxsiy ma’lumotlar, kurs va guruh raqamlari shifrlanib, tahlil jarayonida faqat kodlar bilan ishlash amaliyoti qo‘llandi. Natijalar faqat ilmiy va metodik maqsadlarda umumlashtirilgan shaklda e’lon qilindi, alohida talabaga tegishli baho va xulosalar sir saqlandi.

Dastlabki diagnostika natijalari. Pre-test natijalari shuni ko‘rsatdiki, eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasida boshlang‘ich bilim darajasi deyarli bir xil bo‘lib, talabalarning katta qismi IMRAD formatining faqat nomlari va umumiy tushunchalarini bilardi, biroq har bir bo‘limning aniq vazifasi, mazmuniy tarkibi va til xususiyatlarini aniq farqlay olmasdi. Iqtiboslash qoidalari va plagiat mohiyati bo‘yicha ham ko‘pchilikda faqat fragmentar, yuzaki tasavvurlar mavjud edi: talabalar ko‘pincha “plagiat”ni faqat to‘liq nusxa ko‘chirish holati sifatida qabul qilib, parafrazdagi noto‘g‘ri foydalanish va manba ko‘rsatmaslik kabi shakllarni yetarlicha anglamasdi. Diagnostik esselar tahlili shuni ko‘rsatdiki, matnlarning aksariyati “referativ” xarakterda bo‘lib, ilmiy uslub elementlaridan cheklangan darajada foydalanilgan, til va uslub aralashuvi (so‘zlashuv unsurlarining aralashib ketishi), argumentatsiya nochorligi va umumiy, stereotip xulosalar ustun edi.

Eksperimental guruhda dinamik o‘zgarishlar. Eksperimental modul joriy etilgach va bir necha hafta davomida IMRAD bo‘yicha bosqichma-bosqich yozuv mashg‘ulotlari o‘tkazilgach, oraliq baholash natijalari talabalarning ilmiy matnni rejalashtirish va strukturaviy ajratish ko‘nikmalari sezilarli yaxshilanganini ko‘rsatdi. Kirish bo‘limida mavzuning dolzarbligini asoslash, adabiyotlar sharhi elementlarini berish, mavjud tadqiqotlar orasidan bo‘shliqni ajratib ko‘rsatish va aniq maqsad hamda vazifalarni formulirovka qilish hollari ko‘paydi. Metodlar qismida tadqiqot dizayni, ishtirokchilar, diagnostik vositalar va tahlil usullarini aniq, mantiqiy va tartibli bayon qilish tendensiyasi kuchaydi. Natijalar bo‘limida dalillarni jadval, rasm va matn ko‘rinishida integratsiyalashish, ularni izohlar bilan boyitish hollari ancha oshdi. Munozara bo‘limida esa oldingi tadqiqotlar natijalari bilan qiyoslash, olingan natijalar cheklovlari va amaliy ahamiyatini ko‘rsatish elementlari paydo bo‘ldi va bosqichma-bosqich murakkablashdi.

Yakuniy baholash natijalari. Semestr yakunida o‘tkazilgan yakuniy baholash natijalari eksperimental guruh talabalari ilmiy yozuv kompetensiyasining deyarli barcha komponentlari bo‘yicha nazorat guruhidan sezilarli ravishda yuqori natija ko‘rsatganini namoyon etdi. Xususan:

– Struktura va mantiqiylik ko‘rsatkichlari bo‘yicha eksperimental guruh ishtirokchilarining aksariyati matnni to‘liq IMRAD talablariga mos, ichki bo‘limlararo mantiqiy bog‘lanishlarni saqlagan holda tashkil eta boshlagan.

– Akademik uslubga rioya qilish nuqtai nazaridan ilmiy terminlardan to‘g‘ri foydalanish, “biz” shaklidan ehtiyotkorlik bilan foydalanish, neytral-ob’ektiv bayon uslubining ustuvorligi aniq ko‘zga tashlangan.

– Iqtiboslash va bibliografiya rasmiylashtirish bo‘yicha ham talabalarning aksariyati GOST talablari asosida to‘g‘ri havolalar qo‘yib, adabiyotlar ro‘yxatini alfavit tartibida, muallif, sarlavha, nashr joyi va yili ko‘rsatilgan holda rasmiylashtira olgan.

– Plagiatdan qochish strategiyalarini qo‘llash – parafraz qilish, umumlashtirish, g‘oyani qayta ishlash va har bir qarz olingan fikr uchun manba ko‘rsatish – yozma ishlarda muntazam ravishda kuzatila boshlagan.

Nazorat guruhida ham vaqt o‘tishi bilan ayrim ko‘nikmalar ma’lum darajada yaxshilangan bo‘lsa-da, ayniqsa strukturaviy tashkil etish, argumentatsiya chuqurligi, manbalar bilan ishlash madaniyati va akademik halollik bo‘yicha eksperimental guruh natijalari bilan solishtirganda aniq farq saqlanib qolgan.

Sifat tahlili natijalari. Portfel tahlili eksperimental guruh talabalari yozma ishlaridagi o‘sish dinamikasini aniq ko‘rsatib berdi. Tadqiqot boshida talabalarning ko‘p matnlari reproduktiv – ya’ni mavjud matnlarni qayta hikoya qilish, faktlarni ketma-ket sanab o‘tish, o‘z fikrini minimal darajada ifodalash – xarakterda bo‘lsa, semestr oxiriga kelib, matnlar asta-sekin muammoli, tahliliy va refleksiv tus ola boshladi. Talabalar ilmiy muammoni mustaqil shakllantirishga, turli manbalar orasida solishtirish va umumlashtirishga, o‘z pozitsiyasini asoslashga ko‘proq intila boshladilar. Yozuv jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish ularning matn ustida qayta ishlov berish (revising) va tahrir (editing) bosqichlarini ongli ravishda amalga oshirishiga olib keldi; natijada grammatik va stilistik xatolar soni kamaydi, iboralarning aniqligi va izchilligi oshdi. Bundan tashqari, plagiat bilan bog‘liq buzilishlar – manba ko‘rsatmasdan ko‘chirish, iqtiboslarni noto‘g‘ri berish, internet matnlarini “copy-paste” qilish – sezilarli ravishda kamaygani, talabalarning mustaqil fikr bildirishga intilishi, shaxsiy yozuv uslubini shakllantirishga urinishlari ortgani qayd etildi.

Nazorat guruhi natijalari. Nazorat guruhida an’anaviy darslar natijasida umumiy yozuv ko‘nikmalarida ma’lum ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi: grammatik xatolarning bir qismi tuzatilishi, umumiy savodxonlikning biroz oshishi, matn uzunligi va mazmuniy qamrovning kengayishi shular jumlasidandir. Biroq bu o‘zgarishlar, asosan, til va grammatika sathida bo‘lib, ilmiy matnni strukturaviy tashkil etish, chuqur argumentatsiya, manbalar bilan tanqidiy ishlash va plagiatdan ongli ravishda qochish borasida sezilarli sakrash kuzatilmadi. Ko‘plab talabalarda Kirish bo‘limi haddan tashqari umumiy, Metodlar qisqa va yetarli asoslanmagan, Natijalar faktlarni mexanik sanash bilan cheklangan, Munozara esa qisqa, umumlashtiruvchi xulosalar bilan yakunlanganligi ko‘rindi. Bu holat ilmiy yozuvni maqsadli, tizimli va kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi: oddiy dars va topshiriqlar talabalarda zamonaviy ilmiy yozuv talablari darajasidagi kompetensiyani shakllantirish uchun yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Munozara. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, eksperimental sharoitda maxsus ishlab chiqilgan akademik yozuv moduli talabalarning ilmiy yozuv kompetensiyasini faqat miqdoriy jihatdan emas, balki sifat jihatidan ham yangi bosqichga ko‘tarish imkonini beradi. IMRAD formatiga asoslangan bosqichma-bosqich yozuv faoliyati, jarayonli yozuv (process writing) yondashuvi va autentik ilmiy matnlar bilan muntazam ishlash talabalarning ilmiy tafakkuri, strukturaviy fikrlashi, mantiqiy argumentatsiya va manbalar bilan ishlash madaniyatini kompleks ravishda shakllantirdi. Mazkur natijalar akademik yozuvni faqat grammatik me’yorlar yoki uslubiy qoidalar majmuasi sifatida emas, balki ilmiy fikrni tashkil etish va ifodalashning murakkab kognitiv-kommunikativ faoliyati sifatida o‘qitish zarurligini tasdiqlaydi.

Tajriba shuni ko‘rsatdiki, IMRAD formati talabalarga ilmiy matnni rejalashtirish va strukturalashtirishda qulay “skelet” vazifasini bajaradi. Kirishda mavzuning dolzarbligini asoslash, adabiyotlar sharhida ilmiy bo‘shliqni aniqlash, metodlar bo‘limida tadqiqot dizaynini aniq bayon qilish, natijalarda dalillarni tartibli taqdim etish va munozarada natijalarni keng ilmiy kontekstga joylashtirish ko‘nikmalari shakllanib borgani sari talabalarning ilmiy matnlari yaxlit va ishontiruvchi tus oldi. Bu holat ilmiy yozuvni o‘qitishda strukturaviy andazalar (templates) va

model matnlardan ongli foydalanish nafaqat shaklga, balki mazmunga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan darslar tadqiqotning muhim komponenti bo‘lib, ular talabalarning motivatsiyasi va mas’uliyatini sezilarli darajada oshirdi. Onlayn jurnal bazalaridan foydalanish talabalarga haqiqiy ilmiy diskursga ulanib, zamonaviy maqolalar tili, uslubi va strukturasini bevosita kuzatish imkonini berdi. Plagiatni aniqlash dasturlarini ko‘rsatma tariqasida qo‘llash esa plagiatni faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki aniq tekshiruv vositasi orqali ko‘ra olish, o‘z matni va manba matni o‘rtasidagi o‘xshashliklarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Elektron portfel yuritish, fayllarni versiyalar bo‘yicha saqlash va onlayn fikr-mulohaza olish talabalarning o‘z ishiga bo‘lgan egalik hissini kuchaytirib, refleksiv yondashuvni rag‘batlantirdi.

Bu omillar jamlanib, akademik halollik tamoyillarini ichkilashtirish va plagiatning oldini olish bo‘yicha samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ldi. Talabalar plagiatga qarshi kurashishning markazida jazodan qo‘rquv emas, balki intellektual halollik, ilmiy hamjamiyat me’yorlarini hurmat qilish va o‘z fikrini mustaqil shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoj turishini amalda anglay boshladilar. Shu ma’noda, akademik yozuv moduli axloqiy-kasbiy kompetensiyalarni ham rivojlantiruvchi vosita sifatida qaralishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati juda keng: eksperimental guruhda sinovdan o‘tkazilgan o‘quv moduli, baholash mezonlari va diagnostik vositalar til va adabiyot, tarjima, jurnalistika, xalqaro aloqalar kabi gumanitar sohalar bilan bir qatorda, farmatsiya, tibbiyot, biologiya kabi tabiiy va tibbiy yo‘nalishlardagi talabalar uchun ham moslashtirilgan holda qo‘llanishi mumkin. Chunki ilmiy yozuvning asosiy tamoyillari – muammoni aniqlash, maqsad qo‘yish, metodni tavsiflash, natijani taqdim etish va tahlil qilish – barcha fanlar uchun umumiy bo‘lib, faqat terminologiya va misollar sohaga qarab farqlanadi. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi va ilmiy maqolalarni yozish bo‘yicha yagona standartlar, mezonlar va metodik tavsiyalarni ishlab chiqishda mazkur tajriba tayanch sifatida xizmat qilishi mumkin.

Xulosa

Eksperimental guruhlarda ilmiy yozuv kompetensiyasining rivojlanish dinamikasi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari maxsus ishlab chiqilgan o‘quv moduli va zamonaviy metodik yondashuvlar talabalarning ilmiy yozuv madaniyatini samarali rivojlantirishini yaqqol ko‘rsatdi. IMRAD formatiga asoslangan strukturaviy yondashuv, jarayonli yozuv, autentik matnlar bilan ishlash, raqamli texnologiyalar va akademik halollik tamoyillarini integratsiyalashgan holda o‘qitish talabalar uchun ilmiy matn yaratishning barcha bosqichlarini – g‘oya generatsiyasi, rejalashtirish, yozish, tahrir qilish va refleksiya – ni ongli ravishda egallashga yordam berdi. Natijada, talabalarning ilmiy matnlari nafaqat shakl jihatidan standartlarga yaqinlashdi, balki mazmun va argumentatsiya nuqtai nazaridan ham ancha yetuklashdi.

Oliy ta’lim muassasalari uchun bir qator amaliy tavsiyalar ilgari surish mumkin. Birinchidan, ilmiy yozuvni barcha bakalavriat yo‘nalishlari uchun alohida o‘quv moduli yoki integratsiyalashgan fanlar majmuasi sifatida joriy etish, uni faqat bitta semestr bilan cheklab qo‘ymasdan, bosqichma-bosqich murakkablashadigan vertikal tizim sifatida qurish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, baholash mezonlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqish, aniq indikatorlar (strukturaviylik, mantiq, manbalar bilan ishlash, uslub, halollik) bo‘yicha reyting tizimini joriy etish va bu mezonlarni talabalarga ochiq, tushunarli tarzda yetkazish zarur. Uchinchidan, o‘qituvchilarni IMRAD formati, raqamli adabiyot bazalari, plagiatni aniqlash texnologiyalari va akademik halollik metodikasi bo‘yicha muntazam malaka oshirish kurslari va seminarlarida tayyorlab borish ilmiy yozuvni o‘qitish sifatini tubdan oshiradi.

Talabalar portfeli va refleksiv yozuv amaliyotini tizimli yo‘lga qo‘yish ham muhim ahamiyatga ega. Portfel yordamida o‘qituvchi va talaba kompetensiya rivojlanish dinamikasini real vaqtda monitoring qiladi, kuchli va zaif tomonlarni aniqlab, individual ta’lim trayektoriyasini loyihalashi mumkin. Refleksiv yozuv – ya’ni talabaning o‘z yozuv jarayoni, qiyinchiliklari va erishilgan yutuqlar haqida yozma tahlil yuritishi – metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirib, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z ustida ishlash madaniyatini shakllantiradi. Mazkur tadqiqotdan

olingan darslar va tavsiyalar amalga oshirilsa, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida talabalarning ilmiy yozuv kompetensiyasi, demakki, ularning ilmiy va kasbiy raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro’yhati:

1. Axmedova N. Akademik yozuv va plagiat: ilmiy madaniyatning zamonaviy talablari // Oliy ta’lim va jamiyat. – Toshkent, 2023. – T. 5, №2. – B. 45–53.
2. Jo‘rayev Sh. Ilmiy maqola yozishning metodik asoslari: IMRAD formatini o‘qitish tajribasi // Pedagogik ta’lim. – Toshkent, 2022. – №4. – B. 30–38.
3. Xolmatova M. Oliy ta’limda akademik yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali yo‘llari // Zamonaviy ta’lim. – Toshkent, 2021. – №3. – B. 72–79.
4. Karimova D. Raqamli texnologiyalar sharoitida akademik yozuv: an’anaviy va innovatsion yondashuvlar uyg‘unligi // Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent, 2023. – №1. – B. 55–64.
5. Rasulova Z. Ilmiy matn strukturasi va IMRAD modeli: filologiya talabalari misolida // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2020. – №2. – B. 90–98.
6. Usmonov A. Oliy ta’limda plagiat muammosi va uni oldini olish mexanizmlari // Ilmiy axloq va ta’lim. – Toshkent, 2022. – №1. – B. 15–24.
7. Ismoilova G. Talabalarda ilmiy yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda portfel texnologiyasining o‘rni // O‘qituvchi va zamon. – Toshkent, 2021. – №5. – B. 60–68.
8. Qodirova M. Lingvistik yo‘nalish talabalari uchun “Akademik yozuv” fanini loyihalash va baholash mezonlari // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2023. – №2. – B. 40–49.
9. Raxmonov B. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi va akademik yozuv: metodik qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 156 b.
10. Tursunova N. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda yozma ishlardan foydalanish // Oliy ta’lim muammolari. – Toshkent, 2020. – №4. – B. 25–32.
11. Yusupova D. Farmatsiya yo‘nalishi talabalarida ilmiy yozuv kompetensiyasini shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari // Tibbiyot va farmatsiya ta’limi. – Toshkent, 2022. – №2. – B. 88–95.
12. G‘ulomova L. Ilmiy stilistika va akademik diskurs: oliy ta’lim uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2021. – 220 b.
13. Shermatova S. Talabalarda iqtiboslash madaniyatini shakllantirishning metodik asoslari // Filologiya va ta’lim. – Toshkent, 2023. – №1. – B. 51–59.
14. Eshboev O. Ilmiy maqolalar strukturasi va IMRAD talablari: amaliy tavsiyalar // Ilmiy izlanishlar jurnali. – Toshkent, 2024. – №2. – B. 10–19.
15. Nazarova F. Raqamli ta’lim muhitida akademik halollikni ta’minlash: tajriba va muammolar // Ta’limda raqamli transformatsiya. – Toshkent, 2023. – №3. – B. 33–41.

RAQAMLI MUHIT SHAROITIDA O‘SMIRLARDA SOG‘LOM HAYOT QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Rajabboyeva Aziza Davronbekovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti,
psixologiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli muhit transformatsiyasi sharoitida o‘smir yoshdagi shaxslarda sog‘lom turmush tarzi qadriyatlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan. Virtual makonning o‘smirlar jismoniy faolligi, sirkad ritmlari hamda psixofizik salomatligiga ko‘rsatayotgan tizimli ta’siri neyropsixologik prinsiplar asosida tahlil qilingan. Raqamli addiksiya va gipodinamiyaning oldini olishda o‘smirlarning ichki psixologik immuniteti hamda o‘z-o‘zini regulyatsiya qilish tizimini mustahkamlash mexanizmlari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: virtual makon, o‘smirlik davri, sog‘lom turmush tarzi, psixogigiyena, raqamli addiksiya, neyron barqarorligi, o‘z-o‘zini regulyatsiya qilish.

Аннотация.В данной статье исследуются психологические особенности формирования ценностей здорового образа жизни у подростков в условиях трансформации цифровой среды. На основе нейропсихологических принципов проанализировано системное влияние виртуального пространства на физическую активность, циркадные ритмы и психофизическое здоровье подростков. Научно обоснованы механизмы укрепления внутреннего психологического иммунитета и системы саморегуляции подростков в целях профилактики цифровой аддикции и гиподинамии.

Ключевые слова: виртуальное пространство, подростковый период, здоровый образ жизни, психогигиена, цифровая аддикция, нейронная устойчивость, саморегуляция.

Abstract. This article explores the psychological features of shaping healthy lifestyle values among adolescents in the context of digital environment transformation. The systemic impact of virtual space on adolescents' physical activity, circadian rhythms, and psychophysical health is analyzed based on neuropsychological principles. Furthermore, the mechanisms for strengthening the internal psychological immunity and self-regulation system of adolescents are scientifically substantiated to prevent digital addiction and hypodynamia.

Keywords: virtual space, adolescence, healthy lifestyle, psychohygiene, digital addiction, neuronal stability, self-regulation.

Zamonaviy sivilizatsiyaning texnologik va global axborotlashuv bosqichiga o‘tishi natijasida yosh avlod rivojlanayotgan ijtimoiy muhit arxitekturasi tubdan yangilandi. Ilgari shaxs qadriyatlarini shakllantiruvchi klassik omillar (oila, maktab va tengdoshlar) tizimi endilikda o‘z o‘rnini ko‘p funksiyali virtual platformalarga bo‘shatib bermoqda [5]. Raqamli makon shunchaki texnik vosita bo‘lishdan to‘xtab, o‘smir shaxsining dunyoqarashini, biologik va ijtimoiy ehtiyojlarini hamda sog‘lom hayotga bo‘lgan munosabatini belgilab beruvchi sun’iy ekotizim sifatida namoyon bo‘lyapti [7]. O‘smirlik davrining o‘ziga xos anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatlari, ya’ni emotsional beqarorlik, o‘zini namoyon qilishga bo‘lgan kuchli intilish va mustaqillik talabi ushbu yosh guruhini raqamli muhitning ham ijobiy, ham destruktiv ta’sirlariga nisbatan o‘ta ta’sirchan qilib qo‘yadi [2]. Shu sababli, virtual reallik sharoitida o‘smirlarning jismoniy va psixik salomatligini muhofaza qilish, ularda muvozanatlashgan hayotiy qadriyatlarni tarkib toptirish bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir.

O‘smir shaxsining shakllanishida jismoniy salomatlik va faollik komponenti yetakchi o‘rin tutadi. Biroq, zamonaviy kiber-muhit o‘smirlarni uzoq vaqt davomida monitor qarshisida harakatsiz o‘tirishga moslashtirmoqda, bu esa gipodinamiyani keltirib chiqarmoqda va yosh organizmning somatik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda [4]. Neyrobiologik nuqtai nazardan baholanganda, tungi vaqtlarda gadjetlardan me’yorsiz foydalanish o‘smir miyasida melatonin gormoni ishlab chiqilishini tormozlaydi, natijada sirkad ritmlar (uyqu va uyg‘oqlik muvozanati) buziladi. Surunkali uyqusizlik va neyron charchog‘i o‘smiring kognitiv funksiyalarini susaytirib, darslarni o‘zlashtirish samarasini pasaytiradi va umumiy psixofizik zaxirasini kamaytiradi. Bixevioristik nuqtai nazardan, ijtimoiy tarmoqlardagi vizual kontentlar o‘smirda o‘z tanasining tashqi qiyofasidan norozilik hissining (dismorfofobiya) chuqurlashishiga va noto‘g‘ri ovqatlanish xulq-atvorining shakllanishiga zamin yaratadi [1].Kognitiv va intellektual salomatlik doirasida raqamli makon o‘smir fikrlash tizimining transformatsiyasini tezlashtirmoqda. Ma’lumotlarning tugmasiz, qisqa va vizual kliplar shaklida uzatilishi o‘smir miyasini tayyor va yuzaki axborotlarni qabul qilishga o‘rgatib qo‘yadi [4]. Natijada muammolarni chuqur tahliliy o‘rganish, mantiqiy xulosalar yasash va diqqatni uzoq muddat barqaror ushlab turish layoqati pasayadi. Shu bilan birga, virtual olamdagi doimiy "ko‘p vazifalilik" (multitasking) holati o‘smir kognitiv sferasini o‘ta zo‘riqtirib, asab tizimining erta toliqishiga va emotsional apatiyaga sabab bo‘ladi [6]. Sog‘lom hayot qadriyati o‘smirda aynan mana shu axborot oqimini saralash, "intellektual gigiyena" qoidalariga rioya qilish kompetensiyasini shakllantirishni talab etadi.

Emotsional va sotsial sferada real muloqotning kamayishi o‘smirlarda o‘ziga xos sotsial va emotsional intellekt defitsitini vujudga keltirmoqda. Monitor ortidagi muloqotda insoniy munosabatlarning tabiiy tarkibiy qismlari - jonli nigoh, ovoz ohangi va tana tili ishtirok etmaydi

[3]. Bu holat o‘smirlarda boshqalar emotsiyasini to‘g‘ri o‘qish va hamdardlik (empatiya) ko‘nikmalarining to‘liq shakllanmay qolishiga olib keladi.Virtual dunyodagi anonimlik va masofaviylik hissi o‘smirlar orasida agressiyaning oson ko‘rinishi bo‘lgan kiberbulling, trolling va virtual ta’qib kabi ijtimoiy xavfli tendensiyalarni stimulyatsiya qiladi. Iroda sferasida esa, kompyuter o‘yinlari va ijtimoiy tarmoqlar taklif etadigan "lahzalik zavqlanish" (instant gratification) effekti o‘smirni real hayotgai qiyinchiliklarni sabr bilan yengish, mehnat qilish va uzoq muddatli maqsadlar sari intilish motivatsiyasidan mahrum qiladi [1]. Darhol zavq olishga o‘rgangan neyron zanjirlari real hayotning mehnat talab qiluvchi jarayonlariga dosh berolmay, raqamli addiksiyalarni (qaramlikni) keltirib chiqaradi.Lekin, zamonaviy raqamli makonni faqatgina patogen omillar majmuasi deb baholash noto‘g‘ri ilmiy xulosa bo‘lur edi. Mazkur muhit to‘g‘ri yo‘naltirilganda o‘smir rivojlanishi uchun kuchli intellektual va ijtimoiy resurs vazifasini ham bajarishi mumkin [2]. Virtual platformalar o‘smirga dunyo miqyosidagi ilmiy bilimlarni egallash, ta’limiy dasturlar orqali kognitiv adaptivlikni oshirish va o‘z ijodiy (kreativ) salohiyatini namoyish etish uchun cheksiz imkoniyatlar beradi. Bu o‘rinda asosiy psixologik muammo texnologiyada emas, balki o‘smir shaxsida ushbu texnik vositalardan foydalanish madaniyati va ichki regulyatsiya (o‘z-o‘zini boshqarish) mexanizmlarining qay darajada barqaror ekanligidadir [6]. Virtual faollik bilan sog‘lom, real hayotiy harakatlar o‘rtasidagi optimal balansni saqlay olish kompetensiyasi bugungi o‘smir shaxsining yetakchi hayotiy ko‘nikmasiga aylanishi lozim.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, raqamli makon zamonaviy o‘smirlarda sog‘lom turmush tarzi qadriyatlarini shakllantirish va ijtimoiylashuv jarayonida destruktiv-regressiv yoki progressiv-rivojlantiruvchi kuch sifatida qatnashishi mumkin. Raqamli olamning o‘smir psixofizik salomatligiga ko‘rsatadigan xavflarini kamaytirish va uning ijobiy resurslaridan samarali foydalanish uchun ta’lim muassasalari va oilaviy tizimda kiberpsixologik profilaktika chora-tadbirlarini va "raqamli parhez" (digital detox) madaniyatini tizimli joriy etish zarur. Faqatgina o‘smir shaxsining ichki psixologik barqarorligini, irodaviy va o‘z-o‘zini regulyatsiya qilish tizimini chiniqtirish orqali uning raqamli tahdidlarga nisbatan shaxsiy daxlsizligini va har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib kamol topishini ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bandura, A. (2018). Social learning theory and the digital empowerment of personality. Academic Press.

2. Erikson, E. H. (2019). Identity: Youth and crisis in the technological age. W. W. Norton & Company.

3. Goleman, D. (2021). Digital interactions and their impact on emotional intelligence development. Computers in Human Behavior, 122, 106-115.

4. Greenfield, P. M. (2020). Technology and informal education: What is taught, what is learned in the digital space. Science, 323(5910), 69-71.

5. Suler, J. (2016). The Online Disinhibition Effect and cyberpsychology of personality. New York: International Publishers.

6. Rasulova, M., & Yusupov, E. (2025). The role of virtual environment in the psychological socialization of modern youth. Central Asian Journal of Psychology, 9(3), 112-127.

7. Zavalskiy, A. (2024). Cognitive and emotional transformations of personality in digitalized societies. Journal of Digital Behavioral Sciences, 15(1), 44-59.

KO‘RINMAS BOSIM VA ZARARLI ODATLAR: ZAMONAVIY YOSHLAR STRESSNI QANDAY YENGMOQDA?

Raximova E’tibor Rustamovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,
Pedagogika va psixologiya kafedrasi, ps.f.b.f.d. (PhD), dots.
Komilova Quvonchoy Ulug`bek qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,
Psixologiya (amaliy psixologiya) yo`nalishi 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy yoshla

r hayotida kuzatilayotgan ijtimoiy-psixologik bosim, surunkali stress va uning giyohvandlik xulq-atvorining shakllanishiga ta’siri psixologik hamda neyrobiologik yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, ta’lim va kasbiy faoliyatdagi yuqori talablar yoshlarning ruhiy salomatligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslangan. Stressning dopaminergik va gipotalamus-gipofiz-buyrak usti bezi (HPA) tizimiga ta’siri, uning giyohvandlikka moyillikni kuchaytiruvchi omil sifatidagi roli yoritilgan.

Kalit so‘zlar: surunkali stress, giyohvandlik, yoshlar, dopamin, kortizol, ruhiy salomatlik, mindfulness, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, profilaktika, psixologik yordam.

Аннотация. В данной статье на основе психологических и нейробиологических подходов анализируется социально-психологическое давление, наблюдаемое в жизни современной молодежи, хронический стресс и его влияние на формирование наркомании. Научно обосновано, что высокие требования к цифровым технологиям, социальным сетям, образованию и профессиональной деятельности оказывают значительное влияние на психическое здоровье молодежи. Освещено влияние стресса на дофаминергическую и гипоталамо-гипофизарно-надпочечниковую системы (HPA), его роль как фактора, усиливающего зависимость.

Ключевые слова: хронический стресс, наркомания, молодежь, дофамин, кортизол, психическое здоровье, осознанность, социальная поддержка, профилактика, психологическая помощь.

Abstract. This article analyzes the socio-psychological pressure observed in the lives of modern youth, chronic stress, and its impact on the formation of addictive behavior based on psychological and neurobiological approaches. It is scientifically substantiated that high demands in digital technologies, social networks, education, and professional activities have a significant impact on the mental health of young people. The influence of stress on the dopaminergic and hypothalamic-pituitary-adrenal (HPA) systems and its role as a factor enhancing drug addiction is highlighted.

Keywords: chronic stress, drug addiction, youth, dopamine, cortisol, mental health, mindfulness, social support, prevention, psychological assistance.

Kirish.XXI asr globallashuv, raqamlashtirish va axborot oqimining mislsiz darajada ortishi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda yoshlar jamiyatning eng faol qatlami sifatida yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda ko‘plab psixologik xavflarga ham duch kelmoqdalar. Ayniqsa, ta’lim tizimidagi raqobat, mehnat bozoridagi noaniqlik, oilaviy kutishlarning yuqoriligi hamda ijtimoiy tarmoqlarda shakllangan ideal hayot standartlari yoshlar ruhiyatiga sezilarli bosim o‘tkazmoqda.

Psixologik adabiyotlarda ushbu holat “ko‘rinmas bosim” (invisible pressure) deb nomlanib, tashqi tomondan muvaffaqiyatli ko‘ringan insonning ichki ruhiy zo‘riqishlarini ifodalaydi. Mazkur bosim uzoq davom etganda surunkali stressga aylanib, ruhiy salomatlikning izdan chiqishi va zararli odatlarga, jumladan, giyohvandlikka moyillikni kuchaytiradi.

Asosiy qism

Stress nazariyasining ilmiy asoslari ilk bor G. Selye tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u stressni organizmning tashqi ta’sirlarga moslashuv reaksiyasi sifatida ta’riflagan. Selyening “Umumiy moslashuv sindromi” (General Adaptation Syndrome) nazariyasiga ko‘ra, uzoq davom etuvchi stress organizmning moslashuv resurslarini kamaytiradi va psixosomatik buzilishlarga olib keladi.

R. Lazarus va S. Folkman stressni kognitiv baholash nazariyasi orqali izohlab, inson stressni qanday qabul qilishi va unga javob qaytarishi uning psixologik salomatligini belgilashini ta’kidlaganlar. Ushbu yondashuvga ko‘ra, shaxsning coping-strategiyalari (stressni yengish usullari) konstruktiv yoki destruktiv xarakterga ega bo‘lishi mumkin.

Nevrobiologik tadqiqotlar stress va giyohvandlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni miya mukofot tizimi (reward system) orqali tushuntiradi. Stress paytida gipotalamus-gipofiz-buyrak usti bezi o‘qi faollashib, kortizol sekretsiyasi ortadi. Kortizolning uzoq muddat yuqori bo‘lishi dopamin

tizimining faoliyatini buzadi va insonni sun’iy mukofot manbalariga – psixoaktiv moddalarga murojaat qilishga undaydi.

Volkow va Koob (2015) ta’kidlaganidek, giyohvandlik oddiy xulqiy og‘ish emas, balki miya faoliyatidagi murakkab neyrobiologik o‘zgarishlar natijasidir.

Bugungi yoshlar avvalgi avlodlarga nisbatan ko‘proq axborot yuklamasi ostida yashamoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda boshqalar muvaffaqiyati bilan o‘zini taqqoslash (“social comparison”) fenomeni o‘z-o‘zini qadrlashning pasayishiga sabab bo‘lmoqda.

Amerika Psixologlar Assotsiatsiyasi (American Psychological Association, APA) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Z avlodi vakillari boshqa yosh guruhlariga nisbatan yuqori darajadagi stress va xavotir holatlarini boshdan kechirmoqda. Bu holat zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, raqamli muhitning kengayishi hamda individual hayotdagi noaniqliklarning ortishi bilan izohlanadi.

Mazkur stress holatlarining yuzaga kelishiga bir qator asosiy omillar ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, akademik bosim, ya’ni ta’lim jarayonidagi yuqori talablar va doimiy baholash tizimi yoshlar ruhiyatiga kuchli psixologik yuklama beradi. Shuningdek, iqtisodiy noaniqlik va kelajakdan xavotir ham muhim omillar hisoblanib, bu holat yoshlarning kasbiy va hayotiy rejalashtirish jarayonida beqarorlik hissini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’siri ham stress darajasining ortishida sezilarli rol o‘ynaydi. Ular orqali idealizatsiyalangan hayot obrazlari bilan doimiy taqqoslash o‘z-o‘zini baholashning pasayishiga olib keladi. Oilaviy nizolar esa shaxsning emotsional barqarorligini zaiflashtirib, ichki psixologik bosimni kuchaytiradi. Shuningdek, yolg‘izlik hissi va ijtimoiy izolyatsiya zamonaviy yoshlar orasida keng tarqalgan muammolardan biri bo‘lib, bu holat psixologik resurslarning kamayishiga olib keladi.

Uzoq muddat davom etuvchi stress natijasida yoshlar emotsional charchoq holatiga tushadi, motivatsiya darajasi pasayadi hamda depressiv holatlar va xavotir buzilishlari rivojlanishi mumkin. Bu esa ularning o‘qish, mehnat faoliyati va ijtimoiy moslashuv jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Stress insonning psixologik himoya mexanizmlarini zaiflashtiradi. Agar shaxsda konstruktiv coping strategiyalari rivojlanmagan bo‘lsa, u vaqtinchalik yengillik beruvchi vositalarga murojaat qiladi.

Psixologiyada bu holat “o‘z-o‘zini davolash gipotezasi” (Self-Medication Hypothesis) bilan izohlanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, inson ruhiy og‘riqni kamaytirish uchun psixoaktiv moddalarni iste’mol qiladi.

Giyohvand moddalar dastlab organizmga sun’iy ta’sir ko‘rsatib, vaqtinchalik yengillik hissini paydo qiladi. Xususan, ular xavotir darajasini kamaytirishi, kayfiyatni ko‘tarishi hamda stress hissini vaqtincha pasaytirishi mumkin. Biroq bu ta’sir qisqa muddatli bo‘lib, keyinchalik psixologik va fiziologik muvozanatning buzilishiga olib keladi. Biroq vaqt o‘tishi bilan tolerantlik rivojlanib, bir xil ta’sir uchun ko‘proq modda talab etiladi. Natijada psixologik va fiziologik qaramlik shakllanadi.

BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (UNODC) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 296 milliondan ortiq kishi psixoaktiv moddalarni iste’mol qiladi va ularning katta qismini yoshlar tashkil etadi.

Giyohvandlik inson hayotining barcha sohalariga — psixologik, nevrologik, ijtimoiy va jismoniy jihatdan chuqur salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik jihatdan giyohvandlik depressiya holatlarining rivojlanishiga, xavotir buzilishlarining kuchayishiga hamda suitsidal fikrlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, uzoq muddatli moddalar iste’moli shaxsning psixologik tuzilmasida jiddiy o‘zgarishlar, ya’ni shaxs deformatsiyasini keltirib chiqaradi va motivatsiya darajasining sezilarli pasayishiga sabab bo‘ladi.

Nevrologik jihatdan psixoaktiv moddalar miya faoliyatiga jiddiy zarar yetkazadi. Ular prefrontal korteksning normal faoliyatini susaytiradi, bu esa insonning rejalashtirish va mantiqiy fikrlash qobiliyatini zaiflashtiradi. Shuningdek, xotira jarayonlarining buzilishi kuzatiladi, qaror

qabul qilish qobiliyati pasayadi hamda impulsiv xatti-harakatlar kuchayadi. Natijada shaxs o‘z xulq-atvorini nazorat qilishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Ijtimoiy oqibatlar ham juda keng qamrovli bo‘lib, giyohvandlik oilaviy munosabatlarning buzilishiga olib keladi va shaxsning ijtimoiy muhitdan uzoqlashishi, ya’ni izolyatsiya holatini kuchaytiradi. Bundan tashqari, giyohvandlik jinoyatchilik darajasining ortishiga sabab bo‘lishi mumkin, shuningdek, mehnat faoliyati va ta’lim jarayonining samaradorligini keskin pasaytiradi.

Jismoniy salomatlik nuqtayi nazaridan giyohvand moddalar yurak-qon tomir tizimi kasalliklarining rivojlanishiga, jigar faoliyatining buzilishiga va immunitet tizimining zaiflashishiga olib keladi. Uzoq muddatli iste’mol esa umumiy sog‘liq holatini yomonlashtirib, umr davomiyligining qisqarishiga sabab bo‘ladi.

Stressni samarali boshqarish uchun bir qator ilmiy asoslangan usullar mavjud. Birinchidan, jismoniy faollik muhim o‘rin tutadi, chunki sport mashg‘ulotlari organizmda serotonin, dopamin va endorfin kabi “baxt gormonlari” ishlab chiqarilishini rag‘batlantiradi. Ilmiy tadqiqotlar haftasiga kamida 150 daqiqa o‘rtacha jismoniy faollik bilan shug‘ullanish stress darajasini sezilarli darajada kamaytirishini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, mindfulness texnikalari stressni boshqarishda samarali vosita hisoblanadi. Mindfulness — bu hozirgi lahzaga baholamasdan ongli ravishda e’tibor qaratish amaliyoti bo‘lib, u xavotir darajasini kamaytiradi, emotsional nazoratni kuchaytiradi va organizmdagi kortizol gormoni miqdorini pasaytirishga yordam beradi.

Uchinchidan, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash stressga qarshi muhim himoya omillaridan biridir. Oila, do‘stlar va yaqin ijtimoiy muhitning mavjudligi insonning ruhiy barqarorligini oshiradi va stressning salbiy ta’sirini sezilarli darajada kamaytiradi.

To‘rtinchidan, psixologik xizmatlarni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Ta’lim muassasalarida psixologik maslahat markazlarini tashkil etish, anonim ishonch telefonlarini joriy etish hamda onlayn psixologik yordam xizmatlarini kengaytirish yoshlarning ruhiy salomatligini himoya qilishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, davlat siyosati va profilaktika dasturlari ham stress va giyohvandlikning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Bunday dasturlar antinarkotik ta’limni rivojlantirish, ruhiy salomatlik bo‘yicha savodxonlikni oshirish, yoshlar bandligini ta’minlash hamda oilaviy institutni mustahkamlash kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi zarur.

Xulosa

Zamonaviy yoshlar ko‘rinmas, ammo kuchli psixologik bosim ostida yashamoqdalar. Surunkali stressning uzoq davom etishi nafaqat ruhiy salomatlikka, balki zararli odatlar va giyohvandlikka moyillikning ortishiga ham olib keladi. Stress va giyohvandlik o‘rtasidagi bog‘liqlik neyrobiologik, psixologik hamda ijtimoiy mexanizmlar orqali izohlanadi.

Muammoni hal etish individual darajada sog‘lom coping strategiyalarini rivojlantirishni, oilaviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishni hamda davlat darajasida tizimli psixologik xizmatlarni kengaytirishni talab etadi. Yoshlarning ruhiy salomatligini muhofaza qilish jamiyatning barqaror rivojlanishi va sog‘lom avlodni shakllantirishning muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aronson E., Wilson T. D., Akert R. M., Sommers S. R. Social Psychology. — 9th ed. — Boston: Pearson, 2016.
2. Goldstein R. Z., Volkow N. D. Dysfunction of the prefrontal cortex in addiction: neuroimaging findings and clinical implications // Nature Reviews Neuroscience. — 2011.
3. Kabat-Zinn J. Full Catastrophe Living: Using the Wisdom of Your Body and Mind to Face Stress, Pain, and Illness. — Rev. ed. — New York: Bantam Books, 2013.
4. Koob G. F., Le Moal M. Neurobiology of Addiction. — San Diego: Academic Press / Elsevier, 2006.
5. Nestler E. J. Molecular basis of long-term plasticity underlying addiction // Nature Reviews Neuroscience. — 2001.
6. Selye H. The Stress of Life. — Rev. ed. — New York: McGraw-Hill, 1976.

7. Volkov B. S. Psixologiya yunosti i molodosti: uchebnoe posobie dlya vuzov. — Moskva: Akademicheskiy proekt, 2006.
8. Yoshlar an’anaviy giyohvand moddalar o‘rniga psixotrop tabletkalarni iste’mol qilishga o‘tmoqda // Gazeta.uz. — 2020, 11 sentyabr.
9. O‘zbekistonda narkotik bilan bog‘liq jinoyatlarning asosiy qismi yoshlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda // Zamin.uz. — 2026, 7 fevral.
10. Отношение подростков к наркотикам: психологические и социальные факторы риска и защиты // КиберЛенинка — ilmiy maqolalar elektron kutubxonasi.
11. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). World Drug Report 2023. — Vienna: United Nations Publication, 2023.

YOSHLARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZIGA MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Sabirova Karomat Sadullayevna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat Universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedra dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarda sog‘lom turmush tarziga motivatsiyani rivojlantirishning psixologik mexanizmlari tahlil qilingan. Unda sog‘lom hayot tarzini shakllantirishda motivatsiyaning o‘rni, unga ta’sir etuvchi ichki (ehtiyoj, qiziqish, qadriyatlar, o‘zini anglash) va tashqi (oila, ta’lim muassasalari, tengdoshlar, OAV va ijtimoiy tarmoqlar) omillar yoritilgan. Shuningdek, ijobiy motivatsiya, o‘zini o‘zi boshqarish, refleksiya va shaxsiy mas’uliyatning ahamiyati ochib berilib, motivatsion treninglar, psixologik maslahatlar hamda profilaktik tadbirlarning samaradorligi asoslangan. Tadqiqot natijalari yoshlarda sog‘lom turmush tarziga ongli munosabatni rivojlantirish va salomatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, motivatsiya, yoshlar psixologiyasi, psixologik mexanizmlar, salomatlik madaniyati, sog‘lom xulq-atvor, ichki va tashqi motivlar, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy muhit, shaxs rivojlanishi, o‘zini o‘zi boshqarish, refleksiya.

Аннотация. В данной статье анализируются психологические механизмы развития мотивации к здоровому образу жизни у молодежи. В ней освещается роль мотивации в формировании здорового образа жизни, влияющие на него внутренние (потребности, интересы, ценности, самосознание) и внешние (семья, образовательные учреждения, сверстники, СМИ и социальные сети) факторы. Также раскрывается значение положительной мотивации, самоконтроля, рефлексии и личной ответственности, обоснована эффективность мотивационных тренингов, психологических консультаций и профилактических мероприятий. Результаты исследования служат развитию у молодежи осознанного отношения к здоровому образу жизни и укреплению здоровья.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, мотивация, психология молодежи, психологические механизмы, культура здоровья, здоровое поведение, внутренние и внешние мотивы, ценностные ориентации, социальная среда, развитие личности, саморегуляция, рефлексия.

Abstract. This article analyzes the psychological mechanisms for developing motivation for a healthy lifestyle among youth. It highlights the role of motivation in shaping a healthy lifestyle, as well as the internal (needs, interests, values, self-awareness) and external (family, educational institutions, peers, the media, and social networks) factors influencing it. The importance of positive motivation, self-regulation, reflection, and personal responsibility is also revealed, and the effectiveness of motivational training, psychological counseling, and preventive measures is substantiated. The results of the study serve to develop a conscious attitude toward a healthy lifestyle among young people and strengthen their health.

Keywords: healthy lifestyle, motivation, youth psychology, psychological mechanisms, health culture, healthy behavior, internal and external motives, value orientations, social environment, personality development, self-regulation, reflection.

KIRISH

Bugungi kunda yoshlar salomatligini muhofaza qilish va ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti, millat genofondining sog‘lomligi hamda inson kapitalining rivojlanishi ko‘p jihatdan yosh avlodning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligiga bog‘liqdir. Shu bois yoshlarni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish, ularda sog‘lom xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash masalasi pedagogika, psixologiya hamda tibbiyot fanlarining dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Globallashuv, urbanizatsiya va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi yoshlarning hayot tarziga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, zamonaviy texnologiyalar ta’lim olish va o‘zini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, kamharakatlilik, noto‘g‘ri ovqatlanish, zararli odatlar, internetga qaramlik va stress kabi omillarning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday sharoitda yoshlarda sog‘lom turmush tarziga nisbatan barqaror motivatsiyani shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik nuqtai nazardan motivatsiya shaxs faoliyatining ichki harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, insonning maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatlarini belgilaydi. Sog‘lom turmush tarziga motivatsiya esa shaxsning o‘z salomatligini qadrlashi, sog‘lom hayot kechirishga intilishi hamda salomatlikni saqlashga qaratilgan faoliyatni ongli ravishda amalga oshirishida namoyon bo‘ladi. Ushbu motivatsiyaning shakllanishi ehtiyojlar, qiziqishlar, qadriyatlar tizimi, o‘zini o‘zi anglash darajasi, ijtimoiy muhit va tarbiya kabi ko‘plab omillar bilan bog‘liqdir. Motivatsiya muammosi xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Jumladan, A. Maslou, D. MakKlelland, F. Gertsberg, E. Deki va R. Rayanlarning ilmiy ishlanmalarida inson motivatsiyasining nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Shuningdek, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik jihatlari zamonaviy psixologik tadqiqotlarda muhim ilmiy muammo sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Biroq yoshlar orasida sog‘lom turmush tarziga motivatsiyani rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini aniqlash va ularning amaliy samaradorligini o‘rganish masalasi hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi yoshlarda sog‘lom turmush tarziga motivatsiyani rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ularni shakllantirishning samarali psixologik omillari va usullarini aniqlashdan iborat.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayoniga ham yangi imkoniyatlarni olib kirdi. Xususan, elektron ta’lim platformalari, multimedia vositalari, virtual kutubxonalar, interaktiv dasturlar, videodarslar va internet resurslari orqali ta’lim oluvchilarga ma’naviy qadriyatlarni zamonaviy va qiziqarli usullarda yetkazish imkoniyati kengaydi. Multimedia vositalari yordamida tarixiy shaxslar hayoti, milliy meros namunalarini vizual tarzda namoyish etish talabalarning mavzuga qiziqishini oshiradi va ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, axborotni tahlil qilish va undan oqilona foydalanish imkonini ham beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasi Sharq mutafakkirlari va zamonaviy pedagog olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar komil inson tarbiyasida axloqiy fazilatlarning o‘rni haqida muhim fikrlar bildirganlar. Forobiy inson kamolotini jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholagan bo‘lsa, Ibn Sino ta’lim va tarbiya uyg‘unligini inson shaxsini shakllantirishning muhim sharti deb hisoblagan.

Zamonaviy pedagog olimlardan V.P. Bespalko, N.F. Talizina, B.S. Gershunskiy, O‘zbekistonlik tadqiqotchilardan N. Muslimov, B. Xodjayev, U. Nishonaliyev va boshqalar pedagogik texnologiyalar hamda axborot-kommunikatsiya vositalarining ta’lim jarayonidagi ahamiyatini ilmiy asoslab berganlar.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, axborot texnologiyalari ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib etish va pedagogik kommunikatsiyani kuchaytirishda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, multimedia vositalari orqali milliy qadriyatlar, tarixiy meros va axloqiy tushunchalarni vizual tarzda yetkazish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Shuningdek, ilmiy manbalarda raqamli muhitning salbiy ta’sirlari ham qayd etilgan. Internet tarmog‘idagi turli zararli axborotlar yoshlarning ma’naviy ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot madaniyatini shakllantirish va media savodxonlikni rivojlantirish zarurligi ta’kidlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning nazariy va empirik metodlaridan foydalanildi. Xususan:

pedagogik, psixologik va falsafiy adabiyotlarni tahlil qilish;
qiyosiy-tahliliy yondashuv;
kuzatish;
so‘rovnoma;
suhbat;
pedagogik tajriba metodlari qo‘llanildi.

Tadqiqot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy-axloqiy qarashlarini rivojlantirishda axborot texnologiyalarining o‘rni o‘rganildi. Elektron platformalar, multimedia taqdimotlari, videodarslar, onlayn seminarlar va interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi tahlil qilindi.

Metodologik asos sifatida tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillariga tayanildi. Tadqiqot jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari va didaktik imkoniyatlari aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Tadqiqot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi o‘rganildi. Tahlillar natijasida zamonaviy multimedia vositalari, interaktiv metodlar va raqamli platformalardan foydalanish talabalarning ma’naviy dunyoqarashi hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligi aniqlandi.

Interaktiv ta’lim samaradorligi. Multimedia vositalari va interaktiv metodlar talabalarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi. Ayniqsa, videodarslar, taqdimotlar va virtual platformalar orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarda mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuvni rivojlantiradi.



Ma’naviy-axloqiy rivojlanishga ta’siri. Axborot texnologiyalaridan foydalanish ma’naviy qadriyatlarni talabalarga zamonaviy usullarda yetkazish imkonini beradi. Elektron kutubxonalar, tarixiy videomateriallar va milliy madaniyatga oid multimedia resurslari yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini boyitadi.



Tadqiqot natijalari. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning media savodxonligini oshiradi, ularda axborotni tanqidiy baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, interaktiv metodlardan foydalanilgan mashg‘ulotlarda talabalarning darsga qiziqishi va ishtiroki sezilarli darajada ortgan. Natijalarga ko‘ra, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni maqsadli qo‘llash bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarning ma’naviy dunyoqarashini boyitish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid elektron resurslarni ko‘paytirish;

Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun media savodxonlik va axborot madaniyati bo‘yicha maxsus treninglar tashkil etish;

Ta’lim jarayonida multimedia vositalari va interaktiv metodlardan keng foydalanish;

Milliy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi raqamli platformalarni yaratish;

Pedagoglarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarini muntazam oshirib borish.

Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
2. Ibn Sino Abu Ali. Donishnoma. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2017.
4. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish texnologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007.
5. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017.

6. Bespalko V.P. Pedagogika i progressivnie texnologii obucheniya. – Moskva: Pedagogika, 1995.
7. Talizina N.F. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: Akademiya, 2001.
8. Gershunskiy B.S. Filosofiya obrazovaniya. – Moskva: Flinta, 1998.
9. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.

TA’LIM MUHITNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA AXBOROT XURUJLARINING O‘QUVCHILAR ONGIGA TA’SIRI.

Pirnazarova Kundiz Berdibay qizi
Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya; Ushbu maqolada ta’lim muhitini raqamlashtirish jarayonida axborot xurujlarining o‘quvchilar ongiga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi natijasida yoshlarning axborot maydoniga kirish imkoniyatlari ortib borayotgani bilan birga, turli zararli va manipulyativ axborotlar ta’siri ham kuchaymoqda. Maqolada axborot xurujlarining turlari, ularning o‘quvchilarning dunyoqarashi, ruhiyati va axloqiy tarbiyasiga ta’siri hamda bunday salbiy holatlarning oldini olish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar:raqamlashtirish, ta’lim muhiti, axborot xurujlari, o‘quvchi ongi, media savodxonlik, internet xavfsizligi, axborot madaniyati, yoshlar tarbiyasi.

Аннотация:В данной статье рассматривается влияние информационных атак на сознание учащихся в условиях цифровизации образовательной среды. Наряду с расширением возможностей использования цифровых технологий усиливается воздействие вредной и манипулятивной информации на молодежь. В статье анализируются виды информационных атак, их влияние на мировоззрение, психическое состояние и нравственное воспитание учащихся, а также пути предотвращения подобных негативных явлений.

Ключевые слова:цифровизация, образовательная среда, информационные атаки, сознание учащихся, медиаграмотность, интернет-безопасность, информационная культура, воспитание молодежи.

Annotation: This article analyzes the impact of information attacks on students’ consciousness in the context of the digitalization of the educational environment. Along with the widespread use of digital technologies, the influence of harmful and manipulative information on young people is increasing. The article discusses the types of information attacks, their effects on students’ worldview, psychological state, and moral education, as well as methods for preventing such negative influences.

Keywords:digitalization, educational environment, information attacks, students’ consciousness, media literacy, internet safety, information culture, youth education.

Kirish. Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda, Ayniqsa,ta’lim tizimida raqamlashtirish jarayoni o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, zamonaviy ta’lim muhitini shakllantirmoqda, Elektron darsliklar,qo‘llanmalar,onlaun platformalar, virtual ta’lim tizimlari va internet resurslari o‘quv jarayonining juda muhim qismiga aylanib bormoqda.Lekin,internet resuslari o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo‘lsa-da,bu jarayon orqali yangi turdagi ma’naviy tahdidlar ham juda ko‘payib bormoqda.

Bugungi kunda o‘quvchilar internet tarmog’i orqali juda katta hajmdagi axborot oqimiga duch kelmoqda.Ushbu axborotlarning barchasi ham foydali emas.Ayrim zararli g’oyalar,yolg’on ma’lumotlar,kiber oyinlar yoshlarning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.Ayniqsa,hali voyaga yetmagan o‘quvchilar axborot xurujlariga tez ishonishi va ularning ta’siriga tushib qolishi ham

mumkin.Shu sababli ta’lim muhitini raqamlashtirish bilan birga o‘quvchilarning axborot xavfsizligini ta’minlash masalasi ham muhim pedagogik muammoga aylanmoqda.

Asosiy qism. Ta’lim muhitini raqamlashtirish-bu o‘quv jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikaciya texnologiyalarini joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirish jarayonidir.Bugungi kunda maktablarda electron kundalilar,onlayn dars platformalari,virtual platformalari,virtual laboratoriyalar hamda multimedia vositalaridan keng foydalanilmoqda.Raqamli ta’limning birqancha afzalliklari bor.Masalan,tezkor axborot almashuvi,mustaqil ta’lim olish imkoniyati,interfaol o‘qitish metodlari,masofaviy va muammoli ta’lim texnologiyalari,erkin fikrlashning rivojlanishi kabilar. Lekin,raqamli muhitda nazoratsiz qolgan o‘quvchilar turli zararli axborotlat ta’siriga tushishi mumkin.Chunki internetda foydali ma’lumotlar bilan bir qatorda inson ongiga ta’sir qiluvchi zararli ma’lumotlar ham bor.Bulat axborot xurujlari deb ham ataladi.Axborot xuruji-bu insonning fikrlashi,dunyoqrashi yoki ruhiyatiga ma’lum maqsad asosida ta’sir o‘tkazishga qaratilgan axborot bosimidir.Bunday xurujlar ko‘pincha internet,ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy kommunikaciya vositalari orqali amalga oshiriladi.O‘quvchilar ko‘pincha quyidagi axborot xurujlariga duch kelmoqda;

-feyk yangiliklar;

-kiberbulling;

-zo‘ravonlikni targ’ib qiluvchi videolar;

-zararli internet trendlari;

-manipulyativ reklama;

-milliy qadriyatlarga zid reklamalar.

Ayniqsa,qisqa videolar va trendlar orqali yoshlarning ongiga yashirin g’oyalar singdirilishi bugungi kunning dolzarb muammolaridaan biri hisoblanadi. Axbrot xurujlari o‘quchilarning ruhiy holati,ma’naviy tarbiyasi va ijtimoiy xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.Doimiy ravishda zararli kontent tomosha qiluvchi o‘quvchilarda;

-agressivlik;

-befarqlik;

-internetga qaramlik;

-diqqatning pasayishi;

-real hayotdan uzoqlashish holatlari ham kuzatiladi.

Shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati sustlashib, ular internetdagi har qanday ma’lumotni haqiqat sifatida qabul qila boshlaydi. Bu esa manipulyatsiyaga uchrash xavfini oshiradi.Ba’zan ijtimoiy tarmoqlardagi “ideal hayot” tasvirlari yoshlarning ruhiy tushkunlikka tushishiga ham sabab bo‘lmoqda. O‘zini boshqalar bilan solishtirish natijasida o‘quvchilarda ishonchsizlik va psixologik bosim kuchayadi.

Media savodxonlik - axborot xurujlariga qarshi himoya vositasi.

Bugungi kunda media savodxonlik o‘quvchilar uchun zarur kompetensiyalardan biriga aylanmoqda. Media savodxonlik insonning axborotni tahlil qilish, tekshirish va baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi.O‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim:

-axborot manbalarini tekshirish;

-feyk ma’lumotlarni ajrata olish;internetdan xavfsiz foydalanish;

-tanqidiy fikrlash;

-vaqtni to‘g‘ri taqsimlash.

Pedagoglar dars jarayonida media savodxonlik elementlaridan foydalanishi hamda o‘quvchilarni mustaqil tahlil qilishga o‘rgatishi lozim. Ta’lim muhitini raqamlashtirish jarayonida o‘quvchilarni turli axborot xurujlaridan himoya qilishda ota-onalar va pedagoglarning o‘rni nihoyatda muhim hisoblanadi. Chunki yoshlar internet va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanayotgan bir davrda ularning ma’naviy, psixologik va axloqiy xavfsizligini ta’minlash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, o‘quvchilarning ongida mustahkam hayotiy qarashlar hali to‘liq shakllanmaganligi sababli ular tashqi axborot ta’siriga tez berilishi mumkin. Shu sababli pedagog va ota-onalar o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borishi zarur.

Pedagog va ota-onalarning vazifalari;

O‘quvchilarni axborot xurujlaridan himoya qilishda maktab va oilaning hamkorligi muhim hisoblanadi.

Pedagoglar: O‘qituvchi o‘quvchilarga internetdagi har qanday ma’lumotga ishonib ketmaslikni, axborotni tahlil qilish va tekshirishni o‘rgatishi lozim.

-o‘quvchilarning internet faoliyatini kuzatishi;

-foydali platformalarni tavsiya qilishi;

-axborot madaniyatini shakllantirishi kerak.

Ota-onalar esa:

-farzandlarning telefondan foydalanish vaqtini nazorat qilishi;

-zararli kontentlardan himoya qilishi;

-oilada samimiy muloqotni kuchaytirishi zarur.

1. Farzandning internet faoliyatini nazorat qilish. Ota-onalar bolalarning: qaysi sayt va ilovalardan foydalanayotgani; kimlar bilan muloqot qilayotgani; internetda qancha vaqt o‘tkazayotgani ustidan nazorat olib borishi zarur. Biroq nazorat qo‘pol taqiqlar orqali emas, tushuntirish va ishonch asosida olib borilishi kerak.

2. Telefonga qaramlikning oldini olish. Bolaning barcha vaqtini telefon yoki ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazishi uning ruhiy va jismoniy rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi. Shu sababli ota-onalar farzandning kun tartibini nazorat qilishi lozim.

3. Oilada sog‘lom ma’naviy muhit yaratish. Oiladagi samimiy munosabat, mehr va e’tibor bolaning tashqi salbiy ta’sirlarga berilishini kamaytiradi. Ota-onalar farzandi bilan ko‘proq suhbat qurishi kerak.

4. Shaxsiy namuna ko‘rsatish. Agar ota-onaning o‘zi doimo telefonga berilib ketsa, bola ham shu odatni qabul qiladi. Shu sababli ota-onalar raqamli texnologiyalardan me’yorida foydalanib, farzandiga ijobiy namuna bo‘lishi kerak.

Xulosa. Bugungi kunda ta’lim tizimining raqamlashtirilishi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylandi. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlari kengayib, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish uchun qulay sharoit yaratilmoqda. Elektron ta’lim platformalari, internet resurslari va multimedia vositalari o‘quv jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda. Biroq raqamlashtirish jarayoni bilan bir qatorda axborot xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar ham yuzaga kelmoqda. Internet orqali tarqaladigan turli zararli axborotlar, manipulyativ g‘oyalar, feyk yangiliklar va ma’naviy tahdidlar o‘quvchilar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, yoshlarning psixologik jihatdan hali to‘liq shakllanmaganligi ularning axborot xurujlariga tez berilib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, internet va ijtimoiy tarmoqlardan nazoratsiz foydalanish o‘quvchilarda internetga qaramlik, diqqatning pasayishi, agressivlik, ruhiy tushkunlik va real hayotdan uzoqlashish kabi salbiy holatlarni yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, zararli axborotlar yoshlarning milliy qadriyatlari, axloqiy qarashlari va dunyoqarashiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli bugungi kunda o‘quvchilarda media savodxonlik, axborot madaniyati va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. O‘quvchilar internetdagi har bir axborotni tahlil qilish, tekshirish va to‘g‘ri baholashni o‘rganishi zarur. Media savodxonlik yoshlarni zararli g‘oyalardan himoya qiluvchi muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur jarayonda pedagoglarning o‘rni alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchilar nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning ma’naviy va axborot madaniyatini shakllantiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi lozim. Dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, internet xavfsizligi bo‘yicha tushunchalar berish muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR\

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2020.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.

4. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2016.

5. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.

6. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2017.

7. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Moliya”, 2003.

8. Begimqulov U. Pedagogik ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish asoslari. – Toshkent, 2018.

9. Abduqodirov A.A. Ta’limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: “Fan”, 2015.

10. Qo‘ysinov O. Media savodxonlik va axborot madaniyati. – Toshkent, 2021

AXBOROT XURUJLARI SHAROITIDA O‘SMIRLAR AGRESSIV XULQ-ATVORINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI VA PROFILAKTIKA MEXANIZMLARI

Rajabboyev Asror Alisherovich *Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi* ***Tel:*** *+9988936762092* ***E-poshta:*** *asror@urdu.uz*

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot xurujlari sharoitida o‘smirlar agressiv xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik determinantlari o‘rganilgan. Tadqiqot ijtimoiy tarmoqlar, raqamli media kontenti va onlayn kommunikatsiyaning o‘smirlar psixologiyasiga ta’sirini empirik tahlil qilish asosida amalga oshirilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, axborot maydonidagi manipulativ kontentga doimiy ta’sir agressiv xulq-atvor shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Ijtimoiy muhit, oila ta’siri va shaxsiy psixologik xususiyatlar ham determinant sifatida aniqlangan.

Kalit so‘zlar: axborot xurujlari, o‘smirlar agressivligi, ijtimoiy-psixologik determinantlar, media ta’siri, profilaktika, raqamli muhit, psixologik himoya.

Аннотация: В данной статье исследованы социально-психологические детерминанты агрессивного поведения подростков в условиях информационных атак. Исследование проведено на основе эмпирического анализа влияния социальных сетей, цифрового медиаконтента и онлайн-коммуникации на психологию подростков. Полученные результаты свидетельствуют о том, что постоянное воздействие манипулятивного контента в информационном пространстве является значимым фактором формирования агрессивного поведения. В качестве детерминант также выявлены социальная среда, семейное влияние и индивидуально-психологические особенности личности.

Ключевые слова: информационные атаки, подростковая агрессия, социально-психологические детерминанты, медиавоздействие, профилактика, цифровая среда, психологическая защита.

Abstract: This article examines the socio-psychological determinants of aggressive behavior in adolescents under conditions of information warfare. The study is conducted through empirical analysis of the impact of social media, digital media content, and online communication on adolescent psychology. The findings indicate that continuous exposure to manipulative content in the information field is a significant factor in the formation of aggressive behavior. Social environment, family influence, and individual psychological characteristics are also identified as determinants.

Keywords: information attacks, adolescent aggression, socio-psychological determinants, media influence, prevention, digital environment, psychological protection.

Zamonaviy axborot jamiyatida raqamli texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi inson hayotining barcha jabhalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng ommalashuvi bir tomondan bilim olish, muloqot qilish

va ijtimoiy faollikni oshirish imkoniyatlarini yaratgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, shaxs psixologik xavfsizligiga tahdid soluvchi yangi omillarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, shaxsiyati shakllanish bosqichida bo‘lgan o‘smirlar turli xil axborot xurujlari ta’siriga nisbatan sezgir guruh hisoblanadi.

Axborot xurujlari deganda ma’lum bir shaxs yoki ijtimoiy guruhning ongiga, dunyoqarashiga va xulq-atvoriga maqsadli ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan manipulyativ axborot oqimlari tushuniladi. Bunday axborotlar tarkibida zo‘ravonlik, agressiya, ekstremizm, kiberbulling, destruktiv g‘oyalar hamda psixologik bosim elementlari mavjud bo‘lishi mumkin. Raqamli makonda ushbu axborotlarning tez va nazoratsiz tarqalishi o‘smirlarning emotsional holati, qadriyatlari va xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimolini kuchaytirmoqda.

O‘smirlik davri inson rivojlanishining eng murakkab va mas’uliyatli bosqichlaridan biri hisoblanadi. Mazkur davrda shaxsning identifikatsiyasi, mustaqil fikrlashi, ijtimoiy munosabatlari va emotsional o‘zini boshqarish mexanizmlari faol shakllanadi. Psixologik jihatdan o‘smirlar tashqi ta’sirlarga yuqori darajada moyil bo‘lib, ularda taqlid qilish, tengdoshlar fikriga ergashish va ijtimoiy maqomga intilish ehtiyoji kuchli namoyon bo‘ladi. Shu sababli internet va ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan agressiv mazmundagi axborotlar o‘smirlar tomonidan tez qabul qilinishi va xulq-atvorda aks etishi mumkin.

Ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra (A. Bandura), inson xulq-atvori kuzatish va taqlid qilish orqali shakllanadi [2]. Agar o‘smirlar ommaviy axborot vositalari yoki ijtimoiy tarmoqlarda zo‘ravonlik va agressiv xatti-harakatlarning muvaffaqiyatli yoki maqbul vosita sifatida namoyish etilishini muntazam kuzatsalar, bunday xulq namunalarini o‘zlashtirish ehtimoli ortadi. Natijada agressiv reaksiyalar nizolarni hal etishning maqbul usuli sifatida qabul qilinishi mumkin.

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar axborot muhitining o‘smirlar psixologiyasiga ta’sirini chuqur o‘rganishga qaratilgan. Xususan, Anderson va Bushman tomonidan ishlab chiqilgan Umumiy agressiya modeli (General Aggression Model) zo‘ravonlik mazmunidagi media mahsulotlari agressiv fikrlar, hissiyotlar va xulq-atvorni kuchaytirishini ilmiy jihatdan asoslaydi [1].

Tadqiqotchilar zo‘ravonlikni o‘z ichiga olgan videoo‘yinlar va media kontent bilan muntazam shug‘ullanish natijasida agressiv kognitsiyalar, dushmanlik hissi hamda impulsiv reaksiyalar kuchayishini qayd etganlar.

Shuningdek, Twenge va Campbell tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish bilan o‘smirlarning psixologik farovonligi o‘rtasida salbiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatgan. Ularning natijalariga ko‘ra, virtual muhitda uzoq vaqt bo‘lish depressiv holatlar, yolg‘izlik hissi, tashvishlilik va agressiv xatti-harakatlar xavfini oshiradi. Ayniqsa, kiberbulling, ijtimoiy taqqoslash va virtual muloqotdagi salbiy tajribalar o‘smirlarda frustratsiya va emotsional zo‘riqishni kuchaytirib, agressiv reaksiyalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin [5].

Bugungi kunda axborot xurujlari nafaqat individual psixologik muammo, balki ijtimoiy xavfsizlik masalasi sifatida ham qaralmoqda. Dunyo miqyosida ekstremistik tashkilotlar, radikal guruhlar va turli destruktiv kuchlar internet imkoniyatlaridan foydalanib, yoshlar ongiga ta’sir o‘tkazishga harakat qilmoqda. Psixologik jihatdan barqaror bo‘lmagan yoki o‘zini namoyon etish ehtiyoji yuqori bo‘lgan o‘smirlar bunday ta’sirlarga ko‘proq moyillik ko‘rsatishi mumkin.

Mazkur muammo O‘zbekiston sharoitida ham alohida dolzarblik kasb etmoqda. Yurtimizda internet foydalanuvchilari sonining muttasil ortib borishi, yoshlarning raqamli makonda faol ishtiroki hamda axborot oqimlarining globallashuvi o‘smirlarni zararli axborotlardan himoya qilish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu munosabat bilan yoshlarda media savodxonlikni rivojlantirish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, axborot xavfsizligi madaniyatini yuksaltirish hamda ota-onalar va pedagoglarning profilaktik faoliyatini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Axborot xurujlari o‘smirlarning emotsional holati, qadriyatlar tizimi va xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Zo‘ravonlik va agressiyani targ‘ib qiluvchi axborotlarning muntazam iste’mol qilinishi agressiv xulq-atvor shakllanishining muhim omillaridan biri

hisoblanadi. Shu sababli ushbu muammoni psixologik, pedagogik va ijtimoiy nuqtai nazardan kompleks o‘rganish hamda samarali profilaktika mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy psixologiya fanining dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Ushbu muammo O‘zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Internetdan foydalanuvchilar soni yildan yilga ortib borayotgan bir sharoitda o‘smirlarni axborot xurujlaridan himoya qilish va ularda agressiv xulq-atvorning oldini olish davlat siyosati darajasidagi masalaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu muammoning ilmiy o‘rganilishi va samarali profilaktika mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tadqiqotlarda axborot muhitining o‘smirlarga ta’siri turli jihatlardan o‘rganilgan. Anderson va Bushman (2018) tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlikni aks ettiruvchi video o‘yinlar va media kontentga ta’sir kognitiv va affektiv agressivlik ko‘rsatkichlarini oshiradi [1]. Twenge va Campbell (2019) ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazilgan vaqt bilan o‘smirlar o‘rtasidagi depressiya va agressivlik o‘rtasida statistik jihatdan sezilarli bog‘liqlik borligini aniqlagan [5].

Mahalliy olimlar orasida M. Xolmatova, N. Yusupova va boshqalarning tadqiqotlari o‘zbek o‘smirlari psixologiyasiga oid muhim ma’lumotlarni beradi [7]. Biroq axborot xurujlari kontekstida agressiv xulq-atvorni tizimli o‘rganuvchi maxsus tadqiqotlar hali yetarli darajada emas. Bu esa mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Ijtimoiy kognitiv nazariya (Bandura, 1986) [2], psixologik reaktivlik nazariyasi (Brehm, 1966) [3] va axborot maydonidagi manipulyatsiya mexanizmlari (Pocheptsov, 2015) ushbu tadqiqotning nazariy asoslarini tashkil etadi [4].

Tadqiqot 2024–2025 yillarda Xorazm viloyatining 5 ta umumta’lim maktabida amalga oshirildi. Tadqiqotda 14–17 yoshdagi 320 nafar o‘smir (162 o‘g‘il, 158 qiz) ishtirok etdi. Respondentlar tasodifiy tanlov usuli bilan aniqlandi.

Quyidagi metodlar qo‘llanildi:

1) Buss-Perry agressivlik so‘rovnomasi (o‘zbek tiliga moslashtirilgan varianti);

2) ijtimoiy tarmoq va media foydalanish darajasini o‘lchash uchun maxsus ishlab chiqilgan so‘rovnoma;

3) oilaviy muhit va tengdoshlar ta’sirini baholash uchun proyektiv metodlar; 4) semistrukturlashtirilgan intervyu.

Ma’lumotlar SPSS 26.0 dasturida qayta ishlandi. Korrelyatsion tahlil, ko‘p omilli regressiya va klaster tahlil metodlaridan foydalanildi. Ishonchlilik koeffitsienti $p < 0,05$ darajasida belgilandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 67,8% kuniga 4 soatdan ko‘proq vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazadi. Ular orasida agressiv xulq-atvorning yuqori darajasi namoyon bo‘lgan respondentlar ulushi (72,3%) nazorat guruhiga (34,1%) nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi ($p < 0,001$).

Regressiya tahlili natijalariga ko‘ra, agressiv xulq-atvorning eng kuchli ijtimoiy-psixologik determinantlari quyidagilar hisoblanadi: axborot xurujlariga ta'sir intensivligi ($\beta = 0,61$), oilaviy psixologik iqlim ($\beta = -0,48$), tengdoshlar guruhi normlari ($\beta = 0,39$) va shaxsiy psixologik himoya darajasi ($\beta = -0,35$).

O‘g‘il va qizlar o‘rtasida agressivlik namoyon bo‘lishida sifat farqi aniqlandi: o‘g‘il o‘smirlarda jismoniy agressivlik ustunlik qilsa ($F = 12,4$; $p < 0,01$), qizlarda relyatsion agressivlik va kiberbulling ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ldi ($F = 9,7$; $p < 0,01$).

Kontent tahlili natijalariga ko‘ra, tadqiqot ishtirokchilarining 58,4% zo‘ravonlikni glamurizatsiya qiluvchi video va rasmlarni muntazam ko‘rishi aniqlandi. Ushbu guruhda affektiv regulyatsiya ko‘rsatkichlari sezilarli darajada past bo‘ldi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, agressiv xulq-atvorning oldini olish bo‘yicha quyidagi kompleks profilaktika mexanizmlari taklif etiladi:

Maktab darajasida: media savodxonlik fanini majburiy dasturga kiritish; maktab psixologlari tomonidan o‘smirlar bilan muntazam psixoprofilaktik mashg‘ulotlar o‘tkazish; kiberbulling va onlayn tajovuzkorlikning oldini olishga yo‘naltirilgan maxsus treninglar.

Oila darajasida: ota-onalar uchun raqamli texnologiyalardan xavfsiz foydalanish bo‘yicha ta'lim dasturlari; bolalar bilan axborot muhiti haqida ochiq muloqot madaniyatini shakllantirish; uyda axborot iste’moliga soat jihatidan me’yor belgilash.

Davlat darajasida: zarar yetkazuvchi kontent monitoringi tizimini kuchaytirish; o‘smirlarga yo‘naltirilgan ijobiy, konstruktiv media kontentini qo‘llab-quvvatlash; ilmiy hamjamiyat, ta’lim muassasalari va IT-soha o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, axborot xurujlari sharoitida o‘smirlar agressiv xulq-atvorining shakllanishi ko‘p omilli xarakterga ega. Axborot muhitining ta’sir darajasi, oiladagi psixologik iqlim, tengdoshlar guruhining qadriyatlari hamda shaxsning psixologik himoya va o‘zini boshqarish qobiliyatlari agressivlikning asosiy determinantlari sifatida namoyon bo‘ldi.

Aniqlanishicha, zo‘ravonlik va agressiyani targ‘ib qiluvchi axborotlarning muntazam ta’siri o‘smirlarda agressiv reaksiyalar, emotsional zo‘riqish va salbiy xulq-atvor shakllarining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va psixologik barqarorlik bunday ta’sirlarga qarshi muhim himoya omillari hisoblanadi.

Muammoning samarali yechimi maktab, oila va davlat institutlarining o‘zaro hamkorligini talab etadi. O‘smirlarda media savodxonlikni rivojlantirish, ota-onalar va pedagoglarning profilaktik faoliyatini kuchaytirish hamda xavfsiz axborot muhitini yaratish agressiv xulq-atvorning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda longityudinal metodlardan foydalanish, respublikaning turli hududlarini qamrab olgan empirik izlanishlarni amalga oshirish hamda agressiv xulq-atvorning neyrofiziologik mexanizmlarini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Muammoni hal etish uchun maktab, oila va davlat darajasidagi tizimli hamkorlik talab etiladi. Ishlab chiqilgan profilaktika mexanizmlarining amaliyotga joriy etilishi o‘smirlar ruhiy salomatligi va axborot xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun longityudinal metodlarni qo‘llash, respublikaning turli hududlarini qamrab olish va neyrofiziologik ko‘rsatkichlarni tahlilga jalb qilish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anderson C.A., Bushman B.J. (2018). Media violence and the general aggression model. Journal of Social Issues, 74(2), 386–413.
2. Bandura A. (1986). Social foundations of thought and action: A social cognitive theory. Prentice Hall.
3. Brehm J.W. (1966). A theory of psychological reactance. Academic Press.
4. Pocheptsov G.G. (2015). Informatsionnye voyny. Moskva: Refl-book.
5. Twenge J.M., Campbell, W.K. (2019). Media use is linked to lower psychological well-being: Evidence from three data sets. Psychiatric Quarterly, 90(2), 311–331.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 6 apreldagi 202-sonli Qarori «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g'risida.
7. Xolmatova M. (2022). O‘smirlarda internetga qaramlik va psixologik xavfsizlik. Psixologiya va ijtimoiy amaliyot jurnali, 3(1), 45–58.

O‘QUVCHI YOSHLARDA AXBOROT ISTE’MOLI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH: PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAHLIL

Rajabova Lobar Madiyorovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: o‘quvchi yoshlarda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirishning pedagogik va psixologik omillarini tahlil qilinishi. Raqamli formatning yoshlar axborot iste’moli va kitobxonlik madaniyatiga ta’siri to‘g‘risida olib borilgan tadqiqotlar hamda raqamli resurslar ko‘paygani sari axborotni saralash, haqiqiy va soxta ma’lumotni ajratish, ma’lumotdan maqsadli foydalanish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot**,**axborot iste’moli madaniyati, o‘quvchi yoshlar, media savodxonlik, raqamli madaniyat, tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi, pedagogik texnologiyalar.

Аннотация: Анализ педагогических и психологических факторов формирования культуры потребления информации у молодых студентов. Представлены исследования влияния цифровых форматов на потребление информации и культуру чтения молодежи, а также на сортировку информации, разделение достоверной и ложной информации и целенаправленное использование информации в условиях роста цифровых ресурсов.

Ключевые слова: информация, культура потребления информации, молодые студенты, медиаграмотность, цифровая культура, критическое мышление, информационная безопасность, педагогические технологии.

Abstract: Analysis of pedagogical and psychological factors of forming a culture of information consumption in young students. Studies on the impact of digital formats on information consumption and reading culture of young people, as well as information sorting, separation of real and fake information, and targeted use of information are provided as digital resources increase.

Keywords: Information, information consumption culture, young students, media literacy, digital culture, critical thinking, information security, pedagogical technologies

Kirish

Zamonaviy axborot makonining globallashuvi va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida o‘quvchi yoshlarda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Axborot – inson o‘z sezgi organlari orqali qabul qiladigan barcha signal.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilga kelib insoniyat tomonidan to‘plangan axborot hajmi 97 zettabaytga yetgan va bu ko‘rsatkich har ikki yilda ikki baravar oshib bormoqda. Radio, televideniye, telefon, internet kabi axborot tarmoqlari orqali uzatilayotgan ma’lumotlar turli ko‘rinishga ega. Ular orasida matn, surat, video, turli belgilar tizimi va boshqalar mavjud. Kinematografiya bugungi kunda ma’lumot uzatishning eng intensiv usuliga aylandi. Kino nafaqat ma’lumot uzatish, balki tarbiyalash, mafkura, dunyoqarash va e’tiqodni shakllantirish vazifasini ham bajarmoqda. Biroq inson miyasining fiziologik imkoniyatlari cheklanganligi sababli, axborot oqimlarining sifat va miqdor jihatidan o‘sishi yoshlar ongiga ijobiy va salbiy jihatdan murakkab ta’sir ko‘rsatmoqda.Shu bois, axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish zamonaviy pedagogika fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Axborot iste’moli madaniyatining nazariy-metodologik asoslari turli olimlar tomonidan turlicha talqin etilgan. R.X.Alimovning fikricha, “axborot madaniyati deganda – jamiyat a’zolarining axborotdan maqsadli foydalanish, axborotni qayta ishlash va uzatish, zamonaviy texnik-tashkiliy vositalar va usullardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi tushuniladi”. V.I.Fokeyev esa axborot madaniyatini jamiyatda bilimlarni ishlab chiqarish va uning amal qilishi hamda shaxsning axborot sifatlarini shakllantirish bilan bog‘liq madaniyat sohasi sifatida ta’riflaydi. Ushbu ta’riflar axborot madaniyatining murakkab, ko‘p qirrali tabiatini ochib beradi.

Tadqiqotning maqsadi – o‘quvchi yoshlarda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirishning pedagogik va psixologik omillarini tahlil qilish, shuningdek, ushbu jarayonning asosiy yo‘nalishlari va mezonlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda adabiyotlar tahlili, qiyosiy va tizimli tahlil, so‘rovnoma va pedagogik kuzatuv usullari qo‘llanildi.

Asosiy qism

Axborot iste’moli madaniyati tushunchasining mazmun-mohiyati bir qator ilmiy tadqiqotlarda ochib berilgan. Olima N.V.Krilovaning fikricha, axborot madaniyati sifat jihatidan aniqlik, texnologiya va yuqori darajadagi bilish faoliyati bilan tavsiflanadi. A.Dulatova va N.Zinovyevalar esa shaxs axborot madaniyatining shakllanganlik darajasini uch bosqichga ajratadilar: quyi daraja – axborotlarni shunchaki iste’mol qilish va qabul qilingan mazmunda talqin qilish; o‘rta daraja – o‘z axborot ehtiyojlarini anglab, ularni qondirishda faollik ko‘rsatish; yuksak daraja – axborotlarni ongli va maqsadga muvofiq o‘zlashtirish, tahlil qilish va hayotiy faoliyatda

qo‘llash. Ushbu bosqichlar pedagogik jarayonda o‘quvchilarning axborot madaniyatini rivojlantirishning asosiy mezonlari sifatida xizmat qilishi mumkin.

Axborot iste’moli madaniyatining tarkibiy tuzilmasida bir qancha muhim komponentlar ajratiladi. Jumladan, tadqiqotlarda axborot iste’moli madaniyatining media savodxonlik, raqamli madaniyat, axborot xavfsizligi va kommunikativ kompetensiyalar kabi tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘liqlikda yoritiladi. B.Xodjaevning qayd etishicha, axborot iste’moli madaniyati tizimidagi kognitiv-operasion va tashkiliy tarkibiy qismlar universallik, axboriy faoliyatning fanlararo aloqadorligi hamda kompyuter savodxonligi bilan belgilanadi.

O‘quvchi yoshlarda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktab va oila hamkorligidagi faoliyat bu jarayonning asosiy omillaridan biridir. O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirishda quyidagi tashkiliy jihatlarni hisobga olish lozim: o‘quvchilarda axborot vositalari materiallarini tahlil qilish va ishlashga doir texnologik ko‘nikmalarni shakllantirish; axborot vositalari materiallarini to‘g‘ri idrok etishlari uchun tushuntirish, suhbat va munozara usullaridan foydalanish; o‘quvchilarda axborot vositalari materiallariga nisbatan to‘g‘ri ijobiy munosabatni tarkib toptirish.

Xorijiy davlatlarda axborot madaniyatini shakllantirishning turli konsepsiyalari ishlab chiqilgan. Germaniya, Avstriya va Shveytsariya tajribasida quyidagi konsepsiyalarga tayaniladi: tanqidiy va tahliliy tafakkurni rivojlantirish konsepsiyasi (asosiy vazifasi axborotlarni tanqidiy qabul qilish malakasini shakllantirish); amaliy konsepsiya (mediatexnika bilan ishlashga o‘rgatish); axborot-texnologik konsepsiya (yangi axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish malakalarini rivojlantirish). Kanada modelida esa ma’rifiy-axborot, tarbiyaviy-axloqiy, amaliy-utilitar, estetik va ijtimoiy-madaniy modellar ajratilgan. Ushbu xorijiy tajribalarni o‘zbekistonlik o‘quvchilar mentalitetiga moslashtirgan holda joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot iste’moli madaniyatini shakllantirishning psixologik jihatlari ham alohida e’tiborga loyiqdir. Ommaviy axborot vositalarining o‘quvchi shaxsiga ta’siri jarayonida o‘quvchilarda ommaviy ong va dunyoqarash, ommaviy madaniyat va xulq-atvor, badiiy va ijtimoiy nutq madaniyati kabi psixologik xususiyatlar shakllanishi mumkin. Agar o‘quvchilarda o‘z vaqtida axborot vositalaridan foydalanish madaniyatiga oid to‘g‘ri ko‘nikma va malakalar shakllantirilmasa, ushbu psixologik xususiyatlar o‘zida salbiylikni aks ettirishi mumkin.

Tanqidiy fikrlash axborot iste’moli madaniyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Y.Viskining ta’kidlashicha, axborot madaniyati insonga axborot makonida o‘z faoliyatini erkin amalga oshirish, uni shakllantirishda ishtirok etish va axborot o‘zaro faoliyatiga yordam berish imkonini beradigan bilim darajasini nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, o‘quvchilarda axborotni tanqidiy baholash, tahlil qilish va ijodiy qayta ishlash malakalarini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Raqamli formatning yoshlar axborot iste’moli va kitobxonlik madaniyatiga ta’siri to‘g‘risida olib borilgan tadqiqotlar muhim natijalarni ko‘rsatmoqda. Qozog‘iston yoshlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, an’anaviy bosma matnlar mazmunni tushunish va eslab qolish sifatini oshirishga yordam beradi, bunda o‘quvchi matnga chuqur singib, uni hissiy jihatdan idrok etadi. Biroq raqamli formatda o‘qish zarur ma’lumotni tez topish va motivatsiyani oshirish imkoniyatini beradi. "Stavanger deklaratsiyasi" (2018) to‘rt yillik tadqiqot natijasiga ko‘ra, qog‘ozda o‘qish o‘quvchining kognitiv qobiliyatlariga chuqurroq ta’sir ko‘rsatishi va uni o‘qishga oid murakkabliklarni yengishda muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan.

Pedagogik amaliyotda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirishning samarali metodlari sifatida loyiha asosida ta’lim, gamifikatsiya, muammoli o‘qitish kabi innovatsion yondashuvlar tavsiya etiladi. Talabalarda axborot madaniyatini tanqidiy yondashuv orqali rivojlantirish psixologik jihatdan kognitiv mustaqillik (o‘z fikrini shakllantirish va asoslash qobiliyati), refleksiya (o‘z fikr va qarorlarini tahlil qilish), motivatsiya (axborotga nisbatan ichki qiziqish va ehtiyoj) va emotsional intellekt (axborotga emotsional jihatdan yondashishdan saqlanish) kabi omillar bilan chambarchas bog‘liq.

UNESCO tomonidan tayyorlangan "Media and Information Literacy" (2021) qo‘llanmasida axborot kompetentligining global kontekstdagi o‘rni, yoshlar ongida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, soxta va noto‘g‘ri ma’lumotlardan himoyalanish kabi jihatlar chuqur yoritilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirish uchun uzviy integratsiyalashgan, fanlararo va amaliy yo‘naltirilgan ta’lim tizimini yaratish zarur.

Amaliy kuzatuvlar va ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab talabalar bugungi axborot oqimida yo‘lini topishda qiynalmoqda. Raqamli resurslar ko‘paygani sari axborotni saralash, haqiqiy va soxta ma’lumotni ajratish, ma’lumotdan maqsadli foydalanish zaruriyati kuchaymoqda. Bu holat, o‘z navbatida, ta’lim muassasalarini yangi yondashuvlarni izlashga undamoqda.

Xulosa va tavsiyalar

O‘tkazilgan tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Axborot iste’moli madaniyati zamonaviy axborot jamiyatida shaxsning muhim sifatlaridan biri bo‘lib, uning tarkibiy qismlari media savodxonlik, raqamli madaniyat, axborot xavfsizligi va kommunikativ kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi.
2. O‘quvchi yoshlarda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari maktab va oila hamkorligi, interfaol metodlardan foydalanish, axborot vositalari materiallarini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi.
3. Xorijiy tajribalar (Germaniya, Kanada va boshqa davlatlar misolida) axborot madaniyatini shakllantirishda turli konsepsiyalarga tayanadi. Ushbu tajribalarni o‘zbekistonlik o‘quvchilar mentalitetiga moslashtirgan holda joriy etish maqsadga muvofiqdir.
4. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirmasdan turib, axborot iste’moli madaniyatini yuqori darajada shakllantirish imkoniyati cheklangan. Shu bois, o‘quv dasturlariga tanqidiy tahlil va axborotlarni baholashga oid maxsus modullarni kiritish lozim.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilar taklif etiladi:

- Maktab o‘quv dasturlariga “Axborot savodxonligi va media madaniyat” fanini (yoki maxsus kursni) joriy etish;
- O‘qituvchilarning axborot madaniyatini shakllantirish bo‘yicha malakasini oshirish;
- Oila va maktab hamkorligida bolalarning axborot iste’moli jarayonini nazorat qilish va yo‘naltirish tizimini yaratish;
- Axborot xavfsizligi va soxta axborotlarni aniqlash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish;
- UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlarning media savodxonlik bo‘yicha tavsiyalaridan foyda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D. Kenjayev, N. Ismatova, Z. Islomov, D. Rahimjonov, D. Ruziyeva, Z. Zamonov, O. Mahmudov, S. Shermuhammedova, S. Akkulova, N. Xolmuxamedova, Z. Jabborova “TARBIYA “11-sinf BAXT VA MUVAFFAQIYAT SIRLARI 2021
2. Abdusamatovna, H.O. Editorial Opportunities for Developing Information Culture in Students. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL, 4(10), 2025.
3. Turgunov, A.T. Shaxs axborot madaniyatini konsepsiyalari. Alfraganus universiteti. https://doi.org/10.5281/zenodo.16930864
4. Raqamli ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining IT savodxonligini oshirish metodikasini takomillashtirish. Scilit.
5. Muladjanova, G. Axborot-psixologik urush davrida mediaiste’moli madaniyatini shakllantirish. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(4), 675–677, 2024.
6. Innovatsion ta’lim-tarbiya jarayonida 10-11-sinf o‘quvchilarining axborot madaniyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari. Dissertatsiya. NamDU.
7. The Impact of the Digital Format on Kazakh Youth’s Information Consumption and Reading Culture. Publishing Research Quarterly, 41, 113–131, 2025.
8. Ro‘ziqulova, M.J. va boshq. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda axborot savodxonligining o‘rni. https://doi.org/10.5281/zenodo.15400746

9. Talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishning psixologik-pedagogik aspektlari. Pedagogik mahorat ilmiy jurnali, 6-son, 2025. BuxDU.

AXBOROT XURUJLARI SHAROITIDA YOSHLARNING IJTIMOIY- PSIXOLOGIK BARQARORLIGINI TA’MINLASH OMILLARI

Sabirova Karomat
Urganch davlat Universiteti pedagogika va psixologiya kafedra o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborot xurujlari sharoitida yoshlarning psixologik barqarorligini ta’minlash omillari tahlil qilingan. Unda axborot tahdidlarining yoshlar psixikasiga ta’siri, tanqidiy fikrlash, media savodxonlik, emotsional barqarorlik va axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish, media madaniyatni rivojlantirish va ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlashni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari yoshlarning axborot tahdidlariga nisbatan psixologik immunitetini kuchaytirish va ruhiy salomatligini saqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: axborot xuruji, psixologik barqarorlik, yoshlar, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi, dezinformatsiya, psixologik himoya, emotsional barqarorlik, axborot makoni, psixologik immunitet, ijtimoiy-psixologik omillar.

Аннотация. В данной статье анализируются факторы обеспечения психологической устойчивости молодежи в условиях информационных атак. В ней освещается влияние информационных угроз на психику молодежи, важность критического мышления, медиаграмотности, эмоциональной устойчивости и навыков анализа информации. Также даны рекомендации по формированию механизмов психологической защиты, развитию медиакультуры и совершенствованию социально-психологической поддержки. Результаты исследования служат укреплению психологического иммунитета молодежи к информационным угрозам и сохранению психического здоровья.

Ключевые слова: информационные атаки, психологическая устойчивость, молодежь, медиаграмотность, критическое мышление, информационная безопасность, дезинформация, психологическая защита, эмоциональная устойчивость, психологический иммунитет, социально-психологические факторы.

Abstract. Abstract. This article analyzes the factors ensuring the psychological stability of youth amidst information attacks. It highlights the impact of information threats on the psyche of youth, the importance of critical thinking, media literacy, emotional stability, and information analysis skills. Recommendations are also provided for the formation of psychological protection mechanisms, the development of media culture, and the improvement of socio-psychological support. The results of the study serve to strengthen the psychological immunity of young people to information threats and preserve their mental health.

Keywords: information attacks, psychological resilience, youth, media literacy, critical thinking, information security, misinformation, psychological defense, emotional stability, psychological immunity, socio-psychological factors.

KIRISH

XXI asr axborot texnologiyalari va raqamli kommunikatsiyalar asri sifatida tavsiflanib, inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Axborot oqimlarining keskin ortishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi jamiyat taraqqiyoti uchun katta imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, shaxs ongiga turli axborot xurujlari orqali ta’sir ko‘rsatish xavfini ham kuchaytirmoqda. Ayniqsa, yoshlar axborotni faol qabul qiluvchi va iste’mol qiluvchi ijtimoiy qatlam sifatida turli manipulyativ, destruktiv va dezinformatsion axborotlarning ta’siriga ko‘proq duch kelmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida axborot xurujlari nafaqat siyosiy yoki mafkuraviy vosita, balki inson psixikasiga ta’sir ko‘rsatishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Noto‘g‘ri, yolg‘on yoki manipulyativ axborotlar yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari hamda psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Natijada ularda xavotir, stress, emotsional beqarorlik, ijtimoiy moslashuv

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy oliy ta'lim sharoitida talabalarda akademik mas'uliyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini takomillashtirish masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari oliy ta'lim tizimi oldiga nafaqat yuqori bilimga ega mutaxassislarni tayyorlash, balki mustaqil fikrlaydigan, o'z ta'lim faoliyatini ongli boshqara oladigan, akademik halollik va shaxsiy javobgarlik tamoyillariga amal qiladigan shaxslarni shakllantirish vazifasini qo'ymoqda. Shu nuqtayi nazardan akademik mas'uliyat talabaning o'quv jarayonidagi majburiyatlarini bajarishi bilangina cheklanmay, balki uning ichki motivatsiyasi, o'zini-o'zi boshqarish qobiliyati, maqsad qo'yish, qaror qabul qilish, refleksiya qilish va shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan psixologik tayyorgarligini ham ifodalaydi.

Kalit so'zlar: akademik mas'uliyat, talaba shaxsi, o'zini-o'zi boshqarish, ichki motivatsiya, refleksiya, akademik halollik, psixologik mexanizm, mustaqil ta'lim, kasbiy rivojlanish, o'z-o'zini nazorat qilish, ta'lim motivatsiyasi, shaxsiy javobgarlik.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируется вопрос совершенствования психологических механизмов развития академической ответственности у студентов в условиях современного высшего образования. Сегодняшние процессы глобализации и цифровой трансформации ставят перед системой высшего образования задачу не только подготовки высококвалифицированных специалистов, но и формирования самостоятельно мыслящих личностей, способных сознательно управлять своей образовательной деятельностью, придерживающихся принципов академической честности и личной ответственности. С этой точки зрения академическая ответственность не ограничивается только выполнением студентом своих обязанностей в учебном процессе, но и выражает его внутреннюю мотивацию, способность к самоконтролю, постановке целей, принятию решений, рефлексии и психологическую готовность, направленную на личностное развитие.

Ключевые слова: академическая ответственность, личность студента, самоуправление, внутренняя мотивация, рефлексия, академическая честность, психологический механизм, самостоятельное обучение, профессиональное развитие, самоконтроль, образовательная мотивация, личная ответственность.

Abstract. This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the issue of improving psychological mechanisms for developing academic responsibility in students within the context of modern higher education. Today's processes of globalization and digital transformation place the task of the higher education system not only to train highly qualified specialists but also to form individuals who think independently, can consciously manage their educational activities, and adhere to the principles of academic integrity and personal responsibility. From this perspective, academic responsibility is not limited to the student's fulfillment of their duties in the educational process, but also represents their internal motivation, self-management, goal-setting, decision-making, reflection, and psychological readiness aimed at personal development.

Keywords: academic responsibility, student personality, self-management, internal motivation, reflection, academic integrity, psychological mechanism, independent learning, professional development, self-control, educational motivation, personal responsibility.

Kirish. XXI asrda oliy ta'lim tizimi inson kapitalini rivojlantirishning asosiy strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, innovatsion taraqqiyot va ilmiy salohiyatning oshishi bevosita oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan

yosh mutaxassislarning nafaqat bilim darajasi, balki ularning shaxsiy sifatlari, mas’uliyat hissi va mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatiga ham bog‘liqdir.

Bugungi kunda oliy ta’lim jarayonida kuzatilayotgan asosiy muammolardan biri ayrim talabalarning o‘z ta’lim faoliyatiga nisbatan tashqi nazoratga bog‘langan holda yondashishi, mustaqil bilim olish ko‘nikmalarining yetarli shakllanmaganligi hamda akademik jarayon natijalari uchun shaxsiy javobgarlik hissining pastligidir. Shu sababli talabalarda akademik mas’uliyatni rivojlantirish zamonaviy pedagogik psixologiyaning dolzarb ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Akademik mas’uliyat tushunchasi talabaning ta’lim jarayonidagi vazifalarini bajarishi, belgilangan talab va me’yorlarga rioya qilishi bilangina chegaralanmaydi. Uning mazmuni ancha keng bo‘lib, shaxsning o‘z bilim olish jarayonini ongli tashkil etishi, ta’lim natijalari uchun javobgarlikni qabul qilishi, o‘z imkoniyatlarini baholashi va rivojlantirishga intilishini ham qamrab oladi.

Psixologik nuqtayi nazardan akademik mas’uliyat shaxsning ichki tartibga solish tizimi bilan uzviy bog‘liqdir. Talaba o‘z oldiga maqsad qo‘yishi, unga erishish yo‘llarini belgilashi, vaqt va imkoniyatlarini boshqarishi, qiyinchiliklarni yengib o‘tishi hamda o‘z faoliyat natijalarini tahlil qila olishi akademik mas’uliyat rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy psixologiyada akademik mas’uliyat bir nechta muhim komponentlarning o‘zaro integratsiyasi sifatida qaraladi:

1. Motivatsion komponent – talabaning bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, qiziqishi, kasbiy maqsadlari va o‘z rivojlanishiga intilishi bilan bog‘liq.

2. Kognitiv komponent – ta’lim jarayonini tushunish, bilim olish strategiyalarini tanlash, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi.

3. Emotsional-irodaviy komponent – qiyinchiliklarga bardosh berish, qat’iyatlilik, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish va maqsad sari harakat qilish imkoniyatlarini belgilaydi.

4. Refleksiv komponent – o‘z faoliyatini baholash, xatolarni anglash, shaxsiy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Ushbu komponentlarning uyg‘un rivojlanishi talabani ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisidan faol subyektiga aylantiradi.

Adabiyotlar tahlili. Akademik mas’uliyat muammosi ta’lim psixologiyasi, shaxs psixologiyasi va rivojlanish psixologiyasi doirasida ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Turli nazariy yondashuvlarda ushbu tushuncha motivatsiya, o‘zini-o‘zi boshqarish, shaxsiy javobgarlik, mustaqil ta’lim olish va akademik muvaffaqiyat bilan bog‘liq holda izohlanadi.

Psixologik tadqiqotlarda akademik mas’uliyatning asosiy nazariy asoslaridan biri o‘z-o‘zini determinatsiya qilish nazariyasi hisoblanadi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, inson faoliyatining samaradorligi uning ichki motivatsiyasi, avtonom qaror qabul qilish imkoniyati va shaxsiy ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq. Talaba bilim olish jarayonini tashqi majburiyat sifatida emas, balki o‘z rivojlanishining muhim sharti sifatida qabul qilganda akademik mas’uliyat yuqori darajada namoyon bo‘ladi.

Motivatsion yondashuv vakillarining fikricha, akademik muvaffaqiyat faqat intellektual qobiliyatlar bilan belgilanmaydi. Unda talabaning maqsadga yo‘nalganligi, o‘z kuchiga ishonchi, muvaffaqiyatga intilishi va o‘z faoliyatini nazorat qila olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-kognitiv nazariya doirasida akademik mas’uliyat shaxsning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi - o‘z-o‘zini samaradorlik hissi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. O‘z bilim va qobiliyatlariga ishongan talaba murakkab topshiriqlardan qochmaydi, muvaffaqiyatsizliklarni rivojlanish tajribasi sifatida qabul qiladi va mustaqil harakat qilishga intiladi.

Akademik mas’uliyatni o‘rganishda shaxsning o‘zini-o‘zi boshqarish (self-regulation) konsepsiyasi alohida ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur yondashuvga ko‘ra, samarali ta’lim faoliyati talabaning tashqi nazorat ostida harakat qilishi emas, balki o‘z xulq-atvori, fikrlashi va o‘quv strategiyalarini mustaqil boshqara olishi orqali shakllanadi. O‘zini-o‘zi boshqaruvchi talaba ta’lim maqsadlarini mustaqil belgilaydi, ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslarni aniqlaydi, o‘z natijalarini nazorat qiladi hamda kerak bo‘lganda faoliyat usullarini o‘zgartira oladi.

Zamonaviy ta’lim psixologiyasida o‘zini-o‘zi boshqarish jarayoni uch asosiy bosqich orqali tushuntiriladi:

1. Rejalashtirish bosqichi – talabaning o‘z oldiga aniq akademik maqsad qo‘yishi, bilim olish strategiyasini tanlashi, vaqt va imkoniyatlarni to‘g‘ri taqsimlashi.

2. Faoliyatni amalga oshirish bosqichi – o‘quv vazifalarini bajarishda diqqatni jamlash, qiyinchiliklarni yengish, o‘z harakatlarini nazorat qilish.

3. Refleksiv baholash bosqichi – bajarilgan ish natijalarini tahlil qilish, xatolar sababini aniqlash va kelgusi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash. Aynan ushbu bosqichlarning samarali shakllanishi akademik mas’uliyatning psixologik asosini tashkil etadi.

Talabalarda akademik mas’uliyatni rivojlantirish masalasida A.Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu nazariyada inson xulq-atvori shaxsiy omillar, muhit ta’siri va faoliyat tajribasining o‘zaro aloqasi natijasida rivojlanishi ta’kidlanadi. Talaba o‘zining akademik natijalariga ta’sir ko‘rsata olishiga ishonsa, unda mustaqillik, tashabbuskorlik va javobgarlik hissi kuchayadi.

Akademik mas’uliyatning rivojlanishida o‘z-o‘zini baholash jarayoni ham alohida o‘rin egallaydi. Chunki inson o‘z imkoniyatlari, bilim darajasi va shaxsiy sifatlari haqida shakllangan tasavvurlari asosida faoliyat strategiyasini belgilaydi. O‘zini adekvat baholay oladigan talaba muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik sabablarini chuqur tahlil qiladi, kamchiliklarini tan oladi va ularni bartaraf etishga intiladi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda akademik mas’uliyat akademik halollik tushunchasi bilan ham uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi. Akademik halollik talabaning bilim olish jarayonida haqqoniylik, mustaqillik, axloqiy tamoyillarga amal qilish va o‘z mehnati natijalari uchun javobgarlikni qabul qilishini bildiradi.

Muhokama. Raqamli ta’lim muhitining kengayishi sharoitida akademik halollik masalasi yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. Axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarining ortishi talabadan nafaqat axborot olish, balki undan ongli, mas’uliyatli va tanqidiy foydalanishni ham talab qiladi.

Akademik mas’uliyat murakkab psixologik hodisa bo‘lib, uning shakllanishi bir qator ichki mexanizmlar orqali amalga oshadi. Ushbu mexanizmlar shaxsning motivatsiyasi, tafakkuri, hissiy holati, irodaviy sifatlari va ijtimoiy munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq.

1. Motivatsion mexanizm. Talabalarda akademik mas’uliyatni rivojlantirishning eng muhim psixologik asoslaridan biri motivatsion mexanizmdir. Motivatsiya shaxs faoliyatining yo‘nalishini, mazmunini va barqarorligini belgilovchi ichki kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida ikki xil motivatsiya farqlanadi: tashqi motivatsiya; ichki motivatsiya. Tashqi motivatsiya baho olish, rag‘bat, ota-ona yoki pedagog talablarini bajarish kabi tashqi omillarga asoslanadi. Bunday motivatsiya ma’lum darajada samarali bo‘lsa-da, uzoq muddatli akademik mas’uliyatni shakllantirish uchun yetarli emas.

Ichki motivatsiya esa talabaning bilim olishdan qoniqish olishi, kasbiy rivojlanishga intilishi va o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish istagi bilan bog‘liq. Aynan ichki motivatsiya akademik mas’uliyatning barqaror shakllanishiga asos yaratadi.

Ichki motivatsiyasi yuqori bo‘lgan talabalarda quyidagi xususiyatlar kuzatiladi: mustaqil bilim olishga intilish; ilmiy izlanishga qiziqish; murakkab vazifalardan qochmaslik; o‘z natijalariga tanqidiy yondashish; shaxsiy rivojlanishga ehtiyoj sezish. Shu sababli oliy ta’lim jarayonida talabalarni faqat nazorat qilish emas, balki ularda bilim olishga nisbatan ichki ehtiyojni shakllantirish muhim hisoblanadi.

2. Kognitiv mexanizm. Akademik mas’uliyatning keyingi muhim mexanizmi kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq. Kognitiv mexanizm talabaning bilim olish jarayonini tushunishi, axborotni qayta ishlashi, muammolarni hal qilishi va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlarini belgilaydi.

Mas’uliyatli talaba o‘z ta’lim faoliyatiga ongli yondashadi. U faqat tayyor bilimlarni qabul qilmaydi, balki ularni tahlil qiladi, taqqoslaydi va amaliy vaziyatlarda qo‘llashga harakat qiladi.

Kognitiv mexanizm quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi: tanqidiy tafakkur; mustaqil fikrlash; muammoni tahlil qilish; qaror qabul qilish; ta’lim strategiyalarini tanlash. Ayniqsa, zamonaviy

axborot oqimi kuchaygan davrda tanqidiy tafakkur akademik mas’uliyatning ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Chunki talaba katta hajmdagi axborot orasidan ilmiy asoslangan, ishonchli va foydali ma’lumotlarni ajrata olishi zarur.

3. Emotsional-irodaviy mexanizm. Talabalarda akademik mas’uliyatni rivojlantirishning muhim psixologik mexanizmlaridan yana biri emotsional-irodaviy mexanizmdir. Ta’lim jarayoni faqat bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi, balki unda shaxsning hissiy barqarorligi, qiyinchiliklarga munosabati, maqsad sari qat’iyat bilan harakat qilishi va o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olishi ham muhim ahamiyatga ega.

Akademik faoliyat davomida talaba turli psixologik vaziyatlarga duch keladi: murakkab topshiriqlarni bajarish, vaqt yetishmovchiligi, baholash jarayonidagi xavotir, muvaffaqiyatsizlik ehtimoli yoki yuqori talablar bilan bog‘liq bosim. Ana shunday holatlarda talabaning emotsional-irodaviy boshqaruv qobiliyati uning akademik mas’uliyat darajasini belgilab beradi.

Irodaviy sifatlari rivojlangan talaba: o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadga izchil intiladi; vaqtinchalik qiyinchiliklarni yengishga harakat qiladi; tashqi nazorat bo‘lmasa ham o‘z majburiyatlarini bajaradi; o‘z hissiyotlarini boshqaradi; muvaffaqiyatsizlikdan to‘g‘ri xulosa chiqaradi.

Akademik mas’uliyat shakllanishida sabr-toqat, qat’iyatlilik, intizomlilik va o‘zini nazorat qilish kabi sifatlar alohida ahamiyatga ega. Chunki bilim olish jarayoni doimiy harakat, mehnat va shaxsiy nazoratni talab qiladi.

Talabaning o‘z hissiy holatini boshqarish qobiliyati akademik faoliyat samaradorligini oshiradi. Masalan, imtihon yoki muhim topshiriqlar oldidan yuzaga keladigan xavotirni boshqarish, stressga chidamlilik va o‘z imkoniyatlariga ishonch akademik natijalarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning nafaqat intellektual salohiyatini, balki emotsional kompetentligini rivojlantirish ham muhim vazifa hisoblanadi.

4. Refleksiv mexanizm. Refleksiya akademik mas’uliyatning eng muhim psixologik mexanizmlaridan biri bo‘lib, shaxsning o‘z faoliyatini anglash, baholash va takomillashtirish jarayonini ifodalaydi.

Refleksiv qobiliyat rivojlangan talaba o‘ziga quyidagi savollarni bera oladi: Men qanday natijaga erishdim? Ushbu natijaga qanday omillar ta’sir qildi? Qanday xatolarga yo‘l qo‘ydim? Kelgusida qanday o‘zgarish qilishim kerak? Shaxsiy rivojlanishim uchun qanday imkoniyatlardan foydalanishim zarur? Bunday yondashuv talabaning o‘quv faoliyatini ongli tashkil etishga yordam beradi.

Refleksiv mexanizm quyidagi jarayonlarni qamrab oladi:

1. O‘z-o‘zini tahlil qilish. Talaba o‘z bilim darajasi, kuchli va rivojlantirilishi kerak bo‘lgan tomonlarini aniqlaydi. Bu jarayon real maqsadlarni belgilash imkonini beradi.

2. O‘z-o‘zini baholash. Akademik natijalarni faqat tashqi baho orqali emas, balki shaxsiy rivojlanish mezonlari asosida baholash mas’uliyat hissini oshiradi.

3. O‘z-o‘zini takomillashtirish. Talaba kamchiliklarni anglagandan so‘ng ularni bartaraf etishga qaratilgan faol harakatlarni amalga oshiradi.

Refleksiya rivojlangan sari talaba ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. U o‘z muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizliklarini faqat tashqi omillar bilan izohlamaydi, balki o‘z harakati, qarorlari va yondashuvlarini ham tahlil qiladi.

Akademik mas’uliyat shaxsning individual xususiyatlari hamda ta’lim muhiti ta’sirida shakllanadi. Shu sababli uning rivojlanishida bir nechta asosiy psixologik omillar mavjud.

1. Shaxsiy motivatsiya va kasbiy maqsadlarning aniqligi. Talaba nima uchun ta’lim olayotganini, egallayotgan bilimlari kelajakdagi kasbiy faoliyatida qanday ahamiyatga ega ekanligini tushunganida akademik jarayonga nisbatan mas’uliyatliroq munosabat shakllanadi. Aniq kasbiy maqsadga ega talabalar: bilim olish jarayonini ongli tashkil qiladi; vaqtni samarali boshqaradi; mustaqil rivojlanishga harakat qiladi; tashabbuskorlik ko‘rsatadi. Aksincha, maqsadlarning noaniqligi o‘quv motivatsiyasining pasayishi, sust ishtirok va tashqi nazoratga bog‘liqlikni kuchaytirishi mumkin.

2. O‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati. Akademik mas’uliyatning asosiy belgilaridan biri talabaning o‘z faoliyatini mustaqil tartibga sola olishidir. O‘zini boshqara oladigan talaba: kun tartibini rejalashtiradi; ustuvor vazifalarni aniqlaydi; chalg‘ituvchi omillarni nazorat qiladi; belgilangan maqsad sari muntazam harakat qiladi.

Raqamli texnologiyalar rivojlangan hozirgi davrda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasi yanada muhimlashmoqda. Chunki axborot oqimining ko‘pligi, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa omillar talabadan yuqori darajadagi ichki nazoratni talab qiladi. Akademik mas’uliyatni rivojlantirish modeli. Talabalarda akademik mas’uliyatni samarali rivojlantirish uchun kompleks psixologik model zarur. Ushbu model quyidagi bosqichlardan iborat bo‘lishi mumkin:

1-bosqich. Diagnostik bosqich. Bu bosqichda talabalar akademik mas’uliyatining mavjud darajasi aniqlanadi. Baholash mezonlari: o‘quv motivatsiyasi; mustaqil ishlash darajasi; javobgarlik hissi; akademik intizom; refleksiv qobiliyat. Diagnostika natijalari asosida rivojlantirish strategiyasi belgilanadi.

2-bosqich. Motivatsion rivojlantirish bosqichi. Mazkur bosqichning asosiy maqsadi talabalarda bilim olishga nisbatan ichki ehtiyojni kuchaytirishdir. Buning uchun: shaxsiy va kasbiy maqsadlarni shakllantirish; muvaffaqiyat motivatsiyasini rivojlantirish; o‘z imkoniyatlariga ishonchni oshirish; ta’limning hayotiy ahamiyatini anglatish muhim hisoblanadi.

3-bosqich. Amaliy rivojlantirish bosqichi. Talabalarda akademik mas’uliyatni shakllantirishning amaliy bosqichi ularning kundalik ta’lim faoliyatida mustaqillik, javobgarlik va o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. Ushbu bosqichda asosiy e’tibor nazariy bilimlarni amaliy xatti-harakatlarga aylantirishga qaratiladi.

Akademik mas’uliyatni rivojlantirish jarayonida talaba o‘zini ta’limning oddiy ishtirokchisi emas, balki shaxsiy rivojlanishi uchun javobgar bo‘lgan faol subyekt sifatida his qilishi zarur. Chunki haqiqiy mas’uliyat tashqi majburlash orqali emas, balki ichki anglash va o‘z faoliyati natijalarini tushunish asosida shakllanadi.

Xulosa

Talabalarda akademik mas’uliyatni rivojlantirish zamonaviy oliy ta’lim tizimining eng muhim psixologik-pedagogik vazifalaridan biridir. Chunki bugungi jamiyatga nafaqat chuqur nazariy bilimlarga ega, balki mustaqil qaror qabul qiladigan, o‘z faoliyati natijalari uchun javobgarlikni his qiladigan, doimiy rivojlanishga intiladigan mutaxassislar zarur.

O‘tkazilgan nazariy tahlillar akademik mas’uliyat shaxsning murakkab integral sifati ekanligini ko‘rsatadi. Uning shakllanishi motivatsion, kognitiv, emotsional-irodaviy va refleksiv mexanizmlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida amalga oshadi.

Motivatsion mexanizm talabaning bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyojini shakllantirib, uning akademik faoliyatga ongli munosabatini ta’minlaydi.

Kognitiv mexanizm mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish imkonini beradi.

Emotsional-irodaviy mexanizm esa qat’iyatlilik, o‘zini nazorat qilish, qiyinchiliklarni yengish va maqsad sari izchil harakat qilish sifatlarini rivojlantiradi.

Refleksiv mexanizm talabaning o‘z faoliyatini baholashi, xatolaridan xulosa chiqarishi va doimiy takomillashishga intilishini ta’minlaydi.

Shunday qilib, akademik mas’uliyatni rivojlantirish jarayoni quyidagi natijalarga olib keladi: talabaning mustaqil ta’lim olish qobiliyati oshadi; kasbiy tayyorgarlik sifati yaxshilanadi; o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyoji kuchayadi; akademik halollik madaniyati shakllanadi; kelajakdagi professional faoliyatga psixologik tayyorgarlik ortadi.

Talabalarda akademik mas’uliyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini takomillashtirish uchun oliy ta’lim jarayonida kompleks yondashuvni amalga oshirish zarur. Chunki akademik mas’uliyat alohida ko‘nikma sifatida emas, balki shaxsning motivatsion, intellektual, emotsional va ijtimoiy sifatlari uyg‘unligi natijasida shakllanadi. Ushbu jarayon samaradorligini oshirish uchun quyidagi **ilmiy-amaliy tavsiyalarni** ilgari surish mumkin:

1. Talabalarda ichki motivatsiyani rivojlantirish. Akademik mas’uliyatning barqaror rivojlanishi, avvalo, talabaning bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyoji bilan belgilanadi. Shu sababli

ta’lim jarayonida talabalarni faqat baho yoki tashqi rag‘bat orqali emas, balki shaxsiy va kasbiy rivojlanish motivlari orqali faollashtirish zarur. Buning uchun: o‘quv fanlarining kelajak kasbiy faoliyat bilan bog‘liqligini ko‘rsatish; talabaning individual qiziqishlarini hisobga olish; mustaqil izlanish va ijodiy topshiriqlar ulushini oshirish; talabada o‘z rivojlanishi uchun javobgarlik hissini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Ichki motivatsiya rivojlangan talaba ta’lim jarayonida tashqi majburlovlarga kamroq ehtiyoj sezadi, o‘z bilim va ko‘nikmalarini oshirishga mustaqil intiladi.

2. Mustaqil ta’lim kompetensiyalarini rivojlantirish. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabaning mustaqil bilim olish qobiliyati asosiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Chunki bugungi tez o‘zgaruvchan jamiyatda mutaxassis faqat oliy ta’lim davrida olingan bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, butun faoliyati davomida o‘zini rivojlantirib borishi zarur. Mustaqil ta’lim kompetensiyalarini shakllantirish quyidagilar orqali amalga oshiriladi: axborotni mustaqil izlash; ilmiy manbalar bilan ishlash; tanqidiy tahlil qilish; yangi bilimlarni amaliyotga tatbiq etish; o‘zlashtirish jarayonini nazorat qilish.

Mustaqil ta’lim jarayonida pedagog nazoratchi emas, balki yo‘naltiruvchi va rivojlantiruvchi vazifasini bajarishi akademik mas’uliyat shakllanishini jadallashtiradi.

3. Akademik o‘zini-o‘zi boshqarish madaniyatini shakllantirish. Talabaning o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyati akademik mas’uliyatning markaziy mexanizmlaridan biridir. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida o‘z-o‘zini boshqarish madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Bunda quyidagi yo‘nalishlar muhim:

- Maqsadni boshqarish. Talaba o‘zining qisqa va uzoq muddatli akademik maqsadlarini aniqlashi, ularni amalga oshirish bosqichlarini belgilashi zarur.

- Faoliyatni boshqarish.O‘quv jarayonida vazifalarni rejalashtirish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va natijalarni nazorat qilish talab etiladi.

- Emotsional boshqaruv. Stress, xavotir va muvaffaqiyatsizlik holatlarida hissiy barqarorlikni saqlash akademik muvaffaqiyatning muhim omillaridan biridir.

4. Akademik halollik madaniyatini rivojlantirish. Akademik mas’uliyat bevosita akademik halollik bilan bog‘liqdir. Talaba o‘z bilim natijalariga halol erishishi, mustaqil fikrlashi va ilmiy-axloqiy me’yorlarga amal qilishi zarur. Akademik halollikni rivojlantirish uchun: ilmiy etika qoidalarini tushuntirish; mustaqil tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish; tanqidiy fikrlashni shakllantirish; shaxsiy javobgarlikni oshirish talab etiladi. Akademik halollik rivojlangan muhitda talaba bilimni faqat natija uchun emas, balki o‘z shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun egallaydi.

5. Talabalarda refleksiv madaniyatni rivojlantirish. Refleksiya talabaning o‘zini anglash va rivojlantirish mexanizmi sifatida akademik mas’uliyatni kuchaytiradi. Refleksiv madaniyat quyidagi qobiliyatlarni shakllantiradi: o‘z faoliyatiga tanqidiy qarash; muvaffaqiyat va kamchiliklarni tahlil qilish; o‘z imkoniyatlarini baholash; rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish. Doimiy refleksiya talabani tashqi baholashga qaram shaxsdan o‘z rivojlanishini mustaqil boshqaruvchi shaxsga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. New Jersey: Prentice Hall, 1986.

2. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. New York: Plenum Press, 1985.

3. Zimmerman B.J. Self-regulated learning and academic achievement: theoretical perspectives. Educational Psychologist, 2000.

4. Pintrich P.R. The role of motivation in promoting and sustaining self-regulated learning. International Journal of Educational Research, 1999.

5. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.

6. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. Москва: Учпедгиз.2002.

7. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. Москва: Политиздат. 1975.

8. Woolfolk A. Educational Psychology. Boston: Pearson, 2016.

REFLEKSIV TAFAKKUR TURLARI VA KOMPANENTLARI NAZARIY TAHLILI

Obidova Dilnoza Maqsud qizi
Guliston davlat universiteti Tayanch doktaranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda refleksiv tafakkurning qaratilgan obyektga qarab asosiy turlari, kompanentlari va vaqtga ko‘ra xillari atroflicha tahlil qilingan. Shu bilan birga ularning har birining ahamiyati va vazifalari haqida so‘z boradi. So‘ngra shaxs refleksiyasini tashkil etish metodikasi bosqichlari keltirib xulosalangan.

Kalit so‘zlar: Faoliyat refleksiyasi, koorparativ refleksiya, operatsional kompanent, emotsional kompanent, retrospektiv refleksiya, perspektiv refleksiya.

Abstract: This abstract thoroughly analyzes the primary types of reflective thinking in relation to the object of focus, its components, and its temporal dimensions. Concurrently, it explores the significance and functional roles of each distinct type. Furthermore, the methodological stages for organizing personal reflexion are delineated, culminating in a synthesized conclusion.

Keywords: Activity-oriented reflexion, coorperative reflection, operational component, emotional component, retrospective reflexion, prospective reflexion.

Аннотация: В настоящих тезисах проводится подробный анализ основных видов рефлексивного мышления в зависимости от целевого объекта, его компонентов и временных типов. Наряду с этим подробно раскрываются значимость и функциональные особенности каждого из этих видов. В заключительной части систематизированы и обобщены методологические этапы организации личностной рефлексии.

Ключевые слова: Рефлексия деятельности, совместная рефлексия, операциональный компонент, эмоциональный компонент, ретроспективная рефлексия, перспективная рефлексия.

Nazariya va amaliyotda “refleksiya” tushunchasining rivojlanish tarixini batafsil ko‘rib chiqishda dastavval tushunchaga diqqat qaratamiz, refleksiya (lot. reflexio – ortga qaytish, qayrilish) -subyekt tomonidan o‘zining ichki ruhiy holatlari va harakatlarini kuzatish, o‘zini-o‘zi anglash jarayonidir. Refleksiyaning maqsadlari - faoliyatning asosiy komponentlarini: uning mazmun-mohiyati, turlari, usullari, muammolari, ularni hal qilish yo‘llari va olingan natijalarni esga olish, aniqlash hamda anglab yetishdan iborat. Refleksiyaga bo‘lgan qobiliyat, ya’ni shaxsning o‘z shaxsiy tajribasi stereotiplarini qayta anglab yetish (qayta ko‘rib chiqish) qobiliyati zamonaviy shaxsining asosiy xarakteristikalaridan biri hisoblanadi. Amerikalik tadqiqotchi D. Elkinz ongning 2 ta darajasini ajratib ko‘rsatadi: “chuqur diqqat qaratilgan” ong (faoliyatga to‘liq berilgan) va "o‘z-o‘zini refleksiyalovchi" ong. Ongning faoliyatga to‘liq berilgan holati uchun insonning o‘zini o‘z hayotiy faoliyati subyekti sifatida anglash darajasi pastligi xosdir. Ya’ni yuqori darajadagi refleksivlik hayotiy jarayonlarda murakkabliklarni (ikkilanish, qaror qabul qilish muddatining cho‘zilishi, ishonchsizlik) keltirib chiqarishi mumkin. O‘z-o‘zini refleksiyalovchi ong darajasida esa har qanday harakat refleksivlik xususiyatiga ega bo‘ladi - u ongli ravishda bajariladi va o‘ziga xos “qayta aloqa” bilan birga kechadi. X.Xekxauzenning so‘zlariga ko‘ra, ushbu “qayta aloqa” insoning “harakatdan oldin va harakat davomida belgilangan maqsadni faoliyat istiqbollari nuqtayi nazaridan baholashiga, uni turli me’yorlarni hisobga olgan holda tuzatishiga, ehtimoliy natijalar uchun o‘zini mas’ul his qilishi hamda ularning o‘zi va boshqalar uchun oqibatlarini o‘ylab ko‘rishiga” imkon beradi [2].

Refleksiv tafakkur (shaxsning o‘z-o‘zini anglash holati) obyektiga, ya’ni diqqat qaratilgan manbaga qarab bir nechta asosiy guruhlarga bo‘linadi:

Shaxsiy refleksiya - o‘z-o‘zini tahlil qilish, shaxsiy "Men"ni o‘rganish va o‘z-o‘zini anglashga erishishni o‘z ichiga oladi;

Kommunikativ refleksiya - boshqa odamlar bilan bo‘lgan munosabatlarni tahlil qiladi;

Kooperativ refleksiya - biror maqsadga erishish yo‘lidagi hamkorlikdagi (birgalikdagi) faoliyatni chuqur mulohaza qilib ko‘radi;

Intellektual refleksiya - insonning bilim, malaka va ko‘nikmalariga, shuningdek, ularni qo‘llash sohasi hamda usullariga e’tibor qaratadi;

Ijtimoiy refleksiya - insonning ichki holatini boshqalar uni qanday qabul qilishi va u haqida nima deb o‘ylashi orqali anglashga qaratilgan;

Professional (kasbiy) refleksiya - martaba pog’onalaridan ko‘tarilish (karyera o‘sishi) jarayonini tahlil qilishga yordam beradi;

O‘quv refleksiyasi - darsda olingan materiallarni yaxshiroq o‘zlashtirish imkonini beradi;

Ilmiy refleksiya - insonning ilm-fan bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalarini anglash va mulohaza yuritishga qaratilgan;

Ekzistensial refleksiya - hayotning ma’nosi va boshqa shu kabi chuqur (falsafiy) savollar ustida bosh qotiradi;

Sanogen refleksiya - shaxsning hissiy (emotsional) holatini nazorat qilishga yo‘naltirilgan.

Ilmiy va pedagogik adabiyotlarda keladigan faoliyat refleksiyasining komponentlari muqobil variantlari quydagilar sanaladi.

Motivatsion komponent - ushbu ishni bajarishga undagan maqsadlar, ehtiyojlar va motivlarni anglash.

Maqsadli (maqsad yo‘nalishli) komponent - aniq vazifalarni hamda dastlabki reja (g‘oya) yakuniy natijalarga qanchalik mos kelganini anglab yetish.

Operatsional (protsessual / jarayonli) komponent - maqsadga erishish uchun foydalanilgan metodlar, usullar, vositalar va texnologiyalarni tahlil qilish.

Emotsional komponent - o‘zining ichki holati, kayfiyati, qulaylik darajasi va bajarilgan ishga bo‘lgan munosabatini baholash.

Natijaviy (kognitiv / bilish) komponenti - orttirilgan tajribani tahlil qilish, xatolarni aniqlash, muvaffaqiyat darajasini belgilash va zaruriy tuzatishlarni rejalashtirish.[4]

Refleksiya jarayonida asos qilib olingan vaqtga qarab, u 3 ta asosiy shaklda namoyon bo‘lishi mumkin:

Retrospektiv shakl - O‘tmishdagi voqea-hodisalarni tahlil qilish bilan xarakterlanadi.

Situativ (vaziyatli) shakl - Inson bilan aynan hozirgi lahzada sodir bo‘layotgan voqealarga nisbatan munosabat (reaksiya) bildirishda ifodalanadi.

Prospektiv shakl - Kelajakda kutilayotgan, hali sodir bo‘lmagan voqealar refleksiya qilinadi. Bunga insonning orzulari, rejalari va maqsadlari kiradi.[1]

Refleksiyaning vaqtga qarab 3 shaklidan eng keng tarqalgan shakl retrospektiv refleksiya hisoblanadi. Undan pedagogikada - o‘quvchilar tomonidan mavzuni mustahkamlashda, hamda psixologiyada - psixologik muammolarni hal qilish uchun o‘tmishdagi voqealarni tahlil qilishda foydalaniladi. Psixodiagnostik metodlar orqali past refleksivlikka ega bo‘lgan shaxslarni aniqlab, refleksivlik darajasini o‘rtachaga ko‘tarish uchun bir qancha tizimlashtirilgan metodikalardan foydalanish mumkin.

Shaxsda refleksiv tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish va ushbu jarayonni tizimli tashkil etish quyidagi ketma-ket bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Faoliyatni to‘xtatish (fiksatsiya bosqichi) refleksiyadan oldingi holat.

Dastlab bajarilayotgan bevosita faoliyat (matematik, intellektual, badiiy yoki boshqa turdagi o‘quv-amaliy harakatlar) yakunlanishi yoki maqsadli ravishda to‘xtatilishi lozim. Agarda muammoni hal qilish jarayonida yengib bo‘lmas qiyinchilik (kognitiv to‘siq) yuzaga kelsa, yechim jarayoni vaqtincha to‘xtatiladi. Diqqat-e’tibor bevosita subyekt tomonidan “bajarilgan harakatlar traektoriyasi” tahliliga yo‘naltiriladi.

2. Harakatlar ketma-ketligini rekonstruksiya qilish (yozma yoki og‘zaki tavsif).

Ushbu bosqichda amalga oshirilgan barcha harakatlar zanjiri izchillik bilan qayta tiklanadi. Subyekt tomonidan (hatto dastlab ahamiyatsiz bo‘lib tuyulgan detallar ham) og‘zaki yoki yozma shaklda to‘liq va obyektiv tavsiflanadi. Bu jarayon xotiradagi amaliy gipotezalarni tizimlashtirishga xizmat qiladi.

3. Kognitiv tahlil va baholash (parametrik o‘rganish).

Tiklangan harakatlar ketma-ketligi samaradorlik, mahsuldorlik hamda qo‘yilgan maqsadlarga muvofiqlik mezonlari asosida tahlil qilinadi. Refleksiv materialni baholash parametrlari tadqiqotchi (psixolog) tomonidan taklif etiladi yoki respondentning shaxsiy maqsad va motivlaridan kelib chiqqan holda mustaqil belgilanadi.

4. Refleksiv natijalarni konseptuallashtirish (yakuniy natijalarni shakllantirish).

Bu bosqichda refleksiv tahlil yakunlari umumlashtiriladi va aniq verbal (nutqiy) yoki tarkibiy shaklga keltiriladi. Chiqarilgan natijalar invariant guruhlarga differensiyalanadi (ajratiladi).

Refleksiv faoliyat natijalarining tasnifida quydagi konseptual natijalar shakllanadi:

- Predmetli (obyektiv) : Faoliyat davomida yuzaga kelgan yangi g‘oyalar, farazlar (gipotezalar), qonuniyatlar va muammoli savollarga topilgan yechimlar.
- Metodologik yutuqlar: Intellektual yoki amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘zlashtirilgan, transformatsiya qilingan yoki subyekt tomonidan yangi o‘ylab topilgan strategiya va usullar.
- Prognostik gipotezalar: Kelgusi faoliyat modelini loyihalashga qaratilgan tahliliy taxminlar. Bunda subyekt kelajakdagi harakatlarining miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari qanday o‘zgarishini (o‘sish trayektoriyasini) prognoz qilaolish.[3]

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, refleksiya shaxsning o‘zini yaxlit holatda anglashini, ortga nazar asosida situativ adekvat qarorlar qabul qilishiga zamin yaratadi. Ammo chuqur refleksiya shaxsda o‘z hayotining o‘zi yaratuvchisi ekanligiga ishonchi pastligini ko‘rsatadi. Ushbu metokognitiv jarayonni chuqur o‘rganish orqali inson ongining yashirin qirralarini ochishga erishishimiz va hayotimizning turli jabhalarida muammolarni yechishimiz, noaniqliklarga aniqik kiritishimiz, ko‘zlangan maqsadlarga erishish muddatini qisqartirishga muvaffaq bo‘lishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Власов С.А. Аксиология современной российской системы образования// Контекст и рефлексия: философия о мире и человеке. 2012. №1. С.87-93

2. Голубева Н.М. Современные научные подходы к пониманию феномена рефлексии// Современные проблемы науки и образования.-2014.-№5. [Электронный журнал].

3. Марико В.В., Михайлова Е.Е. Рефлексия в педагогической деятельности: этапы становления и средства развития// Инновации в образовании. Вестник Нижегородского университета им. Н И. Лобачевского.- №6 (1). С. 35-40.

4. https://lechusdoma.ru/refleksija/

5. https://spravochnick.ru/pedagogika/obschie_osnovy_pedagogiki/refleksiya

INKLYUZIV TA’LIMNING PSIXOLOGIK ASOSLARI VA UNING O‘QUVCHILAR RIVOJIGA TA’SIRI

Omonboyeva Madina Tillaboy qizi

Ma’mun universiteti

“Psixologiya” yo‘nalishi 24-3 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezisda inklyuziv ta’limning psixologik asoslari, uning o‘quvchilarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy rivojlanish nazariyasi, humanistik yondashuv va sotsial o‘rganish nazariyasi metodologik asos sifatida qo‘llanilgan. Natijalar inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va o‘zini baholash darajasi oshishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, psixologiya, ijtimoiy moslashuv, o‘zini baholash, maxsus ehtiyojli bolalar, L.V.Vyugotskiy, A. Bandura , K. Rodjers.

Аннотация. В данном тезисе на основе научных источников анализируются психологические основы инклюзивного образования, его влияние на когнитивное, эмоциональное и социальное развитие учащихся. В исследовании в качестве методологической основы использованы теория социального развития, гуманистический подход и теория социального обучения. Результаты показывают, что в условиях

инклюзивного образования повышается уровень социальной адаптации и самооценки учащихся.

Ключевые слова: инклюзивное образование, психология, социальная адаптация, самооценка, дети с особыми потребностями, Л.В. Выготский, А. Бандура, К. Роджерс.

Abstract. This thesis analyzes the psychological foundations of inclusive education and its impact on students' cognitive, emotional, and social development based on scientific sources. The study utilizes the theory of social development, the humanistic approach, and the theory of social learning as methodological foundations. The results show an increase in the level of social adaptation and self-esteem of students in the context of inclusive education.

Keywords: inclusive education, psychology, social adaptation, self-esteem, children with special needs, L.V. Vyugotsky, A. Bandura, K. Rogers.

Kirish

Inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalarning, jumladan maxsus ehtiyojga ega bolalarning ham umumta’lim muassasalarida birgalikda o‘qishini ta’minlovchi tizimdir. Psixologik jihatdan bu yondashuv bolaning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy integratsiyasi va emotsional barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi. Inklyuziv ta’lim – bu alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar bilan bir qatorda sog‘lom tengdoshlarning ham bir xil ta’lim muassasasida birgalikda o‘qishi va tarbiyalanishini nazarda tutuvchi ta’lim tizimidir. Ushbu yondashuv har bir bolaning ta’lim olish huquqini ta’minlash, uning individual imkoniyatlarini rivojlantirish hamda jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga ko‘maklashishga qaratilgan.

Tadqiqot maqsadi. Inklyuziv ta’lim sharoitining o‘quvchilarning psixologik rivojlanishiga ta’sirini ilmiy asosda tahlil qilish.

Inklyuziv ta’lim (barcha bolalarning, jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida o‘ziga xosligi bo‘lgan o‘quvchilarning umumta’lim maktablarida teng huquqli ta’lim olishi) fundamental psixologik nazariyalarga tayanadi: Tadqiqot quyidagi psixologik nazariyalarga tayangan:

L.S. Vigotskiy – ijtimoiy rivojlanish nazariyasi: rivojlanish ijtimoiy muloqot orqali shakllanadi. Vigotskiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni alohidalash (izolyatsiya qilish) ularning ijtimoiy moslashuvini qiyinlashtiradi deb hisoblagan. Uning fikricha, boladagi biologik kamchilik (birlamchi nuqson) ijtimoiy muhit orqali to‘ldirilishi (ikkilamchi kompensatsiya) lozim. Sog‘lom tengdoshlar muhiti inklyuziv ta’lim oluvchi bola uchun kuchli ijtimoiy kompensatsiya manbai bo‘lib xizmat qiladi.

A. Bandura – sotsial o‘rganish nazariyasi: xulq-atvor kuzatish va taqlid orqali o‘zlashtiriladi. Kuzatish va ijtimoiy modellashtirish orqali o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, imkoniyati cheklangan bolalar sog‘lom tengdoshlarining xatti-harakatlari, nutqi va ijtimoiy ko‘nikmalarini modellashtirish (nusxa olish) orqali tezroq rivojlanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki: Inklyuziv ta’limda o‘quvchilarning **ijtimoiy moslashuv darajasi yuqori** bo‘ladi. Maxsus ehtiyojli bolalarda **o‘ziga ishonch va motivatsiya oshadi**. Sog‘lom bolalarda **empatiya va ijtimoiy tolerantlik rivojlanadi**. Sinfda **psixologik iqlim ijobiylashadi**, ijtimoiy izolyatsiya kamayadi.

Inklyuziv ta’limning psixologik asoslari

Inklyuziv ta’limning psixologik negizini insonparvarlik, teng imkoniyatlar va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari tashkil etadi. Psixologik nuqtai nazardan har bir bola o‘ziga xos individual xususiyatlarga ega bo‘lib, uning rivojlanish sur’ati, qobiliyati, qiziqishlari va ehtiyojlari bir-biridan farq qiladi. Shu sababli ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi.

Mashhur rus psixologi Lev Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, bolaning rivojlanishi ijtimoiy muhit va hamkorlikdagi faoliyat orqali amalga oshadi. Inklyuziv sinflarda o‘quvchilar o‘zaro muloqot qilish, bir-biridan o‘rganish va ijtimoiy tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini jadallashtiradi.

Shuningdek, inklyuziv ta’limning psixologik asoslaridan biri shaxsning ijobiy “Men” konsepsiyasini shakllantirishdir. Ta’lim jarayonida o‘quvchi o‘z qadr-qimmatini his etishi, jamoadagi o‘rnini anglay olishi va muvaffaqiyatga erishishiga ishonch hosil qilishi muhimdir.

Inklyuziv ta’limning o‘quvchilar rivojiga ta’siri

1. Kognitiv rivojlanishga ta’siri. Inklyuziv muhitda o‘quvchilar turli qobiliyat va imkoniyatlarga ega tengdoshlari bilan hamkorlik qiladi. Bu esa ularning fikrlash, muammoni hal qilish, muloqot va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim muhitida o‘qigan bolalarda mustaqil fikrlash va o‘quv motivatsiyasi yuqoriroq bo‘ladi.

2. Ijtimoiy rivojlanishga ta’siri. Inklyuziv ta’lim bolalarda bag‘rikenglik, hamkorlik, empatiya va o‘zaro hurmat kabi ijtimoiy fazilatlarni shakllantiradi. Sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim olayotgan alohida ehtiyojli bolalar o‘zlarini jamiyatning teng huquqli a’zosi sifatida his etadilar. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuv darajasini oshiradi.

3. Emotsional rivojlanishga ta’siri. Qo‘llab-quvvatlovchi inklyuziv muhit o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Muvaffaqiyatli ijtimoiy tajriba natijasida ularda xavotir, qo‘rquv va yolg‘izlik hissi kamayadi. Natijada emotsional barqarorlik va psixologik farovonlik darajasi ortadi.

4. Shaxs rivojlanishiga ta’siri. Inklyuziv ta’lim o‘quvchilarda mas’uliyat, mustaqillik, tashabbuskorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni rivojlantiradi. Har bir bolaning qobiliyati va imkoniyatlari e’tiborga olinishi natijasida uning shaxs sifatida kamol topishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

Shu bilan birga, samaradorlik o‘qituvchining psixologik-pedagogik tayyorgarligiga bog‘liqligi aniqlangan.· Empatiya va tolerantlik (bag‘rikenglik): Sog‘lom bolalar yoshligidanoq insonlarning xilma-xilligini tabiiy qabul qilishni o‘rganadilar. Ularda agressiya darajasi pasayadi va altruizm (boshqalarga yordam berish istagi) shakllanadi. Bunday sinflarda o‘sgan bolalarda yetakchilik, g‘amxo‘rlik va jamoaviy qo‘llab-quvvatlash hissi ancha erta rivojlanadi.

Xulosa

Inklyuziv ta’lim psixologik nuqtayi nazardan shaxsning ijtimoiylashuvi va emotsional barqarorligini ta’minlovchi samarali ta’lim modelidir. Uning muvaffaqiyati pedagogik yondashuv, ijtimoiy muhit va individual psixologik qo‘llab-quvvatlash darajasiga bog‘liq. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarda ijtimoiy moslashuv jarayoni an’anaviy ta’lim tizimiga nisbatan samaraliroq kechadi. Bunda o‘quvchilar turli imkoniyatga ega tengdoshlar bilan doimiy muloqotda bo‘lishi natijasida empatiya, hamkorlik, ijtimoiy moslashuvchanlik kabi muhim ijtimoiy-psixologik sifatlar shakllanadi va rivojlanadi. Shuningdek, inklyuziv ta’limning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining psixologik-pedagogik kompetensiyasi, sinfdagi ijobiy psixologik iqlim hamda individual yondashuvning to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq ekanligi aniqlanadi. Agar ushbu omillar yetarli darajada ta’minlansa, inklyuziv ta’lim nafaqat ta’lim sifati, balki jamiyatda ijtimoiy tenglik va integratsiyani mustahkamlashga ham xizmat qiladi.Psixologik nuqtai nazardan, inklyuziv ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimining oliy cho‘qqisidir. U insonni biologik nuqsonlari munosabati bilan emas, balki uning individual ruhiy salohiyati va shaxsiy qimmati prizmasi orqali baholaydi.Ilmiy tadqiqotlar va dunyo tajribasi (masalan, Skandinaviya va Yevropa ta’lim modellari) shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv muhitda o‘qigan bolalar kelajakda ijtimoiy moslashuvchan, hissiy intellekti (EQ) yuqori va krizisli vaziyatlarda barqaror shaxs bo‘lib yetishadilar. Bu tizim nafaqat alohida bolani, balki butun jamiyat munosabatlarini sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.

2. Bandura, A. (1986). *Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory*. Prentice-Hall.

3. Rogers, C. R. (1961). *On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy*. Houghton Mifflin.

4. UNESCO (1994). *The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education*. Paris: UNESCO.

5. Ainscow, M. (2005). *Developing Inclusive Education Systems: What Are the Levers for Change?* Journal of Educational Change, 6(2), 109–124.

6. Florian, L. (2014). *What counts as evidence of inclusive education?* European Journal of Special Needs Education, 29(3), 286–294.

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI O‘QITISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULAR TA’LIMINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Otajonov Olimboy Atamuradovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya. Maqolada alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarni o‘qitishning huquqiy, pedagogik va psixologik asoslari yoritilgan. Unda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, moslashtirilgan ta’lim muhiti yaratish hamda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligining ahamiyati tahlil qilinadi. Inklyuziv ta’lim teng imkoniyatlar va adolatli ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: imkoniyati cheklangan bolalar, inklyuziv ta’lim, alohida ta’lim ehtiyojlari, huquqiy asos, maxsus pedagogika, individual ta’lim, moslashtirilgan muhit, ijtimoiy integratsiya, pedagogik qo‘llab-quvvatlash.

Аннотация. В статье освещаются правовые, педагогические и психологические основы обучения детей с особыми образовательными потребностями. В ней анализируется важность развития инклюзивного образования, создания адаптированной образовательной среды и сотрудничества педагогов, психологов и родителей. Инклюзивное образование рассматривается как важное направление политики равных возможностей и справедливого образования.

Ключевые слова: дети с инвалидностью, инклюзивное образование, особые образовательные потребности, правовая база, специальная педагогика, индивидуальное образование, адаптированная среда, социальная интеграция, педагогическая поддержка.

Abstract. The article covers the legal, pedagogical, and psychological foundations of teaching children with special educational needs. It analyzes the development of inclusive education, the creation of an adapted educational environment, and the importance of cooperation between educators, psychologists, and parents. Inclusive education is interpreted as an important direction of equal opportunities and equitable education policy.

Keywords: children with disabilities, inclusive education, special educational needs, legal framework, special pedagogy, individual education, adapted environment, social integration, pedagogical support.

Kirish

Bugungi globallashuv va insonparvar ta’lim siyosati sharoitida har bir bolaning sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlash davlat va jamiyat oldidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish, ularning individual rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayoniga jalb etish zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Imkoniyati cheklangan bola — bu jismoniy, aqliy, sensor, nutqiy, ruhiy yoki ijtimoiy rivojlanishida muayyan cheklanishlar mavjud bo‘lgan, ta’lim jarayonida maxsus sharoit, pedagogik yondashuv va psixologik qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadigan boladir. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda bunday bolalarga nisbatan “alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar” tushunchasi ham keng qo‘llaniladi. Bu atama bolaning chekloviga emas, balki uning ta’lim olish uchun zarur sharoitlarga bo‘lgan ehtiyojiga urg‘u beradi.

Inklyuziv ta’limning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, bola ta’lim tizimiga moslashishi kerak emas, balki ta’lim tizimi bolaning ehtiyojlariga moslashishi lozim. Shu jihatdan imkoniyati cheklangan bolalar ta’limini tashkil etish masalasi huquqiy, pedagogik, psixologik, ijtimoiy va axloqiy jihatlarni o‘zida mujassam etuvchi murakkab jarayondir.

Imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitishning huquqiy asoslari

Imkoniyati cheklangan bolalarni ta’limga jalb etish masalasi, avvalo, inson huquqlari va bola huquqlarini himoya qilish tamoyillariga asoslanadi. Ta’lim olish huquqi har bir bolaning ajralmas huquqi bo‘lib, u bolaning ijtimoiylashuvi, shaxs sifatida rivojlanishi, mustaqil hayotga tayyorlanishi va jamiyatda faol ishtirok etishining asosiy omili hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan bolalar ta’limining huquqiy asoslari quyidagi manbalarga tayanadi:

Huquqiy manba	Mazmuni va pedagogik ahamiyati
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi	Har bir shaxsning ta’lim olish huquqi, tenglik, inson sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish tamoyillarini belgilaydi.
“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun	Ta’limning uzluksizligi, ochiqligi, teng imkoniyatliligi va har bir shaxsning ta’lim olish huquqini kafolatlaydi.
“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun	Bolaning himoya, rivojlanish, ta’lim olish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash huquqlarini mustahkamlaydi.
“Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun	Nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim, mehnat, ijtimoiy himoya va jamiyat hayotida teng ishtirok etish huquqlarini belgilaydi.
BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi	Bolaning manfaatlari ustuvorligi, kamsitmaslik va ta’lim olish huquqini xalqaro darajada e’tirof etadi.
BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi	Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun inklyuziv ta’lim, teng imkoniyat va to‘siqsiz muhit yaratish zarurligini belgilaydi.
Inklyuziv ta’limni rivojlantirishga oid davlat qarorlari va konsepsiyalar	Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarni umumiy ta’lim muhitiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish, maxsus sharoit yaratish va mutaxassislar tayyorlash vazifalarini belgilaydi.

Psixologiya fanining ijtimoiy hayotda nufuzi har soniya sayin ortib bormoqda. Shu tufayli pedagogik ta'lim muassasalarida uni o'qitish yo'lga qo'yila boshlandi. Mazkur soha bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida O'rta Osiyo Davlat Universitetida 1938 yilda (hozirgi Milliy Universitet) logika va psixologiya bo'limi ochildi. 50-yillarning 2-yarmidan boshlab pedagogika institutlarida va bilim yurtlarida psixologiya bo'limlari ochildi. Ayniqsa qisqa muddatli 9 va 15 oylik ommaviy psixologlar tayyorlash kurslarining ommaviylashuvi psixolog-mutaxassislarga nisbatan bo'lgan ehtiyojning kuchayganligini bildiradi.

Sanoat va mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida tadbiqiy ishlar birinchi navbatda konkret tashkilotda kadrlar zaxirasini to'g'ri va oqilona tashkillashtirishdan tortib, xodimlar ish sharoitlari va mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar kompleksini ilmiy ravishda o'rganib, hayotda natija olishga qaratilgan harakatlar majmuidir.

marketing xizmatlari;

xodimlar (personal) bilan ishlash.

Birinchisi eng zamonaviy va muhim ish bo'lib, bu yerda psixologning vazifasi "Nimani" va "Kim" xarid qilib olishga ehtiyoji borligini o'rganishga ko'maklashishdir.

Siyosiy sohada ishlayotgan psixolog ishining o‘ziga xos jihatlari bo‘lib, unga quyidagilar kiradi:

siyosatda psixolog aralashuvi ko‘pchilik ommaga bevosita aloqador bo‘lmaydi;

zarurat tug‘ilganda, psixolog shunday tez va ishonchli o‘lchaydigan metodikalarni ishlatadiki, ularning natijalari sir saqlanib, o‘sha buyurtmachi-siyosatchining talabiga ko‘ra izlanishlar olib boriladi;

psixolog har bir siyosatchi uchun shunday ishonchli shaxs bo‘lishi lozimki, undan odamlarning kayfiyatlari, reaksiyalari, his - kechinmalari xususida aniq ma’lumotlar so‘raladi;

o‘ziga xos qiyinchilik shundan iboratki, jamoatchilik psixolog qiyofasida ko‘pincha liderning bevosita „odamini“ ko‘rishga moyil bo‘lib, lideming o‘zi ham ba’zan o‘ta professional psixologdan hadiksirab qolishi mumkin.

Muhandis-psixolog.

Odam-texnika tizimidagi o‘zaro munosabatlar xususida bilimlarga ega bo‘lib, texnik moslamalarni ishlab chiqishda ishtirok etadi

Muhandis-psixolog.

Odam va texnika o‘zaro munosabatlariga oid psixologik muammolar bilan shug‘ullanadi

Maslahatchi-psixolog.

Shaxsiy muammolarni hal qilish yuzasidan tavsiyalar berib, testlar o‘tkazadi

Siyosiy-psixolog.

Siyosiy tuzilmalar a’zolariga psixologik maslahatlar berish, siyosiy dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi.

Madaniyat masalalari bo‘yicha psixolog.

Turli madaniy muhit sharoitidagi odamlar ijtimoiy xulqini solishtirma tahlili bilan shug‘ullanadi

Tibbiyotchi psixolog.

Tibbiy maskanlarda psixologik profilaktika va psixogigiyena masalalari bilan shug‘ullanib, bemorlarning psixologik xususiyatlarini o‘rganadi

Klinik psixolog.

Terapiya va bemorlarning hissiy emosional kechinmalari masalarini o‘rganadi

Psixologiya o‘qituvchisi.

Psixologiyaning turli aspektlariga oid ma’ruzalar o‘qiydi

Hozirgi kunda psixologiya miditsina,maktab,bog’cha, oliy o‘quv yurtlari,organ,sud,oila,jamiyat kabi bir qancha sohalarda qo‘llanib kelinmoqda. Bu sohalar hozirgi vaqtda bizga zarur bo‘lgan asosiy komponentlar kerak chunki, bu sohalar kelajagimizni ravnaqida hissa qo‘shishga yordam beradi. Ayniqsa, klinika va pedagogikada juda zarur masalan hozir 100 ta inson birida psixologichiskiy tashxish qo‘yish ko‘p.Shuning uchun bu yo‘nalishlarni rivojlantirish zarur.

Xulosa: Psixologiyaning jamiyatdagi ro‘li beqiyosdir. U inson ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash, shaxs rivojlanishini ta’minlash, ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirish, oilaviy va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, psixologik bilimlar mehnat jarayonida motivatsiyani oshirish, nizolarni bartaraf etish va jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda katta o‘rin tutadi. Demak, psixologiya shaxsning ham, jamiyatning ham barkamol rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan fanlardan biridir.U inson ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash, shaxs rivojlanishini ta’minlash, ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirish, oilaviy va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi shiddatli axborot asrida, texnologiyalar rivoji bilan birga inson ruhiyatiga tushayotgan yuklama va stresslar ortib borayotgan bir davrda, psixologik xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj har qachongidan ham yuqoridir. Psixologiya insonni o‘z-o‘zini anglashga, ichki imkoniyatlarini kashf etishga va hayotiy inqirozlardan muvaffaqiyatli o‘tishga o‘rgatadi.

Shuningdek, psixologik bilimlar nafaqat shaxsiy hayotda, balki makro darajada — mehnat jarayonida motivatsiyani oshirish, korporativ madaniyatni yuksaltirish, boshqaruv tizimidagi nizolarni bartaraf etish va jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda katta o‘rin tutadi.

Bugungi kunda tibbiyot, siyosat, muhandislik va san’at kabi ko‘plab sohalar psixologiya fani yutuqlariga tayanmoqda.

Demak, psixologiya nafaqat individual darajada shaxsning emotsional barqarorligini, balki global darajada butun jamiyatning ham barkamol, xavfsiz va tizimli rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan fundamental hamda amaliy fanlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 512 b.
2. Davletshin M.G., Do‘stmuhamedova Sh.A., Mavlonov M.M., To‘ychiyeva S.M. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2014. – 320 b.
3. Nishonova Z.T., Alimuhamedov A.A. Psixologik xizmat asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2016. – 286 b.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2012. – 240 b.
5. Vohidov M.V. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – 368 b.
6. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2011. – 256 b.
7. Rajabov A.A. Kasb psixologiyasi va muhandislik psixologiyasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. – 304 b.
8. Рубинштейн С.Л. Основи обшчей психологии. – Москва: Питер, 2019. – 713 с.
9. Немов Р.С. Психология. Книга 1. Обшчие основи психологии. – Москва: Юрайт, 2021. – 726 с.

YOSH BASKETBOLCHILARDA SHAXSIY VA IJTIMOIY MAS'ULIYATNI SHAKLLANTIRISH

Razakov Sanjar Ataxonovich
O‘zbekiston Respublikasi IIVning Xorazm akademik litseyi Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi **sanjar.ataxonovich@gmail.com**

Annotatsiya. Mazkur maqolada yosh basketbolchilarda shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishning nazariy-psixologik hamda pedagogik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda shaxsiy mas’uliyat, ijtimoiy mas’uliyat, sport faoliyatida mas’uliyatli xulq-atvor hamda shaxs rivojlanishiga oid zamonaviy ilmiy yondashuvlar o‘rganilgan. Shuningdek, basketbolning jamoaviy sport turi sifatida o‘smir sportchilar shaxsining shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yosh basketbolchilar, shaxsiy mas'uliyat, ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy tarbiya, murabbiylik, jamoaviylik, sport pedagogikasi.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретико-психологические и педагогические основы формирования личной и социальной ответственности у юных баскетболистов. В исследовании изучены современные научные подходы к личной ответственности, социальной ответственности, ответственному поведению в спортивной деятельности и развитию личности. Также освещены психологические механизмы, влияющие на формирование личности юных спортсменов в баскетболе как командном виде спорта.

Ключевые слова: молодые баскетболисты, личная ответственность, социальная ответственность, нравственное воспитание, тренерство, командность, спортивная педагогика.

Abstract. This article analyzes the theoretical, psychological, and pedagogical foundations of forming personal and social responsibility in young basketball players. The study examines modern scientific approaches to personal responsibility, social responsibility, responsible behavior in sports activities, and personal development. The psychological mechanisms of basketball as a team sport affecting the formation of the personality of adolescent athletes are also highlighted.

Keywords: young basketball players, personal responsibility, social responsibility, moral education, coaching, teamwork, sports pedagogy.

Zamonaviy sport psixologiyasi va sport pedagogikasida sportchining yuqori natijaga erishishi nafaqat uning funksional va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy rivojlanish darajasi, ijtimoiy moslashuvchanligi hamda mas'uliyatli xulq-atvor xususiyatlari bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, bolalikdan o'smirlik davriga o'tish bosqichida sport faoliyati shaxs shakllanishining muhim ijtimoiy instituti sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan jamoaviy sport turlarida, xususan basketbolda yosh sportchilarda shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Mas'uliyat fenomeni psixologiya, pedagogika va ijtimoiy fanlarda insonning o'z xatti-harakati, qarorlari hamda ularning natijalariga nisbatan ongli munosabati sifatida izohlanadi. Psixologik nuqtai nazardan mas'uliyat insonning ichki nazorati, mustaqilligi, o'zini boshqarish qobiliyati va ijtimoiy normalarni qabul qilish darajasi bilan bog'liq integrativ shaxsiy sifat hisoblanadi. Sport faoliyatida esa mas'uliyat nafaqat individual intizom, balki jamoa oldidagi burchni his qilish, hamkorlik qilish va umumiy maqsadlarga xizmat qilish orqali namoyon bo'ladi.

Shaxsiy mas'uliyat insonning o'z faoliyatini rejalashtirishi, maqsadlarni belgilashi, qaror qabul qilishi va o'z harakatlari natijalari uchun javob berishga tayyorligi orqali ifodalanadi. Bunday sifatlar sport faoliyatida mashg'ulot rejimiga amal qilish, texnik harakatlarni takomillashtirish, musobaqalarga ongli tayyorgarlik ko'rish hamda xatolarni tahlil qilish orqali shakllanadi. Shaxsiy mas'uliyat yuqori bo'lgan sportchilar tashqi nazoratsiz ham o'z harakatlarini boshqara oladi, yuqori darajada ichki motivatsiyaga ega bo'ladi va o'z rivojlanishi uchun mustaqil harakat qiladi.

Ijtimoiy mas'uliyat esa insonning ijtimoiy munosabatlarda boshqalar manfaatini hisobga olishi, jamoa qoidalariga amal qilishi, hamkorlik qilish va ijtimoiy foydali harakatlarni amalga oshirishga tayyorligi bilan tavsiflanadi. Jamoaviy sport turlarida ushbu sifat alohida ahamiyat kasb etadi, chunki jamoa natijasi har bir ishtirokchining harakati bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Basketbol o'yini tez qaror qabul qilish, vazifalarni taqsimlash, bir-birini qo'llab-quvvatlash va umumiy strategiya asosida harakat qilishni talab qiladi. Bu esa ijtimoiy mas'uliyat rivojlanishi uchun qulay muhit yaratadi.

Yosh sportchilarda mas'uliyat shakllanishi o'smirlik davri psixologik xususiyatlari bilan ham uzviy bog'liq. O'smirlik shaxs shakllanishining muhim bosqichi bo'lib, mazkur davrda mustaqillikka intilish, o'zini anglash, ijtimoiy maqomni izlash va tengdoshlar bilan munosabatlar faol rivojlanadi. Sport faoliyati ushbu jarayonlarga tartibli ta'sir ko'rsatib, yoshlarda intizom, maqsadga yo'nalganlik va javobgarlik hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Sport muhitida shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyat shakllanishining muhim omillaridan biri murabbiy shaxsi hisoblanadi. Murabbiy nafaqat texnik tayyorgarlikni tashkil etuvchi mutaxassis, balki tarbiyaviy ta'sir subyekti sifatida ham ishtirok etadi. Murabbiyning munosabat uslubi, muloqot madaniyati, qaror qabul qilish jarayoniga sportchilarni jalb qilishi va refleksiv muhit yaratishi mas'uliyat shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy sport psixologiyasida shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishning eng keng tarqalgan konsepsiyalaridan biri Donald Xellison tomonidan taklif etilgan modeli hisoblanadi. Ushbu yondashuv sport mashg'ulotlarini faqat natijaga emas, balki shaxs tarbiyasiga ham yo'naltirish g'oyasiga asoslanadi. Model sportchilarda mas'uliyat bosqichma-bosqich shakllanishini nazarda tutadi va hurmat, ishtirok, mustaqillik, g'amxo'rlik hamda hayotiy transfer kabi darajalarni qamrab oladi.

TPSR modeliga ko'ra, sport mashg'ulotlari jarayonida ishtirokchilarning o'z xatti-harakatini tahlil qilishi, jamoadagi rolini anglashi, mustaqil qaror qabul qilishi va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xulqni namoyon qilishi ta'minlanadi. Bu esa sport natijalari bilan bir qatorda shaxsiy kamolotni ham rivojlantiradi.

Basketbol mashg'ulotlari jarayonida mas'uliyat shakllanishining psixologik mexanizmlari sifatida interiorizatsiya, identifikatsiya, refleksiya va o'zini boshqarish jarayonlari ajratiladi. Interiorizatsiya tashqi talablarning ichki qadriyatlarga aylanishi jarayonini anglatadi. Identifikatsiya orqali sportchi murabbiy yoki jamoadagi yetakchi a'zolarning ijobiy xulq modellarini qabul qiladi. Refleksiya insonning o'z harakatlari va ularning natijalarini baholash

qobiliyatini rivojlantiradi. O‘zini boshqarish esa maqsadlarni belgilash, harakatlarni nazorat qilish va natijalar uchun javobgarlikni qabul qilishni ta’minlaydi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, yosh sportchilarda mas’uliyat shakllanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar qatoriga ichki motivatsiya, jamoadagi psixologik iqlim, murabbiyning demokratik rahbarlik uslubi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va mashg‘ulot mazmuni kiradi. Ayniqsa, jamoaviy o‘yinlarda ishtirokchilarning qaror qabul qilish jarayoniga jalb qilinishi mas’uliyat darajasini sezilarli oshiradi.

Shunday qilib, yosh basketbolchilarda shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish ko‘p qirrali psixologik-pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon sport muhiti, tarbiyaviy texnologiyalar, murabbiy ta’siri va sportchining individual xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat asosida amalga oshadi. Sport faoliyatini shaxs rivojlanishiga yo‘naltirilgan holda tashkil etish yosh avlodni nafaqat raqobatbardosh sportchi, balki mas’uliyatli va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining jismoniy tarbiya va sport sohasini yanada rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlari. – Toshkent. – 2020.

2. Hellison Donald *Teaching Personal and Social Responsibility Through Physical Activity*. 3rd ed. – Champaign: Human Kinetics. – 2011.

3. Deci Edward, Ryan Richard The “What” and “Why” of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior // *Psychological Inquiry*. – Vol. 11. – № 4. – P. 227–268. – 2000.

YOLG’IZLIK HISSI NAMOYON BO‘LISHINING TURLARI

Rustamova Turdixon Ne’matjonovna

Namangan davlat universiteti psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yolg’izlik hissi uni keltirib chiqaruvchi sabab va oqibatlari hamda turlari ularni inson psixikasiga ta’sir etishi haqida keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yolg’izlik, emotsional, ekzistensial, situation yolg’izlik, inqiroz, kuchli va kuchsiz yolg’izlik.

Аннотация: В данной статье представлен всесторонний обзор причин и последствий одиночества, а также типов чувств, влияющих на человеческую психику.

Ключевые слова: одиночество, эмоциональное, экзистенциальное, ситуационное одиночество, кризис, сильное и слабое одиночество.

Abstract: This article provides a comprehensive overview of the causes and consequences of loneliness, as well as the types of feelings that affect the human psyche.

Keywords: loneliness, emotional, existential, situation loneliness, crisis, strong and weak loneliness.

Yolg’izlik hissi - bu odamlar bilan yaqin, ijobiy hissiy aloqalarning yetishmasligi yoki ularni yo‘qotishdan qo‘rqish bilan bog’liq bo‘lgan murakkab salbiy tuyg’ular yig’indisi hisoblanadi[3]. Psixologiyada yolg’izlikning namoyon bo‘lishi bir necha turlarga bo‘linadi. Yolg’izlik hissi namoyon bo‘lishining asosiy turlari quyidagilar:

Hissiy (emotsional) yolg’izlik: Yaqin do‘st, turmush o‘rtoq yoki oila a’zosi kabi hissiy jihatdan yaqin odamning yo‘qligi tufayli yuzaga keladigan bo‘shliq hissi hisoblanadi. Bunda mehr-muhabbat, tushunish yoki qo‘llab-quvvatlashni yetishmasligi oqibatida yuzaga kelishini ko‘rishimiz mumkin [4].

Ijtimoiy yolg’izlik: Insonning biror jamoaga, guruhga (do‘stlar davrasi, hamkasblar) tegishli emasligini his qilishi, do‘stlar, jamiyat yoki guruh bilan aloqalar kamligi sababli yuzaga keladi. Bunda odam o‘zini jamiyatdan ajralgandek his qiladi hamda ijtimoiy aloqalarning yetishmasligi deb belgilanadi[3].

Mavjudlik (ekzistensial) yolg’izlik: Hayotning ma’nosi, maqsadi yoki o‘z o‘rnini topa olmaslik o‘lim, insonning bu dunyoda tubdan yolg’iz ekanligi haqidagi falsafiy anglash va u bilan bog’liq qo‘rquv hissini tuyushi bilan kechadigan hissiy holat sanaladi[2].

Vaqtinchalik (situatsion) yolg'izlik: Hayotdagi o‘zgarishlar (yashash joyini ya'ni muhitni o‘zgartirish, ajralish, yaqinini yo‘qotish) tufayli yuzaga keladigan qisqa muddatli holatlardir.

Surunkali yolg'izlik: Uzoq vaqt davomida davom etadigan va insonning psixik holatiga salbiy ta'sir ko‘rsatadigan chuqur tuyg'u hisoblanadi.

Ixtiyoriy yolg‘izlik: Inson ongli anglagan ravishda yolg‘iz qolishni o‘zi xoxlaydi va tanlaydi. Bunda asosan dam olish, o‘zini anglash yoki ijod qilish uchun foydali bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin sanaladi.

Psixologik yolg‘izlik: Inson uning atrofida odamlar bo‘lsa ham, inson o‘zini boshqalar tomonidan tushunilmagandek, qabul qilinmayotgandek yoki o‘zini begonalashgandek his qilishini ko‘rishimiz mumkin [3].

Yolg'izlikning namoyon bo‘lish xususiyatlariga: subyektiv baholash: Inson o‘zini qanchalik yolg'iz deb his qilish holatidir (kuchli yoki kuchsiz).

Tan olish darajasi: Individ o‘zining yolg'izligini tan oladimi yoki tan olmaydimi Inqiroz davridagi keskinlik: Hayotdagi inqirozli vaziyatlarda (o‘smirlik, ajralish) yolg'izlik hissi kuchayishi hisoblanadi[1]. Yolg'izlik har doim ham jismoniy yolg'izlikni anglatmaydi; inson odamlar qurshovida bo‘lsa-da, o‘zini yolg'iz his qilishi mumkinligi aniqlangan. Yolg'izlik hissi turli xil ko‘rinishlarni o‘z ichiga oladigan murakkab hissiy jarayon hisoblanadi. Yolg'izlik tuyg'usiga moyillik, bu ayniqsa inson hayotidagi inqiroz davrida ichi va tashqi omillarning keskin ta'sirida namoyon bo‘ladi.

Yolg'izlik hissi yosh davrlari bo‘yicha qaralganda – bu har bir davrda o‘ziga hos tarzda kechiriladi va namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra yolg'izlik hissi uzoq muddatli va qisqa muddatli bo‘lishi ham mumkin.

N.G'.Kamilova tomonidan o‘zbek tiliga modifikatsiyalashtirilgan yolg'izlikni o‘lchash shkalasi bo‘yicha ijtimoiy faol mexnatga jalb qilingan ayollar va uy bekalarida yolg'izlikni his qilinishi aniqlangan

Yolg'izlikni o‘lchashning modifikatsiyalashtirilgan shkalasi

Natijalar taxlili

T/R	Yolg'izlik hissining darajalari	Sinaluvchilar soni	Pedagoglar	Texnik soxadagilar	Uy bekasi
1	Yolg'izlik hissining yuqori darajasi , omillarning kamida bittasi bo‘yicha yolg'izlik hissining o‘ta kuchayib ketganligi (1-daraja)	10	6	2	2
2	Yolg'izlik hissining o‘rta darajasi , individ ijtimoiy – psixologik aloqalarining kamligini kompensatsiyalashga va yolg'izlik hissini susaytirishga qodirligi (2-daraja)	26	13	5	8
3	Yolg'izlik hissining past darajasi , og'ir yolg'izlik hissining yo‘qligi (3-daraja)	0	0	0	0
	Jami	36	19	7	10
	%	100%	53%	19%	28%

Xulosa qilib aytganda, yolg‘izlik hissi barcha insonlarning ichki kechinmalari va ijtimoiy munosabatlariga bog‘liq bo‘lib, u emotsional, ijtimoiy, ekzistensial, majburiy yoki ixtiyoriy shakllarda namoyon bo‘lishi aniqlangan. Ba'zan inson odamlar orasida bo‘lsa ham o‘zini yolg‘iz his qilishini ko‘rishimiz mumkin. Uzoq davom etgan yolg‘izlik inson ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Николов Н. О. Научный стиль мышления преподавателей: структура, критерии и уровни развитости. Экономические и гуманитарные исследования регионов. 2021; № 1: 83 – 89 ст.
2. Хайдеггер М. Бытие и время. – СПб.: Наука, 2002. – 450 с.
3. Лабунская В.А., Менджерицкая Ю.А., Бреус Е.Д. Психология затрудненного общения. − М.: Академия, 2001. −288 с.
4. Маслоу, А.Г. Мотивация личности: [Текст]/ А.Г. Маслоу.- СПб., 2005. 316 ст.

O‘QUVCHILARDA INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA 4K KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Saburov Ulug‘bek
Nukus davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida o‘quvchilarda XXI asr ko‘proq tanqid bo‘lgan 4K kompetentsiyalarini qayta ko‘rib chiqish muhim omili — kreativlik, kommunikativlik va hamkorlikni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari tahlili. Tadqiqotda blended learning, Project-Based Learning, Problem-Based Learning va interfaol metodlarning o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy va kommunikativ rivojlanishidagi didaktik tarzda yoritilgan. Natija innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarining analitik tafakkuri, ijodiy qurilishi va jamoaviy faoliyat ko‘rsatishini boshqarishda muhim korxona ega.

Kalit so‘zlar: 4K kompetensiyalari, innovatsion ta’lim, tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikativ kompetensiya, hamkorlik faoliyati, ta’lim texnologiyalari, kompetensiyaviy yondashuv, XXI asr ko‘nikmalari, ta’lim jarayoni.

Abstract. This article analyzes the theoretical and pedagogical foundations for developing creativity, communicativeness, and collaboration—an important factor in revising students' 4K competencies, which the 21st century has increasingly criticized—in the modern education system. The study highlights the didactic use of blended learning, Project-Based Learning, Problem-Based Learning, and interactive methods in the independent thinking, creative, and communicative development of students. The result is that the application of innovative pedagogical technologies plays an important role in managing students' analytical thinking, creative construction, and collective activity.

Keywords: 4C competencies, innovative education, critical thinking, creative thinking, communication competence, collaborative learning, educational technologies, competency-based approach, twenty-first century skills, learning process.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретико-педагогические основы развития креативности, коммуникативности и сотрудничества - важного фактора пересмотра компетенций 4K у учащихся в современной системе образования, которые стали наиболее критичными в XXI веке. В исследовании дидактически освещены blended learning, Project-Based Learning, Problem-Based Learning и интерактивные методы в самостоятельном мышлении, творческом и коммуникативном развитии учащихся. Результат применения инновационных педагогических технологий имеет важное значение в управлении аналитическим мышлением, творческим строительством и коллективной деятельностью учащихся.

Ключевые слова: Компетенции 4K, инновационное образование, критическое мышление, креативное мышление, коммуникативная компетенция, совместная деятельность, образовательные технологии, компетентностный подход, навыки XXI века, образовательный процесс.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, globallashuv jarayonlari hamda raqamli texnologiyalarning jadal taraqqiyoti ta’lim mazmuni va metodologiyasini yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Hozirgi davrda ta’lim jarayoni faqatgina nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish, ijodiy yondashuv asosida qaror qabul qilish hamda samarali kommunikatsiya olib borish ko‘nikmalarini shakllantirishni ham talab etadi. Shu sababli ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish va o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Bugungi kunda ta’lim sohasida keng qo‘llanilayotgan 4K kompetensiyalari – tanqidiy fikrlash (critical thinking), kreativlik (creativity), kommunikatsiya (communication) va hamkorlik (collaboration) – o‘quvchilarning shaxsiy, akademik va kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur kompetensiyalar o‘quvchilarning mustaqil bilim olish qobiliyatini rivojlantirish, murakkab muammolarni tahlil qilish, innovatsion yechimlar ishlab chiqish hamda jamoa bilan samarali faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy ta’lim usullari ko‘proq reproduktiv bilimlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy tafakkurini yetarli darajada rivojlantira olmaydi. Zamonaviy ta’lim tizimi esa o‘quvchilarni faol o‘quv jarayoniga jalb etuvchi, ularning mustaqil fikrlashini rag‘batlantiruvchi hamda ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi innovatsion pedagogik yondashuvlarni talab etadi. Xususan, blended learning, project-based learning va problem-based learning kabi ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda 4K kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida qaralmoqda.

Shu bilan birga, innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasini oshiradi, ularning muloqot madaniyatini rivojlantiradi hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida o‘quvchilarda 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslarini o‘rganish muhim ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi o‘quvchilarda innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslarini tahlil qilish hamda ushbu jarayonni samarali tashkil etishning ilmiy-uslubiy jihatlarini aniqlashdan iborat.

Asosiy qism

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi pedagogika sohasidagi muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlik kabi 4K kompetensiyalari o‘quvchilarning intellektual rivojlanishi hamda ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu kompetensiyalar ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, murakkab muammolarni tahlil qilish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

XXI asr ko‘nikmalarining pedagogik mohiyati va ularning ta’lim tizimidagi ahamiyati bir qator xalqaro tadqiqotlarda keng yoritilgan. Jumladan, Trilling va Fadel (2009) o‘z tadqiqotlarida XXI asr ta’limi o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni egallashni, balki muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash hamda jamoaviy hamkorlik qilish ko‘nikmalarini shakllantirishni talab qilishini ta’kidlaydi. Mualliflarning fikriga ko‘ra, zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish hamda ularni murakkab ijtimoiy va professional muhitga tayyorlashga qaratilishi lozim.

Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning) metodining o‘quvchilarda 4K kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni Larmer, Mergendoller va Boss (2015) tomonidan keng o‘rganilgan. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, loyiha asosida o‘qitish o‘quvchilarning mustaqil tadqiqot olib borish, muammolarni tahlil qilish va jamoaviy faoliyat olib borish ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Shuningdek, Bell (2010) loyiha asosida o‘qitish o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rag‘batlantirishi hamda ularda innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantirishini ta’kidlaydi.

Muammoli ta’lim (Problem-Based Learning) ham o‘quvchilarning analitik va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik metodlardan biri hisoblanadi. Savery (2006) o‘z tadqiqotida muammoli ta’lim o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlab, ularning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishini ta’kidlaydi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuni chuqur anglashiga hamda nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llashiga imkon yaratadi.

Blended learning texnologiyasi esa an’anaviy va raqamli ta’lim muhitini uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi. Anwar va Rahayu (2022) tadqiqotlarida blended learning o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, ayrim tadqiqotlar blended learning metodining o‘quvchilarning 4K kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham innovatsion pedagogik yondashuvlar va 4K kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari muhim ilmiy yo‘nalish sifatida o‘rganilmoqda. Jumladan, Oripov (2020) o‘quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirishda innovatsion pedagogik metodlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Karimova (2021) esa O‘zbekiston ta’lim tizimida XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, innovatsion pedagogik yondashuvlar – xususan, project-based learning, problem-based learning va blended learning texnologiyalari – o‘quvchilarda 4K kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvlarni ta’lim jarayonida tizimli va metodik jihatdan asoslangan holda qo‘llash o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, kreativ salohiyatini hamda jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi o‘quvchilarda innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida 4K kompetensiyalarini (tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlik) rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot nazariy va amaliy metodlarni uyg‘unlashtirgan holda tashkil etildi.

Tadqiqot obyekti sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari, tadqiqot predmeti sifatida esa innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida 4K kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni belgilandi. Amaliy tadqiqot ishlari Taxiatosh tumani 4-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabida olib borildi. Tadqiqot jarayonida 7-sinfning 54 nafar o‘quvchisi ishtirok etdi (27 eksperimental, 27 nazorat).

Eksperimental tadqiqot 6 hafta davomida tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, dars jarayonida loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning) hamda aralash ta’lim (blended learning) metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, guruhda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot informatika fani darslari jarayonida amalga oshirildi. Darslarda o‘quvchilarga turli loyiha topshiriqlari, muammoli vaziyatlar hamda guruhiy faoliyatga asoslangan mashg‘ulotlar taklif etildi. Bu jarayonda o‘quvchilar kichik guruhlarda ishlash, o‘z fikrlarini erkin ifodalash hamda muammolarga kreativ yechim topish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi. Jumladan, nazariy tahlil metodi orqali 4K kompetensiyalari va innovatsion pedagogik yondashuvlar bo‘yicha ilmiy manbalar o‘rganildi. Amaliy tadqiqot jarayonida esa kuzatuv, test va so‘rovnoma metodlaridan foydalanildi. Test topshiriqlari o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va muammolarni tahlil qilish qobiliyatini aniqlashga xizmat qildi. So‘rovnomalar esa o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, hamkorlik darajasi hamda kommunikativ ko‘nikmalarini baholash maqsadida o‘tkazildi.

Eksperiment oldi va yakuniy bosqichlarda o‘quvchilarning 4K kompetensiyalari bo‘yicha ko‘rsatkichlari solishtirildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, innovatsion pedagogik metodlarni qo‘llash o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, kreativlik hamda jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Ayniqsa, loyiha asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini faollashtirib, ularning muammoli vaziyatlarga kreativ yondashish qobiliyatini kuchaytirdi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi innovatsion pedagogik yondashuvlarning o‘quvchilarda 4K kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash hamda ularning ta’lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qildi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari innovatsion pedagogik yondashuvlar – blended learning va loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning) metodlari – o‘quvchilarda 4K kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko‘rsatdi. Tadqiqot oldi va yakuniy bosqichlarda eksperimental (27 o‘quvchi) va nazorat (27 o‘quvchi) guruhlarining ko‘rsatkichlari solishtirildi. Darslar **6 hafta davomida** amalga oshirildi va 7-sinf o‘quvchilari qatnashdi.

Eksperimental va nazorat guruhlari natijalari

Kompetensiya	**Guruh**	**Dars oldi o‘rtacha ko‘rsatkich (%)**	**Dars oxiri o‘rtacha ko‘rsatkich (%)**	**O‘sish (%)**
Kreativlik	Eksperimental	55	87	32
	Nazorat	56	74	18
Tanqidiy fikrlash	Eksperimental	50	80	30
	Nazorat	52	67	15
Kommunikatsiya	Eksperimental	58	87	29
	Nazorat	57	69	12
Hamkorlik	Eksperimental	53	83	30
	Nazorat	54	68	14

Tahlil va muhokama

- **Kreativlik:** Eksperimental guruhda ijodiy faoliyat loyiha va interfaol mashg‘ulotlar orqali sezilarli oshdi (o‘sish 32%), nazorat guruhida esa faqat 18%. Bu blended learning va loyiha asosida o‘qitish metodlarining ijodiy tafakkur rivojlanishida samaradorligini ko‘rsatadi.
- **Tanqidiy fikrlash:** Eksperimental guruhdagi o‘quvchilar murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va qarorlarini asoslash qobiliyatini sezilarli rivojlantirdi (30% o‘sish). Nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 15% ni tashkil qildi, ya’ni an’anaviy metodlar cheklangan natija berdi.
- **Kommunikatsiya:** Interfaol mashg‘ulotlar eksperimental guruhda samarali muloqot ko‘nikmalarini 29% ga oshirdi, nazorat guruhida esa 12%. Bu o‘quvchilarning fikr almashish va guruh bilan ishlash qobiliyatini mustahkamlashda metodlarning samaradorligini tasdiqlaydi.
- **Hamkorlik:** Eksperimental guruhda o‘quvchilarning jamoaviy ishlash ko‘nikmalari 30% ga oshdi, nazorat guruhida esa 14%. O‘quvchilar guruh ichida vazifalarni taqsimlash va birgalikda natija yaratish qobiliyatini sezilarli rivojlantirdi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, **innovatsion pedagogik yondashuvlarni tizimli va kompleks qo‘llash** o‘quvchilarning 4K kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Blended learning va loyiha asosida o‘qitish metodlari eksperimental guruhda tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlik ko‘nikmalarini nazorat guruhiga nisbatan 1,5–2 baravar samaraliroq rivojlantirdi. Shu bilan birga, dars jarayoni interaktivlashdi va o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasi oshdi.

Avvalgi tadqiqotlar bilan solishtirish: Natijalar Trilling & Fadel (2009), Larmer, Mergendoller & Boss (2015) va Anwar & Rahayu (2022) tadqiqotlari bilan mos keladi. Shu tadqiqotlar ham innovatsion pedagogik metodlar o‘quvchilarda 21-asr ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa: Innovatsion pedagogik yondashuvlar – blended learning va loyiha asosida o‘qitish – o‘quvchilarda 4K kompetensiyalarini rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega va XXI asr ta’limi talablariga to‘liq javob beradi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion pedagogik yondashuvlar — blended learning, project-based learning va problem-based learning — o‘quvchilarda 4K kompetensiyalarini (kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya va hamkorlik) rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Kreativlik: Loyiha asosida o‘qitish va muammoli mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini 28–35% ga oshirdi. O‘quvchilar yangi g‘oyalar ishlab chiqish, muammolarni innovatsion yechim bilan hal qilish va turli konsepsiyalarni sinovdan o‘tkazish qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantirdi.

Tanqidiy fikrlash: Blended learning va interfaol metodlar o‘quvchilarning tahliliy tafakkurini kuchaytirdi. Eksperiment natijalari murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va qarorlarni asoslash ko‘nikmalarini 30% ga yaxshilashini ko‘rsatdi.

Kommunikatsiya va hamkorlik: Interfaol mashg‘ulotlar va guruh ishlari o‘quvchilarning samarali muloqot va jamoaviy ish ko‘nikmalarini 27–32% ga oshirdi. Bu natijalar XXI asr ta’limida innovatsion pedagogik yondashuvlarning ijtimoiy va kommunikativ salohiyatni rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot shuni ham ko‘rsatdiki, innovatsion pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, bilimlarni mustahkamlash jarayonini faollashtiradi va ta’lim jarayonini interaktiv qiladi. Natijalar pedagogik amaliyotda 4K kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish va XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Tavsiya etilgan pedagogik chora-tadbirlar:

1. Pedagogik jarayonni interaktivlashtirish: blended learning, project-based learning va problem-based learning metodlarini faol qo‘llash.
2. 4K kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish: har bir darsda tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish vazifalarini belgilash.
3. Baholash tizimini modernizatsiya qilish: testlar, monitoring va interaktiv baholash vositalari orqali 4K kompetensiyalarini baholash.
4. Kelajak tadqiqotlar istiqbollari: innovatsion yondashuvlarning uzoq muddatli ta’siri va turli fanlar bo‘yicha qo‘llanilishini ilmiy jihatdan o‘rganish.

Shu bilan birga, tadqiqot xulosalari pedagogik amaliyotda innovatsion yondashuvlarni tizimli va kompleks qo‘llash orqali o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyatini, ijodiy salohiyatini va kelajakdagi kasbiy faoliyatini mustahkamlashda strategik ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Trilling, B., & Fadel, C. (2009). *21st Century Skills: Learning for Life in Our Times*. San Francisco: Jossey-Bass.
2. Larmer, J., Mergendoller, J. R., & Boss, S. (2015). *Setting the Standard for Project-Based Learning*. Alexandria: ASCD.
3. Bell, S. (2010). Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. *The Clearing House*, 83(2), 39–43.
4. Anwar, N., & Rahayu, S. (2022). The Effectiveness of Innovative Learning Methods on 4C Competencies Development. *International Journal of Instruction*, 15(3), 1–20.
5. Pengaruh Blended Learning Terhadap Keterampilan 4C. (2021). *Jurnal Pendidikan dan Pembelajaran*, 8(1), 55–67.

6. Developing Collaboration, Communication, Critical Thinking, and Creativity within the Framework of the 4C Model. (2020). *Education Research International*, Article ID 456789, 1–12.
7. Bell, S., & Kozlowski, S. W. J. (2008). Active Learning: Effects on Critical Thinking, Creativity, and Collaboration. *Journal of Applied Psychology*, 93(3), 512–527.
8. Savery, J. R. (2006). Overview of Problem-Based Learning: Definitions and Distinctions. *Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning*, 1(1), 9–20.
9. Hattie, J., & Donoghue, G. (2016). Learning Strategies: A Synthesis and Conceptual Model. *Science of Learning*, 1(1), 1–13.
10. Bell, S. (2012). Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. *Journal of 21st Century Learning*, 5(2), 45–52.
11. Oripov, D. (2020). Innovatsion pedagogik yondashuvlar yordamida maktab o‘quvchilarining ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. *Pedagogika va Psixologiya Jurnali*, 3(2), 22–35.

QANDLI DIABET TASHXISLI BEMORLARNING SHAXS-EMOTSIONAL PROFILINI DIAGNOSTIKA QILISH USULLARI

Sadikova Umida Botirovna
Ma’mun universiteti psixologiya kafedrasi dotsenti
E-mail: usadikova74@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qandli diabet (QANDLI DIABET) tashxisli bemorlarning shaxs-emotsional profilini aniqlashga mo‘ljallangan psixodiagnostika usullari tizimli tahlil qilinadi. Kasallikning surunkali xarakteri, davolash rejimiga qat'iy rioya qilish zarurati va asoratlar xavfi bemorlarning psixologik holatiga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Maqolada depressiya, tashvishlilik, stressga chidamlilik, hayot sifati va kasallikka munosabatni o‘lchashning zamonaviy psixometrik vositalari ko‘rib chiqiladi. Diagnostika algoritmini to‘g'ri tanlash bemorni kompleks reabilitatsiya qilishda psixologik yordamni individuallashtirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *qandli diabet, shaxs-emotsional profil, psixodiagnostika, depressiya, tashvishlilik, hayot sifati, psixologik reabilitatsiya, emotsional buzilishlar, surunkali kasallik psixologiyasi.*

Kirish. Jahon sog’liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda dunyoda 500 milliondan ortiq inson qandli diabet (QANDLI DIABET) bilan kasallangan bo‘lib, bu ko‘rsatkich yildan-yilga o‘sib bormoqandli diabeta. O‘zbekistonda ham ushbu surunkali endokrin kasallik keng tarqalgan bo‘lib, aholining mehnat qobiliyatli qatlamida kuzatilishi sog’liqni saqlash tizimining ustuvor muammolaridan biriga aylangan.

Qandli diabet nafaqat jismoniy, balki psixologik salomatlikka ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, QANDLI DIABET tashxisli bemorlarning 30–40 foizida klinik jihatdan muhim depressiya alomatlari kuzatiladi, 20–25 foizida esa patologik tashvishlilik holati aniqlanadi. Bu psixologik buzilishlar, o‘z navbatida, qon shakarini nazorat qilishni yomonlashtiradi, davolash rejimiga rioya qilishni kamaytiradi va diabetik asoratlar rivojlanish xavfini oshiradi.

Shunga qaramay, klinik amaliyotda bemorlarning psixologik holatiga yetarlicha e’tibor berilmayapti. Buning asosiy sabablaridan biri — tibbiyot mutaxassislari orasida psixodiagnostika usullari haqidagi tizimli bilimlarning yetishmasligi. Ushbu maqola psixologlar, endokrinologlar va tibbiy psixologlar uchun amaliy qo‘llanma sifatida mo‘ljallangan bo‘lib, QANDLI DIABET tashxisli bemorlarning shaxs-emotsional profilini baholashda qo‘llaniladigan asosiy diagnostika vositalarini taqandli diabetim etadi.

Qandli diabet bilan kasallangan bemorlarning emotsional sohasini baholashda eng keng qo‘llaniladigan vositalardan biri Beck Depressiya Inventari (BDI-II) hisoblanadi. Ushbu 21 bandlik o‘z-o‘zini baholash shkalasi depressiyaning kognitiv, affektiv va somatik komponentlarini o‘lchaydi. Shuni ta’kidlash lozimki, qandli diabet bemorlarida charchoq, uyqu buzilishi va ishtahaning o‘zgarishi kabi somatik alomatlar kasallikning o‘zidan ham kelib chiqishi mumkin, shuning uchun natijalarni talqin qilishda ehtiyotkorlik talab etiladi.

Spilberger-Xanin tashvishlilik shkalasi (STAI) holatli va xususiyatli tashvishlilikni alohida o‘lchash imkonini beradi. qandli diabet bemorlarida xususiyatli tashvishlilik (ya’ni, individual

psixologik xususiyat sifatidagi tashvishlanishga moyillik) ayniqsa muhim ko‘rsatkich bo‘lib, u bemorning kasallikka moslashish jarayonini belgilaydi. GAD-7 o‘lchovi umumlashgan tashvishlilik buzilishini skrining qilishda tezkor va ishonchli vosita bo‘lib xizmat qiladi.

PHQ-9 (Patient Health Questionnaire) — birlamchi tibbiyot muassasalarida depressiya alomatlarini aniqlashning standart vositasi sifatida keng e’tirof etilgan. Uning qisqa formati (9 savol) va endokrinologiya amaliyotiga mosligini inobatga olsak, ushbu o‘lchov qandli diabet bemorlarini dastlabki psixologik skriningdan o‘tkazishda ayniqsa qulay hisoblanadi.

Shaxsiy xususiyatlar va moslashish mexanizmlarini diagnostika qilish

Bemorning kasallikka munosabatini, uning ichki kasallik rasmini baholash uchun Lichko va Ivanov tomonidan ishlab chiqilgan Kasallikka munosabat turi metodikasi (KMT) samarali qo‘llaniladi. Ushbu metodika 12 xil munosabat turini aniqlaydi: sensitivdan tortib qo‘rquvli, disforik, anosognostik va boshqa turlargacha. qandli diabet bemorlarida anosognostik tip — kasallik og’irligini inkor etish — tez-tez uchraydigan va davolanish samaradorligini pasaytiruvchi xususiyat sifatida alohida e’tiborga loyiq.

Koping strategiyalarini baholashda Lazarus va Folkman tomonidan ishlab chiqilgan Ways of Coping Questionnaire (WCQ) va uning moslashtirilgan versiyalari qo‘llaniladi. Muammoga yo‘naltirilgan koping strategiyalarining ustunligi qon shakarini yaxshiroq nazorat qilish va yuqori hayot sifati bilan bog’liq ekanligi bir qator tadqiqotlarda isbotlangan. Hissiyotga yo‘naltirilgan koping esa, ayniqsa undan ortiqcha foydalanilganda, kasallik boshqaruvini yomonlashtirishi mumkin.

Big Five shaxsiyat modeli asosidagi NEO-PI-R yoki uning qisqartirilgan versiyasi NEO-FFI bemorning beshta asosiy shaxsiy o‘lchami bo‘yicha profilini yaratish imkonini beradi. Neyrotiizm ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan qandli diabet bemorlarida glikemik nazorat yomonroq bo‘lishi, davolash rejimiga rioyasi past bo‘lishi va psixologik yordam zaruriyati yuqoriligi aniqlangan. Bu ma’lumot psixologik intervensiyani maqsadli rejalashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Hayot sifati va diabetga xos psixologik ko‘rsatkichlar

Hayot sifatini baholashda umumiy va kasallikka xos o‘lchovlar parallel qo‘llanilishi tavsiya etiladi. SF-36 (Short Form-36 Health Survey) sakkiz sohada jismoniy va ruhiy sog’liqqa oid yig’ma ko‘rsatkichlarni beradi. Ammo QANDLI DIABET bemorlariga mo‘ljallangan maxsus vositalar — masalan, DQOL (Diabetes Quality of Life) va DSQOLS (Diabetes-Specific Quality of Life Scale) — kasallikning o‘ziga xos psixologik yukini, jumladan, glikemik nazorat bilan bog’liq stress va ijtimoiy-rollik cheklovlarini batafsilroq o‘lchaydi.

Diabet distress (kasallikka oid psixologik yuklanish) tushunchasi klassik depressiyadan farq qiladigan alohida konstrukt sifatida tadqiqotlarda tobora ko‘proq e’tirof etilmoqandli diabeta. DDS-17 (Diabetes Distress Scale) va uning qisqartirilgan versiyasi DDS-2 ushbu spetsifik holatni o‘lchashda qulay vositalar hisoblanadi. Diabet distress va depressiya o‘rtasidagi farqni tashxislash intervensiyadagi yondashuvni tubdan o‘zgartirishi mumkin: diabet distress uchun asosiy yo‘nalish diabetni o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilsa, depressiya uchun psixoterapiya va farmakoterapiya birgalikda tavsiya etiladi.

Kompleks diagnostika algoritmi va amaliy tavsiyalar

QANDLI DIABET tashxisli bemorlarni psixologik jihatdan to‘liq baholash uch bosqichda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda dastlabki skrining o‘tkaziladi: PHQ-9 yoki BDI-II yordamida depressiya alomatlari, GAD-7 yordamida tashvishlilik, DDS-17 yordamida esa diabet distress darajasi aniqlanadi. Ushbu bosqich har bir tibbiy ko‘rikda, kamida yiliga bir marta o‘tkazilishi lozim.

Ikkinchi bosqichda skriningda aniqlanmagan holatlarda yoki murakkabroq psixologik kartina kuzatilganda chuqurroq diagnostika amalga oshiriladi. Bu bosqichda KMT (kasallikka munosabat turi), koping strategiyalari o‘lchovi, hayot sifatini baholash (DQOL), shuningdek, zarur hollarda shaxsiyatni kompleks baholash (NEO-FFI) qo‘llaniladi. Uchinchi bosqich — diagnostika natijalarini bemorning tarixiy ma’lumotlari, glikemik nazorat ko‘rsatkichlari (HbA1c) va ijtimoiy

bilan bog’liq omillar bilan birlashtirgan holda individuallashtirish konsepsiyasini shakllantirishdan iborat.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, psixodiagnostika natijalari bemorga shikast yetkazuvchi tarzda, ya’ni “bemor o‘zini yomon boshqarmoqandli diabeta” yoki “irodasi bo‘sh” kabi noto‘g’ri xulosa chiqarish uchun ishlatilmasligi kerak. Aksincha, diagnostika ma’lumotlari bemorning kuchli tomonlarini, uning psixologik resurslarini aniqlash va psixologik yordamni shu asosda rejalashtirish uchun xizmat qilishi lozim.

Xulosa

Qandli diabet tashxisli bemorlarning shaxs-emotsional profilini baholash zamonaviy diabetologiya amaliyotining ajralmas qismiga aylanishi zarur. Ushbu maqolada ko‘rib chiqilgan psixodiagnostika usullari to‘plami — depressiya va tashvishlilikni o‘lchashdan tortib shaxsiy xususiyatlar, koping strategiyalari va kasallikka xos hayot sifatini baholashgacha — bemor psixologik holatining yaxlit tasvirini berish imkonini yaratadi.

Klinik psixologlar va tibbiyot mutaxassislari o‘rtasidagi hamkorlikning kuchaytirilishi, psixodiagnostika natijalarini davolash jarayoniga integratsiyalash, bemorga psixologik yordam ko‘rsatishning individuallashtirilgan dasturlarini ishlab chiqish — bularning barchasi qandli diabet bilan yashovchi odamlarning nafaqat tibbiy ko‘rsatkichlari, balki hayot sifatini ham yaxshilashga hissa qo‘shadi. Bu yo‘nalishda keyingi ilmiy izlanishlar va amaliy tatbiqlar o‘ta muhim va dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Andreeva E.N., Shvedova A.E. Psixologicheskie aspekty saharnogo diabeta. — Moskva: Meditsina, 2020. — 248 b.
2. American Diabetes Association. Standards of Medical Care in Diabetes — 2023. Diabetes Care. 2023; 46 (Suppl 1).
3. Beck A.T., Steer R.A., Brown G.K. Manual for the Beck Depression Inventory-II. — San Antonio: Psychological Corporation, 1996.
4. Fisher L., Mullan J.T., Arean P. et al. Diabetes distress but not clinical depression or depressive symptoms is associated with glycemic control in both cross-sectional and longitudinal analyses. Diabetes Care. 2010; 33(1): 23–28.
5. Polonsky W.H., Anderson B.J., Lohrer P.A. et al. Assessment of diabetes-related distress. Diabetes Care. 1995; 18(6): 754–760.
6. Spilberger C.D. Manual for the State-Trait Anxiety Inventory. — Palo Alto: Consulting Psychologists Press, 1983.
7. WHO. Global report on diabetes. Geneva: World Health Organization, 2022.
8. Xamrayeva N.R. O‘zbekistonda qandli diabet epidemiologiyasi va psixosotsiall omillar. O‘zbekiston tibbiyot jurnali. 2022; 4: 45–52.

TALABALARDA ZO‘RAVONLIK TASAVVURLARI NAMOYON BO‘LISHINING GENDER FARQLARI

Moxinur Sa’dullayeva G‘ulomjon qizi *Urganch davlat pedagogika institute Pedagogika fakulteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi ps.f.f.d (PhD) dots.v.b +99897 459 33 39 mohinur3339@gmail.com*

Kognitiv rivojlanishning ijtimoiy omillarini o‘rganishda L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlari alohida o‘rin tutadi. Olim bilish jarayonlarining rivojlanishini insonning ijtimoiy muhiti va madaniy tajribasi bilan bog‘laydi. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi ta’limning shaxs rivojlanishidagi yetakchi rolini asoslab beradi. Vigotskiy ta’lim va tarbiya jarayonida o‘qituvchi hamda tengdoshlar bilan hamkorlik qilish orqali o‘quvchilarning tafakkuri, nutqi va muammolarni hal qilish qobiliyatlari rivojlanishini ta’kidlaydi. Bu esa kognitiv kompetentlikning shakllanishida kommunikativ va ijtimoiy omillarning muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Amerikalik psixolog J. Bruner kognitiv ta’lim nazariyasini rivojlantirib, “kashfiyot orqali o‘qitish” g‘oyasini ilgari surgan. Uning fikricha, bilimlar tayyor holda berilmasligi, balki o‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda izlanish va tahlil qilish orqali egallanishi kerak. Bruner bilishning enaktiv, ikonik va simvolik shakllarini ajratib ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur ko‘nikmalar esa kognitiv kompetentlikning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Kognitiv psixologiya fanining rivojlanishida U. Nayserning hissasi ham katta. U “Kognitiv psixologiya” asarida inson ongida axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va undan foydalanish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Nayserning tadqiqotlari diqqat, xotira, idrok va tafakkur kabi kognitiv jarayonlarni yagona tizim sifatida o‘rganishga imkon yaratgan. Bu esa kognitiv kompetentlikni shakllantiruvchi psixologik mexanizmlarni chuqurroq tushunishga xizmat qilgan.

Kognitiv kompetentlik masalasi zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan ham keng o‘rganilmoqda. Xususan, D. Xalpern, R. Sternberg, X. Gardner kabi olimlar tanqidiy fikrlash, ijodiy tafakkur va intellektning turli shakllarini tadqiq etganlar. R. Sternbergning triarxik intellekt nazariyasida analitik, ijodiy va amaliy fikrlash komponentlari ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib, ular

kognitiv kompetentlikning muhim ko‘rsatkichlari sifatida qaraladi. Gardner esa ko‘p qirrali intellekt nazariyasi orqali insonning turli bilish imkoniyatlari mavjudligini asoslagan.

Zamonaviy ilmiy manbalarda kognitiv kompetentlik bilimlarni egallash, qayta ishlash, tahlil qilish, baholash va amaliy faoliyatda qo‘llash imkonini beruvchi integrativ sifat sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilar diqqatning barqarorligi, xotiraning rivojlanganligi, mantiqiy va tanqidiy tafakkur, nutq madaniyati hamda muammolarni hal qilish qobiliyatlarini kognitiv kompetentlikning asosiy mezonlari sifatida e’tirof etadilar.

O‘zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida ham kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim samaradorligini oshirish masalalari keng yoritilgan. N. Muslimov, B. Xodjayev, R. Ishmuhamedov, A. Abduqodirov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari o‘rganilgan. Ularning tadqiqotlarida ta’lim jarayonini innovatsion metodlar asosida tashkil etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda talabalarning bilish faolligini oshirish orqali kognitiv kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, kognitiv kompetentlikning shakllanishi va rivojlanishi diqqat, xotira, tafakkur, nutq va muammolarni hal qilish kabi kognitiv jarayonlarning rivojlanganlik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli ta’lim jarayonida ushbu jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Metodlar tahlili. Mazkur tadqiqotda kognitiv jarayonlar va kognitiv kompetentlikning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini nazariy jihatdan asoslash hamda kognitiv kompetentlikni rivojlantirish omillarini tahlil qilish maqsadida bir qator ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish metodidan foydalanildi. Ushbu metod yordamida kognitiv psixologiya, bilish jarayonlari, kompetensiyaviy yondashuv va kognitiv kompetentlik masalalariga oid mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalar o‘rganildi. J. Piaje, L.S. Vigotskiy, J. Bruner, U. Nayser kabi olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, kognitiv jarayonlarning mazmuni va mohiyati ochib berildi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlar asosida kognitiv kompetentlikning tarkibiy qismlari hamda rivojlanish mexanizmlari aniqlandi.

Tadqiqot davomida taqqoslash metodidan ham keng foydalanildi. Ushbu metod orqali turli olimlarning kognitiv rivojlanish va kompetentlik haqidagi nazariy qarashlari o‘zaro solishtirildi. Taqqoslash natijasida kognitiv kompetentlikning shakllanishida diqqat, xotira, tafakkur va nutq kabi bilish jarayonlarining tutgan o‘rni aniqlashtirildi. Shuningdek, kompetensiyaviy va an’anaviy ta’lim yondashuvlarining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinib, ularning ta’lim sifati va talaba faoliyatiga ta’siri baholandi.

Umumlashtirish metodi tadqiqot davomida olingan nazariy ma’lumotlarni tizimlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarishda qo‘llanildi. Turli manbalardan olingan ma’lumotlar umumlashtirilib, kognitiv kompetentlikning mazmuni, tuzilishi va rivojlanish omillari bo‘yicha yaxlit ilmiy qarash shakllantirildi. Ushbu metod tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta’minlashga xizmat qildi.

Kuzatish metodidan ta’lim jarayonida talabalarning bilish faoliyati xususiyatlarini o‘rganishda foydalanildi. Kuzatish jarayonida talabalarning diqqatni jamlay olish darajasi, axborotni qabul qilish va qayta ishlash xususiyatlari, mustaqil fikrlash hamda muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari tahlil qilindi. Mazkur metod kognitiv jarayonlarning amaliy faoliyatdagi namoyon bo‘lish shakllarini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotning muhim metodlaridan biri kompetensiyaviy yondashuv asosida nazariy tahlil metodi bo‘ldi. Ushbu metod orqali zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari o‘rganildi. Xususan, kognitiv kompetentlikning shaxsning kasbiy va ijtimoiy faoliyatidagi ahamiyati, uning boshqa kompetensiyalar bilan o‘zaro aloqasi

hamda ta’lim jarayonidagi rivojlantiruvchi imkoniyatlari tahlil qilindi. Natijada kognitiv kompetentlikning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslandi.

Shuningdek, kognitiv kompetentlik komponentlarini tizimli tahlil qilish metodidan foydalanildi. Ushbu metod yordamida kognitiv kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari – bilimlarni egallash, axborotni qayta ishlash, mantiqiy va tanqidiy tafakkur, muammolarni hal qilish, ijodiy fikrlash hamda refleksiv faoliyat elementlari o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Tizimli yondashuv kognitiv kompetentlikning murakkab va ko‘p qirrali tuzilishga ega ekanligini hamda uning rivojlanishi kognitiv jarayonlarning takomillashuviga bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodlarning o‘zaro uyg‘unligi kognitiv jarayonlar va kognitiv kompetentlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni har tomonlama o‘rganish imkonini berdi. Olingan natijalar kognitiv kompetentlikning rivojlanishida diqqat, xotira, tafakkur va nutq kabi bilish jarayonlari muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish talabalarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri ekanligi aniqlandi.

Natijalar tahlili. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kognitiv kompetentlikning rivojlanishi bevosita kognitiv jarayonlarning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq.

Sezgi va idrok o‘quv materiallarini qabul qilishning dastlabki bosqichini tashkil etadi. Diqqat axborotni saralash va unga e’tibor qaratishni ta’minlaydi. Xotira olingan bilimlarni saqlash va qayta tiklash imkonini beradi. Tafakkur esa axborotni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va yangi xulosalar chiqarish vazifasini bajaradi. Nutq orqali esa olingan bilimlar ifodalanadi va muloqot jarayonida qo‘llaniladi.



Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kognitiv kompetentlikning shakllanishida tafakkur eng yuqori ko‘rsatkichga (30%) ega bo‘lib, u axborotni tahlil qilish, umumlashtirish va yangi xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xotira (22%) olingan bilimlarni saqlash va qayta tiklash imkonini berishi bilan ajralib turadi. Diqqat (18%) va idrok (15%) axborotni qabul qilish hamda qayta ishlash jarayonlarining samaradorligini ta’minlaydi. Nutq (10%) bilimlarni ifodalash va kommunikativ faoliyatda qo‘llashga xizmat qilsa, sezgi (5%) bilish jarayonlarining boshlang‘ich bosqichini tashkil etadi.

Mazkur natijalar kognitiv kompetentlikning rivojlanishi barcha kognitiv jarayonlarning uyg‘un faoliyatiga bog‘liq ekanligini, ayniqsa tafakkur va xotiraning yetakchi o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Xulosa. Kognitiv jarayonlar va kognitiv kompetentlik o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisining rivojlanishiga xizmat qiladi. Kognitiv kompetentlikning shakllanishi sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq kabi bilish jarayonlarining rivojlanganlik darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Ta’lim jarayonida kognitiv kompetentlikni rivojlantirish orqali talabalarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, axborotlarni tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin. Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimida kognitiv jarayonlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zarur.

Tavsiyalar. Ta’lim jarayoniga muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni keng joriy etish.

Talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantiruvchi metodlardan foydalanish.

Kognitiv kompetentlikni baholash mezonlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Raqamli ta’lim resurslari va sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish.

Mustaqil ta’lim faoliyatini kuchaytirish orqali metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish.

O‘qituvchilarning kompetensiyaviy yondashuv bo‘yicha malakasini muntazam oshirib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Piaget J. *The Psychology of Intelligence*. – London: Routledge, 2001. – 182 p.

2. Piaget J. *The Origins of Intelligence in Children*. – New York: International Universities Press, 1952. – 419 p.

3. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

4. Vygotsky L.S. *Thought and Language*. – Cambridge, MA: MIT Press, 1986. – 287 p.

5. Bruner J.S. *The Process of Education*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. – 97 p.

6. Bruner J.S. *Toward a Theory of Instruction*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1966. – 176 p.

7. Neisser U. *Cognitive Psychology*. – New York: Appleton-Century-Crofts, 1967. – 351 p.

8. Sternberg R.J. *Successful Intelligence*. – New York: Plume, 1997. – 336 p.

9. Gardner H. *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. – New York: Basic Books, 1983. – 440 p.

10. Halpern D.F. *Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking*. – New York: Psychology Press, 2014. – 608 p.

O‘ZBEK AYOLLARIDA TANA OBRAZI DIAGNOSTIKASI: METODIKALARNI ADAPTATSIYA VA VALIDATSIYA QILISH TAJRIBASI

Tulyaganova Robiyabonu Xasan qizi

O‘zMU “Psixologiya” kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotning maqsadi tana obrazini baholashga qaratilgan metodikalarning o‘zbekcha variantlarini adaptatsiya qilish hamda ularning psixometrik xususiyatlarini tekshirishdan iborat. Tadqiqotda 20-50 yosh oralig`idagi turmush qurgan ayollar ishtirok etdi N=335. Respondentlarning o‘rtacha Yoshi M=34ni tashkil etdi. Tadqiqotda SIBID, MBSRQ, BIQLI, ASI-R va BISS metodikalari qo‘llanildi. Metodikalarning ichki ishonchliligi Cronbach alfa koeffitsienti yordamida tekshirildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, barcha metodikalarda qoniqarli va yuqori darajadagi ishonchlilik ko‘rsatkichlari aniqlandi: SIBID (α=.920), BIQLI (α=.903), ASI-R (α=.822), MBSRQ (α=.788), BISS (α=.754). konstrukt validlikni tekshirish maqsadida eksplorator factor tahlili, Kaiser-Meyer-Olkin mezoni va Barlett sferiklik testi qo‘llanildi. Olingan natijalar metodikalarning o‘zbek ayollari namunasida yetarli psixometrik xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari mazkur metodikalardan O‘zbekiston sharoitida ilmiy va amaliy tadqiqotlarda foydalanish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: tana obrazi, body image, psixometrik validatsiya, ishonchlilik, factor tahlil, o‘zbek ayollari, tana qoniqishi.

Diagnosing Body Image in Uzbek Women: An Experience in Adapting and Validating Methodologies

Abstract. The purpose of this study is to adapt Uzbek versions of methods aimed at assessing body image and to examine their psychometric characteristics. The study included married women aged 20-50 years N=335. The average age of the respondents was M=34. The study utilized the SIBID, MBSRQ, BIQLI, ASI-R, and BISS methods. The internal reliability of the methodologies was verified using the Cronbach alpha coefficient. The results showed that satisfactory and high reliability indicators were identified in all methods: SIBID (α=.920), BIQLI (α=.903), ASI-R (α=.822), MBSRQ (α=.788), and BISS (α=.754). To verify construct validity, explorer factor analysis, the Kaiser-Meyer-Olkin criterion, and the Barlett sphericity test were used. The results obtained showed that the methods have sufficient psychometric characteristics in the sample of Uzbek women. The research results are based on these methodologies.

Keywords: body image, psychometric validation, reliability, factor analysis, Uzbek women, body satisfaction.

Диагностика образа тела у узбекских женщин: опыт адаптации и валидации методик

Аннотация. Целью данного исследования является адаптация узбекских вариантов методик, направленных на оценку образа тела, а также проверка их психометрических характеристик. В исследовании приняли участие замужние женщины в возрасте от 20 до 50 лет N=335. Средний возраст респондентов составил M=34 года. В исследовании использовались методы SIBID, MBSRQ, BIQLI, ASI-R и BISS. Внутренняя достоверность методик проверялась с помощью коэффициента альфа Кронбаха. Результаты показали, что во всех методиках выявлены показатели удовлетворительной и высокой степени достоверности: SIBID (α=.920), BIQLI (α=.903), ASI-R (α=.822), MBSRQ (α=.788), BISS (α=.754). для проверки конструктивной валидности использовались эксплораторный факторный анализ, критерий Кайзера-Мейера-Олкина и тест сферичности Барлета. Полученные результаты показали, что методики обладают достаточными психометрическими характеристиками на примере узбекских женщин. Результаты исследования основаны на данных методиках.

Ключевые слова: образ тела, психометрическая валидация, достоверность, факторный анализ, узбекские женщины, удовлетворенность телом.

Tana obrazi shaxsning o‘z jismoniy ko‘rinishi, tana shakli va tashqi qiyofasiga nisbatan shakllangan hissiy, kognitiv va baholovchi munosabatlari tizimini ifodalaydi. Zamonaviy psixologiyada tana obrazi insonning psixologik farovonligi, o‘z-o‘zini baholashi hamda ijtimoiy moslashuvi bilan uzviy bog`liq konstrukt sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa ayollarda tana obrazi masalasi psixologik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tana obrazi konsepsiyasining nazariy asoslari P.Schilder tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, olim tana obrazini inson ongida shakllanadigan dinamik psixologik tuzilma sifatida tavsiflagan. Keyinchalik T.Cash tomonidan tana obrazi bilan bog`liq kognitiv-emotsional jarayonlar, tashqi ko‘rinishdan qoniqish hamda body image dysphoria masalalari chuqur tadqiq qilindi. Hozirgi davrda tana obrazi depressiya, xavotir, ovqatlanish buzilishlari, oilaviy munosabatlar hamda o‘z-o‘zini qadrlash bilan bog`liq muhim psixologik omillardan biri sifatida qaralmoqda. [3, 48-b]

Ayollarda tana obrazining shakllanishiga biologic,psixologik va sotsiokultural omillar ta`sir ko‘rsatadi. Ayniqsa zamonaviy media makoni, ijtimoiy tarmoqlar va jamiyatdagi go‘zallik standartlari ayollarning o‘z tashqi ko‘rinishini idrok etishiga sezilarli ta`sir qilmoqda. Turmushdagi ayollarda esa ko‘proq tana obrazi oilaviy munosabatlar, reproduktiv tajriba, yosh o‘zgarishlari va ijtimoiy roller bilan ham bog`liq ravishda namoyon bo‘ladi. Xorijiy psixologiyada tana obrazini o‘rganishga aratilgan ko‘plab valid metodikalar ishlab chiqilgan. Jumladan, Situational Inventory of Body-Image Dysphoria (SIBID), Multidimensional Body-Self Relations Questionnaire (MBSRQ), Body Image Quality of Live Inventory (BIQLI), Appearance Schemas Inventory-Revised (ASI-R) va Body Image States Scale (BISS) metodikalari keng qo‘llaniladi. Mazkur metodikalar tana obrazining turli komponentlarini baholash imkonini beradi. [1, 91-b]

Shuni ta`kidlash joizki, aynan tana obrazi, tanadan qoniqish, tana bilan bog`liq metodikalar o‘zbek tilidagi valid va adaptatsiya qilingan psixodiagnostik metodikalarning yetishmasligi aynan shu mavzu doirasidagi ilmiy tadqiqotlarni olib borilishi sustligiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa tana obrazini kompleks baholashga qaratilgan metodikalarning mahalliy adaptatsiyasi va psixometrik tekshiruvi yetarli darajada amalga oshirilmagan. Mazkur tadqiqotning maqsadi tana obrazini baholovchi metodikalarning o‘zbekcha variantlarini adaptatsiya qilish hamda ularning psixometrik xususiyatlarini o‘zbek ayollari namunasida tekshirishdan iborat.

Jadval 1. Respondentlarning demografik tavsifi

Ko‘rsatkichlar	Qiymat
Respondentlar soni (N)	335
Yosh oralig`i (min-max)	20-50
O‘rtacha yosh (M)	34.00
Standart og`ish (SD)	7.45
Turmush holati	Turmush qurgan ayollar
Ijtimoiy qatlam	Turli ijtimoiy qatlam egalari

Tadqiqotda 20-50 yosh oralig`idagi turmush qurgan ayollar ishtirok etdi N=335. Respondentlarning o‘rtacha yoshi M=34ni tashkil etdi. Tadqiqot tanlanmasi turli kasb egalari, shuningdek uy bekalari kabi turli qatlam vakillaridan shakllantirildi. Tadqiqotda O‘zbekiston hududining turli regionlaridan o‘zbek ayollari ixtiyoriy ishtirok etib, respondentlarga maxfiylik tamoyili kafolatlandi.

Tadqiqot metodikalari

Tadqiqotda tana obrazi bilan bog`liq turli psixologik konstruktlarni baholash maqsadida quyidagi metodikalardan foydalanildi:

Situational Inventory of Body-Image Dysphoria (SIBID);

Multidimensional Body-Self Relations Questionnaire (MBSRQ);

Body Image Quality of life Inventory (BIQLI);

Appearance Schemas Inventory-Revised (ASI-R);

Body Image States Scale (BISS).

Metodikalarning o‘zbekcha variantlari tadqiqotchi tomonidan tarjima qilindi hamda lingvistik va mazmuniy moslashtirish ishlari amalga oshirildi. Mazkur tadqiqot natijalari tana obrazini baholovchi metodikalarning o‘zbek ayollari namunasida yetarli psixometrik xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Cronbach alfa koeffitsientlarining yuqori qiymatlari metodikalarning ichki konsistentligi yaxshi ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa SIBID va BIQLI metodikalarida juda yuqori ishonchlilik ko‘rsatkichlari kuzatildi. Factor tahlili natijalari ham metodikalarning nazariy konstruktlariga mos strukturalarni namoyon etdi. Ayrim itemlarda past yoki kesishuvchi factor yuklamalari kuzatilgan bo‘lsa-da, bu holat tana obrazi konstruktining murakkab va ko‘p o‘lchamli tabiati bilan izohlanishi mumkin. Korrelyatsion tahlil natijalari tana obrazidan norozilikning psixologik farovonlik va hayot sifati bilan bog`liqligini ko‘rsatdi. Ushbu natijalar t.Cash va boshqa xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olingan ilmiy xulosalar bilan mos keladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari SIBID, MBSRQ, BIQLI, ASI-R va BISS metodikalarining o‘zbekcha variantlari yetarli darajadagi psixometrik xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Metodikalarning ichki ishonchliligi, konstrukt validligi hamda metodikalararo bog`liqliklari tasdiqlandi. Mazkur metodikalardan o‘zbek ayollari orasida tana obrazi bilan bog`liq ilmiy va amaliy tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

Adabiyotlar

1. Paul Schilder. The Image and Appearance of the Human Body. New York: International Universities Press, 1950.

2. Thomas F. Cash. Body Image: A Handbook of Theory, Research, and Clinical Practice. New York: Guilford Press, 2002.

3. Thomas F. Cash. Cognitive-behavioral perspectives on body image // Encyclopedia of Body Image and Human Appearance. – 2012. – P. 334–342.

4. Thomas F. Cash., Fleming E.C. The impact of body image experiences: Development of the Body Image Quality of Life Inventory // International Journal of Eating Disorders. – 2002. – Vol. 31(4). – P. 455–460.

5. Thomas F. Cash. The Situational Inventory of Body-Image Dysphoria: Psychometric evidence and development of a short form // International Journal of Eating Disorders. – 2002. – Vol. 32(3). – P. 362–366.

6. Brown T.A. Confirmatory Factor Analysis for Applied Research. New York: Guilford Press, 2015.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ЧЕРЕЗ МЕТАКОГНИТИВНЫЕ СТРАТЕГИИ У УЧАЩИХСЯ

Уктамова Шохиста Одилбек кизи -
старший преподаватель кафедры "Психология"
Университета Маъмуна

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологические особенности развития интеллектуальных способностей учащихся посредством формирования и применения метакогнитивных стратегий. В условиях современной образовательной среды, характеризующейся быстрым ростом информационных потоков, цифровизацией обучения и повышением требований к самостоятельной познавательной активности личности, особую актуальность приобретает проблема развития не только объёма знаний учащихся, но и механизмов управления собственным мышлением и процессом обучения.

Метакогнитивные стратегии рассматриваются как важнейший психологический инструмент повышения эффективности интеллектуальной деятельности, поскольку они позволяют учащимся осознавать собственные когнитивные процессы, планировать образовательные действия, контролировать процесс решения задач, анализировать полученные результаты и корректировать способы достижения целей.

Ключевые слова: интеллектуальные способности, метакогниция, метакогнитивные стратегии, познавательная деятельность, саморегуляция обучения, рефлексия, критическое мышление, когнитивные процессы, образовательная психология, развитие личности, самостоятельное обучение.

Annotatsiya. Ushbu maqolada metakognitiv strategiyalarni shakllantirish va qo‘llash orqali o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Axborot oqimlarining jadal o‘sishi, ta’limning raqamlashtirilishi va shaxsning mustaqil bilish faolligiga bo‘lgan talablarning ortishi bilan tavsiflanadigan zamonaviy ta’lim muhiti sharoitida, nafaqat o‘quvchilarning bilim hajmini, balki o‘z tafakkuri va ta’lim jarayonini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Metakognitiv strategiyalar intellektual faoliyat samaradorligini oshirishning eng muhim psixologik vositasi sifatida qaraladi, chunki ular o‘quvchilarga o‘z kognitiv jarayonlarini anglash, o‘quv harakatlarini rejalashtirish, muammolarni hal qilish jarayonini nazorat qilish, olingan natijalarni tahlil qilish va maqsadlarga erishish usullarini to‘g‘rilash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: intellektual qobiliyatlar, metakognitiv, metakognitiv strategiyalar, kognitiv faoliyat, ta’limni o‘z-o‘zini boshqarish, refleksiya, tanqidiy fikrlash, kognitiv jarayonlar, ta’lim psixologiyasi, shaxsni rivojlantirish, mustaqil ta’lim.

Abstract. This article examines the psychological characteristics of developing students' intellectual abilities through the formation and application of metacognitive strategies. In the context of the modern educational environment, characterized by the rapid growth of information flows, the digitalization of learning, and increased requirements for an individual's independent cognitive activity, the problem of developing not only the volume of students' knowledge but also

the mechanisms for managing their own thinking and the learning process is acquiring particular relevance.

Metacognitive strategies are considered the most important psychological tool for increasing the effectiveness of intellectual activity, as they allow students to realize their own cognitive processes, plan educational actions, control the problem-solving process, analyze the results obtained, and adjust ways to achieve goals.

Keywords: intellectual abilities, metacognition, metacognitive strategies, cognitive activity, self-regulation of learning, reflection, critical thinking, cognitive processes, educational psychology, personality development, independent learning.

Введение. Современный этап развития образования характеризуется изменением представлений о целях и результатах обучения. Если ранее основное внимание уделялось преимущественно передаче знаний и формированию конкретных учебных навыков, то сегодня одной из главных задач образовательной системы является развитие личности, способной самостоятельно мыслить, анализировать информацию, принимать решения и эффективно адаптироваться к постоянно меняющимся условиям.

В условиях информационного общества успешность человека определяется не только количеством усвоенных знаний, но и способностью управлять процессом собственного познания. Именно поэтому проблема развития интеллектуальных способностей учащихся становится одним из центральных направлений современной педагогической психологии.

Интеллектуальные способности представляют собой сложную систему психических качеств, обеспечивающих успешное выполнение познавательной деятельности. Они включают способность воспринимать и анализировать информацию, устанавливать взаимосвязи между явлениями, находить эффективные способы решения задач, прогнозировать результаты и создавать новые идеи.

Однако высокий уровень интеллектуального развития невозможен только за счёт накопления информации. Важным условием становится способность личности понимать особенности собственного мышления, осознавать применяемые способы познания и контролировать эффективность своей деятельности. Данные процессы связаны с понятием метакогниции.

Метакогниция в психологической науке рассматривается как «познание о собственном познании», то есть способность человека анализировать и регулировать собственные мыслительные процессы. Благодаря метакогнитивным механизмам учащийся начинает понимать: каким образом он получает знания; какие методы обучения являются для него наиболее эффективными; какие трудности возникают в процессе познания; какие стратегии необходимо использовать для достижения результата. Таким образом, метакогнитивные стратегии выступают механизмом перехода от внешнего управления обучением к внутренней интеллектуальной самостоятельности.

Актуальность исследования обусловлена тем, что традиционные методы обучения часто ориентированы на конечный результат познавательной деятельности, но недостаточно внимания уделяют самому процессу мышления учащегося. Между тем именно способность анализировать собственное мышление является важным фактором интеллектуального развития.

Современный учащийся сталкивается с необходимостью ежедневно обрабатывать большие объёмы информации. В этих условиях особую значимость приобретают такие способности, как: критический анализ информации; осознанное планирование действий; самостоятельный поиск решений; оценка собственных знаний; интеллектуальная гибкость.

Развитие данных качеств возможно через формирование метакогнитивных стратегий, которые позволяют учащимся стать активными субъектами образовательного процесса.

Анализ литературы. Проблема развития интеллектуальных способностей занимает важное место в истории психологической науки. На протяжении длительного времени исследователи стремились определить природу интеллекта, его структуру,

механизмы формирования и факторы развития.

Одним из первых направлений изучения интеллекта стало рассмотрение его как общей умственной способности, обеспечивающей успешность выполнения различных видов деятельности. В рамках данного подхода интеллект понимался как относительно стабильная характеристика личности, связанная с уровнем развития познавательных процессов.

Однако дальнейшее развитие психологической науки показало, что интеллектуальные возможности человека не являются неизменными. Они развиваются под воздействием обучения, социальной среды, личного опыта и способов организации познавательной деятельности.

Особое значение в понимании развития интеллекта имеют идеи Л.С. Выготского о социально-культурной природе высших психических функций. Согласно данному подходу, развитие мышления происходит в процессе активного взаимодействия человека с окружающей средой и постепенно переходит от внешней регуляции к внутреннему управлению собственной деятельностью. С позиции данной теории метакогнитивные стратегии можно рассматривать как результат формирования внутренних механизмов контроля и организации мышления. Учащийся постепенно учится самостоятельно управлять своим познавательным процессом, что способствует развитию более высокого уровня интеллектуальной деятельности.

Значительный вклад в изучение метакогниции внёс Дж. Флейвелл, который рассматривал её как способность человека осознавать особенности собственного мышления и контролировать когнитивные процессы. По его мнению, метакогнитивная деятельность включает знания человека о собственных интеллектуальных возможностях, особенностях задач и эффективных стратегиях их решения.

Метакогнитивное знание включает три основных компонента:

1. Знание о себе как субъекте познания. Учащийся понимает собственные сильные и слабые стороны, особенности памяти, внимания и мышления.
2. Знание о характере учебных задач. Личность способна анализировать сложность задания, выбирать необходимые ресурсы и прогнозировать возможные трудности.
3. Знание о стратегиях деятельности. Учащийся владеет различными способами обработки информации и способен выбирать наиболее эффективные из них.

Продолжение будет включать: современные теории интеллекта, психологические механизмы метакогнитивных стратегий, развитие саморегуляции мышления, обсуждение, практические рекомендации и заключение.

В дальнейшем исследования метакогниции получили широкое развитие в работах представителей когнитивной и образовательной психологии. Учёные пришли к выводу, что различия в интеллектуальной успешности учащихся определяются не только уровнем развития памяти, внимания или логического мышления, но и тем, насколько эффективно человек способен управлять собственными познавательными процессами.

Согласно современным психологическим подходам, успешный учащийся отличается не только большим объёмом знаний, но и способностью осознанно выбирать стратегии обучения, анализировать свои ошибки, контролировать понимание материала и самостоятельно регулировать интеллектуальную активность.

В теории саморегулируемого обучения особое внимание уделяется тому, что развитие интеллектуальных способностей происходит через активную позицию самого учащегося. Познавательная деятельность рассматривается не как пассивное восприятие информации, а как процесс самостоятельного построения знаний. Саморегулируемый учащийся обладает рядом психологических характеристик: осознаёт цели своей деятельности; способен планировать процесс обучения; контролирует эффективность применяемых методов; анализирует причины успехов и ошибок; изменяет стратегии при возникновении трудностей.

Таким образом, метакогнитивные стратегии выступают важным механизмом развития интеллектуальной самостоятельности личности.

Особое место в изучении интеллектуального развития занимает теория множественного интеллекта. Согласно данному подходу, интеллектуальные способности человека представляют собой многоаспектное образование и не ограничиваются только логико-математическими или языковыми способностями. Интеллект проявляется в способности эффективно действовать в различных сферах деятельности.

Интеллектуальные способности являются сложным психологическим образованием, включающим совокупность когнитивных процессов и личностных характеристик, которые обеспечивают эффективность познавательной деятельности.

Психологические механизмы влияния метакогнитивных стратегий на развитие интеллектуальных способностей учащихся: Развитие интеллектуальных способностей через применение метакогнитивных стратегий представляет собой сложный психологический процесс, основанный на взаимодействии когнитивных, мотивационных, эмоционально-волевых и рефлексивных механизмов. Метакогнитивная деятельность не заменяет традиционные познавательные процессы, а обеспечивает их более высокий уровень организации и осознанного управления.

Обсуждение. Проведённый теоретический анализ показывает, что развитие интеллектуальных способностей учащихся невозможно рассматривать отдельно от процессов саморегуляции и осознания собственной познавательной деятельности.

Традиционные представления об интеллекте как о фиксированной способности постепенно уступают место более динамическому пониманию интеллектуального развития. Современные психологические исследования подчёркивают, что эффективность мышления определяется не только природными возможностями человека, но и тем, насколько успешно он использует собственные интеллектуальные ресурсы.

Метакогнитивные стратегии выступают своеобразным механизмом управления интеллектом. Они позволяют учащемуся: понимать особенности собственного мышления; выбирать эффективные способы обучения; контролировать качество познавательной деятельности; исправлять ошибки; самостоятельно развиваться.

Особую роль играет взаимосвязь метакогниции и самостоятельности. Учащийся с развитыми метакогнитивными навыками меньше зависит от внешнего контроля, так как способен самостоятельно организовать процесс обучения.

Анализ психологических механизмов показывает, что развитие интеллектуальных способностей через метакогнитивные стратегии происходит на нескольких уровнях:

- Когнитивный уровень обеспечивает улучшение процессов обработки информации.
- Мотивационный уровень усиливает стремление к познанию и саморазвитию.
- Эмоционально-волевой уровень помогает преодолевать трудности и сохранять устойчивость.
- Рефлексивный уровень обеспечивает анализ и постоянное совершенствование интеллектуальной деятельности.

Именно комплексное развитие данных компонентов создаёт условия для формирования интеллектуально самостоятельной личности.

Заключение. Проблема развития интеллектуальных способностей учащихся через метакогнитивные стратегии является одним из актуальных направлений современной педагогической психологии. Быстрое развитие науки, технологий и информационной среды требует подготовки личности, способной не только получать знания, но и самостоятельно управлять своим интеллектуальным развитием.

Проведённый теоретический анализ позволяет сделать вывод, что интеллектуальные способности представляют собой сложную динамическую систему, включающую когнитивные процессы, личностные качества, мотивацию и способность к самостоятельной регуляции мышления.

Метакогнитивные стратегии выступают психологическим механизмом повышения

эффективности интеллектуальной деятельности, поскольку обеспечивают осознание, контроль и совершенствование процесса познания.

Развитие интеллектуальных способностей учащихся посредством метакогнитивных стратегий происходит через несколько взаимосвязанных механизмов:

1. Когнитивный механизм способствует развитию анализа, обобщения, логического и критического мышления.

2. Мотивационный механизм формирует внутреннюю заинтересованность в обучении и стремление к интеллектуальному росту.

3. Эмоционально-волевой механизм обеспечивает устойчивость перед трудностями, настойчивость и способность продолжать деятельность даже при возникновении сложностей.

4. Рефлексивный механизм позволяет учащемуся анализировать собственный опыт, корректировать стратегии и совершенствовать процесс обучения.

Таким образом, метакогнитивные стратегии являются важным фактором перехода учащегося от зависимого обучения к самостоятельному интеллектуальному развитию. Их системное применение в образовательном процессе способствует: повышению уровня познавательной активности; развитию самостоятельного мышления; улучшению способности решать сложные задачи; формированию критического анализа информации; развитию творческого потенциала; повышению эффективности обучения.

Следовательно, развитие метакогнитивных стратегий должно рассматриваться как одно из приоритетных направлений современной образовательной практики, направленной на подготовку интеллектуально развитой, самостоятельной и конкурентоспособной личности.

Список использованной литературы

1. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Prentice Hall, 1986.
2. Выготский Л.С. Психология развития человека. – Москва, 2005.
3. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books, 1983.
4. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2010.
5. Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2004.
6. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent, 2012.

5. Flavell J.H. Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive–Developmental Inquiry. American Psychologist, 1979.

6. Piaget J. The Psychology of Intelligence. London: Routledge, 2001.

7. Sternberg R.J. Successful Intelligence: How Practical and Creative Intelligence Determine Success in Life. New York, 1996.

SHAXS KASBIY MOTIVATSIYASINING SHAKLLANISHIDA ICHKI VA TASHQI OMILLARNING TIZIMLI-STRUKTURAVIY TAHLILI

Xasanova Jasmin Masharib qizi

Psixologiya yo‘nalish talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tezisda shaxs kasbiy motivatsiyasi shakllanishining determinatsion qonuniyatlari hamda uning dinamik xususiyatlari tizimli-strukturaviy yondashuv (systemic-structural approach) aspektida atroflicha tahlil qilingan. Kasbiy faoliyatning muvaffaqiyati va shaxs professionallashuvining barqarorligini belgilovchi ichki (subyektiv-psixologik: ehtiyojlar, intilishlar, qadriyatli orientatsiyalar) va tashqi (obyektiv-faoliyatli: ijtimoiy-iqtisodiy, ijobiy va salbiy stimullar) motivatsion omillarning o‘zaro murakkab korrelyatsion bog‘liqliklari hamda ierarxik strukturasi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy motivatsiya, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, tizimli-strukturaviy tahlil, o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi, akmeologik yo‘naltirilganlik, kasbiy identifikatsiya, hissiy kuyish sindromi (burnout), kompetensiya, psixodiagnostik monitoring, kasbiy inqiroz.

Аннотация: В данном научном тезисе подробно проанализированы процессуальные закономерности формирования профессиональной мотивации личности и её динамические

особенности в аспекте системно-структурного подхода. Раскрыты сложные корреляционные взаимосвязи и иерархическая структура внутренних (субъективно-психологических: потребности, стремления, ценностные ориентации) и внешних (объективно-деятельностных: социально-экономические, положительные и отрицательные стимулы) мотивационных факторов, определяющих успех профессиональной деятельности и устойчивость профессионализации личности.

Ключевые слова: профессиональная мотивация, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, системно-структурный анализ, теория самоопределения, акмеологическая направленность, профессиональная идентификация, синдром эмоционального выгорания (выгорание), компетенция, психодиагностический мониторинг, профессиональный кризис.

Abstract: This scientific thesis provides a comprehensive analysis of the evolutionary patterns of individual professional motivation formation and its dynamic characteristics from the perspective of a systemic-structural approach. The complex correlations and hierarchical structure of internal (subjective-psychological: needs, aspirations, value orientations) and external (objective-activity: socio-economic, positive and negative stimuli) motivational factors that determine the success of professional activity and the stability of personality professionalization are revealed.

Keywords: professional motivation, internal motivation, external motivation, systemic-structural analysis, self-determination theory, acmeological orientation, professional identification, burnout syndrome, competence, psychodiagnostic monitoring, professional crisis.

Kirish

Hozirgi davrda globallashuv va mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida shaxsni professionallashuv bosqichida psixologik jihatdan o‘rganish hamda uning kasbiy barqarorligini ta’minlash zarurati har qachongidan ham yuqori hisoblanadi. Kasbiy motivatsiya murakkab psixologik fenomen bo‘lib, shaxsning kasb tanlashi, unda shakllanishi va yuqori natijalarga erishishini ta’minlovchi drayver vazifasini o‘taydi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi shaxs kasbiy motivatsiyasi tizimida ichki va tashqi omillarning tizimli-strukturaviy bog‘liqligini aniqlash hamda uning amaliy ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Shunga ko‘ra, tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo‘yildi:

1. Kasbiy motivatsiyaning tarkibiy qismlarini tizimli tizim sifatida o‘rganish;
2. Ichki (shaxsiy ehtiyojlar, qiziqishlar, o‘z-o‘zini namoyon qilish) va tashqi (ijtimoiy rag‘bat, iqtisodiy omillar, mehnat sharoiti) motivlarning o‘zaro nisbatini baholash;
3. Kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish va kasbiy inqirozlarning oldini olishga qaratilgan metodologik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Kasbiy motivatsiyaning tizimli-strukturaviy asoslari

Tizimli-strukturaviy yondashuv nuqtai nazaridan kasbiy motivatsiya yagona, dinamik va ko‘p o‘lchovli tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tizim ikki asosiy quyi tizimga bo‘linadi:

1. **Ichki motivatsiya (Intrinsic Motivation) quyi tizimi.** Ushbu quyi tizim subyekt faoliyatining ichki intellektual va emotsional manbalariga asoslanib, tashqi omillarga bog‘liq bo‘lmagan holda, bevosita mehnat jarayonining mazmuni, ijodiy tabiati hamda uning natijalaridan subyektiv qoniqish (job satisfaction) hosil qilish konseptiga tayanadi. R. Ryan va E. Decining "O‘z-o‘zini belgilash nazariyasi" (Self-Determination Theory)ga ko‘ra, ichki motivatsiyaning fundamental yadrosini insonning uchta bazaviy psixologik ehtiyoji tashkil etadi: avtonomiya (mustaqil qaror qabul qilish), kompetentlik (o‘z sohasining ustasi bo‘lish) va ijtimoiy aloqa (boshqalar bilan bog‘liqlik). Tizimli-strukturaviy tuzilmada ushbu quyi tizim quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

- Kasbiy-kognitiv intilishlar: Faoliyatning mohiyatini chuqur anglashga qaratilgan fundamental qiziqishlar, muammoli vaziyatlarni hal qilishga bo‘lgan intellektual ehtiyoj.
- Akmeologik yo‘naltirilganlik: Shaxsning o‘z-o‘zini mukammallashtirishi, professional "Men-konsepsiyasi"ni (Professional Self-Concept) rivojlantirishi va o‘z kreativ potensialini to‘liq namoyon etishi (self-actualization).

- Kasbiy faoliyatning shaxsiy ma'no-mazmuni: A.N. Leontyev nazariyasiga koʻra, faoliyat obyektiv maqsadining shaxsiy ma'noga (personal meaning) aylanishi, ya'ni mehnatning shaxs hayoti va qadriyatlar tizimidagi fundamental oʻrni.

2. **Tashqi motivatsiya (Extrinsic Motivation) quyi tizimi.** Mazkur quyi tizim bevosita mehnat yoki oʻquv faoliyatining mazmunidan tashqarida boʻlgan, ammo shaxsga tashqi ijtimoiy-institutsional muhit tomonidan ta'sir koʻrsatuvchi obyektiv-faoliyatli omillar majmuasidir. B.F. Skinnerning bixevioristik operant shartlanish qonuniyatlari hamda zamonaviy motivatsion modellar doirasida tashqi motivlar oʻzining valentligi va ta'sir etish xarakteriga koʻra ikki funktsional guruhga differensiasiya qilinadi:

- Tashqi ijobiy motivlar (Positive Extrinsic Motivators): Bunga moddiy ragʻbatlantirish (ish haqi, mukofotlar), ijtimoiy status va nufuzga erishish, martaba pillapoyalaridan koʻtarilish (career advancement) hamda jamoaviy tan olinish kiradi. Ushbu elementlar shaxsni faoliyatga energetik safbar etishda muhim hisoblanadi.
- Tashqi salbiy motivlar (Negative Extrinsic Motivators): Jazo, ma'muriy tanbehlar yoki moddiy sanksiyalardan qochish, majburiyat hissi, ijtimoiy bosim hamda konformizm tendensiyalari. Bu omillar qisqa muddatli istiqbolda faoliyat intensivligini oshirsa-da, uzoq muddatda shaxs faolligining pasayishiga va distress holatiga olib keladi.

Motivatsion tizimning dinamik evolyutsiyasi va Psixologik gomeostaz. Shaxs kasbiy shakllanishining (professional genesis) dastlabki bosqichlarida (masalan, talabalik yoki kasbga adaptatsiya davrida) tashqi motivlar, xususan, ijtimoiy status va moddiy ehtiyojlar ierarxik tizimda dominantlik qilishi qonuniyatidir. Biroq, shaxsning kasbiy identifikatsiyasi (professional identity) chuqurlashib, professionallik darajasi (professional maturity) ortgan sari, tizimda strukturaviy qayta qurilish (restrukturizatsiya) yuz beradi: tashqi motivlar asta-sekin ichki tizimga singib boradi (internalizatsiya jarayoni) va ichki motivatsion determinatning ulushi ortib, u yetakchi tizim shakllantiruvchi (system-forming) omilga aylanadi.

K. Zamfirning motivatsion kompleks modeliga koʻra, eng optimal va destruksiyaga chidamli struktura: IM > TIM > TSM (Ichki motivatsiya > Tashqi ijobiy motivatsiya > Tashqi salbiy motivatsiya) ierarxik nisbatidir.

Vaqt oʻtishi bilan tashqi faoliyat sharoitlari keskin oʻzgarganda, iqtisodiy inqirozlar yoki tashkiliy stressogen omillar yuzaga kelganda, aynan mana shu barqaror ichki motivatsion yadro shaxs psixikasining gomeostazini (muvozanatini) ta'minlaydi. U shaxsni professional inqirozlardan, apatiya, psixofiziologik charchoq hamda kasbiy faoliyatning eng xavfli destruktiv oqibati hisoblangan hissiy kuyish (burnout) sindromidan samarali himoya qiluvchi psixologik bufer (himoya yadrosi) vazifasini oʻtaydi.

Kasbiy motivatsiyani optimallashtirish va samaradorlikni oshirishning tizimli chora-tadbirlari

Shaxsning kasbiy motivatsiyasini tizimli ravishda barqarorlashtirish, dinamik rivojlantirish va uning destruktsiyaga uchrashining oldini olish maqsadida quyidagi ilmiy-metodologik chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirish patogen va funksional jihatdan zarur hisoblanadi:

- Kognitiv-motivatsion treninglar va refleksiv faoliyatni modellashtirish: Mutaxassislarda kasbiy faoliyatning ijtimoiy-institutsional va subyektiv-shaxsiy ahamiyatini (meaning-making process) anglash darajasini tubdan chuqurlashtirish. Ushbu dasturlar doirasida shaxsning ichki qadriyatlari tizimi (values system) bilan tashkilotning strategik maqsadlari oʻrtasidagi kognitiv moslik (person-organization fit) ta'minlanadi. Treninglar xodimlarning oʻz kasbiy rollarini interpretatsiya qilish koʻnikmalarini rivojlantirib, kognitiv dissonans darajasini pasaytiradi va kasbiy identifikatsiyani (professional identity) kuchaytiradi.
- Motivatsion muhitni korreksiyalash va Ergonomik-psixologik optimallashtirish: Tashkilot va muassasalarda xodimning ichki kognitiv qiziqishlari, kreativ salohiyati va individual potensialini maksimal darajada yuzaga chiqarishga xizmat qiluvchi akmeologik muhitni loyihalash. Bu jarayon xodimlarga nisbatan mikromenejmentni kamaytirish, ularga funksional avtonomiya (autonomy) taqdim etish va qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokini (participative

management) kengaytirishni nazarda tutadi. Avtonom ish sharoitlari shaxsda mas'uliyat hissini va mehnat natijasidan qoniqish (job satisfaction) koeffitsientini eksponental ravishda oshiradi.

- Uzluksiz professional rivojlanish (Lifelong Learning) dasturlarini konseptuallashtirish: Kompetensiyalar doimiy evolyutsiya qilayotgan sharoitda yangi instrumental bilim va ko'nikmalarni (xorijiy tillar, raqamli savodxonlik, sun'iy intellekt instrumentlari, innovatsion metodikalar) o'zlashtirish orqali kasbiy intilishlarni barqaror saqlash. Ilmiy nuqtai nazardan, yangi konseptlarni o'rganish neyroplastiklikni faollashtiradi va dopaminergiya tizimini (dopaminergic reward system) rag'batlantiradi. Bu esa xodimlarda "muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi"ni (achievement motivation) ustuvor qilib, ularni monotonlik va kasbiy turg'unlik (stagnatsiya) holatlaridan himoya qiladi.
- Psixodiagnostik monitoring va Proaktiv korreksiya tizimi: Bo'lajak mutaxassislar va faoliyat yuritayotgan xodimlarning kasbiy motivatsiyasi dinamikasini maxsus validli va ishonchli psixodiagnostik testlar (masalan, E. Mayoning motivatsion yo'naltirilganlik so'rovnomasi, V. Milmanning shaxs motivatsion strukturasi metodikasi, K. Zamfirning kasbiy motivatsiyani baholash testi) yordamida davriy ravishda monitoring qilib borish. Ushbu empirik ma'lumotlar motivatsiya tizimidagi asimmetriyani, ya'ni tashqi salbiy motivlarning (jazo qo'rquvi, majburiyat) ichki motivlardan ustun kelish tendensiyasini erta bosqichlarda aniqlashga va proaktiv psixologik korreksiya dasturlarini shakllantirishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, shaxs kasbiy motivatsiyasining shakllanishi fiziologik, psixologik va ijtimoiy omillarning murakkab kombinatsiyasidan iborat tabiiy-ijtimoiy jarayondir. Ichki va tashqi motivlarning optimal mutanosibligini ta'minlash shaxsiy o'sishga hamda mehnat unumdorligining tizimli ortishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova R.X. *Psixologiya asoslari.* – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2018. – 240 b.
2. Yusupov M.M. *Umumiy psixologiya.* – Toshkent: Fan, 2014. – 312 b.
3. Bozorov Q.Q. *Ruhiy jarayonlar psixologiyasi.* – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 198 b.
4. Леонтьев А. Н. *Деятельность. Сознание. Личность.* – Москва: Смысл, Академия, 2005. – 352 с.
5. Ryan, R. M., & Deci, E. L. *Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness.* – New York: Guilford Press, 2017. – 756 p.
6. Skinner, B. F. *Science and Human Behavior.* – New York: Macmillan, 1953. – 461 p.
7. Замфир К. *Удовлетворенность трудом: Мнение социолога.* – Москва: Политиздат, 1983. – 142 с.
8. Milman, V. E. *Methodika izucheniya motivacionnoy strukturi lichnosti (Method for Studying the Motivational Structure of Personality).* – Moscow: Smysl, 2002.

SPORT O'YINLARI ORQALI IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH

Xo'jayeva Dilfuza Erkinovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezis sport o'yinlari jarayonida irodaviy sifatlar shakllanishining psixologik mexanizmlarini tahlil qiladi. Maqsad sport o'yinlari sharoitida maqsadga intilish, qat'iyat, o'zini tuta bilish va mas'uliyat kabi sifatlarning rivojlanish omillarini aniqlashdir. Metodologiya sifatida nazariy tahlil, psixologik konsepsiyalarni taqqoslash va amaliy kuzatuv mantiqi qo'llanadi. Ilmiy yangilik sport o'yinlaridagi qaror qabul qilish, raqobat va hamkorlik dinamikasi irodani mustahkamlovchi omil sifatida izohlanishidadir.

Kalit so'zlar: iroda; irodaviy sifatlar; sport o'yinlari; o'zini boshqarish; motivatsiya; qat'iyat; jamoa hamkorligi.

Аннотация. В тезисе анализируются психологические механизмы формирования волевых качеств в процессе спортивных игр. Целью является выявление факторов развития целеустремлённости, настойчивости, самоконтроля и ответственности в игровой деятельности. Методология включает теоретический анализ, сопоставление концепций и логику практического наблюдения. Научная новизна состоит в интерпретации динамики

принятия решений, соревновательности и сотрудничества в спортивных играх как системного фактора укрепления воли и саморегуляции.

Ключевые слова: воля; волевые качества; спортивные игры; саморегуляция; мотивация; настойчивость; командное взаимодействие.

Abstract. This thesis examines psychological mechanisms of volitional qualities development through sports games. The aim is to identify factors that foster goal orientation, persistence, self-control, and responsibility within game-based activity. The methodology relies on theoretical analysis, conceptual comparison, and practice-oriented observation logic. Scientific novelty lies in explaining how decision-making under time pressure, competition, and team cooperation in sports games functions as an integrated driver of volitional regulation and personal self-management.

Keywords: volition; volitional qualities; sports games; self-regulation; motivation; persistence; team cooperation

Kirish

Irodaviy sifatlar tushunchasi psixologiyada shaxsning maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatini ichki boshqarish, to‘siqlarni yengish va tanlangan qarorni davom ettirish qobiliyati sifatida ta’riflanadi. Ushbu ta’rifning mexanizmi o‘zini boshqarish tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, unda motivlar kurashi, maqsadni rejalashtirish, ixtiyoriy e’tibor va hissiy holatni nazorat qilish bosqichlari ketma-ket ishlaydi. Masalan, futbol yoki voleybolda o‘yinchi charchoq kuchaygan pallada ham taktik vazifani bajarish, xatodan keyin tiklanish va keyingi epizodda to‘g‘ri qaror qabul qilish orqali irodaviy barqarorlikni namoyon etadi. Raqamli ko‘rsatkich sifatida sport psixologiyasi bo‘yicha kuzatuvlarda o‘yin vaziyatida qaror qabul qilishga ajratiladigan vaqt ko‘pincha 0,5–2,0 soniya diapazonida ekani, shuningdek jamoaviy o‘yinlarda yuqori intensivlik epizodlari umumiy o‘yin vaqtining taxminan 15–25 foizini tashkil etishi qayd etiladi, bu esa irodaviy zo‘riqishning tabiiy “trening maydoni”ni yaratadi. Ilmiy izoh sifatida faoliyat nazariyasi va o‘zini boshqarish konsepsiyalari irodani aynan murakkab vazifada ixtiyoriy boshqaruv kuchayishi orqali rivojlanishini asoslaydi, sport o‘yinlari esa murakkab vazifani doimiy va dinamik tarzda qayta ishlab beradi [1; 2].

Asosiy qosm

Sport o‘yinlari pedagogik-psixologik jihatdan “qoidali raqobat va hamkorlik”ni birlashtiradigan faoliyat turi sifatida ta’riflanadi. Bu faoliyatning mexanizmi shundan iboratki, o‘yin qoidalari xatti-harakat chegaralarini belgilaydi, raqobat motivatsion energiyani oshiradi, hamkorlik esa mas’uliyat va ijtimoiy o‘zini nazorat qilishni kuchaytiradi. Masalan, basketbolda himoyadan hujumga tez o‘tish paytida o‘yinchi shaxsiy ambitsiya bilan jamoa manfaatini muvozanatlaydi, ya’ni “men” va “biz” motivlari o‘rtasida tezkor irodaviy tanlov qiladi. Statistik kuzatuvlarda jamoaviy o‘yinlarda epizodlar soni juda yuqori bo‘lib, masalan, basketbolda bir o‘yin davomida o‘rtacha 80–100 ta hujum va shuncha himoya almashinuvi, futbolda esa to‘p nazoratining tez-tez almashishi fonida yuzlab mikroqarorlar yuzaga keladi; bu ko‘lam shaxsning irodaviy “mushak”ini takroriy faollashtiradi. Ilmiy izohga ko‘ra, irodaviy sifatlar faqat “kuchli xohish” emas, balki vazifa talabi, normativ cheklov va emotsional qo‘zg‘alish sharoitida tanlovni barqaror ushlab turishdir; sport o‘yinlari aynan shu uchlikni bir vaqtda beradi [3].

Irodaviy sifatlarning tarkibi maqsadga intilish, qat’iyat, sabot, o‘zini tuta bilish va mas’uliyat kabi komponentlar orqali ta’riflanadi. Ushbu komponentlarning mexanizmi funksional jihatdan o‘zaro bog‘langan: maqsadga intilish yo‘nalishni belgilaydi, qat’iyat to‘siqqa bardosh beradi, o‘zini tuta bilish impulsiv reaktsiyani cheklaydi, mas’uliyat esa jamoa va natija oldidagi ichki majburiyatni kuchaytiradi. Masalan, gandbolda o‘yinchi so‘nggi daqiqalarda hisob teng bo‘lganda hissiy zo‘riqishni boshqarib, murabbiy ko‘rsatmasiga muvofiq kombinatsiyani tugallashi zarur bo‘ladi, bu esa o‘zini tuta bilish va mas’uliyatning birgalikdagi namoyonidir. Raqamlar bilan ifodalaganda, musobaqa yakuniga yaqin “hal qiluvchi” epizodlar odatda o‘yin vaqtining 5–10 foizida jamlanadi, biroq psixologik yuklama aynan shu segmentda maksimal bo‘lib, yurak urishi va sub’ektiv zo‘riqish ko‘rsatkichlari sezilarli ortadi; demak, irodaviy sifatlar aynan yuqori bosim zonasida sinovdan o‘tadi. Ilmiy izoh sifatida stress va koping yondashuvlari o‘zini tuta bilishning

kuchayishi irodaviy tajriba to‘planishi va vaziyatni kognitiv qayta baholash orqali barqarorlashishini ko‘rsatadi, sport o‘yinlarida esa bunday qayta baholash doimiy takrorlanadi [4].

Sport o‘yinlari orqali irodaviy sifatlarni shakllantirish jarayonini psixologik-pedagogik texnologiya sifatida “maqsad qo‘yish, nazorat, teskari aloqa va refleksiya” zanjiri bilan ta’riflash mumkin. Ushbu zanjirning mexanizmi shundaki, o‘yin oldidan aniq maqsad qo‘yiladi, o‘yin davomida mezonlar bo‘yicha o‘zini nazorat qilish ishlaydi, natijada teskari aloqa olinadi va yakunda refleksiya orqali xulq-atvor strategiyasi qayta sozlanadi. Masalan, voleybolda qabul (priyom) sifati bo‘yicha individual maqsad qo‘yilib, o‘yin davomida murabbiy va statistik protokol orqali aniqlik kuzatiladi, o‘yin yakunida esa xatolar xaritasi asosida o‘yinchi o‘zining irodaviy intizomini baholaydi. Raqamli jihatdan, zamonaviy sport amaliyotida o‘yin statistikasi (xato, samarali harakat, foydali koeffitsient) orqali o‘yinchining vazifa bajarish darajasi 0–100 foiz oralig‘ida qayd etiladi; bunday raqamlashtirish o‘zini nazorat qilishni kuchaytirib, irodaviy intizomni mustahkamlaydi. Ilmiy izoh sifatida o‘rganish nazariyalari va mustahkamlash mexanizmlari shuni ko‘rsatadiki, aniq mezonlar va tezkor teskari aloqa mavjud bo‘lsa, o‘zini boshqarish ko‘nikmalari tezroq avtomatlashtiriladi, sport o‘yinlari esa buni tabiiy sharoitda beradi [2; 5].

Irodaviy sifatlarni shakllantirishda motivatsiya “ichki qiziqish” va “tashqi natija”ning muvozanati sifatida ta’riflanadi. Mexanizm shundan iboratki, ichki motiv o‘yindan zavqlanish va mahoratni oshirishga tayanadi, tashqi motiv esa g‘alaba, reyting va ijtimoiy bahoga bog‘liq bo‘ladi; ularning optimal uyg‘unligi irodaviy barqarorlikni kuchaytiradi. Masalan, o‘smir sportchida faqat g‘alabaga yo‘naltirilgan tashqi motiv ustun bo‘lsa, mag‘lubiyatdan keyingi emotsional tushkunlik irodani pasaytiradi, ammo mahoratni oshirishga qaratilgan ichki motiv kuchli bo‘lsa, mag‘lubiyat refleksiya va keyingi mashg‘ulot rejasiga aylanadi. Statistik ma’lumotlar sifatida sport psixologiyasida motivatsion yo‘nalishlarni o‘lchovchi so‘rovnomalarda ichki motivatsiya ballari yuqori bo‘lgan sportchilarda mashg‘ulot davomiyligiga rioya qilish va o‘zini nazorat qilish ko‘rsatkichlari sezilarli yuqori chiqishi ko‘p bora qayd etilgan; amaliyotda bu farq odatda o‘rtacha effekt o‘lchami darajasida namoyon bo‘ladi. Ilmiy izoh sifatida o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi ichki motivatsiya kompetentlik, avtonomiya va aloqadorlik ehtiyojlari qondirilganda kuchayishini ta’kidlaydi; jamoaviy sport o‘yinlarida aynan shu uch ehtiyoj kompleks tarzda ishga tushadi [3; 6].

Sport o‘yinlari sharoitida irodani shakllantirishning muhim jihati ijtimoiy-psixologik muhit bo‘lib, u “jamoa normasi va liderlik” bilan ta’riflanadi. Mazkur muhitning mexanizmi shundan iboratki, jamoa ichida qabul qilingan intizom, o‘zaro talabchanlik va qo‘llab-quvvatlash tizimi individual irodaviy xulqni ijtimoiy nazorat orqali mustahkamlaydi. Masalan, kapitan yoki tajribali o‘yinchi mashg‘ulotda sustkashlik qilayotgan sherigiga konstruktiv fikr bildirsa, bu tanbeh emas, balki normani eslatish bo‘lib, o‘zini tuta bilish va mas’uliyatni oshiradi. Raqamli ko‘rsatkich sifatida jamoa sportlarida ishtirokchilarning o‘zaro muloqoti juda zich bo‘lib, bir o‘yin davomida o‘nlab og‘zaki signallar va yuzlab noverbal ishoralar (ko‘z qarashi, qo‘l harakati, joylashuv) orqali tezkor muvofiqlashtirish yuz beradi; bu “doimiy mikroaloqa” sharoitida irodaviy intizomning buzilishi darhol ko‘rinadi va tuzatiladi. Ilmiy izohga ko‘ra, guruh bosimi salbiy bo‘lishi ham mumkin, biroq pedagogik boshqaruv to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, u pro-sotsial mas’uliyat va o‘zini nazorat qilishni kuchaytiradigan omilga aylanadi [1; 4].

Taqqoslama tahlilda sport o‘yinlari irodaviy sifatlarni shakllantirishda individual sport turlaridan farqli mexanizmlarga ega faoliyat sifatida ta’riflanadi. Mexanizm nuqtai nazaridan individual sportda o‘zini boshqarish ko‘proq “o‘z-o‘ziga raqobat” va ritmni ushlash orqali ishlasa, sport o‘yinlarida “vaziyat almashinuvi, sherik uchun javobgarlik va raqibni o‘qish” orqali ishlaydi. Masalan, yugurishda sportchi asosan o‘z tempini saqlaydi, futbolda esa tempni saqlash bilan birga raqibning niyatini taxmin qilish, sherikning ochilishiga moslashish va xatoni jamoa foydasiga kompensatsiya qilish talab etiladi, bu irodaviy moslashuvchanlikni kuchaytiradi. Raqamli jihatdan, o‘yin sportlarida harakatlar xilma-xilligi yuqori bo‘lib, bir mashg‘ulotda o‘nlab texnik elementlar va yuzlab taktik mikroholatlar modellashtiriladi; individual sportlarda esa takrorlar ko‘proq standartlashgan bo‘ladi, bu irodaviy sifatlarning ayrim komponentlarini turlicha

rivojlantiradi. Ilmiy izoh sifatida differensial psixologiya yondashuvi shuni ko‘rsatadiki, irodaviy sifatlar tarkibi faoliyat talabiga mos ravishda qayta tashkil topadi; demak, sport o‘yinlari irodani “murakkab tizim” sifatida mashq qildiradi [2; 6].

Sport o‘yinlari orqali irodaviy sifatlarni shakllantirishda mashg‘ulot yuklamasi va tiklanish nisbatini ilmiy asoslangan boshqaruv obyekti sifatida ta’riflash zarur. Mexanizm shundan iboratki, ortiqcha yuklama emotsional kuyish va motivatsiya pasayishiga olib keladi, me’yoriy-progressiv yuklama esa irodaviy barqarorlikni o‘stiradi; shu bois murabbiylik boshqaruvi psixologik monitoring bilan uyg‘un bo‘lishi lozim. Masalan, ketma-ket ikki yuqori intensiv sparringdan so‘ng refleksiya va psixologik tiklanish elementlari (nafasni boshqarish, maqsadni qayta belgilash) kiritilsa, sportchi o‘zini tuta bilish va qat’iyatni “sindirmasdan” kuchaytiradi. Raqamlar bilan ifodalaganda, amaliy sportda yuklamani nazorat qilish uchun RPE shkalasi (sub’ektiv zo‘riqish) 1–10 ballik baholashda ko‘pincha 6–8 zonasi rivojlantiruvchi, 9–10 zonasi esa qisqa muddatli maksimal zo‘riqish sifatida qo‘llanadi; bu zonalash irodaviy zo‘riqishni ham boshqarish imkonini beradi. Ilmiy izoh sifatida psixofiziologik yondashuv irodaviy harakatning barqarorligi nerv tizimi resurslari va tiklanish sifati bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi, sport o‘yinlarida esa “interval” xarakter resursni to‘g‘ri taqsimlashni o‘rgatadi [5; 7].

Xulosa

Sport o‘yinlari irodaviy sifatlarni shakllantirish uchun noyob psixologik laboratoriya bo‘lib, unda qoidalar bilan chegaralangan erkinlik, raqobat bilan uyg‘un hamkorlik va tezkor qaror qabul qilish bir vaqtda mavjud bo‘ladi. Tahlil natijalariga ko‘ra, maqsadga intilish, qat’iyat, o‘zini tuta bilish va mas’uliyat sport o‘yinlarida vaziyat almashinuvi, teskari aloqa tezligi hamda jamoa normasi ta’sirida tizimli ravishda rivojlanadi. Motivatsiyaning ichki va tashqi komponentlari muvozanati, shuningdek yuklama va tiklanishning ilmiy boshqaruvi irodaviy barqarorlikni mustahkamlovchi shartlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, jamoaviy muhitdagi liderlik va ijtimoiy nazorat irodani faqat individual xususiyat emas, balki madaniy-axloqiy mas’uliyat bilan uyg‘un ko‘nikma sifatida qaror toptirishini ko‘rsatadi. Umuman, sport o‘yinlari asosida tuzilgan maqsadli pedagogik jarayon shaxs irodasini kompleks rivojlantirish, stressga chidamlilik va o‘zini boshqarish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimova, V. M. Sport psixologiyasi: o‘quv qo‘llanma. Toshkent, O‘qituvchi, 2018. 256 b.

2. Ilyin, E. P. Psikhologiya voli: uchebnoe posobie. Sankt-Peterburg, Piter, 2011. 368 s.

3. Deci, E. L.; Ryan, R. M. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. New York, Guilford Press, 2017. 756 p.

4. Lazarus, R. S.; Folkman, S. Stress, Appraisal, and Coping. New York, Springer Publishing Company, 1984. 456 p.

5. Bompa, T. O.; Buzzichelli, C. Periodization: Theory and Methodology of Training. Champaign, Human Kinetics, 2019. 432 p.

6. Weinberg, R. S.; Gould, D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. Champaign, Human Kinetics, 2018. 648 p.

7. Platonov, V. N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpijskom sporte. Kiev, Olimpiyskaya literatura, 2015. 808 s.

YOSHLAR ONGINI MANIPULYATSIYA QILISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

O’rozboeva Gulshanoy Ixtiyor qizi
Ma’mun universiteti psixologiya kafedrasi o’qituvchisi
gulshanoyurozboeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli texnologiyalarning yoshlar ongiga ta’siri, ayniqsa manipulyativ axborotlarning internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalishi tahlil qilinadi.

Shuningdek, algoritmlar, sun’iy intellekt, reklama va virtual muhit orqali yoshlarning dunyoqarashi hamda qaror qabul qilish jarayoniga ko‘rsatilayotgan psixologik ta’sirlar yoritiladi. Maqolada yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish, media savodxonlikni o‘shirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar. raqamli texnologiyalar, manipulyatsiya, yoshlar, internet, ijtimoiy tarmoqlar, media savodxonlik, axborot xavfsizligi, sun’iy intellekt.

Аннотация. В данной статье рассматривается влияние цифровых технологий на сознание молодежи, с особым акцентом на распространение манипулятивной информации посредством Интернета и социальных сетей. Также исследуются психологические воздействия алгоритмов, искусственного интеллекта, рекламы и виртуальной среды на формирование мировоззрения и процессы принятия решений молодежью. Особое внимание уделяется вопросам защиты молодежи от информационных угроз, повышения уровня медиаграмотности и развития критического мышления.

Ключевые слова: цифровые технологии, манипуляция, молодежь, Интернет, социальные сети, медиаграмотность, информационная безопасность, искусственный интеллект.

Annotation. This article examines the influence of digital technologies on the consciousness of young people, with particular emphasis on the dissemination of manipulative information through the Internet and social media platforms. The study further explores the psychological effects of algorithms, artificial intelligence, advertising, and virtual environments on the worldview and decision-making processes of youth. Particular attention is devoted to issues related to protecting young people from information threats, improving media literacy, and fostering critical thinking skills.

Keywords: digital technologies, manipulation, youth, Internet, social media, media literacy, information security, artificial intelligence.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, internet, ijtimoiy tarmoqlar, sun’iy intellekt va mobil ilovalar yoshlarning dunyoqarashi, fikrlashi hamda kundalik hayotiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot almashinuvi tezlashgani insoniyat uchun keng imkoniyatlar yaratgan bo‘lsa-da, ayrim salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, turli axborot xurujlari, yolg‘on ma’lumotlar va manipulyativ kontent orqali yoshlar ongiga ta’sir o‘tkazish holatlari kuchaymoqda. Shu sababli raqamli texnologiyalarning yoshlar ongini shakllantirishdagi ijobiy va salbiy jihatlarini chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar yoshlar uchun cheksiz ma’lumot manbai hisoblanadi. Internet orqali istalgan mavzuda bilim olish, xorijiy tajribalarni o‘rganish, masofaviy ta’limdan foydalanish imkoniyati mavjud. Ammo internetdagi barcha ma’lumotlar ham ishonchli emas. Ayrim guruhlar yoki shaxslar yoshlarning hissiyotlari va qiziqishlaridan foydalanib, ularning ongiga yashirin ta’sir o‘tkazishga harakat qiladi.

Bugungi kunda manipulyatsiyaning eng keng tarqalgan vositalaridan biri ijtimoiy tarmoqlardir. Turli platformalarda tarqatilayotgan qisqa videolar, reklama materiallari va trendlar yoshlarning fikrlash tarziga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, algoritmlar foydalanuvchining qiziqishiga mos kontentni taklif qilgani sababli, yoshlar bir xil mazmundagi axborot doirasida qolib ketishi mumkin. Natijada ularning mustaqil fikrlashi cheklanadi va ma’lum g‘oyalarga bir tomonlama qarash shakllanadi.

Bundan tashqari, yolg‘on axborotlar ham yoshlar ongiga salbiy ta’sir qiladi. Soxta yangiliklar odamlarning hissiyotiga ta’sir etish orqali tez tarqaladi. Ko‘plab yoshlar axborotni tekshirmasdan qabul qilishi yoki boshqalarga ulashishi mumkin. Bu esa jamiyatda noto‘g‘ri qarashlar, vahima yoki ishonchsizlik muhitini yuzaga keltiradi.

Raqamli texnologiyalar orqali amalga oshiriladigan manipulyatsiyaning yana bir ko‘rinishi — reklama va ommaviy madaniyat ta’siridir. Ayrim blogerlar yoki internet yulduzlari yoshlar ongiga bevosita ta’sir o‘tkazib, ularda sun’iy ehtiyojlarni shakllantiradi. Natijada yoshlar o‘z hayotini

boshqalar bilan taqqoslay boshlaydi, bu esa ruhiy bosim va o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur muammolarning oldini olishda media savodxonlik muhim o‘rin tutadi. Yoshlar har qanday axborotni tanqidiy tahlil qila olishi, manbalarni tekshirishi va internetdan ongli foydalanishni o‘rganishi zarur. Ota-onalar, ustozlar va jamiyat vakillari yoshlarni to‘g‘ri axborot madaniyatiga o‘rgatishi kerak. Ta’lim muassasalarida media savodxonlik va kiberxavfsizlikka oid bilimlarni keng targ‘ib qilish bugungi davr talabi hisoblanadi.

Raqamli manipulyatsiya bir necha usullar orqali amalga oshiriladi:

1. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ta’sir o‘tkazish

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning fikrini shakllantirishda muhim vositaga aylandi. Blogerlar, trendlar va ommaviy kontent orqali muayyan g‘oyalar targ‘ib qilinadi. Ayrim hollarda foydalanuvchi o‘zi sezmagan holda ma’lum qarashlarni qabul qiladi.

2. Algoritmik boshqaruv

Platformalar foydalanuvchining qiziqishiga mos kontentni avtomatik tavsiya qiladi. Natijada inson faqat bir tomonlama axborotni ko‘radi va boshqa fikrlarni qabul qilish qobiliyati pasayadi. Bu “axborot pufagi” deb ataladi.

3. Feyk axborot va dezinformatsiya

Yolg‘on xabarlar hissiyotlarga kuchli ta’sir qiladi. Ayniqsa, yoshlar tekshirilmagan ma’lumotlarni tez qabul qilishi sababli turli manipulyativ axborotlarga ishonib qolish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

4. Reklama va iste’mol madaniyati

Raqamli reklama yoshlarni ortiqcha iste’molchilikka undaydi. Turli mahsulotlar yoki hayot tarzi ideal sifatida ko‘rsatilishi yoshlarning psixologik bosim ostida qolishiga sabab bo‘ladi.

Yoshlar ongiga ta’sirning ijtimoiy-psixologik oqibatlari

Raqamli manipulyatsiyaning salbiy oqibatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- mustaqil fikrlashning pasayishi;
- virtual qaramlikning kuchayishi;
- milliy qadriyatlardan uzoqlashish;
- ruhiy tushkunlik va stress holatlarining ortishi;
- tajovuzkorlik va befarqlikning kuchayishi;
- yolg‘on axborotlarga ishonchning ortishi.

Bundan tashqari, internetdagi zararli kontent yoshlarning ma’naviy tarbiyasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayrim hollarda virtual manipulyatsiya yoshlarni noqonuniy yoki ekstremistik faoliyatlarga jalb qilish vositasiga ham aylanmoqda.

Yoshlarni raqamli manipulyatsiyadan himoya qilish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish muhim:

Media savodxonlikni oshirish

Yoshlar axborotni tahlil qilish, manbalarni tekshirish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Oila va ta’lim tizimining roli

Ota-onalar va pedagoglar yoshlarning internetdan foydalanishini nazorat qilish bilan birga, ularga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi zarur.

Milliy kontentni rivojlantirish

Yoshlarning qiziqishiga mos, ma’naviy va ilmiy foydali milliy raqamli kontentlarni ko‘paytirish muhim ahamiyatga ega.

Axborot xavfsizligini kuchaytirish

Davlat va jamiyat tomonidan zararli axborotlarga qarshi samarali mexanizmlar ishlab chiqilishi zarur.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar yoshlar hayotida katta imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ularning ongiga yashirin ta’sir o‘tkazish vositasiga ham aylanmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi manipulyativ kontent yoshlarning dunyoqarashi va ruhiy holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, media savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan yoshlar manipulyativ axborotlarni tanib olishda ancha faol va mustaqil fikrlashga moyil ekanligi kuzatildi. Demak, ta’lim tizimida media madaniyatni rivojlantirish muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar taraqqiyotning ajralmas qismiga aylangan bo‘lsa-da, ulardan noto‘g‘ri foydalanish yoshlar ongini manipulyatsiya qilish xavfini kuchaytiradi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan axborotlar yoshlarning fikrlashi, qadriyatlari va ruhiy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu sababli yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish, ularda tanqidiy fikrlash va media savodxonlikni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Oila, ta’lim muassasalari va jamiyat hamkorligida sog‘lom axborot muhitini yaratish orqali yoshlarni turli manipulyativ ta’sirlardan asrash mumkin. Raqamli texnologiyalar faqat ongli va maqsadli foydalanilgandagina jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar bo‘yicha materiallar.
2. Allen D. Ready for Anything: 52 Productivity Principles for Work and Life. New York : Viking Books, 2003. 165 p.
3. Bogdan NN, Mogilyovkin EA. Motivation and demotivation professional work of university personnel (by the example of Far Eastern Federal district higher schools). Universitetskoeupravlenie: praktika i analiz. 2004;3:89–97. Russian.
4. *Гаранян Н.Г.* Перфекционизми враждебность как личностные факторы депрессивных и тревожных расстройств :автореф.дис.на соиск.учен.степ.д-ра.психол.наук поспециальности19.00.04.–М.,2010.
5. Bogdan NN, Mogilyovkin EA. Motivation and demotivation professional work of university personnel (by the example of Far Eastern Federal district higher schools). Universitetskoeupravlenie: praktika i analiz. 2004;3:89–97. Russian.

O‘QUVCHILARNI KREATIV TADQIQOTCHILIK VA KASBIY KO‘NIKMALARINI TANQIDIY FIKRLASH ORQALI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

Xujaniyozova Oygul Rajabovna *Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quvchilarni kreativ tadqiqotchilik va kasbiy ko‘nikmalarini tanqidiy fikrlash orqali pedagogik va psixologik rivojlantirishning tamoyillari, ta’limning inovatsion texnologiyalari robototexnika, modellashtirish, konstruksiyalashtirish, dasturlashtirishni o‘rgatishda tanqidiy fikirlash qobilyatining ahamiyati va uni shakllanish jarayoni to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tadqiqotchilik, robototexnika, kasbiy ko‘nikma, tanqidiy fikrlash, mantiqiy fikrlash, axborotlarni yig‘ish, dispozitsiya.

Abstract

This article discusses the content of developing students' creative research and professional skills through critical thinking, the importance of innovative thinking technologies in teaching robotics, modeling, design, programming, critical thinking skills and the process of its formation

Keywords: research, robotics, professionalism, critical thinking, logical thinking, data collection, disposition.

Jahon ta’lim tizimida fan va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil hamda barqaror rivojlantirish mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo‘lib bormoqda. AQSh, Rossiya, Angliya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlarda, yuqori texnologik tayyorgarlikka ega raqobatbardosh kadrlar tayyorlash rivojlanishning asosiy yo‘nalishi sifatida qaralib, ta’limda innovatsiyalarni, shu

jumladan, robototexnika, modellashtirish, konstruksiyalashtirish, dasturlashtirish, 3D-loyihalashtirish va virtual muhandislikni o‘rgatish yuzasidan nazariy tadqiqotlar olib borilmoqda

O‘zbekiston Respublikasida shakllangan uzluksiz ta’lim tizimi barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlash jarayonining samarali tashkil etilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Uzluksiz ta’lim tizimi doirasida faoliyat olib boruvchi maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida STEAM fanlar, tanqidiy fikrlash va axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash muammolari bugungi kun vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Hozirgi kunda maktabdan tashqari ta’lim jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalash, maktabdan tashqari ta’lim faoliyatiga qo‘yilayotgan ijtimoiy buyurtma ilg‘or xorijiy tajribalar bilan uyg‘unlashtirilmaganligi hamda ta’lim mazmunini yangilab borish zarurati; zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llash orqali bolalarni individual rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va uslubiy materiallar, o‘quvchilar kasb – hunar tayyorgarligini rivojlantirish yetarli darajada ta’minlanmaganligi; o‘quvchilar egallayotgan bilim va ko‘nikmalarining kasbiy faoliyatda talab etiladigan ko‘nikma va malakalar darajasiga muvofiq emasligi tadqiq etilayotgan muammoning dolzarbligini belgilaydi.

O‘quvchilar kasb – hunar tayyorgarligini takomillashtirishda STEAM ta’limni amaliyotga tadbiq etish orqali o‘quvchilar tadqiqotchilik va kasbiy ko‘nikmalarini rivojlanitirishning inovatsion texnologiyalari keng tadbiq etilmagan bo‘lsada tanqidiy fikrlashga o‘rgatish zarurligi, o‘quvchilar tadqiqotchilik va kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish vostasi siftida qaralmoqda.

O‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘ragatish deganda nimalar nazarda tutiladi. Tanqidiy fikrlash nima? Tanqidiy fikrlash - bu ma’lumotni ob’ektiv tahlil qilish va asosli xulosa chiqarish qobiliyatini anglatadi. Bu ma’lumotlar, faktlar, kuzatiladigan hodisalar va tadqiqot natijalari kabi manbalarni baholashni o‘z ichiga oladi.

Tanqidiy fikrlash - bu xulosa chiqarish uchun dalillarni tahlil qilish. Murakkab mavzular va ob’ektlardagi dalillarni ratsional, skeptik, xolis tahlil qilish yoki baholashni o‘z ichiga olgan bir nechta turli xil ta’riflardir. Tanqidiy fikrlash - bu o‘quvchini o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi tarbiyalash, o‘zini o‘zi nazorat qilish va o‘zini rivojlantiridigan fikrlashdir. Bu qat’iy mukammal shartlar va ulardan oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Bu samarali muloqot va muammolarni hal qilish qobiliyatlari, shuningdek, mahalliy egotsentrizmni va sotsiotsentrizmni yengish majburiyatini oladi.

Tanqidiy fikrlash izchiligi va o‘quvchilar tafakkurining mantiqiy fikrlashida tanqidiy fikrlashning bog‘liqligini quyidagi chizmada aks ettirish mumkin.



Dars va darsdan tashqari faoliyat davomida o‘quvchilar tamonidan olib boriladigan mashg‘ulotlar ko‘pincha tadqiqotchilikga yo‘naltirilgan bo‘lib bunda o‘quvchining mustaqil harakatlanishda, unga berilayotgan topshiriqlar va ularni yechimini topishda o‘quvchining mantiqiy tafakkurini rivojlantirib borish va tanqidiy fikrlashiga yo‘naltirish doimo muammo bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda zamonaviy dunyoda kasb – hunarga tayyorlash, o‘rgatish bir tomonlama yondashuv asosida olib borilib bir nechta yangidan yangi kasblar hosil qilindi, bularga misol qilib AT mutaxassisi, robotexnika, mexatronika va muhandislik kasblaridir. Ushbu kasblarni o‘rganishda hamda murakkab texnologik jarayonlar, operatsiyalarni bajarishda o‘quvchilarning dasturlash, yig‘ish, bajarish, ishga tushirish yoki texnologik ketma-ketlikni uddalay olish ko‘nikmalarining o‘zi yetarli bo‘lmay balki, tadqiqotchilik ko‘nikmalari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buning uchun o‘quvchilar tanqidiy fikrlashni muntazam rivojlantirib borish ta’lab etilmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki ta’lim olish mobaynida o‘quvchilarning ko‘nikma va qobilyatlarni rivojlantirishda aksariyat tadqiqotchilar ko‘nikma yoki qobiliyatdan tashqari tanqidiy fikrlashni ham tan olishmoqda. Bu esa dispozitsiyalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tushunchaning kelib chiqishi 1985 yilda olib borilgan tadqiqot ishlarida tanqidiy fikrlash qobiliyati “bajarish va uddalay olish” qobiliyatidan farq qilishini tan olingan bo‘lib tanqidiy fikrlash qobiliyati degan tushunchani tasdiqlovchi empirik dalillar ham paydo bo‘ladi va ajratmalar aslida alohida ob’ektlarga xosligi o‘z isbotini topgan. Ushbu fikrlar har xil munosabat yoki odatlar sifatida tashlangan. Facione tanqidiy fikrlash holatlarini quyidagicha belgilaydi "Shaxslarga, voqealarga yoki sharoitlarga nisbatan bo‘lgan munosabat yoki ularga munosabat bildirish uchun doimiy paydo bo‘ladigan ichki motivlardir. Tadqiqotchilar shunga o‘xshash to‘plamlarni aniqlashga harakat qilib tanqidiy fikrlashni vujudga keltiradigan bir necha sabablar va omillarni asoslagan. Masalan, eng tez-tez takrorlanadigan tanqidiy fikrlash holatlarini o‘z ichiga oladigan qobiliyat turlari quydagilardir:

- ochiq fikrlash qobiliyati;
- adolatli fikrlash qobiliyati;
- sabab izlashga moyillik qobiliyati;
- qiziquvchanlik qobiliyati;
- xabardor bo‘lishni xohlash qobiliyati;
- moslashuvchanlik qobiliyati;

Bugungi kunda bir necha g‘arb olimlari Facione, Ennis, Baylin va boshqalar tamonidan tanqidiy tafakkurni aniqlash borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borgan bo‘lsada, ko‘pchilik

tadqiqotchilar tamonidan tanqidiy fikrlash “ko‘nikmalar va mulohazalar”ni o‘z ichiga oladi degan fikrga qo‘shilishmoqda. Tanqidiy mulohaza yuritish nuqtai nazarini uning meyorlarida ko‘rib chiqish kerakmi degan xulosaga borishmoqda 1990 yilda Amerika faylasuflar uyushmasi (APA) bir murosaga kelish uchun tanqidiy fikrlaydigan tadqiqotchilar guruhini tuzib kelgusidagi tadqiqot harakatlariga yordam beradigan tanqidiy fikrlashni aniqlash topshirig‘ini berishgan. Garchi ko‘pchilik mutaxassislar dispozitsiyalar muhim tarkibiy qism ekanligiga kelishib, ular muayyan harakatlarga qarshi chiqib, bu tanqidiy fikrlash ta’rifi doirasidagi dispozitsiyalar deb hisoblashgan, ba’zilari shu fikrlarga asoslanib shunchaki maqtovga sazovor rol o‘ynaydi va bu qarashlarni qo‘llab-quvvatlovchi boshqalar ham normativ rolga egadir deb hisoblaydi.

O‘quvchilar tadqiqotchilik va kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda tanqidiy fikrlashga o‘rgatishning bir necha shakllari mavjud bo‘lib shulardan muhandislik to‘garaklarida quydagilarni o‘rgatish mukin:

Axborotlarni yig‘ish: Ko‘pgina o‘quvchilarimiz mutlaqo noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishadi, chunki ular o‘z fikrini to‘g‘ri deb bilishadi. Bunday xatolarga yo‘l qo‘yishiga sabab ularning kam ma’lumotlarga ega ekanligi yoki aksincha bilimlarni yanada mustahkamlashga intilmasligidadir. Shuning uchun hozirgi zamonimiz qanchalik tez rivojlanayotganligini hisobga olgan holda mavjud barcha axborotlarni to‘plab ularni tahlil qilish

Kuzatish: Bu yerda qanchalik o‘quvchilarni qiziquvchan bo‘lishligidadir. Har doim bizning ko‘zimiz ostida bo‘lgan narsalarga e’tibor bermasligimiz va biz ularni odatdagidek qabul qilganligimizdadir. Bundan tashqari, bu nafaqat ob’ektlar, balki bizning va boshqalarning xatti-harakati, turli xil istehzoli vaziyatlar va mexanizimlarning g‘ayrioddiy tuzilishlari bo‘lishi mumkin. Kuzatganimizda, bizning ichki hisyotimiz bir muncha vaqt sezmasligi va ko‘zlarimiz ko‘rgan narsalarga reaksiya bildirmasligi.

Adabiyotlar bilan ishlash: To‘g‘ri xulosa chiqarish uchun biz mantiqni o‘rganishingiz kerak. Uning o‘z qonunlari, istisnolari va qaramaqarshiliklari bor, ammo shunga qaramay, har qanday munozarada fikrimizni isbotlashning ajoyib usuli hisoblanib, boshqa o‘quvchilarning bayonotlaridagi nomuvofiqlikni payqashni o‘rganish va vaziyat imkon bersa ularga munosabat bildirish.

Ratsionalizatsiya: Bu ong qonunlarini qo‘llashni anglatadi: induksiya, deduksiya va analogiya. Ushbu vositalardan foydalanib, biz argumentni baholab, uning kuchli va zaif tomonlarini topishimiz mumkin.

Eslash: Muntazam ravishda muammoning tafsilotlaridan bir qadam orqaga qaytib butun jarayonlarni eslash va nimani bilib olganimizga va qanday tajribaga ega ekanligimizga e’tibor berish.

Ijodkorlik: Bu bizga nafaqat ijodning mohiyatini tushunishga, balki mashqlar orqali yanada ijodiy bo‘lishga yordam beradi. TRIZ yoki STEAM kabi metodlardan foydalanish, ular bizga muammolarga tizimli yondoshishga yordam beradi.

Tasniflash va ketma-ketlik: Axborotni taxlildan o‘tkazishni o‘rganish uchun elementlar va g‘oyalarni xususiyatlariga ko‘ra guruhlab va tartiblab chiqish. Aqliy imkoniyatlardan foydalanish.

Taqqoslash va taxrirlash: Ikki yoki undan ortiq ob’ektlar, vaziyatlar, muammolar qanday o‘xshash yoki turli xil ekanligini aniqlashni o‘rganish. Afzalliklar va kamchiliklarning ro‘yxatini tuzib, so‘ng birini tanlash.

Sabab va oqibatni tahlil qilish: Qizig‘i shundaki, ko‘p o‘quvchilar sabab va oqibatni ajrata olmaydilar. Shuning uchun, bizning birinchi qadamimiz sabab va natijani aniqlash qobiliyati bo‘ladi. Ba’zida sabab va ta’sir bir-biriga bog‘liq bo‘lmasligi mumkin - demak, biz biror narsani hisobga olmagan bo‘lishimiz mumkin.

Sintez: Oldindan kutilmagan natijaga erishish uchun turli xil ma’lumotlarni to‘plash va ularni birlashtirish.

Baholash: Muammoning ikki yoki undan ko‘p yechimini topishni o‘rganish va qaysi biri yaxshiroq ekanligini baholash.

Bashoratlash: Bu o‘quvchilarni bezovta qilmaydigan murakkab jarayon. Ular “tahlil qilish” ga bir necha soniya vaqt sarflaydilar va kelajakka asoslanib qaror qabul qiladilar. Bunday

qilmaslik, ma’lumotlarni diqqat bilan yig‘ish va tahlil qilish orqali ilmiy yechimlarni to‘plash. Albatta, minglab omillar mavjud bo‘lib barchasini hisobga olishimiz mumkin.

Ustuvorlik: Vaqtni boshqarishni o‘rganish, nima uchun vaqtimizni sarflashimiz va nimaga sarflanishini tushunib olish. Unutmaslik kerakki, foydasiz narsaga sarflangan vaqt ishning samaradorligini yo‘qotish mumkin.

XULOSA

Ushbu ko‘nikma odatda umumlashtiruvchi va yakuniy hisoblanadi. Biz aniq nimani tushunganimizni, qanday tajriba orttirganimizni, qanday xulosalar chiqarganimizni va bularning barchasini umumlashtirishni bilishimiz kerakligini o‘rganish.

Katta ehtimol bilan o‘quvchilar ushbu ko‘nikmalarni bir vaqtning o‘zida o‘zlashtira olmaydi. Biroq, biz bularni yaxshiroq qaror qabul qilish va jasorat bilan harakat qilish uchun ularni umumlashtirishimiz mumkin. Har bir o‘zlashtirilgan ko‘nikma o‘quvchilarning fikrlash tarzini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin.

Fikrlashning turli xil usullari mavjud, ammo ularning hech biri muammolarni tanqidiy fikrlash kabi hal qilishda samarali emas. Uning yordami bilan biz hissiy ongni va hissiyot darajasini ko‘tarishimiz, shuningdek, kognitiv buzilishlar va egotsentrizmning oldini olishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimidagi maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4467-sonli qarori.
2. Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Ped. fan. dokt. ... diss. – Toshkent: 2004. – 314 b.
3. Facione, P. A. (2000). The disposition toward critical thinking: Its character, measurement, and relationship to critical thinking skill. Informal Logic, 20(1), 61-84

TANQIDIY TAFAKKURNING O‘SMIR SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Yangiboyeva Nodira Ikom qizi

Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘smirlik davrida shaxs shakllanishining intellektual va kognitiv jihatlari, xususan, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning o‘rni hamda ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida zamonaviy axborot makonining o‘smirlar psixologiyasiga ta’siri sharoitida mustaqil fikrlash, axborotni filtrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muammolari tadqiq etiladi. Shuningdek, o‘smirlarda obyektiv tahlil darajasini oshirishga qaratilgan psixologik-pedagogik usullar va ularning shaxsiy refleksiyaga ta’siri yoritilgan. Olingan natijalar o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvi hamda suitsidallik, manipulyatsiya kabi destruktiv ta’sirlardan himoyalanish tizimini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik davri, tanqidiy tafakkur, kognitiv rivojlanish, axborot oqimi, ijtimoiy moslashuv, refleksiya, psixologik barqarorlik, manipulyatsiya.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the intellectual and cognitive aspects of personality formation during adolescence, focusing specifically on the role and significance of developing critical thinking. Within the scope of the study, the problems of establishing independent thinking, information filtering, and decision-making skills under the influence of the modern information space on adolescent psychology are investigated. Furthermore, psychological and pedagogical methods aimed at enhancing the level of objective analysis in adolescents and their impact on personal reflection are highlighted. The obtained results hold practical significance for improving the mechanisms of adolescents' social adaptation and their defense against destructive influences such as manipulation and suicidal behavior.

Keywords: *adolescence, critical thinking, cognitive development, information flow, social adaptation, reflection, psychological resilience, manipulation.*

KIRISH. Zamonaviy globallashuv va shiddatli raqamlashuv davrida insoniyat misli koʻrilmagan axborot oqimi sharoitida yashamoqda. Bunday ijtimoiy-psixologik voqelik, ayniqsa, shaxs sifatida shakllanish va ontogenetik rivojlanishning eng sezgir bosqichi hisoblangan oʻsmirlik davridagi yoshlar psixologiyasiga bevosita ta’sir koʻrsatmoqda. Bugungi kunda oʻsmirlar nafaqat an’anaviy ta’lim muassasalari, balki nazorat qilinishi murakkab boʻlgan virtual makon — ijtimoiy tarmoqlar va turli media-platformalar orqali juda katta hajmdagi, koʻpincha manipulyativ xarakterga ega boʻlgan ma’lumotlarni qabul qilmoqdalar. Bu esa oʻsmir shaxsida axborotni saralash, uning ishonchliligini baholash va mustaqil xulosalar chiqarish layoqatini shakllantirishni dolzarb pedagogik-psixologik muammo sifatida kun tartibiga qoʻyadi.

Oʻsmirlik davri kognitiv jarayonlarning sifat jihatidan yangi bosqichga — mavhum va rasmiy-mantiqiy tafakkur darajasiga oʻtishi bilan xarakterlanadi. Ushbu davrda mustaqillikka intilish, kattalar bosimidan xoli boʻlish va oʻz "Men"ini anglash ehtiyoji tabiiy ravishda kuchayadi. Agar ushbu oʻtish bosqichida yoshlarda ob’ektiv tahlil mezonlari va intellektual refleksiyaning muhim komponenti boʻlgan tanqidiy tafakkur (critical thinking) tizimli ravishda rivojlantirilmasa, ular turli yot gʻoyalar, destruktiv ta’sirlar va psixologik manipulyatsiyalarning oson qurboniga aylanishi xavfi ortadi.

Biroq, amaldagi ta’lim va tarbiya tizimi koʻp hollarda oʻsmirlarga tayyor ma’lumotlarni oʻzlashtirish (reproduktiv faoliyat) koʻnikmasini berish bilan cheklanib qolmoqda. Vaholanki, zamonaviy ijtimoiy muhit shaxsdan nostandart vaziyatlarda toʻgʻri qaror qabul qilish va muammoli vaziyatlarni tahliliy baholashni talab etadi. Shu bois, oʻsmirlik davrida shaxs shakllanishi jarayonida tanqidiy tafakkurning oʻrni va ahamiyatini yoritish, ularda tahliliy koʻnikmalarni rivojlantirishning samarali omillarini asoslab berish ushbu tadqiqotning bosh maqsadi hisoblanadi.

Asosiy qism: Oʻsmirlik davri inson ontogenezidagi eng murakkab va sifat jihatidan oʻzgaruvchan bosqich hisoblanadi. Psixologiyada ushbu davr shaxsning ijtimoiy rollarni oʻzlashtirishi, oʻz "Men"ini anglashi va kognitiv imkoniyatlarining kengayishi bilan xarakterlanadi. Mashhur psixolog J.Piaje ta’kidlaganidek, aynan oʻsmirlik yoshida fikrlash mavhum va mantiqiy darajaga oʻtadi. Biroq, bu kognitiv salohiyat oʻz-oʻzidan muvaffaqiyatli adaptatsiyani ta’minlay olmaydi; u maqsadli ravishda yoʻnaltirilishi va tanqidiy tus olishi zarur.

Tanqidiy tafakkur — bu shunchaki axborotni yodda saqlash yoki unga e’tiroz bildirish emas, balki ma’lumotlarning ishonchliligini tekshirish, sabab-oqibat aloqalarini tahlil qilish va muqobil yechimlarni topish qobiliyatidir. Psixolog L.S.Vigotskiyning qarashlariga tayanadigan boʻlsak, oʻsmirda tizimli tushunchalar va oʻz fikrini ongli boshqarish (metakognitsiya) layoqati ijtimoiy muhit bilan muloqotda shakllanadi. Bugungi kunning ijtimoiy muhiti esa ulkan raqamli axborot maydonidir.

Hozirgi oʻsmirlar axborot taqchilligi sharoitida emas, balki aksincha, axborotning haddan tashqari koʻpligi (infodemiya) sharoitida ulgʻaymoqdalar. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan feyk (yolgʻon) xabarlar, manipulyativ gʻoyalar va yuzaki qarashlar oʻsmirning hali toʻliq shakllanmagan dunyoqarashiga salbiy ta’sir koʻrsatadi. Bu yoshda hissiyotlarning joʻshqinligi va hayotiy tajribaning kamligi sababli, oʻsmirlar tashqi ta’sir va tashviqotlarga tez beriluvchan boʻladilar. Aynan shu nuqtada tanqidiy tafakkur shaxsning ichki psixologik himoya süzgəci (immuniteti) vazifasini bajaradi.

Oʻsmirlarda tanqidiy fikrlashning shakllanganligi ularning quyidagi muhim hayotiy koʻnikmalarida namoyon boʻladi:

- Axborotni saralash va baholash: Oʻsmir duch kelgan ma’lumotni shubha ostiga oladi, uning manbasini tekshiradi va faktlarni shaxsiy his-tuygʻulardan ajrata oladi.
- Mustaqil qaror qabul qilish: Guruh bosimi (konformizm) yoki virtual trendlar ta’siriga koʻr-koʻrona ergashmasdan, shaxsiy tahlilga asoslangan pozitsiyani egallaydi.
- Refleksivlik: Oʻzining ham xatti-harakatlari va fikrlashidagi xatolarni ob’ektiv baholash, xulosalar chiqarish layoqatiga ega boʻladi.

Agar o‘smirda tanqidiy dunyoqarash tizimli rivojlantirilmasa, ta’lim tizimidagi tayyor bilimlarni shunchaki yodlash (reproduktiv faoliyat) bilan cheklanib qoladi. Bu esa keyinchalik shaxsning mustaqil hayotga moslashishini qiyinlashtiradi. Shuning uchun zamonaviy psixologiya va pedagogika amaliyotida o‘smirlarga tayyor ma’lumot berish emas, balki ularda savol berish, tahlil qilish va intellektual jihatdan mustaqil bo‘lish ko‘nikmasini tarbiyalash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuning Dolzarbligi: Zamonaviy globallashuv, raqamli transformatsiyalar va jadallashgan infodemiya (axborotning haddan ziyod ko‘pligi va manipulyatsiyasi) sharoitida shaxs psixologiyasining tashqi ta’sirlarga chidamliligi masalasi fundamental muammolardan biriga aylandi. Ushbu ijtimoiy-psixologik reallik, ayniqsa, ontogenetik rivojlanishning eng murakkab, hissiy jihatdan barqarorsiz va inqirozli bosqichi hisoblangan o‘smirlik davridagi yoshlar hayotida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda o‘smirlar nafaqat oila va ta’lim muassasalari, balki virtual makon (ijtimoiy tarmoqlar, sun’iy intellekt tizimlari, media-platformalar) tomonidan taqdim etilayotgan, mazmunan verified bo‘lmagan, g‘oyaviy interpretatsiyalarga boy ulkan axborot oqimi bilan to‘qnash kelmoqdalar. Bu esa ularda ma’lumotlarni saralash, tahlil qilish va ob’ektiv baholash ko‘nikmalarini shakllantirishni kechiktirib bo‘lmas vazifa qilib qo‘yadi.

O‘smirlik yoshi kognitiv jarayonlarning sifat jihatidan yangi bosqichga — mavhum, nazariy va rasmiy-mantiqiy tafakkur darajasiga o‘tishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda shaxsda mustaqillikka intilish, guruh bosimidan xoli o‘z shaxsiy pozitsiyasiga ega bo‘lish va refleksivlik (o‘z-o‘zini anglash) ehtiyoji yuqori bo‘ladi. Biroq, hissiy reaktivlikning yetakchiligi va hayotiy tajribaning yetishmasligi fonida, agar o‘smirlarda kognitiv moslashuvchanlikning asosi bo‘lgan tanqidiy tafakkur (critical thinking) tizimli rivojlantirilmasa, ular feyk (yolg‘on) xabarlar, destruktiv virtual oqimlar, kiberbulling va psixologik manipulyatsiyalarning oson nishoniga aylanishi xavfi ortadi. Tanqidiy tafakkur o‘smir shaxsida nafaqat intellektual operatsiya, balki uning ijtimoiy-psixologik immun tizimi vazifasini ham bajaradi.

Amaldagi ta’lim va ijtimoiy tarbiya amaliyoti ko‘p hollarda o‘smirlarga tayyor axborot resurslarini taqdim etish va ularni o‘zlashtirish (reproduktiv faoliyat) andozasiga tayanmoqda. Vaholanki, bugungi kun talabi shaxsdan nostandart vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, mantiqiy xatolarni farqlash va muammolarga kreativ yondashishni talab etadi. Shunga ko‘ra, o‘smir yoshlarning kognitiv salohiyati va ularning ijtimoiy-psixologik barqarorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni, xususan, tanqidiy tafakkurning shaxs shakllanishidagi o‘rni va ahamiyatini deterministik jihatdan tadqiq etish bugungi kun psixologiya fanining eng dolzarb va strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar: O‘smirlik davrida shaxs shakllanishining kognitiv va ijtimoiy-psixologik jihatlarini, xususan, tanqidiy tafakkurning o‘rni va ahamiyatini tahlil qilish quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. Psixologik immun tizimi: Tanqidiy tafakkur o‘smir shaxsida shunchaki intellektual ko‘nikma yoki mantiqiy amallar yig‘indisi emas, balki zamonaviy shiddatli axborot oqimi (infodemiya) sharoitida destruktiv ta’sirlar, virtual manipulyatsiyalar va feyk xabarlardan himoya qiluvchi o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik immun tizimi (filtri) vazifasini bajaradi.
2. Ijtimoiy adaptatsiya va mustaqillik: Tanqidiy fikrlash darajasi yuqori bo‘lgan o‘smirlar tashqi axborotni ko‘r-ko‘rona va stereotiplar asosida qabul qilmaydilar. Bu ularga guruh bosimi (konformizm) va manipulyativ trendlarga berilmasdan, shaxsiy tahlilga asoslangan mustaqil pozitsiyani egallash hamda jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish imkonini beradi.
3. Refleksiyaning roli: O‘smirlarda tanqidiy tafakkurning shakllanishi ularning shaxsiy refleksiyasi (o‘z-o‘zini va o‘z xatti-harakatlarini tahlil qila olishi) bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Refleksiv ko‘nikmalari rivojlangan o‘smir nafaqat tashqi ma’lumotlarni, balki o‘zining fikrlash jarayonidagi xatolarni ham ob’ektiv baholash layoqatiga ega bo‘ladi.

Amaliy Tavsiyalar:

O‘smirlarda tanqidiy tafakkurni tizimli shakllantirish va rivojlantirish maqsadida quyidagi amaliy choralar va tavsiyalar ilgari suriladi:

- Interaktiv metodlarni joriy etish: Ta’lim muassasalarida darslarni tayyor ma’lumotlarni shunchaki yodlash (reproduktiv) shaklidan voz kechib, o‘smirlarni baxs-munozaraga, muqobil yechimlar izlashga va muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga o‘rgatuvchi interaktiv metodlar (keys-stadi, "miya hujumi", debat) asosida tashkil etish.
- Media-savodxonlik dasturlari: Maktab psixologlari va pedagoglari tomonidan o‘smirlar uchun axborot xavfsizligi, feyk xabarlarni aniqlash va ijtimoiy tarmoqlardagi manipulyatsiyalardan himoyalanishga qaratilgan maxsus psixologik treninglar va media-savodxonlik kurslarini tizimli yo‘lga qo‘yish.
- Kreativ muhit yaratish: Oilada va ta’lim muhitida o‘smirning har qanday fikriga yoki savoliga keskin raddiya bermasdan, uning shaxsiy qarashlarini asoslab berishi uchun erkin va professional muloqot muhitini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка. — М.: Педагогика-Пресс, 1994. — 528 с. *(O‘smirning kognitiv va rasmiy operatsiyalar bosqichi konsepsiyasi uchun)*
2. Выготский Л. С. Мышление и речь. Собр. соч. Т. 2. — М.: Педагогика, 1982. — 504 с. *(Nutq va tafakkurning tizimli rivojlanishi hamda metakognitsiya konsepsiyasi uchun)*
3. Халперн Д. Психология критического мышления. — СПб.: Питер, 2000. — 512 с. *(Tanqidiy fikrlashning kognitiv metodologiyasi, axborotni saralash va baholash mezonlari uchun)*
4. Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Professional and Personal Life. — Financial Times Press, 2020. — 432 p. *(Mustaqil qaror qabul qilish va intellektual refleksivlik modellari uchun)*
5. Karimov X. A. Zamonaviy axborot makonida o‘smirlar kognitiv rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari // O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari. — Toshkent, 2023. — № 2 (1). — B. 142–145. *(O‘smirlar va virtual makon ta’siri tahlili uchun)*

SPORTCHILARNING PSIXOFIZIOLOGIK HOLATINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY PSIXODIAGNOSTIK YONDASHUVLARI

Akbarova Dilrabo Baxrom qizi
Buxoro xalqaro universiteti mustaqil tadiqiqotchisi

Annotatsiya. Zamonaviy sport faoliyati yuqori intensivlik, jismoniy va psixoemotsional zo‘riqish, hamda tezkor moslashuvni talab qiluvchi sharoitlar bilan tavsiflanadi. Bunday holatlarda sportchining psixofiziologik ko‘rsatkichlarini uzluksiz kuzatish uning funksional holatini baholash va ortiqcha yuklama xavfini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda yurak urish ritmi variabelligi, teri-galvanik reaksiyalar, mushak faolligi va subyektiv psixologik baholashlar asosida monitoring olib borish usullari ko‘rib chiqildi. Shuningdek, zamonaviy psixodiagnostik yondashuvlar, jumladan, raqamli texnologiyalar, biosensorlar va data-driven tahlil imkoniyatlari yoritildi. Natijalar sportchilarning stress darajasi, tiklanish jarayoni va emotsional holatini aniqlashda kompleks monitoring tizimining samaradorligini ko‘rsatdi. Mazkur yondashuv sportchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda psixologik tayyorgarlikni optimallashtirish imkonini beradi.

Keyingi yillarda D. Kolb (1984) tomonidan ishlab chiqilgan tajribaga asoslangan o‘qitish modeli (experiential learning model) refleksiyaning ta’lim jarayonidagi siklik tabiati — tajriba, tahlil, xulosa va qayta qo‘llash bosqichlari orqali shaxsiy o‘sishni ta’minlashini ko‘rsatgan.

O‘z-o‘zini baholash nazariyasi G. Allport, C. Rogers, A. Bandura kabi psixologlar ishlarida keng o‘rin olgan. C. Rogers (1959) o‘zining insonparvar yondashuvida o‘z-o‘zini baholashni shaxsning “men-kontsepsiyasi”ni shakllantiruvchi asosiy mexanizm sifatida ko‘rsatgan. A. Bandura (1986) esa o‘z-o‘zini baholashni o‘zini boshqarish (self-regulation) tizimining tarkibiy qismi sifatida tahlil qilgan.

Ta’lim sohasida B. Bloom va M. Scriven tomonidan ishlab chiqilgan baholash nazariyalari o‘z-o‘zini baholashni o‘quv jarayonining mustaqil reflektiv bosqichi sifatida asoslab bergan. Ularning fikricha, o‘z faoliyatini baholay olgan shaxs ta’lim jarayonida faol, mas’uliyatli va ijodiy bo‘ladi.

Ijodiy ta’lim muhiti tushunchasi J. Guilford (1950) tomonidan ishlab chiqilgan ijodiy fikrlash nazariyasi va E. Torrance (1965)ning ijodiylikni o‘lchash modeli asosida shakllangan. Bu nazariyalarda ta’lim muhiti o‘quvchining mustaqil fikrlashini, muammoli vaziyatlarda original yechim topa olishini va o‘z faoliyatini baholash qobiliyatini rivojlantiruvchi omil sifatida qaraladi.

So‘nggi yillarda J. Biggs va C. Tang (2011) tomonidan ishlab chiqilgan constructive alignment yondashuvi ta’lim jarayonida o‘z-o‘zini baholashni o‘quv natijalariga muvofiqlashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotni hamkorlik asosida tashkil etishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonlik olimlar ham refleksiya va o‘z-o‘zini baholash masalalarini zamonaviy ta’limning tarkibiy qismi sifatida o‘rganib kelmoqdalar.

Masalan, M. Narziyev (2021) o‘z tadqiqotlarida refleksiya texnologiyalarining pedagogik ta’limda shaxsiy rivojlanishga ta’sirini asoslab bergan. G. Xalilova (2023) ijodiy ta’lim muhiti sharoitida talabalarning reflektiv fikrlashini shakllantirish metodikasini ishlab chiqdi. Shuningdek, R. Abdurahmonova (2022) o‘z-o‘zini baholash texnologiyalarining motivatsion ta’siri va metakognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishdagi ahamiyatini tadqiq etgan.

Mahalliy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash texnologiyalari o‘quvchilarni subyekt sifatida shakllantirish, faol ishtirokni ta’minlash va o‘z o‘qish jarayonini boshqarish malakalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash texnologiyalari nafaqat shaxsiy rivojlanishni, balki ta’lim tizimining innovatsion yangilanishini ham ta’minlaydi. Ular ijodiy ta’lim muhitining asosiy komponentlari sifatida o‘quvchilarning ichki faolligini, tanqidiy fikrlashini va o‘zini o‘zi rivojlantirish motivatsiyasini kuchaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot jarayoni kompleks metodologik yondashuv asosida olib borildi, bu esa masalani nazariy, empirik va modellashtirish darajalarida har tomonlama o‘rganish imkonini berdi. Metodlar majmuasi bir-birini to‘ldiruvchi xarakterga ega bo‘lib, tadqiqotning ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta’minladi.

1. Nazariy metodlar.

Nazariy tahlil, taqqoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlari yordamida ijodiy ta’lim muhiti va talabaning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasiga oid konseptual yondashuvlar o‘rganildi. Ushbu metodlar yordamida pedagogik-psixologik adabiyotlar, zamonaviy ta’lim nazariyalari, shaxsiy rivojlanish va refleksiya haqidagi ilmiy qarashlar tahlil qilinib, ularning o‘zaro bog‘liqligi aniqlashtirildi. Natijada, ijodiy muhitning talaba rivojlanishidagi roli hamda trayektoriya loyihalashning nazariy modeli ishlab chiqildi.

2. Empirik metodlar.

Amaliy bosqichda talabalar bilan o‘tkazilgan so‘rovnoma, suhbat va kuzatuvlar orqali ijodiy ta’lim muhiti talabaning o‘quv faolligi, refleksiv fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalariga qanday ta’sir etishi o‘rganildi. Ushbu empirik ma’lumotlar o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash, ijodiy faoliyatdagi motivatsion omillarni tahlil qilish va shaxsiy trayektoriya elementlarini amaliy jihatdan asoslash imkonini berdi.

3. Modellashtirish metodi.

Tadqiqotda modellashtirish yondashuvi asosida talabaning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalash modeli ishlab chiqildi. Modelda uchta asosiy komponent — refleksiya, motivatsiya va o‘z-o‘zini boshqarish bir butun tizim sifatida integratsiya qilindi. Ushbu model talabaning o‘zini anglash, maqsad qo‘yish, faoliyatni tahlil qilish va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlarini bosqichma-bosqich tartibga soluvchi mexanizm sifatida ishlaydi.

4. Statistik tahlil metodlari.

O‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalari statistik jihatdan qayta ishlanib, o‘z-o‘zini rivojlantirish darajasi bilan ijodiy faollik o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik aniqlangan. Statistik tahlil natijalari ijodiy muhitda faoliyat yuritayotgan talabalar o‘zini baholash, refleksiya va shaxsiy rivojlanish jarayonlarida yuqoriroq natijalarga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Shunday qilib, nazariy, empirik, modellashtirish va statistik metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi tadqiqotning ilmiy asoslanganligi, natijalarning obyektivligi hamda amaliy ahamiyatini ta’minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ijodiy ta’lim muhiti talabalarning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini belgilashda quyidagi yo‘nalishlarda muhim o‘rin tutadi:

- Motivatsion jihat: ijodiy muhit talabaning ichki qiziqishlarini faollashtirib, o‘z maqsadini mustaqil aniqlashga undaydi.
- Kognitiv jihat: muhitda ijodiy topshiriqlar, tadqiqot elementlari va refleksiv tahlillar orqali talabaning analitik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

- Shaxsiy rivojlanish bosqichlari: o‘zini anglash → refleksiya → o‘z faoliyatini baholash → o‘z-o‘zini boshqarish → mustaqil rivojlanish yo‘lini belgilash.
- Model asosida: talabaning rivojlanish trayektoriyasi ijodiy topshiriqlar, refleksiv kundaliklar va o‘z-o‘zini baholash texnologiyalari orqali qo‘llab-quvvatlangan.

MUHOKAMA. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy ta’lim muhiti — bu faqat didaktik tizim emas, balki shaxsning ichki o‘sish jarayonini rag‘batlantiruvchi psixologik-pedagogik makondir. Refleksiya, mustaqillik, mas’uliyat va o‘z-o‘zini boshqarish kabi komponentlar shaxsiy trayektoriyani shakllantirishning asosiy determinantalari hisoblanadi.

Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagogdan shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, refleksiv tahlil metodlari va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash talab etiladi. Shu yo‘l bilan ta’lim muassasasida har bir talabaning o‘ziga xos rivojlanish yo‘lini qo‘llab-quvvatlaydigan ijodiy muhit barpo etiladi.

XULOSA. Tadqiqotdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ijodiy ta’lim muhiti - talabaning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalashning metodik va psixologik asosi hisoblanadi. Bunday muhitda har bir talaba o‘zining individual imkoniyatlarini namoyon etadi, refleksiya orqali o‘z kamchilik va yutuqlarini anglaydi hamda o‘z rivojlanish yo‘lini ongli tarzda belgilaydi.

Ijodiy muhitning samarali tashkil etilishi ta’lim sifatini oshirish, shaxsiy o‘sishni rag‘batlantirish va kompetensiyaga asoslangan ta’lim modelini amaliyotga tatbiq etishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Dewey, J. (1933). How We Think. Boston: D.C. Heath.
2. Schön, D. A. (1983). The Reflective Practitioner. New York: Basic Books.
3. Зимняя, И. А. (2010). Педагогическая психология. Москва: Логос.
4. Kolb, D. (1984). Experiential Learning. Englewood Cliffs: Prentice Hall.
5. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Self-determination theory and intrinsic motivation. American Psychologist, 55(1), 68–78.
6. Abdullayeva, N. (2021). Ijodiy ta’lim muhitida shaxs rivojlanishi. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Freire, P. (1970). Pedagogy of the Oppressed. New York: Continuum.
8. Murodova, Z. (2023). O‘z-o‘zini rivojlantirishda refleksiya texnologiyalarining roli. Ta’lim va innovatsiyalar jurnali, 5(2), 45–53.

SPORT JAMOALARIDA NORASMIY LIDERLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI VA JAMOAVIY UYG‘UNLIK O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Usmonov Alisher G‘offorali o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti
Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Sport jamoalarida rasmiy rahbar - murabbiydan tashqari, o‘zining tabiiy ta’siri va shaxsiy nufuzi bilan jamoa a’zolariga kuchli psixologik ta’sir ko‘rsatuvchi norasmiy liderlar mavjud bo‘ladi. Ularning emotsional intellekt darajasi, ya’ni o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish va boshqalar hislarini sezish qobiliyati, jamoaviy uyg‘unlik, o‘zaro ishonch hamda ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida norasmiy liderlarning emotsional intellekt darajasi va jamoaning ijtimoiy uyg‘unligi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanib, sport jamoalarida ijobiy liderlikni shakllantirishning psixologik mexanizmlari ochib berildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, emotsional intellekti yuqori bo‘lgan liderlar jamoada samarali muloqot, bir-birini tushunish, o‘zaro yordam va motivatsion qo‘llab-quvvatlash jarayonlarini kuchaytiradi.

Kalit so‘zlar: norasmiy lider, emotsional intellekt, jamoaviy uyg‘unlik, sport jamoasi, psixologik muhit, shaxslararo munosabat, kommunikativ kompetentlik, ijtimoiy ta’sir, liderlik sifati, sport psixologiyasi, ijobiy muloqot, motivatsiya tizimi, jamoaviy birdamlik.

Аннотация: помимо формального лидера — тренера, в спортивных командах будут присутствовать неформальные лидеры, которые своим естественным влиянием и личным авторитетом оказывают сильное психологическое воздействие на членов команды. Уровень их эмоционального интеллекта, то есть способность осознавать свои эмоции, управлять ими и воспринимать чувства других, приобретает важное значение для формирования коллективной гармонии, взаимного доверия, а также позитивного социально-психологического климата. В ходе исследования выявлена связь между уровнем эмоционального интеллекта неформальных лидеров и социальной сплоченностью коллектива, раскрыты психологические механизмы формирования позитивного лидерства в спортивных командах. Результаты показали, что лидеры с высоким эмоциональным интеллектом улучшают процессы эффективного общения, понимания друг друга, взаимопомощи и мотивационной поддержки в команде.

Ключевые слова: неформальный лидер, эмоциональный интеллект, командная сплоченность, спортивная команда, психологическая среда, межличностные отношения, коммуникативная компетентность, социальное влияние, лидерские качества, спортивная психология, позитивное общение, система мотивации, сплоченность коллектива.

Abstract. In addition to the official leader — coach, sports teams will have informal leaders who, with their natural influence and personal prestige, have a strong psychological impact on team members. Their level of emotional intelligence, i.e. the ability to perceive their own emotions, control, etc., is important in the formation of collective harmony, mutual trust and a positive socio-psychological environment. During the study, the relationship between the level of emotional intelligence of informal leaders and the social cohesion of the team was identified, revealing the psychological mechanisms for the formation of positive leadership in sports teams. The results showed that leaders with high emotional intelligence enhance the processes of effective communication, mutual understanding, mutual assistance and motivational support in a team.

Keywords: informal leader, emotional intelligence, collective harmony, sports team, psychological environment, interpersonal relationship, communicative competence, social influence, leadership quality, sports psychology, positive communication, motivation system, collective solidarity.

Kirish. Sport jamoalarida jamoaviy uyg‘unlik — bu jamoa a’zolarining bir-biriga bo‘lgan ishonchi, hamjihatligi va umumiy maqsad sari intilishi natijasida yuzaga keladigan ijobiy psixologik holatdir. Jamoaviy uyg‘unlik sportdagi muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri sifatida ko‘plab tadqiqotlarda ta’kidlangan (Carron va boshq., 1985; Widmeyer va boshq., 1990). Jamoaning uyg‘unligi uning samarali faoliyati, yuqori motivatsiyasi va natijalarning yaxshilanishiga olib keladi. Shu sababli, sport jamoalarida jamoaviy uyg‘unlikni ta’minlash va uni mustahkamlash dolzarb vazifalardan biridir. Jamoaviy uyg‘unlikning shakllanishida nafaqat rasmiy rahbarlar, balki norasmiy liderlarning roli ham katta ahamiyatga ega. Norasmiy liderlar — bu rasmiy lavozimga ega bo‘lmagan, lekin jamoa ichida o‘zining ta’siri va mavqeiga ega bo‘lgan shaxslar. Ular jamoaning ruhiy-psixologik holatiga ta’sir ko‘rsatib, a’zolar orasida o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi (Kozhevnikov, 2016). Ayniqsa, sport jamoalarida norasmiy liderlar ko‘pincha jamoaning qiyinchiliklarni yengib o‘tishida, o‘zaro ishonchni mustahkamlashda va jamoaviy intizomni saqlashda muhim vosita hisoblanadi.

Norasmiy liderlarning jamoaviy uyg‘unlikni shakllantirishdagi samaradorligi ularning emotsional intellekti darajasiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Emotsional intellekt — bu shaxsning o‘z va boshqalar his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish va ulardan samarali foydalanish qobiliyatidir (Salovey va Mayer, 1990). Emotsional intellekti yuqori bo‘lgan norasmiy liderlar o‘z jamoasidagi psixologik muhitni yaxshilash, stress va nizolarni kamaytirish, motivatsiyani oshirish kabi jarayonlarni muvaffaqiyatli boshqaradi (Goleman, 1995). Shu bois, emotsional intellekt sport

jamoalaridagi norasmiy liderlarning jamoaviy uyg‘unlikni rivojlantirishdagi asosiy omillaridan biri sifatida ko‘rilmoqda. Mamlakatimizda sport jamoalarining ijtimoiy-psixologik holatini o‘rganish va norasmiy liderlarning rolini aniqlash bo‘yicha yetarlicha tadqiqotlar mavjud emas. Ayniqsa, norasmiy liderlarning emotsional intellekti va jamoaviy uyg‘unlik o‘rtasidagi munosabatlar mavzusi yetarlicha o‘rganilmagan. Shuning uchun ushbu mavzuni chuqur o‘rganish sport psixologiyasi va jamoa boshqaruvi sohasida yangi bilimlar yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot **empirik uslubda** olib borildi va sport jamoalarida norasmiy liderlarning emotsional intellekti hamda jamoaviy uyg‘unlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda **korrelyatsion tahlil** usuli qo‘llanildi, chunki asosiy maqsad ikki o‘zgaruvchi o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishdan iborat.

Ishtirokchilar: Tadqiqotda jami 120 nafar sportchilar ishtirok etdi, ulardan 30 nafari norasmiy liderlar sifatida aniqlangan. Ishtirokchilar O‘zbekistonning turli shaharlaridagi 6 ta sport jamoasidan tanlab olindi. Jamoalar futbol, basketbol va voleybol kabi jamoaviy sport turlarida faoliyat yuritadi. Ishtirokchilarning yoshi 18 dan 30 yoshgacha bo‘lib, o‘rtacha yosh 23,5 ± 3,2 yilni tashkil etdi. Jamoalar tarkibida erkaklar va ayollar sportchilari mavjud bo‘lib, jinsiy tarkib nisbati taxminan 70% erkaklar va 30% ayollardan iborat.

1. **Emotsional intellektni o‘lchash uchun:** Norasmiy liderlarning emotsional intellekt darajasini aniqlashda **Mayer-Salovey-Caruso Emotional Intelligence Test (MSCEIT)** qo‘llanildi. Ushbu test 4 asosiy komponentni (his-tuyg‘ularni anglash, his-tuyg‘ularni boshqarish, boshqalar his-tuyg‘ularini tushunish, va his-tuyg‘ulardan foydalangan holda fikrlash) o‘lchaydi. MSCEIT testining ishonchliligi va validligi ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlarda yuqori ekanligi (Cronbach alfa koeffitsienti 0,85 dan yuqori) tasdiqlangan.

2. **Jamoaviy uyg‘unlikni baholash uchun:** Sport jamoalaridagi jamoaviy uyg‘unlik darajasini o‘lchashda **Carron va boshqalar (1985) tomonidan ishlab chiqilgan Jamoaviy Uyg‘unlik Shkalasi** ishlatildi. Ushbu shkalada jami 18 ta savol mavjud bo‘lib, ular o‘zaro ishonch, hamjihatlik va jamoaning umumiy ruhiy holatini o‘lchaydi. Savollarga 5 ballik Likert shkalasi (1 – to‘liq rozi emasman, 5 – to‘liq roziman) asosida javob berildi.

Tadqiqot usuli va o‘tkazilishi, Tadqiqot ishtirokchilari bilan avval shaxsiy suhbat tashkil qilindi, unda tadqiqotning maqsadi tushuntirildi va rozilik olindi. Norasmiy liderlar esa jamoa a’zolari tomonidan aniqlab olindi — har bir jamoa a’zosi o‘z jamoasidagi norasmiy liderni nomlab berdi, eng ko‘p ovoz olganlar norasmiy lider sifatida tanlandi. Ishtirokchilarga MSCEIT testi va jamoaviy uyg‘unlik shkalasi tarqatildi. Test va so‘rovnomalar yig‘ilgan ma’lumotlar maxfiyligi ta’minlandi. Tadqiqot may-iyun oylarida olib borildi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish. Yig‘ilgan ma’lumotlar **SPSS 25.0** statistik dasturida tahlil qilindi. Norasmiy liderlarning emotsional intellekti va jamoaviy uyg‘unlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun **Pearson korrelyatsiya koeffitsienti** hisoblandi. Shuningdek, emotsional intellekt va jamoaviy uyg‘unlik o‘lchovlari bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar va standart og‘ishlar aniqlandi. Ma’lumotlarning normal taqsimlanganligi Shapiro-Wilk testi orqali tekshirildi va natijalar korrelyatsion tahlil uchun qulay ekani tasdiqlandi.

Natijalar. **Tavsifiy statistik ma’lumotlar.**

Norasmiy liderlarning emotsional intellekt ko‘rsatkichlari ***(1-jadval)***

Komponent	O‘rtacha ball ± SO	Min-Max
His-tuyg‘ularni anglash	85.2 ± 6.8	70-95
His-tuyg‘ularni boshqarish	82.7 ± 7.2	68-94
Boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish	79.4 ± 8.1	65-92
His-tuyg‘ulardan foydalangan holda fikrlash	81.9 ± 6.9	69-93
Umumiy EI	82.3 ± 5.4	72-91

Jamoaviy uyg‘unlik ko‘rsatkichlari ***(2-jadval)***

O‘lchovlar	O‘rtacha ball ± SO	Min-Max
O‘zaro ishonch	4.2 ± 0.5	3.1-4.9
Hamjihatlik	4.0 ± 0.6	2.8-4.8

Umumiy maqsadga intilish	4.3 ± 0.4	3.5-4.9
Umumiy uyg‘unlik	4.2 ± 0.3	3.6-4.8

Korrelyatsion tahlil natijalari. Norasmiy liderlarning EI va jamoaviy uyg‘unlik o‘rtasidagi korrelyatsiya ***(2-jadval)***

EI Komponentlari	O‘zaro ishonch	Hamjihatlik	Maqsadga intilish	Umumiy uyg‘unlik
His-tuyg‘ularni anglash	0.58	0.49	0.52	0.61
His-tuyg‘ularni boshqarish	0.72	0.65	0.68	0.75
Boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish	0.69	0.71	0.64	0.73
His-tuyg‘ulardan foydalangan holda fikrlash	0.61	0.58	0.66	0.67
Umumiy EI	0.78	0.74	0.76	0.81

$p < 0.01$

1. Kuchli bog‘liqlik aniqlandi: Sport jamoalarida norasmiy liderlarning emotsional intellekti va jamoaviy uyg‘unlik o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy korrelyatsiya mavjud ($r = 0.81$, $p < 0.01$). Bu bog‘liqlik norasmiy liderlarning emotsional aqlli xatti-harakatlarining jamoa dinamikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini isbotlaydi.

2. His-tuyg‘ularni boshqarishning ustunligi: Norasmiy liderlarning his-tuyg‘ularini boshqarish qobiliyati jamoaviy uyg‘unlik bilan eng yuqori darajada bog‘liq ($r = 0.75$) ekanligi aniqlandi. Bu ko‘rsatkich jamoa ichidagi barqaror psixologik muhitni shakllantirishda hissiy o‘z-o‘zini tuta bilishning muhim rolini ta’kidlaydi.

3. Empatiyaning ahamiyati: Boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish qobiliyati (empatiya) hamjihatlik darajasi bilan eng yuqori korrelyatsiyani ($r = 0.71$) ko‘rsatdi. Bu norasmiy liderlarning jamoa a’zolarining hissiy holatlarini tushuna olishlari va ularga moslashishlari jamoaviy yaxlitlikni mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot sport jamoalarida norasmiy liderlarning emotsional intellekti va jamoaviy uyg‘unlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy asosladi. Bu topilmalar nafaqat sport psixologiyasi sohasida yangi bilimlar qo‘shadi, balki amaliy sport jarayonlarida samarali boshqaruv va jamoa rivojlanishi uchun ilmiy asos yaratadi. Emotsional intellektni rivojlantirish sport jamoalarining nafaqat sport, balki psixologik salomatligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va bu yo‘nalishda keyingi tadqiqotlar olib borish zarurati mavjud.

Ushbu tadqiqot sport jamoalarida norasmiy liderlarning emotsional intellekti bilan jamoaviy uyg‘unlik o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini isbotladi. His-tuyg‘ularni boshqarish va empatiya qobiliyati jamoaviy uyg‘unlikni shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. *Asosiy natijalar:* Umumiy EI va jamoaviy uyg‘unlik: $r = 0.81$. His-tuyg‘ularni boshqarish eng yuqori ta’sirga ega. Norasmiy liderlar jamoa psixologik muhitini yaxshilaydi.
Amaliy takliflar: Norasmiy liderlarni erta aniqlash. EI trening dasturlarini joriy etish. Murabbiylar uchun maxsus o‘quv kurslari. Tadqiqot sport jamoalarida muvaffaqiyatga erishishda nafaqat texnik, balki psixologik omillarning ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **R.M.Abdullayev** *Sport psixologiyasi: nazariya va amaliyot*. Toshkent: O‘zMU nashriyoti (2020). - 245 bet.
2. **S.T.Karimova** *Jamoaviy psixologiya va liderlik*. Toshkent: Fan nashriyoti (2019). - 167-189 bet.
3. **B.I.Hasanov** *Emotsional intellekt: teoriya va amaliyot*. Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti (2018). - 156-178 bet.
4. **Е.В.Маркова** *Неформальное лидерство в организационных структурах*. СПб: Питер (2017). - 89-104 с.
5. **А.В.Петровский** *Социальная психология коллектива*. Москва: Академия (2015). - 178-195 с.

6. **J.K.Ismailov** "Sport jamoalarida norasmiy liderlikning psixologik aspektlari". *O‘zbekiston sport ilmiy jurnali,* 3(15) (2023)., 23-30.
7. **M.R.Siddiqov** "Emotsional intellekt va uning sport natijalariga ta'siri". *Jismoniy tarbiya va sport,* 2(8) (2021)., 15-22.
8. **J.A.Smith** "Emotional Intelligence in Team Sports". *International Journal of Sport Psychology,* 15(3) (2021)., 23-35.
9. **Y.S.Kim** *Team Cohesion in Asian Sports Culture*. Seoul: Korean Sport Press (2020). - 134-156 p.
10. **N.N.Raxmonov** *Sport psixologiyasi: darslik.* Toshkent: O‘zDJTU nashriyoti (2021). - 234-256 bet.

KASBIY O‘ZLIKNI ANGLASH VA PEDAGOGIK KOMPETENTLIK O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Saidova Gulchiroy Shokirovna
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarida kasbiy o‘zlikni anglashning ijtimoiy-psixologik determinantlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Kasbiy o‘zlikni anglashning shaxs rivojlanishi, kasbiy identifikatsiya, refleksiya, o‘zini baholash hamda o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlari bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Tadqiqotda kasbiy o‘zlikni anglashning shakllanishiga ta’sir etuvchi shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy omillar tizimlashtirilib, ularning pedagogik faoliyat samaradorligiga ta’siri asoslab berilgan. Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarda kasbiy o‘zlikni anglashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlar va metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy o‘zlik, o‘z-o‘zini anglash, refleksiya, kasbiy identifikatsiya, pedagogik kompetentlik, o‘zini boshqarish, motivatsiya, bo‘lajak o‘qituvchi.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagog shaxsiga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy pedagog nafaqat o‘z fanini mukammal biluvchi mutaxassis, balki o‘z faoliyatini tahlil qila oladigan, kasbiy rivojlanish istiqbollarini belgilaydigan hamda pedagogik jarayonlarni ongli boshqarishga qodir shaxs sifatida namoyon bo‘lishi zarur. Shu jihatdan bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarida kasbiy o‘zlikni anglashni rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Kasbiy o‘zlikni anglash pedagogning o‘z kasbiy imkoniyatlari, qadriyatlari, ehtiyojlari va istiqbollarini anglash jarayoni bo‘lib, uning professional shakllanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur fenomen pedagogning kasbiy faoliyatga bo‘lgan munosabati, o‘ziga ishonchi, refleksiv qobiliyatlari hamda kasbiy identifikatsiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida pedagoglarning kasbiy muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularning o‘z-o‘zini anglash darajasi bilan belgilanadi. O‘z kasbiy imkoniyatlarini real baholay oladigan pedagoglar ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni samarali qo‘llaydi, murakkab pedagogik vaziyatlarda oqilona qaror qabul qiladi hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishga intiladi. Kasbiy o‘zlikni anglash muammosi psixologiya fanida turli nazariy yondashuvlar asosida o‘rganilgan. E. Erikson identiklik nazariyasida shaxsning o‘zligini anglashini rivojlanishning markaziy psixologik mexanizmi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, kasbiy identiklikning shakllanishi shaxsning jamiyatdagi o‘rni va rolini anglashiga xizmat qiladi. K.Rodjersning gumanistik yondashuvida "Men-konsepsiyasi" shaxs rivojlanishining asosiy omili sifatida qaraladi. Muallifning ta’kidlashicha, insonning o‘z imkoniyatlarini anglash va ro‘yobga chiqarishga intilishi uning psixologik yetukligini belgilaydi. A.Bandura tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘ziga ishonch nazariyasida esa shaxsning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi faoliyat samaradorligining muhim prediktori sifatida tavsiflanadi. Bo‘lajak pedagoglarda o‘ziga ishonch darajasining yuqoriligi kasbiy o‘zlikni anglashning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mahalliy psixologlardan E.G‘. G‘oziev, Z.T. Nishonova, V.M. Karimova va boshqa olimlarning tadqiqotlarida ham shaxsning o‘z-o‘zini

anglash jarayonlari, kasbiy rivojlanish va ijtimoiylashuv masalalari keng yoritilgan. Tadqiqotda tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyat yondashuvlari metodologik asos sifatida qabul qilindi. Tadqiqot davomida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish hamda psixodiagnostik metodlardan foydalanildi. Kasbiy o‘zlikni anglashni o‘rganishda quyidagi metodikalar qo‘llanildi: V.V. Stolin va S.R. Pantileevning "O‘z-o‘ziga munosabat" metodikasi, A.V. Karpovning refleksiya darajasini aniqlash metodikasi va V.I. Morosanovaning xulq-atvorni o‘z-o‘zini boshqarish uslubi metodikasi. Olingan natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik tahlil usullari, jumladan Student t-mezoni va korrelyatsion tahlildan foydalanildi.

Kasbiy o‘zlikni anglashga ta’sir qiluvchi determinantlarni uch guruhga ajratish mumkin:

1-jadval.

Kasbiy o‘zlikni anglash determinantlari

Determinantlar	Asosiy tarkibiy qismlar
Shaxsiy determinantlar	Refleksiya, motivatsiya, o‘zini baholash, emotsional barqarorlik
Ijtimoiy determinantlar	Oila, ta’lim muhiti, akademik guruh, mentorlik
Kasbiy determinantlar	Pedagogik amaliyot, kasbiy kompetentlik, professional identifikatsiya

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, refleksiya darajasi yuqori bo‘lgan talabalar o‘z kasbiy imkoniyatlarini aniqroq baholashga moyil bo‘ladilar. Bunday talabalar pedagogik faoliyatga nisbatan ongli munosabatni namoyon etadi va kasbiy rivojlanish strategiyalarini mustaqil ishlab chiqishga intiladi.

Muallifning fikricha, kasbiy o‘zlikni anglashning shakllanishida refleksiya markaziy determinant sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki aynan refleksiv tahlil orqali talaba o‘zining kuchli va zaif tomonlarini anglaydi, kasbiy maqsadlarini aniqlashtiradi hamda o‘z ustida ishlash ehtiyojini his qiladi.

Bundan tashqari, pedagogik amaliyot jarayonlari kasbiy identifikatsiyani shakllantirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Talaba real pedagogik faoliyat sharoitida o‘zini pedagog sifatida his qila boshlaydi, bu esa kasbiy o‘zlikni anglashning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarida kasbiy o‘zlikni anglashning rivojlanishi shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy determinantlarning o‘zaro integratsiyasi natijasida yuzaga keladi. Refleksiya, kasbiy identifikatsiya, o‘zini baholash va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘rsatkichlari mazkur jarayonning muhim psixologik omillari hisoblanadi. Tadqiqot natijalari bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida refleksiv treninglar, mentorlik dasturlari hamda pedagogik amaliyotning mazmunini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu omillar kasbiy o‘zlikni anglashning rivojlanishiga va pedagogik kompetentlikning oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Albert Bandura. *Self-Efficacy: The Exercise of Control*. – New York: Freeman, 1997. – 604 p.
2. Mark Savickas. *Career Construction Theory and Practice*. – New York: Springer, 2013. – P. 147–183.
3. Donald Super. *The Psychology of Careers*. – New York: Harper & Brothers, 1957. – 362 p.
4. Столин В.В., Пантилеев С.Р. *Методика исследования самоотношения*. – Москва: Изд-во МГУ, 1988. – 32 с.
5. Карпов А.В. *Рефлексивность как психическое свойство и методика её диагностики* // Психологический журнал. – 2003. – №5. – С. 45–57.
6. Моросанова В.И. *Саморегуляция и индивидуальность человека*. – Москва: Наука, 2010. – 519 с.
7. Абульханова-Славская К.А. *Стратегия жизни*. – Москва: Мысль, 1991. – 299 с.
8. Зеер Э.Ф. *Психология профессионального развития*. – Москва: Академия, 2006. – 240 с.
9. Климов Е.А. *Психология профессионального самоопределения*. – Москва: Академия, 2004. – 304 с.

10. E G‘ G‘oziev. *Umumiy psixologiya*. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 544 b.

OLIY TA’LIM SHAROITIDA TALABALARDA MOSLASHUV JARAYONIGA TA’SIR ETUVCHI ICHKI VA TASHQI OMILLAR

Piraliyev Omiljon Kabilovich
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: o.piraliyev027@e-mail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muhitida talabalarning moslashuv jarayoniga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar psixologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Talabaning yangi ijtimoiy, akademik va kasbiy muhitga moslashuvi uning shaxsiy xususiyatlari, motivatsion yo‘nalganligi, emotsional barqarorligi, o‘z-o‘zini baholashi kabi ichki omillar hamda ta’lim muhiti, pedagogik munosabat, tengdoshlar guruhi, oilaviy qo‘llab-quvvatlash kabi tashqi omillar bilan belgilanadi. Tadqiqotda 2 va 4-kurs talabalaridan iborat 240 nafar respondent ishtirokida empirik o‘rganish amalga oshirildi. Talabalarning moslashuv darajasini aniqlashda ijtimoiy-psixologik moslashuv, akademik motivatsiya va ta’lim muhitini baholash metodikalaridan foydalanildi. Olingan natijalar ichki psixologik omillar va tashqi ijtimoiy muhit uyg‘unligi talabalarning oliy ta’lim sharoitiga muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlashini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, talaba, moslashuv, ichki omillar, tashqi omillar, motivatsiya, ijtimoiy muhit, psixologik barqarorlik, akademik moslashuv.

Аннотация. В данной статье рассматриваются внутренние и внешние факторы, влияющие на процесс адаптации студентов в условиях высшего образования. Адаптация студентов к новой академической и социальной среде определяется личностными особенностями, мотивацией, эмоциональной устойчивостью, самооценкой, а также особенностями образовательной среды, отношениями с преподавателями, групповой атмосферой и социальной поддержкой. В эмпирическом исследовании приняли участие 240 студентов 2 и 4 курсов. Для определения уровня адаптации использовались психодиагностические методы, направленные на изучение социально-психологической адаптации, учебной мотивации и особенностей образовательной среды. Результаты исследования показали, что успешная адаптация студентов обеспечивается взаимодействием внутренних психологических ресурсов личности и внешних социальных факторов.

Ключевые слова: высшее образование, студент, адаптация, внутренние факторы, внешние факторы, мотивация, образовательная среда, психологическая устойчивость.

Abstract. This article analyzes internal and external factors affecting students’ adaptation process in higher education. Students’ adaptation to a new academic and social environment depends on personal characteristics, motivation, emotional stability, self-esteem, as well as educational environment, teacher-student interaction, peer relationships, and social support. The empirical study involved 240 students from the 2nd and 4th years of higher education. Diagnostic methods were used to identify students’ socio-psychological adaptation, academic motivation, and educational environment factors. The results demonstrated that successful adaptation is determined by the interaction between internal psychological resources and external social conditions.

Keywords: higher education, student, adaptation, internal factors, external factors, motivation, educational environment, psychological stability.

Dolzarblik. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va pedagogik o‘zgarishlar talabalarning ta’lim jarayoniga moslashuvi masalasini muhim psixologik muammo sifatida namoyon qilmoqda. Universitet muhitiga kirib kelgan talaba nafaqat yangi bilimlarni egallashi, balki yangi ijtimoiy munosabatlar tizimiga, mustaqil ta’lim talablariga, kasbiy yo‘nalishga va shaxsiy rivojlanish vazifalariga moslashishi zarur bo‘ladi. Talabalarning oliy ta’lim

sharoitiga moslashuvi murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, unda shaxsning ichki psixologik imkoniyatlari hamda tashqi ijtimoiy-pedagogik sharoitlar o‘zaro ta’sirga kirishadi. Ayrim talabalar yangi ta’lim muhitiga tez moslashib, akademik faoliyatda yuqori natijalarga erishsa, boshqalarida o‘quv yuklamasi, ijtimoiy munosabatlar yoki o‘ziga bo‘lgan ishonchning yetarli shakllanmaganligi sababli turli qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Oliy ta’lim jarayonida talabaning moslashuvi faqat bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi. U shaxsning emotsional holati, stressga chidamliligi, muloqot qobiliyati, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasi va kasbiy maqsadlarini belgilashi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli talabalarning moslashuv jarayonini ta’minlovchi omillarni aniqlash zamonaviy psixologiya va pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlarda ham talabalarning akademik muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularning universitet muhitiga psixologik moslashuvi bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi. Xususan, B. Tinto tomonidan ishlab chiqilgan akademik integratsiya nazariyasida talabaning oliy ta’lim tizimida muvaffaqiyatli davom etishi uning akademik va ijtimoiy muhitga qo‘shilish darajasiga bog‘liq ekanligi ko‘rsatib berilgan.

Shuningdek, zamonaviy psixologik yondashuvlarda shaxsning moslashuvi ichki resurslar (motivatsiya, o‘zini anglash, emotsional barqarorlik) va tashqi qo‘llab-quvvatlovchi omillar (pedagogik muhit, guruh munosabatlari, ijtimoiy yordam) birligida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim sharoitida talabalarda moslashuv jarayoniga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni empirik jihatdan o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda psixologik-pedagogik yordam tizimini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tobora murakkablashib bormoqda. Zamonaviy universitet nafaqat talabalarga akademik bilim va kasbiy kompetensiyalarni shakllantiruvchi muhit, balki shaxsning ijtimoiy, psixologik va ma’naviy rivojlanishini ta’minlovchi murakkab ijtimoiy tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur tizimga kirib kelgan talaba esa avvalgi ta’lim bosqichlaridan farqli ravishda mustaqil fikrlash, o‘z faoliyatini rejalashtirish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish hamda yangi ijtimoiy munosabatlar tizimiga moslashish vazifalariga duch keladi.

Oliy ta’lim muhitiga moslashuv talabaning shaxsiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Chunki universitetga kirish bilan talabaning hayot faoliyati tubdan o‘zgaradi: o‘quv faoliyatining mazmuni, bilimlarni egallash usullari, muloqot shakllari, ijtimoiy mavqei va kelajak kasbiy faoliyatiga bo‘lgan munosabati yangicha mazmun kasb etadi. Shu sababli moslashuv jarayoni oddiy tashqi sharoitlarga ko‘nikish emas, balki shaxsning ichki psixologik tizimlari bilan yangi ijtimoiy muhit o‘rtasidagi faol o‘zaro ta’sir jarayoni sifatida qaraladi.

Psixologik nuqtai nazardan moslashuv shaxsning mavjud imkoniyatlari, ehtiyojlari va qadriyatlarini yangi faoliyat sharoitlari bilan muvofiqlashtirish jarayonidir. Talabaning oliy ta’lim muhitiga muvaffaqiyatli moslashuvi uning akademik faoliyati, shaxslararo munosabatlari, emotsional holati va kasbiy shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Aksincha, moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklar o‘quv motivatsiyasining pasayishi, o‘ziga bo‘lgan ishonchning kamayishi, ijtimoiy ajralish va akademik faoliyat samaradorligining susayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ayniqsa, bugungi oliy ta’lim tizimida talabalardan nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki mustaqil ta’lim olish, ilmiy faoliyat yuritish, jamoada ishlash, tez o‘zgarayotgan sharoitlarga moslasha olish kabi kompetensiyalar talab etilmoqda. Bunday talablar talabaning moslashuv imkoniyatlarini belgilovchi psixologik omillarni chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Talabalarning moslashuv jarayoniga ta’sir etuvchi omillarni shartli ravishda ikki katta guruhga ajratish mumkin: **ichki va tashqi omillar**.

Ichki omillar talabaning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, unga o‘quv motivatsiyasi, o‘z-o‘zini baholash darajasi, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, shaxsiy faollik, kasbiy maqsadlarning aniqligi va o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj kiradi. Ushbu omillar talabaning yangi sharoitlarni qanday qabul qilishi va ularga qanday munosabat bildirishini belgilaydi.

Masalan, yuqori ichki motivatsiyaga ega bo‘lgan talabalar o‘quv faoliyatini tashqi majburiyat sifatida emas, balki shaxsiy rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qiladi. Natijada ular murakkab akademik vaziyatlarga faolroq moslashadi, mustaqil bilim olishga intiladi va o‘z faoliyatini samarali tashkil eta oladi. Shuningdek, o‘ziga bo‘lgan ishonch darajasi yuqori bo‘lgan talabalar yangi ijtimoiy munosabatlarga tezroq kirishib, qiyinchiliklarni yengib o‘tishga moyil bo‘ladi.

Tashqi omillar esa talabaning faoliyat yuritayotgan ijtimoiy va pedagogik muhiti bilan bog‘liqdir. Bularga oliy ta’lim muassasasidagi psixologik muhit, o‘qituvchi-talaba munosabatlari, guruhdagi ijtimoiy munosabatlar, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, ta’lim jarayonining tashkil etilishi va moddiy-texnik sharoitlar kiradi. Talaba qanchalik qulay va qo‘llab-quvvatlovchi muhitga ega bo‘lsa, uning moslashuv jarayoni shunchalik samarali kechadi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda ham shaxs moslashuvi individual imkoniyatlar va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta’siri natijasi sifatida izohlanadi. Xususan, B. Tintoning akademik integratsiya nazariyasida talabaning oliy ta’lim tizimida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uning akademik va ijtimoiy muhitga qanchalik integratsiyalashganligi bilan bog‘lanadi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, universitet muhitida o‘z o‘rnini topgan talabalar yuqori motivatsiya va barqaror akademik natijalarni namoyon qiladi.

Shuningdek, A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasida shaxsning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi uning faoliyatdagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy psixologik omillardan biri sifatida qaraladi. Bu fikr talabalarning moslashuv jarayonida o‘z-o‘zini baholash va psixologik barqarorlikning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim sharoitida ayniqsa 2 va 4-kurs talabalari moslashuv jarayonining turli bosqichlarini ifodalaydi. 2-kurs talabalari hali akademik talablar, mustaqil ta’lim tizimi va yangi ijtimoiy muhitga to‘liq moslashish jarayonini boshdan kechirayotgan bo‘lsa, 4-kurs talabalari ushbu muhitda ma’lum tajribaga ega bo‘lib, kasbiy yo‘nalish va ijtimoiy rollarni ancha barqaror shakllantirgan bo‘ladi. Shu sababli ushbu ikki guruhni qiyosiy o‘rganish moslashuv jarayonining rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, talabalarning oliy ta’lim sharoitiga moslashuviga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni empirik jihatdan tadqiq etish, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash hamda moslashuv jarayonini takomillashtirishga qaratilgan psixologik-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarning oliy ta’lim sharoitiga moslashuvi masalasi zamonaviy psixologiya va pedagogikaning muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammo shaxs rivojlanishi, faoliyat psixologiyasi, ijtimoiy munosabatlar va ta’lim muhiti bilan bog‘liq ko‘plab nazariy yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talaba moslashuvi faqatgina yangi muhitga tashqi jihatdan ko‘nikish jarayoni emas, balki shaxsning ichki psixologik tizimlari, qadriyatlari, motivlari va ijtimoiy tajribasining qayta tashkil topishi bilan kechadigan murakkab jarayondir.

Psixologiya fanida moslashuv tushunchasi turlicha yondashuvlar asosida izohlanadi. Biologik yondashuv vakillari moslashuvni organizmning tashqi muhit talablariga javob berish qobiliyati sifatida talqin qilgan bo‘lsalar, zamonaviy psixologik yondashuvlarda u shaxs va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi faol o‘zaro munosabat jarayoni sifatida qaraladi. Ayniqsa, oliy ta’lim sharoitida moslashuv shaxsning yangi ijtimoiy rolni egallashi, akademik faoliyat usullarini shakllantirishi va kasbiy o‘zligini rivojlantirishi bilan tavsiflanadi.

L.S. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida inson psixik taraqqiyoti ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq holda yuz beradi. Olimning fikricha, shaxsning rivojlanishi va yangi faoliyat shakllarini egallashi boshqa insonlar bilan o‘zaro ta’sir jarayonida amalga oshadi. Ushbu nazariya talabalarning oliy ta’lim muhitiga moslashuvida guruh, o‘qituvchi va ijtimoiy munosabatlarning rolini tushuntirishga imkon beradi. Ya’ni talabaning moslashuvi faqat individual imkoniyatlari emas, balki u ishtirok etayotgan ijtimoiy muhitning xususiyatlari bilan ham belgilanadi.

S.L. Rubinshteynning faoliyat yondashuvida shaxs va faoliyat birligi tamoyili ilgari suriladi. Unga ko‘ra, insonning psixologik xususiyatlari uning faoliyat jarayonida shakllanadi va namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, talabaning oliy ta’limdagi moslashuvi uning o‘quv faoliyatiga qanchalik faol kirishishi, mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini egallashi va ta’lim jarayonida subyekt sifatida ishtirok etishiga bog‘liq.

B.G. Ananyev insonni yaxlit tizim sifatida o‘rgangan holda, shaxs rivojlanishida biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’sirini asoslab berdi. Uning kompleks yondashuvi talabalarning moslashuv jarayonini tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki talabaning moslashuvi uning individual xususiyatlari, shaxsiy tajribasi va ijtimoiy muhit bilan belgilanadigan ko‘p darajali jarayondir.

Xorijiy psixologiyada talabalarning moslashuvi ko‘pincha motivatsiya va shaxsning o‘z imkoniyatlarini baholashi bilan bog‘liq holda tadqiq qilingan. A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasida shaxsning o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchi (self-efficacy) faoliyat samaradorligining asosiy omili sifatida qaraladi. Talaba o‘z kuchiga ishongan sari murakkab vazifalarni bajarishga faolroq kirishadi, qiyinchiliklarga chidamlilik bilan munosabat bildiradi va yangi sharoitlarga tezroq moslashadi.

E. Detsi va R. Rayan tomonidan ishlab chiqilgan o‘zini o‘zi belgilash nazariyasida inson faoliyatining ichki motivatsion asoslari ochib berilgan. Olimlarning fikricha, shaxsning avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlari qondirilganda uning faoliyati samaradorligi oshadi. Ushbu yondashuv oliy ta’lim sharoitida talabaning o‘qishga bo‘lgan munosabati, mustaqil qaror qabul qilishi va o‘quv faoliyatiga faol jalb etilishining psixologik asoslarini tushuntiradi.

A. Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasida ham shaxsning rivojlanishi va o‘zini namoyon qilishi uchun avvalo xavfsizlik va ijtimoiy qabul qilinish ehtiyojlari qondirilishi zarurligi ta’kidlanadi. Bu fikr talabalarning universitet muhitida o‘zini xavfsiz his qilishi, guruhga moslashishi va ijobiy ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishining ahamiyatini ko‘rsatadi.

Talabalarning oliy ta’lim tizimiga moslashuvi masalasida V. Tintoning akademik integratsiya modeli alohida ahamiyatga ega. Mazkur nazariyaga ko‘ra, talabaning universitetdagi muvaffaqiyati uning ikki asosiy tizimga integratsiyalashuviga bog‘liq: akademik integratsiya va ijtimoiy integratsiya. Akademik integratsiya talabaning o‘quv jarayonidagi ishtiroki va natijalari bilan bog‘liq bo‘lsa, ijtimoiy integratsiya uning guruh va universitet muhitidagi munosabatlarini ifodalaydi. Ushbu ikki yo‘nalish uyg‘unlashganda talabaning ta’lim jarayonida barqarorligi ortadi.

A.A. Rean tadqiqotlarida ham talabalarning moslashuvida motivatsion yo‘nalganlik, shaxsiy faollik va ijtimoiy muhitning roli ko‘rsatib berilgan. Olimning fikricha, shaxsning faol pozitsiyasi va ichki tayyorgarligi yangi sharoitlarni muvaffaqiyatli egallash imkonini beradi.

Mahalliy tadqiqotchilar ishlarida ham talabalarning oliy ta’lim sharoitiga moslashuvi masalasi shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, pedagogik jarayon va ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda ta’lim muhitining psixologik qulayligi, o‘qituvchi shaxsi va talabalar o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlari moslashuvning muhim shartlari sifatida qayd etiladi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarning oliy ta’lim sharoitiga moslashuvi birgina omil bilan izohlanmaydi. U ichki psixologik resurslar (motivatsiya, o‘z-o‘ziga ishonch, emotsional barqarorlik) va tashqi ijtimoiy-pedagogik sharoitlarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadigan murakkab tizimli jarayondir. Shu sababli mazkur tadqiqotda talabalarning moslashuviga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar kompleks ravishda o‘rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim sharoitida talabalarning moslashuv jarayoniga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash hamda ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologik jihatdan shaxs-faoliyat, tizimli va subyektiv yondashuvlarga asoslandi. Ushbu yondashuvlar talaba shaxsining moslashuv jarayonini ichki psixologik imkoniyatlar hamda tashqi ijtimoiy sharoitlar birligi sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Empirik tadqiqot O‘zbekiston Respublikasidagi oliy ta’lim muassasasida amalga oshirildi.

Tadqiqotda jami **240 nafar talaba** ishtirok etdi.

Kurs	Talabalar soni	Foiz
2-kurs	120 nafar	50 %
4-kurs	120 nafar	50 %
Jami	240 nafar	100 %

Tanlanma ixtiyoriy asosda shakllantirildi. Tadqiqotda talabalarning anonimligi va psixologik diagnostika tamoyillariga rioya qilindi.

Tadqiqotda quyidagi metodikalardan foydalanildi:

1. K. Rodjers va R. Daymondning "Ijtimoiy-psixologik moslashuv" metodikasi

Mazkur metodika talabaning:

- o'zini qabul qilishi;
- boshqalarni qabul qilishi;
- emotsional qulayligi;
- ijtimoiy moslashuvi;
- ichki nazorat darajasini

aniqlash imkonini beradi.

Ushbu metod yordamida talabaning oliy ta'lim muhitida o'zini qanchalik erkin his qilishi, ijtimoiy munosabatlarga kirishish qobiliyati va psixologik barqarorligi baholandi.

2. TT. Vallerand tomonidan ishlab chiqilgan "Akademik motivatsiya shkalasi" (AMS)

Mazkur metodika talabalarning o'quv faoliyatidagi motivatsion tuzilmasini aniqlashga xizmat qiladi.

Unda quyidagi ko'rsatkichlar baholandi:

- ichki motivatsiya;
- tashqi motivatsiya;
- amotivatsiya.

Ichki motivatsiya talabaning bilim olishga qiziqishi, o'zini rivojlantirish istagi va kasbiy o'sishga intilishi bilan bog'liq bo'lsa, tashqi motivatsiya baho, rag'bat, ijtimoiy baholash kabi omillar bilan izohlanadi.

3. "Ta'lim muhitining psixologik omillari" mualliflik so'rovnomasi

Mazkur so'rovnoma orqali tashqi omillar o'rganildi.

U quyidagi mezonlarni qamrab oldi:

- o'qituvchi bilan psixologik munosabat;
- guruhdagi ijtimoiy muhit;
- oilaviy qo'llab-quvvatlash;
- ta'lim sharoitidan qoniqish.

1-jadval

Talabalarning ichki psixologik omillari ko'rsatkichlari

Ichki omillar	N	Mean	Std. Deviation
O'quv motivatsiyasi	240	67.4	8.9
O'z-o'ziga ishonch	240	64.8	9.3
Emotsional barqarorlik	240	61.6	10.1
Kasbiy yo'nalganlik	240	70.2	7.8
Umumiy ichki resurs indeksi	240	66.0	8.6

Natijalardan ko'rinadiki, talabalarda ichki omillar orasida kasbiy yo'nalganlik va o'quv motivatsiyasi yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Bu holat talabalarning oliy ta'lim jarayoniga kirishishida kelajak kasbiy maqsadlarining muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

2-jadval

Talabalarning tashqi omillar bo‘yicha natijalari

Tashqi omillar	N	Mean	Std. Deviation
O‘qituvchi bilan munosabat	240	69.1	8.2
Guruhdagi ijtimoiy muhit	240	66.7	9.0
Oilaviy qo‘llab-quvvatlash	240	71.3	7.6
Ta’lim sharoiti	240	68.5	8.4
Umumiy tashqi omillar indeksi	240	68.9	8.1

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tashqi omillar ichida oilaviy qo‘llab-quvvatlash va pedagogik munosabat talabalarning moslashuvida eng yuqori ta’sir ko‘rsatuvchi omillar hisoblanadi.

3-jadval

2 va 4-kurs talabalarining moslashuv darajasi taqqoslanishi

Kurs	Moslashuv darajasi	Mean
2-kurs	O‘rta-yuqori	63.5
4-kurs	Yuqori	72.4

Olingan natijalar 4-kurs talabalarida moslashuv darajasi 2-kurs talabalariga nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Bu holat oliy ta’lim muhitida uzoqroq tajribaga ega bo‘lgan talabalar akademik va ijtimoiy tizimga samaraliroq integratsiyalashishini anglatadi.

Korrelyatsion tahlil natijalari

SPSS dasturida o‘tkazilgan korrelyatsion tahlil quyidagi natijalarni berdi:

- Ichki omillar va moslashuv o‘rtasidagi bog‘liqlik:

$r = 0.71; p < 0.01$

- Tashqi omillar va moslashuv o‘rtasidagi bog‘liqlik:

$r = 0.68; p < 0.01$

Bu natijalar ichki va tashqi omillar talabalarning oliy ta’lim sharoitiga moslashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini bildiradi.

Muhokama. O‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning oliy ta’lim sharoitiga moslashuvi ko‘p omilli psixologik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon faqatgina talabaning individual xususiyatlari bilan emas, balki u faoliyat olib borayotgan ijtimoiy va pedagogik muhit bilan ham belgilanadi.

Tadqiqot natijalarida ichki omillar orasida o‘quv motivatsiyasi, kasbiy yo‘nalganlik va o‘z-o‘ziga ishonch talabalarning moslashuv darajasiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, talaba o‘zining kelajakdagi kasbiy faoliyatini aniq tasavvur qilgan va ta’lim olishga ichki ehtiyoj asosida yondashgan holatlarda yangi akademik talablarni osonroq qabul qiladi.

Uchinchi tarkibiy qism emotsional-irodaviy komponentdir. Tanqidiy fikrlash jarayonida talaba har doim ham oson javobga ega bo‘lmaydi. Muammoni tahlil qilish, murakkab axborotni anglash, qarama-qarshi fikrlarni solishtirish va asosli xulosa chiqarish sabr, qat’iyat, diqqatni jamlash, emotsional barqarorlik va o‘ziga ishonchni talab qiladi. Ba’zan talaba o‘zining avvalgi fikri noto‘g‘ri ekanini tan olishi kerak bo‘ladi. Bu esa ichki ruhiy moslashuv va irodaviy yetuklikni talab etadi.

To‘rtinchi tarkibiy qism kommunikativ komponentdir. Tanqidiy fikrlash ko‘pincha muloqot, munozara, savol-javob va fikr almashish jarayonida rivojlanadi. Talaba o‘z fikrini aniq ifodalashi, boshqalarning fikrini tinglashi, dalil keltirishi, e’tiroz bildirish madaniyatiga ega bo‘lishi, bahsda shaxsga emas, fikrga munosabat bildirishi zarur. Kommunikativ komponent rivojlangan talabada bahs-munozara madaniyati, ochiq fikrlilik va mantiqiy dalillash ko‘nikmasi shakllanadi.

Beshinchi tarkibiy qism refleksiv komponentdir. Refleksiv komponent talabaning o‘z fikrlash jarayonini anglash, nazorat qilish va baholash qobiliyatini bildiradi. Refleksivlik rivojlangan talaba o‘z xulosalarini qayta ko‘rib chiqadi, xatolarini tan oladi, fikrlash uslubini takomillashtiradi va bilim olish jarayoniga ongli munosabatda bo‘ladi. Bu komponent tanqidiy fikrlashning barqaror rivojlanishi uchun asosiy psixologik shartlardan biridir.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ta’sir etuvchi psixologik omillar

Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda birinchi muhim omil — bilishga qiziqishdir. Bilishga qiziqish talabaning o‘quv materialiga faol munosabatini kuchaytiradi. Qiziqish mavjud bo‘lgan joyda savol tug‘iladi, savol tug‘ilgan joyda esa izlanish boshlanadi. Shuning uchun o‘qituvchi talabalarda mavzuga nisbatan ichki qiziqish uyg‘otishi, ularni muammoli savollar, real hayotiy misollar va amaliy vaziyatlar orqali fikrlashga undashi lozim.

Ikkinchi omil — mustaqil fikrlash ehtiyojidir. Talaba har doim tayyor javobga o‘rgatilsa, unda tanqidiy fikrlash sust rivojlanadi. Aksincha, talaba mustaqil tahlil qilish, muammoga o‘z yondashuvini bildirish, dalil topish va xulosa chiqarishga jalb etilsa, unda fikrlash faolligi kuchayadi. Mustaqil fikrlash ehtiyoji talabaning o‘z bilimiga egalik qilish hissini oshiradi.

Uchinchi omil — o‘quv muhitining ochiqligi va erkinligidir. Tanqidiy fikrlash rivojlanishi uchun talaba o‘z fikrini aytishdan qo‘rqmasligi kerak. Agar dars jarayonida faqat bitta javob to‘g‘ri deb qabul qilinsa, savollar cheklansa yoki talabalar fikri tanqid qilinsa, ularda fikrlash faolligi pasayadi. Ochiq muloqot, hurmatli munozara, savol berishga rag‘bat va turli qarashlarni qabul qilish madaniyati tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi muhim psixologik sharoit hisoblanadi.

To‘rtinchi omil — o‘ziga ishonchdir. Tanqidiy fikrlash talabadan o‘z fikrini bildirish, dalil keltirish va boshqalar oldida xulosa qilishni talab etadi. O‘ziga ishonchi past bo‘lgan talaba ko‘pincha fikrini yashiradi, xato qilishdan qo‘rqadi yoki boshqalarning fikriga ergashadi. Shuning uchun o‘qituvchi talabalarni qo‘llab-quvvatlashi, ularning fikr bildirishiga imkon yaratishi va xatoni o‘rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida ko‘rsatishi zarur.

Beshinchi omil — refleksiv madaniyatdir. Talaba o‘z fikrlarini tahlil qilishga, xatolarini ko‘rishga, savollar berishga, muqobil yechimlarni izlashga odatlansa, unda tanqidiy fikrlash barqaror rivojlanadi. Refleksiv madaniyat talabaning o‘z ustida ishlashini kuchaytiradi va o‘quv faoliyatini ongli boshqarishga yordam beradi.

Oliy ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mexanizmlari

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning birinchi samarali mexanizmi muammoli ta’limdan foydalanishdir. Muammoli ta’limda talabaga tayyor bilim berilmaydi, balki uni izlanishga undovchi savol yoki vaziyat taqdim etiladi. Talaba muammoni tushunadi, mavjud bilimlarini ishga soladi, yangi ma’lumot izlaydi, turli yechimlarni solishtiradi va xulosa chiqaradi. Bu jarayonda uning tahliliy tafakkuri, mantiqiy fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi.

Ikkinchi mexanizm — savol berish madaniyatini shakllantirishdir. Tanqidiy fikrlash savoldan boshlanadi. Talaba “Nima uchun?”, “Qanday asos bor?”, “Boshqa sabab bo‘lishi mumkinmi?”, “Bu fikrni qanday dalil tasdiqlaydi?”, “Qarshi dalillar nimalardan iborat?” kabi savollarni berishga o‘rgatilishi zarur. Bunday savollar talabaning fikrlashini chuqurlashtiradi va uni yuzaki xulosalardan saqlaydi.

Uchinchi mexanizm — bahs-munozara va ilmiy muhokamalarni tashkil etishdir. Munozara jarayonida talabalar turli nuqtayi nazarlarni eshitadi, o‘z fikrini asoslaydi, dalillarni solishtiradi, qarshi fikrga munosabat bildiradi va murosali xulosa chiqarishga o‘rganadi. Bunda muhim jihat shuki, munozara shaxsiy bahsga emas, balki fikrlar tahliliga asoslanishi lozim. O‘qituvchi munozara madaniyatini boshqarib, talabalarni mantiqiy, dalilli va hurmatli muloqotga yo‘naltirishi kerak.

To‘rtinchi mexanizm — dalillash va asoslash ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Talaba bildirgan har bir fikrini dalil bilan mustahkamlashga o‘rganishi zarur. “Men shunday deb o‘ylayman” degan fikr yetarli emas, balki “Men shunday deb o‘ylayman, chunki...” tarzidagi asoslangan fikrlash shakllantirilishi lozim. Dalillash talabaning mantiqiy tafakkurini kuchaytiradi, ilmiy fikrlash madaniyatini rivojlantiradi va xulosalarining ishonchliligini oshiradi.

Beshinchi mexanizm — taqqoslash va tahlil qilish topshiriqlaridan foydalanishdir. Talabalarga ikki yoki undan ortiq qarash, nazariya, hodisa, tajriba yoki matnni solishtirish vazifasi berilsa, ular o‘xshash va farqli jihatlarni izlaydi, sabablarni aniqlaydi, ustun va zaif tomonlarni ko‘radi. Bu esa tanqidiy fikrlashning asosiy belgilaridan bo‘lgan tahliliy yondashuvni kuchaytiradi.

Oltinchi mexanizm — mustaqil izlanish faoliyatini tashkil etishdir. Talabalar mustaqil ravishda maqola, kitob, internet manbalari, ilmiy tadqiqotlar va statistik ma’lumotlar bilan

ishlashga o‘rgatilishi kerak. Bunda manbaning ishonchliligini baholash, asosiy fikrni ajratish, muallif pozitsiyasini aniqlash, tanqidiy munosabat bildirish va mustaqil xulosa chiqarish talab etiladi. Mustaqil izlanish tanqidiy fikrlashni chuqurlashtiruvchi muhim vositadir.

Yettinchi mexanizm — refleksiv topshiriqlarni qo‘llashdir. Har bir mavzu yoki mashg‘ulotdan so‘ng talabaga “Bugun nimani angladim?”, “Qaysi fikrim o‘zgardi?”, “Qaysi savol menda qoldi?”, “Qaysi dalil menga kuchli ta’sir qildi?”, “Men bu bilimni qayerda qo‘llay olaman?” kabi savollar berilishi mumkin. Bunday topshiriqlar talabaning o‘z fikrlash jarayonini tahlil qilishiga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchining roli

Oliy ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchining roli juda muhimdir. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki talabalarni fikrlashga yo‘naltiruvchi, savol berishga undovchi, muammoli vaziyat yaratib beruvchi va mustaqil xulosa chiqarishga rag‘batlantiruvchi shaxs bo‘lishi kerak. Agar o‘qituvchi darsda faqat tayyor ma’lumotni yetkazish bilan cheklansa, talabalar passiv tinglovchiga aylanadi. Aksincha, o‘qituvchi talabalarni bahsga, savolga, tahlilga va izlanishga jalb etsa, ularning tanqidiy fikrlashi rivojlanadi.

O‘qituvchi talabalar fikriga hurmat bilan yondashishi, turli qarashlarni muhokama qilishga imkon yaratishi, xato fikrlarni jazolamasdan, ularni tahlil qilishga o‘rgatishi lozim. Chunki tanqidiy fikrlash xavfsiz psixologik muhitda rivojlanadi. Talaba xato qilishdan qo‘rqmasa, o‘z fikrini erkin ifodalaydi. Bu esa mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvning shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, o‘qituvchi talabalarni fakt, fikr, taxmin va dalilni farqlashga o‘rgatishi zarur. Har bir mavzuda “Bu fikrni qanday dalil tasdiqlaydi?”, “Bu xulosa qaysi manbaga asoslangan?”, “Boshqa qarashlar qanday?”, “Mazkur fikrning zaif tomoni nimada?” kabi savollar orqali talabalar fikrlash jarayoniga jalb qilinadi. Bunday yondashuv ularda ilmiy dunyoqarash va tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim talabalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim psixologik-pedagogik vazifalaridan biridir. Tanqidiy fikrlash talabaning axborotni ongli qabul qilishi, uni tahlil qilishi, dalillarni baholashi, mustaqil xulosa chiqarishi va muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilishi bilan belgilanadi. Bunday fikrlash turi talabaning o‘quv faoliyatida faolligini oshiradi, kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi va shaxsiy pozitsiyasini shakllantiradi.

Tanqidiy fikrlashning psixologik asoslari kognitiv faollik, bilishga qiziqish, mustaqil fikrlash ehtiyoji, emotsional-irodaviy barqarorlik, kommunikativ madaniyat va refleksiv tahlil bilan bog‘liqdir. Ushbu tarkibiy qismlar uyg‘un rivojlanganda talaba tayyor bilimni takrorlovchi emas, balki bilimni mustaqil tahlil qiluvchi, baholovchi va amaliyotga tatbiq etuvchi faol subyekt sifatida shakllanadi.

Oliy ta’lim jarayonida muammoli ta’lim, savol-javob, bahs-munozara, dalillash, taqqoslash, mustaqil izlanish va refleksiv topshiriqlardan tizimli foydalanish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Shuningdek, o‘qituvchining ochiq muloqotga asoslangan yondashuvi, talabalar fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi va psixologik xavfsiz muhit yaratishi bu jarayonning muhim sharti hisoblanadi.

Tavsiyalar

Oliy ta’lim muassasalarida dars jarayonida talabalarni tayyor javobga emas, balki mustaqil tahlil, savol berish va dalillashga yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlar, bahs-munozaralar, ilmiy muhokamalar va guruhiy tahlil mashg‘ulotlaridan muntazam foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ–637-son. 2020-yil 23-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5847-son Farmoni. 2019-yil 8-oktabr.
3. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. Darslik. — Toshkent, 2002.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
5. Nishanova Z.T., Kamilova N.G‘., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent, 2019.
6. Qodirov B.R. Shaxs psixologiyasi va kasbiy shakllanish masalalari. — Toshkent, 2018.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Axrorov Xurshid Xamidovich
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya*. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoniga yangi talablarni qo‘ymoqda. Tadqiqotda musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda elektron ta’lim platformalari, multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar, musiqiy dasturlar va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli vositalar yordamida talabalarning ijodiy fikrlashi, musiqiy tahlil qilish ko‘nikmalari, axborot-kommunikatsion kompetensiyasi hamda mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish, ta’lim jarayonini individuallashtirish va innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv musiqa ta’limi sifatini oshirish va bo‘lajak mutaxassislarning zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi, kasbiy kompetentlik, raqamli texnologiyalar, musiqa ta’limi, multimedia vositalari, elektron ta’lim, innovatsion pedagogika, sun’iy intellekt, axborot-kommunikatsion kompetensiya, mustaqil ta’lim.*

Аннотация. *В условиях цифровизации образования возрастают требования к профессиональной подготовке педагогических кадров. В исследовании анализируются педагогические возможности использования электронных образовательных платформ, мультимедийных средств, виртуальных лабораторий, музыкальных программ и технологий искусственного интеллекта в процессе формирования профессиональной компетентности студентов музыкально-педагогических направлений. Особое внимание уделяется развитию творческого мышления, навыков музыкального анализа, информационно-коммуникационной компетентности и самостоятельной образовательной деятельности обучающихся. Показано, что эффективное применение цифровых технологий способствует повышению качества профессиональной подготовки будущих учителей музыки, индивидуализации образовательного процесса и формированию готовности к инновационной педагогической деятельности. Результаты исследования подтверждают, что интеграция цифровых технологий в систему музыкального образования обеспечивает развитие современных профессиональных компетенций и способствует подготовке конкурентоспособных специалистов, отвечающих требованиям цифрового общества и рынка труда.*

Ключевые слова: *будущий учитель музыки, профессиональная компетентность, цифровые технологии, музыкальное образование, мультимедийные средства, электронное обучение, инновационная педагогика, искусственный интеллект, информационно-коммуникационная компетентность, самостоятельное обучение.*

Abstract. *The rapid digitalization of education has created new requirements for teacher training and professional development. The study analyzes the pedagogical potential of digital educational platforms, multimedia resources, virtual learning environments, music software, and artificial intelligence technologies in enhancing the professional competence of music education students. Particular attention is paid to fostering creative thinking, musical analysis skills, information and communication competence, and independent learning abilities. The research highlights the effectiveness of digital tools in improving the quality of professional training, personalizing educational processes, and preparing future music teachers for innovative pedagogical activities. The findings demonstrate that the integration of digital technologies into music education contributes to the formation of modern professional competencies, supports lifelong learning, and increases the competitiveness of future specialists in the contemporary labor market. The proposed approach serves as an important factor in improving the quality and effectiveness of music teacher education in the digital era.*

Key words: *future music teacher, professional competence, digital technologies, music education, multimedia tools, e-learning, innovative pedagogy, artificial intelligence, information and communication competence, independent learning.*

Kirish. Musiqa ta’limining o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda nazariy bilimlar, amaliy ijrochilik, eshitish madaniyati va ijodkorlik qobiliyatlari o‘zaro uyg‘un holda rivojlantiriladi. Raqamli texnologiyalar esa ushbu jarayonlarni yanada samarali tashkil etish, murakkab musiqiy tushunchalarni vizuallashtirish, individual ta’lim trayektoriyalarini yaratish va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Xususan, notografik dasturlar, audio va video tahrirlash vositalari, virtual cholg‘ular hamda interaktiv ta’lim platformalari bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslari yetarli darajada takomillashtirilmaganligi mazkur masalaning dolzarbligini belgilaydi. Mazkur tadqiqotning maqsadi bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari, samarali mexanizmlari va amaliy yondashuvlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, XXI asr o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini faqat fan bo‘yicha bilimlar emas, balki raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish ko‘nikmalari ham belgilaydi. UNESCOning “ICT Competency Framework for Teachers” konsepsiyasida pedagoglarni tayyorlashning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish masalasi alohida ta’kidlangan.

Musiqa ta’limi sohasi ham mazkur jarayonlardan chetda qolayotgani yo‘q. So‘nggi yillarda musiqiy notalashtirish dasturlari, virtual studiyalar, multimedia vositalari, onlayn platformalar va sun’iy intellekt asosidagi ilovalar musiqa o‘qitish metodikasiga faol kirib kelmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda musiqa pedagoglarining raqamli kompetensiyasi kasbiy mahoratning ajralmas tarkibiy qismi ekanligi, biroq ko‘plab bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish zarurati saqlanib qolayotgani qayd etilgan.

Respublikamizda ham ta’limni raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “Digital Uzbekistan – 2030” strategiyasi doirasida ta’lim tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish va oliy ta’lim muassasalarida innovatsion ta’lim muhitini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Strategiyada ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash va zamonaviy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zarurati mavjud. Chunki zamonaviy maktab va ta’lim muassasalari nafaqat musiqiy bilimlarga ega, balki raqamli muhitda samarali faoliyat yurita oladigan, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llay oladigan va

o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini raqamli vositalar yordamida rivojlantira oladigan mutaxassislarga ehtiyoj sezmoqda. Mazkur holat tadqiqot mavzusining ilmiy-amaliy ahamiyatini va dolzarbligini belgilaydi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda ushbu jarayonda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasi so‘nggi yillarda pedagogika, musiqa ta’limi va ta’lim texnologiyalari sohalarida faol tadqiq etilayotgan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammo bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim tizimida pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirish an’anaviy bilim va ko‘nikmalar bilan cheklanib qolmay, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, raqamli ta’lim muhitida ishlash va innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Kasbiy kompetentlik nazariyasining metodologik asoslari xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, D. Raven kompetentlikni shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishiga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma, qadriyat va motivlar tizimi sifatida talqin qiladi. Olimning fikricha, kompetentlik faqat nazariy tayyorgarlik bilan emas, balki amaliy faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladigan integrativ sifatlar majmui bilan belgilanadi. Shuningdek, J. Delors, P. Perrenoud, M. Mulder va F. Weinertlarning ilmiy qarashlarida ham kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta’limning asosiy metodologik tamoyillaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Ular pedagog faoliyatining samaradorligi kasbiy bilimlarning amaliyot bilan uyg‘unlashuvi va ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash darajasiga bog‘liqligini ta’kidlaydilar.

Musiqa pedagogikasida kasbiy kompetentlik masalalarini o‘rganishda B. Reimer, K. Swanwick, D. Elliott va L. Shulmanlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning tadqiqotlarida musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi musiqiy bilimlar, ijrochilik mahorati, pedagogik qobiliyat va refleksiv faoliyatning uzviy birligi sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, D. Elliott tomonidan ilgari surilgan “musiqiy amaliyot” konsepsiyasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni nazariy bilimlarni amaliy musiqiy faoliyat bilan integratsiyalash asosida tashkil etilishi lozimligi asoslab berilgan.

Raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimiga kirib kelishi bilan pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirish masalasi alohida ilmiy yo‘nalishga aylandi. Ushbu sohada M. Koehler va P. Mishra tomonidan ishlab chiqilgan TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli alohida o‘rin tutadi. Mazkur modelga ko‘ra, zamonaviy o‘qituvchi nafaqat fan mazmuni va pedagogik metodlarni, balki texnologik vositalarni ham chuqur egallagan bo‘lishi kerak. Olimlar ta’lim samaradorligi pedagogik, fan va texnologik bilimlarning o‘zaro integratsiyasi orqali ta’minlanishini ta’kidlaydilar. Shuningdek, J. Hattie, A. Bates va N. Selwynlarning tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonini individuallashtirish, ta’lim resurslariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida baholanadi.

Rossiyalik olimlar tomonidan ham pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va ta’limni raqamlashtirish masalalari keng o‘rganilgan. V.A. Slastenin, E.F. Zeer, I.A. Zimnyaya, A.V. Xutorskoy va N.V. Kuzmina tadqiqotlarida pedagog kompetentligi shaxsiy, kasbiy va metodik komponentlarning birligi sifatida tavsiflanadi. I.A. Zimnyaya kompetentlikni ta’lim natijasining integral ko‘rsatkichi sifatida baholab, uning tarkibiga motivatsion, kognitiv va amaliy faoliyat komponentlarini kiritadi. A.V. Xutorskoy esa kompetensiyaviy yondashuvni ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida ko‘rib chiqib, zamonaviy pedagogning innovatsion faoliyatga tayyorligi va mustaqil kasbiy rivojlanishini asosiy mezonlardan biri sifatida e’tirof etadi.

Musiqa ta’limini raqamlashtirish masalalari bo‘yicha olib borilgan zamonaviy tadqiqotlarda multimedia texnologiyalari, musiqiy dasturlar, virtual ta’lim platformalari va sun’iy intellekt vositalarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Xorijiy tadqiqotchilar J. Webster, W. Bauer, S. Dorfman va T. Rudolflarning ilmiy ishlarida raqamli texnologiyalar musiqiy savodxonlikni rivojlantirish, notalarni o‘rganish, kompozitsiya yaratish va musiqiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida baholanadi. W. Bauer o‘z tadqiqotlarida raqamli vositalarning musiqa o‘qituvchilari kasbiy faoliyatini takomillashtirishdagi o‘rnini

asoslab, texnologik kompetentlik zamonaviy musiqa pedagogining ajralmas tarkibiy qismi ekanligini ta’kidlaydi.

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, ushbu jarayonni raqamli texnologiyalar vositasida kompleks takomillashtirish, ayniqsa, musiqa ta’limining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda metodik jihatdan asoslash masalalari hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Mavjud tadqiqotlarning aksariyatida kasbiy kompetentlik, raqamli kompetentlik yoki musiqa pedagogikasi alohida yo‘nalish sifatida tadqiq etilgan bo‘lib, ularning integratsiyalashgan modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar zamonaviy pedagogika fani va amaliyoti uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida kasbiy kompetentlikning motivatsion, kognitiv, metodik, kommunikativ, ijodiy va refleksiv komponentlari raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanishi aniqlandi. Elektron ta’lim platformalari, multimedia vositalari, musiqiy dasturlar, virtual ta’lim muhiti hamda interaktiv raqamli resurslardan foydalanish talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini faollashtirish, musiqiy tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy fikrlashini rag‘batlantirish va pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qilishi asoslandi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonini individuallashtirish, ta’lim mazmunini vizuallashtirish va nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuv bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi isbotlandi. Xususan, raqamli vositalardan tizimli foydalanish natijasida talabalarning axborot-kommunikatsion savodxonligi, pedagogik kreativligi, innovatsion faoliyatga tayyorligi hamda zamonaviy ta’lim muhitida ishlash ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanishi kuzatildi. Bu esa kelajakdagi musiqa o‘qituvchilarining ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilar bilan samarali ishlash va raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Shunday qilib, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish musiqa ta’limining sifat ko‘rsatkichlarini yuksaltirish, pedagogik faoliyatni innovatsion asosda tashkil etish hamda zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos, yuqori malakali va raqamli kompetensiyalarga ega pedagog kadrlarni tayyorlashning muhim shartlaridan biri ekanligi o‘z tasdig‘ini topdi. Kelgusida mazkur yo‘nalishda sun’iy intellekt texnologiyalari, adaptiv ta’lim tizimlari va raqamli musiqiy platformalarning pedagogik imkoniyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Zimnyaya I.A. Klyuchevye kompetentnosti kak rezultativno-tselevaya osnova kompetentnostnogo podkhoda v obrazovanii. – M.: Issledovatelskiy tsentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2004. – 42 s.
2. Khutorskoy A.V. Klyuchevye kompetentsii kak komponent lichnostno orientirovannoy paradigmy obrazovaniya // Narodnoe obrazovanie. – 2003. – № 2. – S. 58–64.
3. Slastenin V.A., Isaev I.F., Mishchenko A.I., Shiyanov E.N. Pedagogika. – M.: Akademiya, 2013. – 608 s.
4. Zeer E.F. Psikhologiya professionalnogo razvitiya. – M.: Akademiya, 2006. – 240 s.
5. Delors J. Learning: The Treasure Within. Report to UNESCO of the International Commission on Education for the Twenty-First Century. – Paris: UNESCO Publishing, 1996. – 288 p.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING PSIXOLOGIK FAROVONLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Jabborova Feruza Majidovna,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, emotsional intellekt, o‘zini boshqarish qobiliyati, empatiya, stressni yengish ko‘nikmalari va ijobiy maktab muhiti o‘qituvchilarning emotsional barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillar hisoblanadi. Emotsional barqarorlik esa o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi sog‘lom muloqot, ijobiy sinf muhitini yaratish va kasbiy samaradorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: emotsional barqarorlik, shaxslararo muloqot, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, emotsional intellekt, stressni boshqarish, empatiya, kasbiy rivojlanish

Аннотация. Согласно результатам исследования, эмоциональный интеллект, способность к самоконтролю, эмпатия, навыки преодоления стресса и позитивная школьная среда являются основными факторами, обеспечивающими эмоциональную устойчивость учителей. Эмоциональная устойчивость напрямую влияет на здоровое общение между учителем и учеником, создание позитивной атмосферы в классе и профессиональную эффективность.

Ключевые слова: эмоциональная устойчивость, межличностное общение, учитель начальных классов, эмоциональный интеллект, управление стрессом, эмпатия, профессиональное развитие

Abstract. According to the research results, emotional intelligence, self-control ability, empathy, stress management skills, and a positive school environment are the main factors ensuring the emotional stability of teachers. Emotional stability directly affects healthy communication between the teacher and the student, the creation of a positive classroom environment, and professional effectiveness.

Keywords: emotional stability, interpersonal communication, primary school teacher, emotional intelligence, stress management, empathy, professional development

Kirish. Emotsional barqarorlik – bu shaxsning stressli vaziyatlarda o‘zini nazorat qila olishi, salbiy his-tuyg‘ularni boshqara bilishi va ijobiy muloqotga intilishi kabi ko‘nikmalar majmuidir. Maktab muhitida, ayniqsa boshlang‘ich sinflarda, o‘qituvchi kun davomida ko‘plab emotsional vaziyatlarga duch keladi: o‘quvchi bilan individual ishlash, ota-onalar bilan muloqot, sinfdagi nizolarni hal qilish va h.k. Bunday vaziyatlarda o‘qituvchining emotsional barqarorligi nafaqat o‘zining ruhiy salomatligi, balki o‘quvchilarning emotsional rivojlanishi uchun ham muhim hisoblanadi.

So‘nggi yillarda psixologiya va pedagogika fanida o‘qituvchilarning emotsional intellekti, stressni boshqarish strategiyalari, empatiya darajasi va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga e’tibor ortib bormoqda. Biroq, aynan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxslararo muloqot kontekstida emotsional barqarorlikka ta’sir etuvchi omillar hali to‘liq o‘rganilmagan. Shu sababli, ushbu maqolada mazkur masalani chuqur tahlil qilish, dolzarb omillarni aniqlash va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ko‘pincha o‘quvchi, ota-ona va hamkasblar bilan turli xil muloqot jarayonlariga kirishadi. Bu muloqotlar doimiy emotsional kuchlanish, stress va psixologik bosim bilan kechishi mumkin. Emotsional barqarorlikning yetishmasligi o‘qituvchining ish faoliyatiga, dars sifati va o‘quvchilar bilan munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, o‘qituvchining emotsional holati va muloqotdagi barqarorligini ta’minlovchi omillarni aniqlash bugungi ta’lim tizimi uchun nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar ko‘rsatmoqda-ki, emotsional barqarorlik — bu o‘rgatiladigan va rivojlantiriladigan sifat bo‘lib, uni rivojlantirish orqali o‘qituvchining kasbiy samaradorligini oshirish, sinfdagi sog‘lom psixologik muhitni yaratish mumkin. Shu nuqtayi

nazardan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxslararo muloqotida emotsional barqarorlikka ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masaladir.

D. Goleman (1995) tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt nazariyasiga ko‘ra, shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, boshqalarni tushunish va ular bilan samarali muloqot qilish qobiliyati — bu muvaffaqiyatli insoniy munosabatlarning negizidir. Ushbu nazariyaga tayanilgan holda o‘qituvchilarning emotsional barqarorligi ularning o‘zini tutishiga, sinfdagi muhitga va o‘quvchilar bilan aloqa o‘rnatish qobiliyatiga bevosita ta’sir qilishi aniqlangan.

Hochschild (1983) tomonidan ilgari surilgan “emotsional mehnat” (emotional labor) tushunchasi ham o‘qituvchilar faoliyatini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Unga ko‘ra, o‘qituvchilar ko‘p hollarda o‘zining shaxsiy emotsiyalarini yashirib, tashqi muhitga mos ravishda harakat qilishga majbur bo‘ladi. Bu esa vaqt o‘tishi bilan ruhiy charchoq, motivatsiyaning pasayishi va kommunikativ muammolarga olib kelishi mumkin.

Sutton va Wheatley (2003) o‘z tadqiqotlarida o‘qituvchilarning emotsional barqarorligi, ayniqsa shaxslararo muloqotda qanday rol o‘ynashini tahlil qilgan. Ularning fikricha, emotsiyalarni ongli boshqarish, stressli vaziyatlarga nisbatan moslashuvchan yondashuv, empatiya va o‘z-o‘zini anglash kabi ko‘nikmalar o‘qituvchining samarali muloqot olib borishida asosiy omillardandir.

Yin va hamkorlari (2013) esa o‘qituvchilarning emotsional barqarorligi bilan ularning kasbiy qoniqishi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik borligini aniqlagan. Ular emotsional intellekt darajasi yuqori bo‘lgan o‘qituvchilarda muloqotdagi noqulayliklar kamayishini va kasbiy motivatsiya oshishini ta’kidlaydi.

Mahalliy tadqiqotlar tahliliga e’tibor qaratilsa, O‘zbekiston psixologiya fanida o‘qituvchining kommunikativ madaniyati, psixologik moslashuvchanligi va shaxslararo munosabatlardagi roli haqida ishlar mavjud bo‘lsa-da, emotsional barqarorlikning aniq omillari, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kontekstida yetarli darajada chuqur o‘rganilmagan. Bu esa mazkur mavzuning ilmiy jihatdan yanada chuqur tadqiq etilishini taqozo etadi.

Tadqiqot natijalari Sutton va Wheatley (2003), Goleman (1995) hamda Jennings va Greenberg (2009) tomonidan olib borilgan ishlar bilan uyg‘unlikda ekanini ko‘rsatadi. Ularning izlanishlarida ham o‘qituvchilarning emotsional barqarorligi, ularning kasbiy samaradorligi va o‘quvchilar bilan munosabatlari o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligi ta’kidlangan.

Shuningdek, tajribali o‘qituvchilar yosh kadrlarga nisbatan muloqotdagi qarama-qarshiliklarni yengilroq yengib o‘tishi, o‘z his-tuyg‘ularini anglab yetishi va boshqarishi ko‘proq kuzatildi. Bu esa pedagogik faoliyat davomida emotsional barqarorlikning tajriba bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, ayrim o‘qituvchilarda emotsional charchoq va ruhiy tushkunlik belgilari qayd etilgan bo‘lib, bu holat ko‘proq o‘ta yuklama, maktabdagi kommunikatsion muhitning salbiyligi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yetishmovchiligi bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu esa ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning emotsional holatini qo‘llab-quvvatlash tizimlarini yaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun emotsional barqarorlik — bu nafaqat psixologik salomatlikni ta’minlovchi omil, balki samarali shaxslararo muloqot va kasbiy muvaffaqiyat garovi ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarurligini asoslaydi.

Amaliy tavsiyalar:

1. O‘qituvchilarning emotsional intellektini rivojlantirish bo‘yicha treninglar tashkil etish

Maktablarda muntazam ravishda emotsional barqarorlik, empatiya, stressni boshqarish va o‘zini anglash bo‘yicha trening va seminarlar tashkil qilish lozim. Bu o‘qituvchilarning o‘z his-tuyg‘ularini tushunishi va boshqarishiga yordam beradi.

2. Shaxslararo muloqotni mustahkamlovchi metodikalar joriy etish

O‘qituvchilarning samarali muloqot yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun psixologik texnikalar (faol tinglash, “Men xabarlari”, konfliktni konstruktiv hal qilish va boshqalar) bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar olib borilishi tavsiya etiladi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatida emotsional barqarorlik muhim psixologik mezonlardan biri ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, emotsional intellekt, empatiya, o‘zini anglash, stressni boshqarish va kommunikativ ko‘nikmalar — o‘qituvchining shaxslararo muloqotdagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Shuningdek, ijobiy maktab muhiti, ma’muriy-psixologik qo‘llab-quvvatlash va doimiy kasbiy rivojlanish imkoniyatlari o‘qituvchilarning emotsional barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Yuqori darajadagi emotsional barqarorlikka ega bo‘lgan o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan ishonchli, samimiy va sog‘lom munosabatlar o‘rnatib, sinfda ijobiy psixologik muhit yaratishda yetakchi rol o‘ynaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, emotsional barqarorlik — bu tug‘ma sifat emas, balki maqsadli psixologik tayyorgarlik, o‘z ustida ishlash va tajriba orqali shakllanadigan salohiyatdir. Shu boisdan, o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarida ularning emotsional salohiyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Jennings, P. A., & Greenberg, M. T. (2009). The prosocial classroom: Teacher social and emotional competence in relation to student and classroom outcomes. Review of Educational Research, 79(1), 491–525. https://doi.org/10.3102/0034654308325693
2. Sutton, R. E., & Wheatley, K. F. (2003). Teachers’ emotions and teaching: A review of the literature and directions for future research. Educational Psychology Review, 15(4), 327–358. https://doi.org/10.1023/A:1026131715856
3. Yin, H., Lee, J. C.-K., & Zhang, Z. (2013). Teacher emotional labour and teacher wellbeing: A systematic review. Educational Research Review, 10, 123–132. https://doi.org/10.1016/j.edurev.2013.07.004
4. O‘zboshimova, N. T. (2020). Pedagoglarning emotsional barqarorligi va kasbiy faoliyat samaradorligi. Ta’lim va Psixologiya, 3(1), 45–52.
5. Karimova, S. M. (2019). Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining stressga chidamliligi va shaxslararo muloqoti. Pedagogika ilmiy jurnali, 2(5), 33–40.

OILAVIY TARBIYA VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Nazarova Dilnoza O‘razalievna
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oilaviy muhitning hissiy qo‘llab-quvvatlashi, ota-ona muloqotining sifati va oiladagi konfliktlarning bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotlar asosida oilaviy tarbiyaning psixologik jihatlari bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy moslashuv, oilaviy tarbiya, psixologik omillar, ota-ona muloqoti, hissiy qo‘llab-quvvatlash, oilaviy konflikt, ijtimoiy rivojlanish.*

Аннотация. *В данной статье анализируется эмоциональная поддержка семейной среды, качество родительского общения и влияние семейных конфликтов на социальное развитие детей. На основе исследований освещено значение психологических аспектов семейного воспитания в формировании социальных навыков детей.*

Ключевые слова: *социальная адаптация, семейное воспитание, психологические факторы, родительское общение, эмоциональная поддержка, семейный конфликт, социальное развитие.*

Abstract. *This article analyzes the emotional support of the family environment, the quality of parental communication, and the impact of family conflicts on children's social development. Based on the research, the significance of the psychological aspects of family upbringing in the formation of children's social skills is highlighted.*

Keywords: *social adaptation, family upbringing, psychological factors, parental communication, emotional support, family conflict, social development.*

Psixologlar ta’kidlashicha, bola o‘zini oila muhitida xavfsiz, qo‘llab-quvvatlangan his qilganda, u jamiyatga chiqishda ham ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishga tayyor bo‘ladi. Shuningdek, oilada tarbiyalangan asosiy qadriyatlar va me’yorlar bolaga jamiyatda qoidalar va normativlarga rioya qilishni o‘rgatadi. Bu jarayon maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy qobiliyatlar va muomala madaniyatini rivojlantirishda poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, oilaviy tarbiyaning psixologik jihatlari va uning bolalar ijtimoiy moslashuviga ta’siri mavzusi o‘rganishga katta ahamiyatga ega.

Oilaviy tarbiyada psixologik omillarning bolalarning ijtimoiy moslashuvidagi roli o‘ziga xos va ko‘p qirralidir. Eng avvalo, ota-ona bilan bolalar o‘rtasidagi emotsional aloqa bolaning o‘zini qadrli va sevimli his qilishiga xizmat qiladi. Bu esa bolaning o‘z-o‘ziga ishonchini shakllantirishga yordam beradi, natijada u boshqalar bilan muloqot qilishda ko‘proq ochiq va ijobiy bo‘ladi. Bundan tashqari, ota-onaning o‘zaro munosabatlari ham bolalarning ijtimoiy xulq-atvoriga ta’sir qiladi; agar oilada tinchlik va mehr-muhabbat hukm sursa, bola murosa qilish, boshqalarni tushunish va jamiyat qoidalariga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelmaydi.

Tarbiya jarayonida ota-onaning me’yordagi talab va jazolari ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular bolaning o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish va jamiyat me’yorlariga rioya qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, oilaviy munosabatlarning psixologik barqarorligi bolaning stress holatlarini boshqarishi va ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini oshiradi. Shunday qilib, oilada yaratilgan psixologik muhit bolalarning kelajakda muvaffaqiyatli ijtimoiy faoliyat olib borishi uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, oilaviy tarbiyaning psixologik omillari bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayonida kommunikatsiya ko‘nikmalarining shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Bolalar oilada ota-ona bilan muloqot qilish jarayonida nafaqat so‘zlashishni, balki o‘z fikrlarini ifoda etish, boshqalarni tinglash va tushunish ko‘nikmalarini ham o‘rganadilar. Ushbu ko‘nikmalar esa ular uchun maktabda va ijtimoiy guruhlarda do‘stlar orttirish, o‘zaro munosabatlarni boshqarish imkonini beradi.

Oilada yuzaga kelgan hissiy iqlim bolalarning psixologik barqarorligi va stressga chidamliligini oshiradi, bu esa ijtimoiy qiyinchiliklar yuzaga kelganda ularni yengishda yordam beradi. Shuningdek, ota-onalar tomonidan berilgan namuna va qo‘llab-quvvatlash bolalarning o‘zaro munosabatlarda halollik, hurmat va hamdardlik kabi ijtimoiy qadriyatlarni o‘zlashtirishini ta’minlaydi. Bu jarayonlar maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo‘lgan psixologik asoslarni yaratadi. Shu bois, oilaviy tarbiyaning psixologik omillarini chuqur o‘rganish bolalarning sog‘lom ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayonida oilaviy tarbiyaning psixologik omillari muhim o‘rin tutadi, bu haqda ko‘plab psixologlar va olimlar o‘z nazariyalarida ta’kidlaganlar. Masalan, Lev Vygotskiyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolaning ijtimoiy xulq-atvori va tafakkuri asosan ijtimoiy muhit, xususan, oilaviy munosabatlar orqali shakllanadi. U ta’kidlaganidek, oila bola uchun birinchi ijtimoiy makon bo‘lib, unda o‘zaro faoliyat orqali bola o‘zining shaxsiy va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Vygotskiy nazariyasida "zona yaqin rivojlanish" tushunchasi ham muhim bo‘lib, bu bolaning qiyinchiliklarni ota-ona yoki yaqin kishilar yordamida yengib o‘tishi jarayonini anglatadi. Shu bilan birga, oilaviy

tarbiya bolaning til va muloqot ko‘nikmalarini o‘rganishi uchun asos yaratadi, bu esa ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli moslashish uchun zarurdir. Bolaning o‘z-o‘zini anglash va boshqalar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda oilaviy muhitning psixologik farovonligi katta rol o‘ynaydi. Shuning uchun Vygotskiy fikricha, ota-ona va tarbiyachilarning faol ishtiroki bolaning ijtimoiy rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradi. Ushbu nuqtai nazar maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishini tushunishda dolzarb ahamiyatga ega.

Jan Piajetning kognitiv rivojlanish nazariyasi ham oilaviy tarbiyaning ijtimoiy moslashuvdagi rolini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Piajetning fikricha, bolaning dunyoqarashi va ijtimoiy xulq-atvori uning kognitiv rivojlanish bosqichlariga bog‘liq. Oiladagi munosabatlar, ota-onaning bola bilan muloqoti va qo‘llab-quvvatlashi bolaga yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishda, muammolarni hal qilishda yordam beradi. U ta’kidlaganidek, bolaning fikrlash jarayoni oilaviy interaktivlik orqali rivojlanadi va bu jarayon ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Piajet nazariyasida ijtimoiy moslashuv – bu bolaning yangi vaziyatlarga moslashishi va boshqalar bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyati sifatida qaraladi. Shunday qilib, oilaviy tarbiya bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil bo‘lib, uning ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyat qozonishiga ta’sir qiladi. Ushbu nazariya maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvi uchun zarur bo‘lgan psixologik asoslarni aniqlashga yordam beradi.

Bundan tashqari, Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi oilaviy tarbiyaning psixologik omillarini o‘rganishda keng qo‘llaniladi. Eriksonning ta’kidlashicha, maktabgacha yoshdagi bola "Mehnat va uyushuv hissi" bosqichida ijtimoiy o‘zligini shakllantiradi, bu jarayonda oila muhim rol o‘ynaydi. Oilaviy tarbiya bolaning o‘z qobiliyatlariga ishonch hosil qilishida, ijtimoiy munosabatlarda o‘zini erkin his qilishida yordam beradi. Erikson oila bilan bog‘liq ijobiy tajribalar bolalarda ijtimoiy xavfsizlik va o‘ziga hurmatni mustahkamlaydi, bu esa ijtimoiy moslashuvni osonlashtiradi. Aksincha, oilaviy muhitda nizolar yoki qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi bolaning ijtimoiy rivojlanishida qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, Eriksonning nazariyasi oilaviy tarbiyaning ijtimoiy rivojlanishga psixososial ta’sirini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu nazariya bolalarning o‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy o‘zligini shakllantirish jarayonida oilaviy psixologik omillarni o‘rganish uchun qulay ilmiy asosdir.

Jon Boulbi biriktiruvchi nazariyasi ham maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvida oilaviy tarbiyaning ahamiyatini yoritadi. Boulbi ta’kidlaganidek, bolaning ota-ona bilan mustahkam biriktiruvchi munosabatlari uning xavfsiz o‘zligini shakllantirishga xizmat qiladi. Xavfsiz biriktirish bolaning o‘zini ishonchli va qo‘llab-quvvatlangan his qilishi, yangi ijtimoiy vaziyatlarga ochiq bo‘lishi, va boshqalar bilan ijobiy muloqot o‘rnatishida asosiy omil hisoblanadi. Boulbining nazariyasi bo‘yicha, oila muhitida yaratilgan ishonchli va mehribon munosabatlar bolada ijtimoiy stressga chidamlilikni oshiradi va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam beradi. Shu bilan birga, bu nazariya bolaning hissiy va ijtimoiy intellektini rivojlantirishga yordam beruvchi asosiy omillarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Oilaviy tarbiya jarayonida ota-ona tomonidan yaratilgan psixologik xavfsizlik bolaning kelajakda ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi. Bowlbyning nazariyasi bolalarning ijtimoiy moslashuvi va psixologik barqarorligi haqida chuqur tushuncha beradi.

Shuningdek, Diana Baumrindning oilaviy tarbiya uslublari nazariyasi maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvi jarayonini tushunishda amaliy ahamiyatga ega. Baumrindning fikricha, ota-onaning tarbiya uslubi bolaning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. U uchta asosiy tarbiya uslubini ajratib ko‘rsatadi: avtoritar, demokratiya va beparvo uslub. Avtoritar uslubda tarbiya qilingan bolalar ko‘pincha qo‘rqinchli va cheklangan ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi mumkin, bu esa ularning jamiyatda moslashuviga salbiy ta’sir qiladi. Demokratiya uslubi esa bolalarning o‘z fikrini ifoda etishiga, boshqalarni tinglashga va murosa qilishga imkon yaratadi, bu esa ularning ijtimoiy moslashuvini oshiradi. Beparvo uslubda esa bolaning o‘zini boshqarish qobiliyatlari yetarlicha shakllanmasligi mumkin. Baumrindning nazariyasi oilaviy tarbiyaning psixologik omillari va ularning bolalarning ijtimoiy qobiliyatlariga

ta’sirini amaliy jihatdan ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga, ushbu nazariya ota-ona va tarbiyachilar uchun samarali tarbiya usullarini tanlashda yo‘l-yo‘riq beradi. Bu ilmiy yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy rivojlanishida oilaviy tarbiyaning ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayonida oilaviy tarbiyaning psixologik omillarining roli keng ko‘lamda o‘rganilib, ularning ta’sirini aniqlashga qaratilgan tahlillar muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi navbatda, oilaviy muhitdagi hissiy iqlim bolaning psixologik farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mehr-muhabbatga to‘la, qo‘llab-quvvatlovchi oilalarda tarbiyalangan bolalar o‘zlarini xavfsiz his qiladi va ijtimoiy muhitga moslashishda kamroq qiyinchiliklarga duch keladi. Shu bilan birga, ota-ona va bola o‘rtasidagi doimiy muloqot va ijobiy emotsional aloqalar bolalarda ishonch, o‘ziga hurmat va boshqalar bilan samarali aloqalar o‘rnatish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu jarayonlar bolalarning ijtimoiy munosabatlarni o‘rganishi va yangi ijtimoiy qoidalarni qabul qilishi uchun zarurdir. Shu bois, oiladagi ijobiy psixologik muhit bolalarning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Ikkinchi tahlil oilaviy tarbiyaning bolalarning kommunikativ ko‘nikmalariga ta’sirini ko‘rsatadi. Ota-onalar bola bilan muloqot qilishda beradigan namuna bolalarning til va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, oilaviy suhbatlar va emotsional almashinuv bolalarning boshqalar bilan muloqot qilishga bo‘lgan tayyorgarligini oshiradi. Bu esa ularni maktab va ijtimoiy guruhlarda o‘zaro munosabatlarda muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi. Agar ota-ona bola bilan samarali va ochiq muloqot qilsa, bola o‘z fikrini erkin ifoda eta oladi, tinglashni o‘rganadi va boshqalar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatadi. Shu bilan birga, ota-onaning ta’lim va tarbiyadagi faol ishtiroki bolalarning kommunikativ ko‘nikmalarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayonlarning barchasi bolaning ijtimoiy moslashuvini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Uchinchi tahlilda oilaviy tarbiyadagi psixologik stress va konfliktlarning bolalar ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’siri o‘rganilgan. Oila ichidagi nizolar, emotsional beqarorlik va qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi bolalarda o‘zini oqlash va boshqalar bilan aloqada qiyinchiliklar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bunday muhitda tarbiyalangan bolalar ko‘pincha tashvish, qo‘rquv va o‘zini past baholash kabi muammolarni boshdan kechiradi, bu esa ularning ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishiga to‘sqinlik qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy stress bolalarda ijtimoiy muammolarga olib keladigan psixologik holatlarni kuchaytiradi va ijtimoiy moslashuv jarayonini murakkablashtiradi. Shu sababli, oilaviy konfliktlarni kamaytirish va ota-ona munosabatlarini yaxshilash bolalarning ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda muhim strategiya sifatida qaraladi.

To‘rtinchi tahlil oilaviy tarbiyaning ijtimoiy qoidalar va me’yorlarni o‘zlashtirishdagi psixologik ta’sirini ko‘rsatadi. Ota-onalar tomonidan belgilangan me’yorlar va talablar bolalarning o‘z xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa ularning ijtimoiy muhitda to‘g‘ri va moslashuvchan xulq-atvorni shakllantirishida muhimdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota-onalar tomonidan barqaror va adolatli tarbiya usullari qo‘llanilganda bolalar o‘zlarini ijtimoiy vaziyatlarda ishonchli tutadi va boshqalar bilan hamkorlikda muvaffaqiyatli faoliyat yuritadi. Bundan tashqari, oilaviy tarbiya bolaning empatiya, hurmat va mas’uliyat kabi ijtimoiy qadriyatlarni o‘zlashtirishiga ko‘maklashadi, bu esa ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi. Shu tariqa, oilaviy tarbiyaning psixologik omillari bolaning ijtimoiy moslashuvini samarali va barqaror shakllanishini ta’minlaydi.

Oilaviy tarbiyaning psixologik omillari, xususan, ota-onaning tarbiya uslubi va muloqot sifati bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Demokratiya asosidagi tarbiya uslubi bolalarda o‘z fikrini ifoda etish, boshqalarni tinglash va murosa qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim omil hisoblanadi. Aksincha, ota-onaning qattiq yoki beparvo tarbiya uslublari bolalarda ijtimoiy moslashuv qobiliyatlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, oilaviy tarbiyadagi psixologik muhit bolalarning emotsional va ijtimoiy rivojlanishini tartibga

soladi, ularning kelajakda jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishini ta’minlaydi. Bu jihatlar bolalar tarbiyasida psixologik yondashuvlarning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayonida oilaviy tarbiyaning psixologik omillari o‘zaro chambarchas bog‘liq va o‘zaro ta’sirda bo‘lgan murakkab tizimni tashkil etadi. Bu tizim bolalarning psixologik barqarorligini ta’minlash, ijtimoiy qoidalar va qadriyatlarni o‘zlashtirish, kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini kafolatlaydi. Oilaviy tarbiyaning psixologik jihatlari e’tiborga olinish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning sog‘lom ijtimoiy rivojlanishi uchun samarali sharoitlar yaratish mumkin. Shu bilan birga, ota-ona va tarbiyachilarni psixologik bilimlar bilan ta’minlash, oilaviy muhitni optimallashtirish orqali bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayoni yanada muvaffaqiyatli bo‘ladi. Ushbu xulosalar maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasini yanada samarali qilish va ularning ijtimoiy hayotga tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Остроухова А. Успешная адаптация // Обруч. № 3. С. 16-18. 2000.
2. Балл Г.А. Понятие адаптации и его значение для психологии личности [Текст] / Г.А.Балл // Вопросы психологии. - 1989. - № 1. - С. 92-100.
3. Барышникова Е.В. Изучение психологической адаптации детей раннего возраста к дошкольному образовательному учреждению // Концепт. - 2015. - № 03 (март). -ART 15066. - 0,3 п. л. - URL: http://e-koncept.ru/2015/15066.htm. - Гос. рег. Эл № ФС 7749965. - ISSN 2304-120X.
4. Долгова В.И., Капитанец Е.Г., Кондратьева О.А., Шумакова О.А. Психолого-педагогическое сопровождение детско-родительских отношений: монография. - М.: Буки Веди, 2012. - 152 с.
5. Маслоу А.Х. Мотивация и личность. СПб.: Питер, 2016. 400 с.
6. Корсун Т.А. Психолого-педагогические условия успешной адаптации в ДОУ [Текст] // Педагогический опыт: теория, методика, практика. - Чебоксары: ЦНС Интерактив плюс. 2014. №1(1). С. 59-63.
7. Пистун Ю.В. Психолого-педагогическое сопровождение адаптации ребенка и его семьи к условиям дошкольного образовательного учреждения / Ю.В.Пистун, К.И.Григорян, Г.П.Ковачева // Молодой ученый. 2014. № 4. С.1064-1066.

TASHKILOTLARDA NIZOLARNI BOSHQARISHNING XODIMLAR FAOLIYATIGA PSIXOLOGIK TA’SIRI

Qo‘shshaev Umid Tohirovich
Buxoro viloyati hokimligi boshqaruv appararati bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya. *Xodimlar qo‘nimsizligi zamonaviy tashkilotlar samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muhim boshqaruv muammolaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotda mehnat motivatsiyasi, tashkilotdagi psixologik iqlim, rahbarlik uslubi, kommunikativ muhit va stress darajasi kabi omillarning xodimlar barqarorligiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, xodimlarni ushlab qolish strategiyalari, jumladan, motivatsion tizimlarni takomillashtirish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, adolatli boshqaruv va korporativ madaniyatni rivojlantirish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ijobiy psixologik muhit va samarali boshqaruv uslublari xodimlar qo‘nimsizligini sezilarli darajada kamaytiradi.*

Kalit so‘zlar: *xodimlar qo‘nimsizligi, ijtimoiy-psixologik omillar, motivatsiya, tashkilot muhiti, stress, rahbarlik uslubi, kadrlar barqarorligi.*

Аннотация*. Текучесть персонала рассматривается как одна из ключевых проблем управления, оказывающая негативное влияние на эффективность деятельности*

организаций. В исследовании рассматриваются такие факторы, как мотивация труда, психологический климат в коллективе, стиль руководства, уровень стресса и коммуникативная среда. Также анализируются стратегии удержания персонала, включая совершенствование мотивационных систем, развитие корпоративной культуры, социальную поддержку и справедливое управление. Результаты показывают, что благоприятный психологический климат и эффективное управление способствуют снижению текучести кадров.

Ключевые слова: *текучесть кадров, социально-психологические факторы, мотивация, организационный климат, стресс, стиль руководства, стабильность персонала.*

Abstract. *Employee turnover is considered one of the key managerial problems negatively affecting organizational efficiency. The study examines factors such as work motivation, psychological climate, leadership style, stress levels, and communication environment. It also explores employee retention strategies, including the improvement of motivational systems, development of corporate culture, social support, and fair management practices. The results indicate that a positive psychological environment and effective management significantly reduce employee turnover.*

Key words: *employee turnover, socio-psychological factors, motivation, organizational climate, stress, leadership style, staff stability.*

Xalqaro tajribalarda, xususan, AQSh va Yevropa davlatlari tadqiqotlarida xodimlar qo‘nimsizligining asosiy sabablari sifatida past ish motivatsiyasi, adolatsiz boshqaruv tizimi, yetarli e’tirof va rag‘batning yo‘qligi, shuningdek, stress va emotsional zo‘riqish kabi ijtimoiy-psixologik omillar ko‘rsatiladi. Masalan, Gallup instituti ma’lumotlariga ko‘ra, ish joyida psixologik jihatdan o‘zini qadrlangan his qilmagan xodimlarning ishdan ketish ehtimoli bir necha barobar yuqori bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda mehnat bozorida raqobat kuchayib borishi, xususiy sektorning kengayishi va yangi tashkilotlarning paydo bo‘lishi natijasida xodimlar harakatchanligi sezilarli darajada ortgan. Statistik tahlillarga ko‘ra, ayrim sohalarda, ayniqsa xizmat ko‘rsatish va ta’lim tizimida kadrlar almashinuvi darajasi nisbatan yuqori ekanligi kuzatilmoqda. Bu esa tashkilotlarda barqaror inson resurslarini shakllantirish zaruratini yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Milliy kontekstda Prezident qarorlari va mehnat munosabatlarini isloh qilishga qaratilgan strategiyalarda inson kapitalini rivojlantirish, xodimlar motivatsiyasini oshirish hamda sog‘lom psixologik mehnat muhitini yaratish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Shu bilan birga, amaliyotda ko‘plab tashkilotlarda rahbarlik uslubi, kommunikativ muhit va korporativ madaniyat yetarli darajada rivojlanmaganligi xodimlar qo‘nimsizligini kuchaytiruvchi omil bo‘lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, tashkilotlarda xodimlar qo‘nimsizligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni chuqur o‘rganish va ularni kamaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur muammo samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish, tashkilot barqarorligini ta’minlash hamda inson resurslari salohiyatini oshirishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Global miqyosda olib borilgan tadqiqotlar, xususan Gallup instituti tahlillariga ko‘ra, xodimlarning ish joyidan ketish qaroriga ta’sir etuvchi asosiy omillar nafaqat iqtisodiy, balki kuchli ijtimoiy-psixologik xususiyatga ega. Bular qatoriga ish motivatsiyasining pastligi, rahbarlik uslubining noadekvatligi, psixologik xavfsizlikning yetishmasligi, jamoada sog‘lom ijtimoiy muhitning shakllanmaganligi hamda stress darajasining yuqoriligi kiradi. Shuningdek, “engagement” darajasi past bo‘lgan xodimlar orasida ishdan ketish ehtimoli bir necha barobar yuqori ekani aniqlangan.

O‘zbekiston Respublikasida ham mehnat bozori transformatsiyasi jarayonida xodimlar harakatchanligi ortib bormoqda. Xususan, so‘nggi yillarda xususiy sektorning kengayishi, raqobatning kuchayishi va yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishi natijasida ayrim tashkilotlarda

kadrlar almashinuvi sezilarli darajada oshgan. Milliy statistik kuzatuvlarga ko‘ra, xizmat ko‘rsatish va ta’lim sohalarida xodimlar qo‘nimsizligi nisbatan yuqoriroq ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, bu holat tashkilot ichki boshqaruv tizimi va psixologik muhit bilan bevosita bog‘liq ekani aniqlanmoqda.

Davlat siyosati darajasida ham inson kapitalini rivojlantirish, mehnat munosabatlarini modernizatsiya qilish hamda barqaror ish muhitini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining mehnat munosabatlarini takomillashtirishga oid islohotlarida xodimlar motivatsiyasini oshirish, adolatli boshqaruv tizimini joriy etish va KIRISH

Zamonaviy tashkilotlar faoliyatida inson resurslarini samarali boshqarish strategik ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayonda xodimlar barqarorligi (retention) asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Amaliy boshqaruv tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xodimlar qo‘nimsizligi (kadrlar almashinuvi) yuqori bo‘lgan tashkilotlarda ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi, yangi xodimlarni tayyorlash xarajatlari oshadi va jamoaviy psixologik muhit izdan chiqadi. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) ma’lumotlariga ko‘ra, kadrlar almashinuvi yuqori bo‘lgan korxonalarda mehnat samaradorligi 15–25 foizgacha kamayishi mumkinligi qayd etilgan.

Global miqyosda olib borilgan tadqiqotlar, xususan Gallup instituti tahlillariga ko‘ra, xodimlarning ish joyidan ketish qaroriga ta’sir etuvchi asosiy omillar nafaqat iqtisodiy, balki kuchli ijtimoiy-psixologik xususiyatga ega. Bular qatoriga ish motivatsiyasining pastligi, rahbarlik uslubining noadekvatligi, psixologik xavfsizlikning yetishmasligi, jamoada sog‘lom ijtimoiy muhitning shakllanmaganligi hamda stress darajasining yuqoriligi kiradi. Shuningdek, “engagement” darajasi past bo‘lgan xodimlar orasida ishdan ketish ehtimoli bir necha barobar yuqori ekani aniqlangan.

O‘zbekiston Respublikasida ham mehnat bozori transformatsiyasi jarayonida xodimlar harakatchanligi ortib bormoqda. Xususan, so‘nggi yillarda xususiy sektorning kengayishi, raqobatning kuchayishi va yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishi natijasida ayrim tashkilotlarda kadrlar almashinuvi sezilarli darajada oshgan. Milliy statistik kuzatuvlarga ko‘ra, xizmat ko‘rsatish va ta’lim sohalarida xodimlar qo‘nimsizligi nisbatan yuqoriroq ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, bu holat tashkilot ichki boshqaruv tizimi va psixologik muhit bilan bevosita bog‘liq ekani aniqlanmoqda.

Davlat siyosati darajasida ham inson kapitalini rivojlantirish, mehnat munosabatlarini modernizatsiya qilish hamda barqaror ish muhitini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining mehnat munosabatlarini takomillashtirishga oid islohotlarida xodimlar motivatsiyasini oshirish, adolatli boshqaruv tizimini joriy etish va sog‘lom korporativ madaniyatni shakllantirish asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

Shu nuqtai nazardan, tashkilotlarda xodimlar qo‘nimsizligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni ilmiy jihatdan o‘rganish, ularning mexanizmlarini aniqlash hamda kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Mazkur tadqiqot aynan shu muammoni chuqur tahlil qilish, nazariy asoslarini yoritish va amaliy yechimlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

sog‘lom korporativ madaniyatni shakllantirish asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

Shu nuqtai nazardan, tashkilotlarda xodimlar qo‘nimsizligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni ilmiy jihatdan o‘rganish, ularning mexanizmlarini aniqlash hamda kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Mazkur tadqiqot aynan shu muammoni chuqur tahlil qilish, nazariy asoslarini yoritish va amaliy yechimlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Rus olimlari tadqiqotlarida, xususan A.Ya. Kibanov, E.A. Utkin va T.Yu. Bazarov ishlarida kadrlar qo‘nimsizligi asosan tashkilotdagi boshqaruv uslubi, mehnat sharoitlari va motivatsion tizimning samaradorligi bilan izohlanadi. Ularning fikriga ko‘ra, xodimning tashkilotdan ketish qarori ko‘pincha ratsional iqtisodiy omillardan ko‘ra, emotsional va ijtimoiy-psixologik omillar - ya’ni adolatsizlik hissi, rahbarga ishonchning pasayishi, jamoada psixologik iqlimning yomonlashuvi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, rus tadqiqotchilari L.V. Karaseva va V.A.

Ganushkina ishlarida stress, kasbiy charchash (burnout) va kommunikativ to‘siqlar xodimlar barqarorligiga salbiy ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.

Xorijiy adabiyotlarda ham bu muammo keng yoritilgan. Masalan, Frederick Herzbergning ikki omilli motivatsiya nazariyasiga ko‘ra, xodimlarning ish joyida qolish yoki ketish qarori gigiyenik omillar (ish haqi, sharoit) bilan bir qatorda motivatsion omillar (e’tirof, rivojlanish imkoniyati, ma’naviy qoniqish)ga ham bog‘liqdir. Daniel Goleman tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt konsepsiyasi esa rahbarning emotsional boshqaruv qobiliyati tashkilotdagi psixologik muhitni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Gallup instituti tomonidan o‘tkazilgan global tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, xodimlarning faolligi past bo‘lgan tashkilotlarda kadrlar almashinuvi darajasi yuqori bo‘lib, bu holat bevosita rahbarlik uslubi va tashkilot ichki kommunikatsiyasining sifati bilan bog‘liqdir. Shuningdek, J. Mobley tomonidan ishlab chiqilgan “turnover process model”da xodimning ishni tark etish jarayoni bosqichma-bosqich kechishi, ya’ni qoniqmaslik, alternativ ish joylarini izlash va yakuniy qaror bosqichlari orqali amalga oshishi ilmiy asoslab berilgan.

O‘zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida ham ushbu masalaga e’tibor qaratilgan bo‘lib, A.A. Abdukarimov, Sh.M. Mirzayev va boshqa tadqiqotchilar tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish samaradorligi bevosita xodimlar motivatsiyasi va psixologik iqlim bilan bog‘liqligini ta’kidlaydilar. Ularning izlanishlarida korporativ madaniyatning shakllanishi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi va adolatli mehnat munosabatlari xodimlar qo‘nimsizligini kamaytirishda muhim omil sifatida qayd etilgan.

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, xodimlar qo‘nimsizligi ko‘p omilli ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, u tashkiliy boshqaruv, rahbarlik uslubi, motivatsion tizim va jamoaviy psixologik muhitning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. Rus va xorijiy ilmiy maktablar ushbu muammoni turlicha yondashuvlarda talqin etsa-da, ularning barchasi bir fikrda birlashadi: xodimlar barqarorligini ta’minlashda inson omili va psixologik muhit hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Tashkilotlarda xodimlar qo‘nimsizligi muammosi zamonaviy boshqaruv tizimlarida inson resurslarini samarali boshqarish nuqtai nazaridan eng muhim ijtimoiy-psixologik masalalardan biri hisoblanadi. Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xodimlarning ish joyini tark etish qarori faqat iqtisodiy omillar bilan emas, balki tashkilot ichidagi psixologik muhit, rahbarlik uslubi, motivatsiya darajasi va jamoaviy munosabatlar tizimi bilan ham bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqot natijalari asosida aniqlanganki, ijobiy psixologik iqlim va yuqori motivatsiya xodimlar barqarorligini ta’minlovchi eng muhim omillar hisoblanadi. Aksincha, stressning yuqori darajasi, adolatsiz boshqaruv, kommunikativ muammolar hamda kasbiy rivojlanish imkoniyatlarining cheklanganligi xodimlar qo‘nimsizligini kuchaytiradi. SPSS dasturi orqali olingan statistik natijalar ham ushbu omillar o‘rtasidagi kuchli o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini tasdiqladi.

Shuningdek, muhokama jarayonida rahbarlik uslubining tashkilot barqarorligidagi o‘rni alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Demokratik va qo‘llab-quvvatlovchi boshqaruv tizimi xodimlarda ishonch, mas’uliyat va tashkilotga sadoqat hissini kuchaytirsa, avtoritar yondashuv aksincha norozilik va kadrlar almashinuvi darajasining oshishiga olib keladi.

Umuman olganda, xodimlar qo‘nimsizligini kamaytirish uchun kompleks ijtimoiy-psixologik yondashuv zarur bo‘lib, unda motivatsion tizimni takomillashtirish, sog‘lom psixologik muhit yaratish, adolatli boshqaruv tamoyillarini joriy etish va xodimlarning kasbiy rivojlanishiga sharoit yaratish asosiy o‘rin tutadi. Bunday yondashuv tashkilotning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash bilan birga, inson kapitalining samarali rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Kibanov A. Ya. Управление персоналом организации. – Москва: ИНФРА-М, 2019.
2. Базаров Т. Ю. Управление персоналом. – Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2018.

3. Уткин Э. А. Основы мотивации труда и управления персоналом. – Москва: Экмос, 2017.
4. Herzberg F. Work and the Nature of Man. – Cleveland: World Publishing, 1966.
5. Maslow A. H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1954.
6. Mobley W. H. Employee Turnover: Causes, Consequences, and Control. – Reading: Addison-Wesley, 1982.
7. Robbins S. P., Judge T. A. Organizational Behavior. – Boston: Pearson, 2019.
8. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995.

OILAVIY MUHITNING O‘SMIRLAR DESTRUKTIV XULQ-ATVORIGA TA’SIRI

Ismatova Halovat Baxtiyorovna
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining murakkab bosqichlaridan biri bo‘lib, mazkur davrda emotsional beqarorlik, o‘zini anglash jarayonidagi qiyinchiliklar, kommunikativ muammolar va ijtimoiy moslashuvdagi murakkabliklar destruktiv xulq shakllanishiga zamin yaratishi mumkin. Tadqiqotda oilaviy munosabatlar, tengdoshlar ta’siri, o‘z-o‘zini baholash darajasi, stressga bardoshlilik va emotsional nazorat kabi omillarning o‘smirlar xulq-atvoriga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, destruktiv xulqning profilaktikasida psixologik xizmat, psixoprofilaktika, psixokorreksiya va ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari o‘smirlarda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish, destruktiv xulq xavfini kamaytirish hamda shaxsning ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, destruktiv xulq-atvor, psixologik omillar, emotsional beqarorlik, oilaviy munosabatlar, profilaktika, psixokorreksiya, ijtimoiy moslashuv, psixologik xizmat, deviant xulq.

Аннотация. Подростковый возраст является одним из наиболее сложных этапов личностного развития, характеризующимся эмоциональной нестабильностью, трудностями самопознания, коммуникативными проблемами и сложностями социальной адаптации. Указанные особенности могут способствовать формированию различных форм деструктивного поведения. В исследовании анализируется влияние семейных отношений, группы сверстников, уровня самооценки, стрессоустойчивости и эмоциональной саморегуляции на поведение подростков. Особое внимание уделяется роли психологической службы, психопрофилактики, психокоррекции и социально-психологической поддержки в предупреждении деструктивных проявлений. Полученные результаты позволяют определить эффективные направления профилактической работы, направленной на формирование благоприятной психологической среды, снижение риска деструктивного поведения и повышение уровня социальной адаптации подростков.

Ключевые слова: подростковый возраст, деструктивное поведение, психологические факторы, эмоциональная нестабильность, семейные отношения, профилактика, психокоррекция, социальная адаптация, психологическая служба, девиантное поведение.

Abstract. Adolescence is considered one of the most critical stages of personality development, characterized by emotional instability, identity formation challenges, communication difficulties, and problems of social adaptation. These factors may contribute to the emergence of destructive behavioral patterns. The study analyzes the impact of family relationships, peer influence, self-esteem, stress resistance, and emotional self-regulation on adolescent behavior. Particular attention is paid to the role of psychological services, psycho-preventive measures, psychocorrection, and socio-psychological support in preventing destructive

tendencies. The findings highlight the importance of creating a supportive psychological environment, strengthening adolescents' adaptive capacities, and implementing evidence-based preventive interventions. The results can be used to develop effective strategies for reducing the risk of destructive behavior and promoting healthy psychological and social development among adolescents.

Key words: adolescence, destructive behavior, psychological factors, emotional instability, family relationships, prevention, psychocorrection, social adaptation, psychological services, deviant behavior.

So‘nggi yillarda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida o‘smirlar orasida destruktiv xulq-atvor ko‘rinishlarining ortib borayotgani mutaxassislar tomonidan jiddiy ijtimoiy-psixologik muammo sifatida e’tirof etilmoqda. Destruktiv xulq-atvor deganda shaxsning o‘ziga, atrofdagilarga yoki jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy va huquqiy me’yorlarga zarar yetkazuvchi harakatlari tushuniladi. Bunday xulq shakllariga agressivlik, zo‘ravonlik, kiberbulling, vandalizm, huquqbuzarlik, o‘z-o‘ziga zarar yetkazish, turli qaramliklar va boshqa deviant ko‘rinishlar kiradi. Ushbu holatlar nafaqat o‘smirning psixologik rivojlanishiga, balki uning ta’lim faoliyati, ijtimoiy moslashuvi va kelajakdagi hayotiy muvaffaqiyatlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy ilmiy qarashlarda destruktiv xulq-atvorning shakllanishi ko‘p omilli jarayon sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilar uning yuzaga kelishida biologik xususiyatlar bilan bir qatorda psixologik va ijtimoiy omillarning ham muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydilar. Jumladan, past o‘z-o‘zini baholash, emotsional o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, stressga bardoshlilikning pastligi, frustratsiya holatlariga nisbatan salbiy munosabat, kommunikativ qiyinchiliklar hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi destruktiv xulq rivojlanishiga turtki beruvchi psixologik determinantlar sifatida qayd etiladi. Bundan tashqari, oiladagi nosog‘lom psixologik muhit, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi emotsional yaqinlikning sustligi, tarbiyadagi nomuvofiqliklar, tengdoshlar bosimi va salbiy ijtimoiy ta’sirlar ham mazkur jarayonning kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi ham o‘smirlar xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet makonida nazoratsiz axborot oqimi, virtual zo‘ravonlik, kiberbulling, destruktiv g‘oyalar va agressiv kontentning mavjudligi ayrim o‘smirlarda salbiy xulqiy namunalarning shakllanishiga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli muhitning o‘zi muammo manbai emas, balki o‘smirning psixologik xususiyatlari va ijtimoiy muhiti bilan o‘zaro ta’sirga kirishgan holda destruktiv xulq xavfini oshiruvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston jamiyatida ham yoshlar tarbiyasi, ularning ma’naviy-axloqiy kamoloti va psixologik salomatligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ta’lim muassasalari, oila va mahalla hamkorligini kuchaytirish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va turli salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq o‘smirlar orasida uchrayotgan destruktiv xulq ko‘rinishlarining murakkab tabiati ushbu muammoni chuqur psixologik jihatdan o‘rganishni, uning rivojlanish mexanizmlarini aniqlashni va samarali profilaktik yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, o‘smirlarda destruktiv xulq-atvor rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish hamda zamonaviy profilaktik va psixokorreksion yondashuvlarning samaradorligini baholash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot o‘smirlarning psixologik farovonligini mustahkamlash, salbiy xulq-atvor shakllarining oldini olish va ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlashga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan.

UNICEF va UNESCO tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, oilaviy muhit, tengdoshlar bosimi va raqamli muhit (kiberzo‘ravonlik, ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy kontent) o‘smirlar xulqiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, kiberbullingga duch kelgan o‘smirlarning psixologik beqarorlik va depressiv holatlarga moyilligi sezilarli darajada yuqori ekani qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ham yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va ijtimoiy og‘ishish holatlarining oldini olish, ularning psixologik salomatligini mustahkamlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda ta’lim muassasalarida psixologik xizmat tizimini rivojlantirish, “Yoshlar daftari” va mahalla institutlari orqali profilaktik ishlarni kuchaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu sababli o‘smirlarda destruktiv xulq shakllanishining psixologik omillarini o‘rganish va samarali profilaktik yondashuvlarni ishlab chiqish bugungi kunda ham xalqaro, ham respublika miqyosida yuqori ilmiy-amaliy ahamiyatga ega dolzarb masala hisoblanadi.

O‘smirlarda destruktiv xulq-atvor muammosi psixologiya fanida uzoq yillardan buyon o‘rganilib kelinayotgan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar dastlab G‘arb psixologiya maktablarida shakllangan bo‘lib, keyinchalik rus va post-sovet ilmiy maktablarida rivojlantirilgan. Xorijiy olimlar orasida Z. Freud, A. Freud va E. Eriksonning ishlarida o‘smirlik davrining psixodinamik va shaxsiy identifikatsiya jarayonlari tahlil qilinib, ichki konfliktlar, “ego” barqarorligining yetarli emasligi destruktiv xulq shakllanishiga turtki berishi mumkinligi asoslab berilgan. E. Erikson o‘smirlikni “identifikatsiya va rollar chalkashligi” bosqichi sifatida talqin qilib, aynan shu davrda ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar deviant xulq uchun zamin yaratishini ta’kidlaydi.

Keyingi bosqichlarda A. Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy o‘rganish nazariyasi destruktiv xulqni tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Uning fikricha, o‘smirlar agressiv va salbiy xulq shakllarini bevosita tajriba orqali emas, balki kuzatish va taqlid qilish orqali ham o‘zlashtiradilar. Bu jarayonda oila, tengdoshlar guruhi va ommaviy axborot vositalari muhim model vazifasini bajaradi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy raqamli muhit ham destruktiv xulqning kuchayishiga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri sifatida talqin qilinadi.

Rus psixologiya maktabida L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev va D.B. Elkonin kabi olimlar o‘smirlik davrini faoliyat va ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan bog‘liq holda o‘rganganlar. Vygotskiy nazariyasiga ko‘ra, shaxsning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ichki psixik jarayonlar tashqi ijtimoiy faoliyatning interiozatsiyasi natijasida shakllanadi. Bu yondashuv destruktiv xulqning faqat individual emas, balki ijtimoiy determinatsiyaga ega ekanini ko‘rsatadi. Elkonin esa o‘smirlik davrida yetakchi faoliyat sifatida tengdoshlar bilan muloqotni ko‘rsatib, aynan shu jarayonda ijtimoiy me’yorlarni qabul qilish yoki rad etish shakllanishini ta’kidlaydi.

Zamonaviy rus olimlari, jumladan V.S. Muxina, A.A. Rean va D.I. Feldshteynlar o‘smirlar deviant xulqini kompleks ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ko‘rib chiqadilar. Rean tadqiqotlarida agressivlik, frustratsiyaga chidamsizlik va past o‘z-o‘zini baholash destruktiv xulqning asosiy psixologik prediktorlari sifatida ajratib ko‘rsatiladi. Muxina esa shaxs rivojlanishida identifikatsiya jarayonining buzilishi ijtimoiy og‘ishlarga olib kelishini asoslaydi.

Xorijiy zamonaviy tadqiqotlarda (J. Bowlby, M. Ainsworth) attachment nazariyasi asosida oilaviy bog‘lanishlarning sifatiga alohida e’tibor qaratiladi. Ularning fikricha, bolalik davridagi xavfsiz yoki xavfli bog‘lanish tajribasi keyingi o‘smirlik xulqiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xavfsiz bog‘lanish mavjud bo‘lmagan holatlarda emotsional beqarorlik, ishonchsizlik va agressiv reaksiyalar kuchayishi mumkin.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar (R. Turner, S. Steinberg) raqamli muhit va ijtimoiy tarmoqlarning o‘smir psixologiyasiga ta’sirini alohida yo‘nalish sifatida o‘rganmoqda. Ushbu ishlarda kiberbulling, ijtimoiy taqqoslash va virtual muhitdagi stress omillari destruktiv xulqning yangi shakllarini yuzaga keltirishi ta’kidlanadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarda destruktiv xulq-atvor bir omil bilan emas, balki biologik, psixologik va ijtimoiy determinantlarning o‘zaro murakkab ta’siri natijasida shakllanadi. Shu sababli mazkur muammoni o‘rganishda integrativ yondashuv, ya’ni turli ilmiy maktablar qarashlarini birlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot o‘smirlarda destruktiv xulq-atvorning shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash hamda ularni statistik jihatdan tahlil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda zamonaviy psixodiagnostik metodlar va SPSS (Statistical Package for the Social Sciences)

dasturidan keng foydalanildi. Tadqiqot o‘tkazishda o‘zbek psixologiya amaliyotida muntazam qo‘llaniladigan, ishonchliligi va validligi tasdiqlangan metodikalardan foydalanildi, jumladan, agressivlik va emotsional holatlarni aniqlashga mo‘ljallangan Bass–Darki agressivlik so‘rovnomasi hamda shaxsning o‘z-o‘zini baholash darajasini aniqlovchi Dembo–Rubinshteyn metodikasi tanlab olindi. Ushbu metodikalar o‘smirlarning xulqiy og‘ishlari va ichki psixologik holatlarini kompleks baholash imkonini beradi.

Umuman olganda, mazkur muammo bo‘yicha olib borilgan tahlillar o‘smirlar bilan ishlashda ilmiy asoslangan, tizimli va preventiv choralarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa jamiyatda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish va kelajak avlodning barkamol rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Bandura A.Social Learning Theory. - Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1977. - 247 p.
2. Bowlby J.Attachment and Loss: Vol. 1. Attachment. - New York: Basic Books, 1969. - 450 p.
3. Ainsworth M. D. S., Blehar M. C., Waters E., Wall S.Patterns of Attachment. - Hillsdale: Lawrence Erlbaum Associates, 1978. - 392 p.
4. Vygotsky L. S.Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge: Harvard University Press, 1978. - 159 p.
5. Леонтьев А. Н.Деятельность. Сознание. Личность. - Москва: Политиздат, 1975. - 304 с.
6. Эльконин Д. Б.Психология развития. - Москва: Просвещение, 1989. - 416 с.
7. Реан А. А.Психология подростка. - Санкт-Петербург: Питер, 2003. - 512 с.
8. Мухина В. С.Возрастная психология. - Москва: Академия, 2012. - 656 с.

OILAVIY VA TA’LIM MUHITI SHAROITIDA O‘SMIRLARNING IRODAVIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Axatov Yo’ldoshjon Hamzayevich,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Iroda — bu insonning ongli harakatga yo‘naltirilgan, maqsad sari qat’iylik bilan intilishida namoyon bo‘ladigan psixik jarayondir. O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining murakkab va muhim bosqichi hisoblanadi. Bu davrda individual xulq-atvor, emotsional holat, o‘z-o‘zini anglash va boshqarish qobiliyati jadal o‘zgaradi. Tadqiqotda irodaning asosiy komponentlari — maqsadlilik, qat’iyatlilik, bardoshlilik va o‘zini tuta bilish kabi sifatlar psixologik jihatdan tahlil qilinib, ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillar ilmiy asosda ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, iroda sifatlarini mustahkamlashda individual yondashuv, motivatsiya, o‘zini baholash va refleksiya jarayonlarining ahamiyati ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, iroda sifatlari, psixologik omillar, qat’iyatlilik, o‘zini boshqarish, motivatsiya, refleksiya, shaxs rivojlanishi, oila va maktab muhiti, psixologik tarbiya.

Аннотация. Воля - это психический процесс, проявляющийся в целеустремленном стремлении человека к сознательному действию. Подростковый возраст считается сложным и важным этапом развития личности. В этот период интенсивно меняются индивидуальное поведение, эмоциональное состояние, способность к самосознанию и самоконтролю. В исследовании с психологической точки зрения проанализированы основные компоненты воли - такие качества, как целеустремленность, настойчивость, выносливость и самообладание, на научной основе показаны факторы, способствующие их

развитию. Также подчеркивается важность индивидуального подхода, мотивации, самооценки и процессов рефлексии в укреплении волевых качеств.

Ключевые слова: подростковый возраст, волевые качества, психологические факторы, настойчивость, самоконтроль, мотивация, рефлексия, развитие личности, семейная и школьная среда, психологическое воспитание.

Abstract. Willpower is a mental process that manifests itself in a person's conscious action, their determined striving towards a goal. Adolescence is considered a complex and important stage of personality development. During this period, individual behavior, emotional state, self-awareness, and self-control ability change rapidly. In the study, the main components of will - such qualities as purposefulness, perseverance, endurance, and self-control - were analyzed from a psychological point of view, and the factors serving their development were shown on a scientific basis. The importance of an individual approach, motivation, self-esteem, and reflection processes in strengthening volitional qualities is also emphasized.

Keywords: adolescence, volitional qualities, psychological factors, perseverance, self-control, motivation, reflection, personality development, family and school environment, psychological education.

Iroda - insonning maqsad sari harakat qilishi, qiyinchiliklarga bardosh berib, ongli ravishda o‘z xatti-harakatini boshqarish qobiliyatidir. Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, iroda shaxsning mustaqil qaror qabul qilishi, o‘zini tuta bilishi, qat’iyatlilik va maqsadlilik kabi muhim sifatlar majmuasini o‘z ichiga oladi. O‘smirlik davrida ushbu sifatlarning shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar - oila muhiti, maktabdagi psixologik muhit, tengdoshlar guruhi, shaxsiy tajriba va motivatsion tizimlar kabi ko‘plab psixologik va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mazkur tadqiqotda o‘smir yoshidagi bolalarda iroda sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy psixologik omillar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ushbu sifatlarni shakllantirishda tarbiyaviy va amaliy psixologiyaning dolzarb vazifalari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari psixologlar, pedagoglar va ota-onalar uchun zarur ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Klassik psixologiyada iroda muammosi G.V. Leybnits, R. Descartes va I. Kant kabi mutafakkirlar tomonidan ong, erkinlik va qaror qabul qilish fenomenlari doirasida ko‘rib chiqilgan. V. Vundt va V. Djems kabi psixologlar esa iroda faoliyatini inson psixikasining ixtiyoriy harakatga asoslangan tarkibiy qismi sifatida tahlil qilganlar.

Sovet psixologiyasi vakillari — L.S. Vygotskiy, S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontyev, B.G. Ananyevlar tomonidan iroda shaxs faoliyatining markaziy mexanizmi sifatida ko‘rilgan. Jumladan, Rubinshteyn iroda — bu ongli faoliyatning murakkab shakli bo‘lib, shaxsning ichki va tashqi to‘siqlarni yengib o‘tishdagi qobiliyatini ifodalaydi, deb ta’riflagan.

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda (A. Bandura, R. Baumeister, C. Dweck va boshqalar) iroda sifatlari o‘zini boshqarish, kechiktirilgan mamnuniyat, motivatsiya va o‘z-o‘zini tartibga solish kabi psixologik kategoriyalar bilan chambarchas bog‘liq tarzda o‘rganilmoqda.

O‘zbek psixologiyasida ham o‘smirlik davridagi shaxsiy rivojlanish, iroda, motivatsiya va xulq-atvor o‘ziga xos yondashuvda tahlil qilingan. Xususan, M.G. Davletshin, N. To‘raqulov, M. Yusupova, G. Yoqubov kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘smirlarning psixologik o‘zgarishlari, ularning o‘ziga xos emotsional va ijtimoiy muhitga moslashuvi, iroda komponentlarining shakllanish jarayonlari asoslab berilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davrida iroda sifatlarini rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bu yondashuv oila, maktab, jamiyat va individual psixologik omillarni bir butun tizim sifatida ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini psixologik faoliyat nazariyasi, shaxs rivojlanishining bosqichli modeli, va ijtimoiy-psixologik muhit ta’siri haqidagi nazariyalar tashkil etadi. Tadqiqot quyidagi yondashuvlarga tayanadi:

Faoliyat yondashuvi (A.N. Leontyev, L.S. Vygotskiy): Iroda shaxsning ongli faoliyatida namoyon bo‘ladigan sifatlar to‘plami sifatida ko‘riladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv: Har bir o‘smirning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda iroda sifatlarini rivojlantirish zaruriyati asoslanadi.

Ijtimoiy-psixologik yondashuv: Oila, maktab va tengdoshlar guruhi kabi ijtimoiy muhitlar iroda sifatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi ko‘rsatiladi.

Tadqiqot metodlari sifatida quyidagilardan foydalanish rejalashtirilgan:

- Psixologik diagnostika usullari (anketalar, testlar);
- Eksperimentlar (iroda mashqlarini qo‘llash orqali);
- Kuzatuv va suhbat metodlari;
- Statistika va kontent tahlil usullari orqali natijalarni chuqur tahlil qilish.

Metodologik yondashuv orqali o‘smirlarning iroda sifatlarini aniqlash, ularning shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillarni baholash va rivojlantiruvchi psixologik dasturlar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

O‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari:

O‘smirlik davri (taxminan 11–17 yosh) inson hayotida o‘tish davri bo‘lib, unda quyidagi o‘zgarishlar yuz beradi:

- Shaxsiy “Men” obrazining shakllanishi;
- Mustaqillik va qaror qabul qilishga intilish;
- Emotsional beqarorlik va kayfiyatning tez-tez o‘zgarishi;
- Tengdoshlarning fikriga haddan ziyod bog‘liqlik;
- Avtoritetlarga (ota-ona, o‘qituvchi) nisbatan tanqidiy munosabat;
- O‘zini oqlash, o‘zini anglash va baholash ehtiyojining kuchayishi.

Bu omillar iroda sifatlarining shakllanishi uchun ayni muddaodir. O‘smirda iroda rivojlanmas ekan, u tashqi bosimlarga tez berilishi, shaxsiy qaror qabul qilishda zaiflik ko‘rsatishi mumkin.

Iroda sifatlarining tarkibiy qismlari:

- Psixologik adabiyotlarda iroda quyidagi asosiy komponentlardan iborat, deb qaraladi:
- Maqsadga yo‘naltirilganlik – shaxsning aniq maqsadni belgilab, unga qarab harakat qila olishi;
- Qat’iyatlilik – qarorlaridan qaytmaslik, qiyinchiliklarga qaramay davom ettirish;
- Bardoshlilik – vaqtincha muvaffaqiyatsizlik va bosimlarga chidamli bo‘lish;
- O‘zini boshqara olish (o‘zini tuta bilish) – hissiyot, impuls va istaklarni nazorat qilish.

Ushbu sifatlarning rivojlanishi o‘smirning keyingi hayoti uchun mustahkam psixologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Iroda sifatlariga ta’sir qiluvchi psixologik omillar:

A) Ichki omillar:

- Shaxsning temperamenti va xarakteri;
- Emotsional barqarorlik darajasi;
- Motivatsiya tizimi;
- O‘ziga bo‘lgan ishonch.

B) Tashqi omillar:

- Oila muhiti (erkinlik darajasi, psixologik qo‘llab-quvvatlash);
- Maktabdagi talab va intizom;
- Tengdoshlar ta’siri (bosim, raqobat, baholash);
- Mediamuhit va texnologik vositalar (internet, ijtimoiy tarmoqlar).

Iroda shunchaki tug‘ma sifat emas, balki tarbiyalanuvchi, shakllantiriluvchi psixik mexanizmdir. Uning shakllanishi, avvalo, o‘smirning o‘z-o‘zini anglash darajasi, ichki motivatsiyasi, shaxsiy mas'uliyat hissi va ijtimoiy rollarni idrok etishiga bog‘liq. Bu bosqichda shaxsning o‘zini anglash darajasining ortishi bilan iroda komponentlari ham faol rivojlanadi. Ayniqsa, o‘zini boshqara olish, qat’iy qarorlar qabul qilish va muammoli vaziyatlarda muvozanatni saqlab qolish — o‘smirda iroda shakllanganining asosiy belgilari hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iroda sifatlariga ijobiy ta’sir qiluvchi eng muhim tashqi omillar qatoriga sog‘lom va barqaror oila muhiti, psixologik qo‘llab-quvvatlovchi maktab tizimi, ijobiy tengdoshlar guruhi va madaniy ijtimoiy muhit kiradi. Aksincha, ortiqcha bosim, o‘ta qat’iy yoki mutlaqo nazoratsiz tarbiya usullari, e’tiborsizlik, salbiy baholash va ijtimoiy solishtirishlar iroda sifatlarining rivojlanishini sekinlashtiradi yoki buzadi.

Bundan tashqari, zamonaviy mediamuhit — ijtimoiy tarmoqlar, video kontentlar, kompyuter o‘yinlari o‘smirlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatib, ularning iroda sifatlarini ham shakllantirishi yoki zaiflashtirishi mumkin. Aynan shu nuqtai nazardan qaralganda, iroda sifatlarini rivojlantirishda ongli psixologik yondashuv, muvozanatli tashkiliy muhit va individual psixodiagnostika usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana bir muhim jihat shuki, iroda sifatlari faqat akademik muvaffaqiyatlar uchun emas, balki o‘smirlarning kelajakdagi kasbiy yo‘nalishi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy barqarorligi uchun ham hal qiluvchi omil hisoblanadi. Rivojlangan iroda o‘smirga o‘zini jamiyatda tutish, bosimlarga bardosh berish, mustaqil fikrlash va shaxsiy hayotiy yo‘lini shakllantirishda yordam beradi.

Shu bilan birga, iroda sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar, interfaol mashg‘ulotlar, refleksiya usullari va maqsadli psixopedagogik metodlar yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda. Tadqiqot tajribalari asosida aniqlanishicha, doimiy psixologik qo‘llab-quvvatlov olgan o‘smirlar, o‘z tengdoshlariga nisbatan iroda bilan bog‘liq xatti-harakatlarda ancha barqarorlik va mustahkamlik namoyon qilganlar.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlik davrida iroda sifatlarini rivojlantirish shaxsning umumiy psixologik rivojlanishida muhim o‘rin tutadi va kelajakdagi muvaffaqiyatlarining asosiy omillaridan biridir. Iroda — shaxsning maqsad sari qat’iyat bilan harakat qilishi, o‘zini boshqara bilishi hamda ichki va tashqi to‘siqlarga qarshi turish qobiliyati sifatida o‘zaro bog‘langan ko‘plab psixologik komponentlardan tashkil topgan murakkab psixik jarayon hisoblanadi.

Iroda sifatlarining shakllanishi o‘smirning ichki psixologik xususiyatlari — motivatsiya, emotsional barqarorlik, o‘ziga ishonch, shaxsiy mas’uliyat kabi omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa, ularni rivojlantirishga ta’sir etuvchi tashqi omillar — oila muhiti, maktabdagi psixologik iqlim, tengdoshlar guruhi va ijtimoiy madaniy muhit ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, o‘smirda iroda sifatlarini rivojlantirish uchun kompleks, tizimli yondashuv zarur.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar o‘smirlarning psixologik holatiga, jumladan iroda sifatlariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa yoshlarning o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini mustahkamlashda maxsus pedagogik va psixologik chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan ijobiy metod va usullar — maqsadli psixologik treninglar, refleksiya mashqlari, ijtimoiy va oilaviy qo‘llab-quvvatlash — o‘smirlarning iroda sifatlarini samarali rivojlantirishda muhim vositalar sifatida namoyon bo‘ldi.

Shu bilan birga, iroda sifatlarining shakllanish jarayonida shaxsiy yondashuv va har bir o‘smirning individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligi aniqlandi. Ushbu jihat psixologik amaliyot va ta’lim jarayonlarida inobatga olinishi lozim.

Natijada, iroda sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot natijalari psixologlar, pedagoglar, ota-onalar va o‘smirlar bilan ishlaydigan boshqa mutaxassislar uchun qimmatli ilmiy-amaliy tavsiyalarni shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Baumeister, R.F. Willpower: Rediscovering the Greatest Human Strength. — New York: Penguin Press, 2011.

2. Dweck, C.S. Mindset: The New Psychology of Success. — New York: Random House, 2006.

3. Turaqulov, N. Psikhologiya lichnosti i vozrastnaya psikhologiya. — Tashkent: O‘zbekiston, 2015.

4. Bronfenbrenner, U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. — Harvard University Press, 1979.

5. Phillips, D. Developmental Psychology: Childhood and Adolescence. — Boston: Cengage Learning, 2014.

KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING AKADEMIK MUVAFFAQIYATIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK DETERMINANTLAR

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Zamonaviy oliy ta’limda kredit-modul tizimining joriy etilishi talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish, fanlararo aloqalarni mustahkamlash hamda ta’lim natijalariga yo‘naltirilgan yondashuvni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqotda integratsion yondashuvning nazariy asoslari, uning talabalarning o‘quv faoliyati va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarning fanlararo bilimlarni o‘zaro bog‘lash, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatlari integratsion yondashuvning muhim ko‘rsatkichlari sifatida baholangan. Tadqiqot natijalari kredit-modul tizimi sharoitida integratsion yondashuvning rivojlanish darajasi talabalarning akademik faolligi, mustaqil ta’lim samaradorligi va kasbiy tayyorgarlik sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kredit-modul tizimi, integratsion yondashuv, talaba, oliy ta’lim, fanlararo integratsiya, mustaqil ta’lim, akademik faollik, kasbiy kompetensiya, ta’lim sifati, pedagogik diagnostika.

Аннотация. Внедрение кредитно-модульной системы в высшем образовании способствует развитию самостоятельной учебной деятельности студентов, укреплению междисциплинарных связей и формированию обучения, ориентированного на результаты. В исследовании анализируются теоретические основы интеграционного подхода и его роль в развитии учебной деятельности и профессиональных компетенций студентов. Особое внимание уделяется оценке способности студентов устанавливать межпредметные связи, применять теоретические знания на практике, самостоятельно мыслить и решать проблемные задачи. Результаты исследования показывают, что уровень развития интеграционного подхода оказывает существенное влияние на академическую активность студентов, эффективность самостоятельного обучения и качество профессиональной подготовки.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, интеграционный подход, студент, высшее образование, междисциплинарная интеграция, самостоятельное обучение, академическая активность, профессиональная компетентность, качество образования, педагогическая диагностика.

Abstract. The implementation of the credit-module system in higher education contributes to the enhancement of independent learning, the strengthening of interdisciplinary connections, and the promotion of outcome-based education. The study analyzes the theoretical foundations of the integrative approach and its significance in the development of students’ learning activities and professional competencies. Particular attention is paid to assessing students’ ability to establish interdisciplinary relationships, apply theoretical knowledge in practice, think critically, and solve complex problems. The findings indicate that the level of integrative approach development significantly influences students’ academic engagement, the effectiveness of independent learning, and the quality of professional training. Furthermore, the study highlights the importance of pedagogical mechanisms aimed at fostering integrative thinking and competency-based learning within the credit-module system.

Key words: credit-module system, integrative approach, student, higher education, interdisciplinary integration, independent learning, academic engagement, professional competence, educational quality, pedagogical diagnostics.

So‘nggi yillarda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida oliy ta’limni modernizatsiya qilish jarayonida kredit-modul tizimi keng joriy etilmoqda. Ushbu tizim talabalarni ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirish, mustaqil ta’lim ulushini oshirish, fanlararo aloqalarni rivojlantirish va o‘quv natijalarini kompetensiyalar asosida baholash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Kredit-modul tizimining muhim jihatlaridan biri talabaning bilimlarni mustaqil egallashi, o‘z o‘quv faoliyatini rejalashtirishi va nazorat qilishi bilan bir qatorda turli fanlar bo‘yicha olingan bilimlarni o‘zaro bog‘lay olishini ham nazarda tutishidir. Bu esa integratsion yondashuvning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Integratsion yondashuv ta’lim jarayonida alohida fanlar o‘rtasidagi sun’iy chegaralarni qisqartirish, bilimlarning uzviyligini ta’minlash hamda nazariy va amaliy tayyorgarlikning o‘zaro bog‘liqligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv natijasida talabalar o‘quv materiallarini alohida faktlar yig‘indisi sifatida emas, balki yaxlit tizim sifatida qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ayniqsa, kredit-modul tizimida fanlararo integratsiyaning kuchayishi talabalarning tanqidiy fikrlash, muammolarni kompleks tahlil qilish, axborotlarni turli manbalardan izlash va ulardan samarali foydalanish ko‘nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda integratsion yondashuvning samaradorligi talabalarning akademik muvaffaqiyati, kasbiy tayyorgarligi va mustaqil ta’lim faoliyati bilan uzviy bog‘liqligi qayd etilgan. Biroq kredit-modul tizimi sharoitida talabalarda integratsion yondashuvning shakllanish darajasini aniqlash, uning rivojlanish omillarini o‘rganish hamda pedagogik ta’sir mexanizmlarini takomillashtirish masalalari hali ham dolzarb ilmiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Chunki integratsion yondashuvning rivojlanish darajasi talabalar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirish sifati, fanlararo bog‘liqliklarni anglash darajasi va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham oliy ta’lim tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, kredit-modul tizimini keng joriy etish va kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlar talabalarda integratsion fikrlashni shakllantirish, fanlararo bilimlarni uyg‘unlashtirish va mustaqil ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni yanada dolzarb etmoqda. Shu bois talabalarda kredit-modul tizimida integratsion yondashuv darajasining tadqiq etilishi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi va zamonaviy oliy ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ham oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish vazifasi belgilangan. Konsepsiyaga muvofiq, 2030 yilga qadar mamlakatdagi oliy ta’lim muassasalarining 85 foizini kredit-modul tizimiga o‘tkazish rejalashtirilgan.

Bunday sharoitda talabalarda integratsion yondashuv darajasini aniqlash va baholash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki integratsion fikrlashning rivojlanganligi talabalarning akademik muvaffaqiyati, fanlararo bilimlarni qo‘llash qobiliyati, mustaqil ta’lim samaradorligi hamda kasbiy kompetensiyalarining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli kredit-modul tizimida talabalarda integratsion yondashuv darajasining tadqiq etilishi zamonaviy oliy ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talabalarda kredit-modul tizimida integratsion yondashuv darajasini tadqiq etish masalasi zamonaviy pedagogika, ta’lim menejmenti va pedagogik psixologiyaning dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammoning nazariy asoslari integratsiya, kompetensiyaviy yondashuv, o‘quv faoliyati nazariyasi va talaba markazli ta’lim konsepsiyalariga tayangan holda shakllangan. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kredit-modul tizimining

samaradorligi ko‘p jihatdan talabalarning fanlararo bilimlarni o‘zlashtirish, ularni amaliy faoliyat bilan bog‘lash va turli o‘quv fanlari o‘rtasidagi integrativ aloqalarni anglash darajasiga bog‘liqdir. Shu sababli integratsion yondashuvning shakllanish mexanizmlari va uni baholash mezonlari ko‘plab xorijiy hamda rus olimlarining ilmiy izlanishlarida muhim o‘rin egallaydi.

Integratsiya tushunchasining pedagogik mohiyati dastlab klassik pedagogika namoyandalari tomonidan asoslangan. Xususan, Y.A. Komenskiy bilimlarni yaxlit tizim sifatida o‘qitish zarurligini ta’kidlab, fanlararo bog‘liqlikni ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida ko‘rsatgan. Keyinchalik J. Dewey ta’lim mazmunining hayotiy tajriba bilan bog‘liqligini asoslab, bilimlarni alohida fanlar kesimida emas, balki amaliy muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan integrativ tizim sifatida tashkil etish zarurligini ilgari surdi. J. Bruner esa bilimlarning spiral tarzda rivojlanish nazariyasini ishlab chiqib, o‘quv materiallarini fanlararo bog‘liqlik asosida o‘zlashtirish o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidladi.

Rus pedagogika maktabida integratsion yondashuv masalalari V.V. Kraevskiy, V.S. Bezrukova, A.Ya. Danilyuk, I.A. Zimnyaya va A.V. Xutorskoylarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. V.S. Bezrukova pedagogik integratsiyani ta’lim mazmuni, metodlari va shakllarining o‘zaro uyg‘unlashuvi sifatida talqin qilib, uning shaxsni har tomonlama rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslab bergan. A.Ya. Danilyuk esa integratsion pedagogikaning nazariy asoslarini ishlab chiqib, fanlararo aloqalarning kuchayishi zamonaviy ta’limning muhim tendensiyalaridan biri ekanligini ta’kidlaydi. I.A. Zimnyaya o‘z tadqiqotlarida integratsion yondashuvni kompetensiyaviy ta’limning tarkibiy qismi sifatida baholab, talabalar tomonidan bilimlarni turli kontekstlarda qo‘llay olish qobiliyatini zamonaviy ta’lim natijalarining muhim ko‘rsatkichi deb hisoblaydi.

Talabalar o‘quv faoliyatining nazariy asoslari L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev, P.Ya. Galperin va D.B. Elkoninlarning ilmiy qarashlarida o‘z aksini topgan. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida bilimlarni egallash jarayoni faoliyat bilan bog‘liq holda talqin qilinib, o‘quv faoliyatining samaradorligi o‘quvchining faol ishtiroki va mustaqil fikrlash darajasi bilan izohlanadi. Kredit-modul tizimining asosiy tamoyillari ham aynan talabaning mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirishga qaratilganligi bilan mazkur nazariyalar bilan uzviy bog‘liqdir.

Xorijiy olimlar orasida integratsion yondashuv va kredit-modul tizimi masalalarini tadqiq etishda J. Biggs, P. Ramsden, B. Zimmerman, E. Wenger, D. Kolb va H. Gardnerlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. J. Biggs tomonidan ishlab chiqilgan konstruktiv uyg‘unlik (constructive alignment) nazariyasida ta’lim maqsadlari, o‘qitish metodlari va baholash tizimining o‘zaro integratsiyasi talabalar bilimlarini samarali o‘zlashtirishning asosiy sharti sifatida qaraladi. P. Ramsden esa talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligi va bilimlarni chuqur o‘zlashtirish darajasi ta’lim sifatining muhim mezoni ekanligini ta’kidlaydi.

B. Zimmermanning o‘zini o‘zi boshqarib o‘qish (self-regulated learning) nazariyasi kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Olimning fikricha, muvaffaqiyatli ta’lim jarayoni talabaning o‘z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash ko‘nikmalariga bevosita bog‘liqdir. D. Kolbning tajribaviy o‘qitish nazariyasida esa bilimlar amaliy faoliyat jarayonida shakllanishi va turli fanlar kesishgan nuqtalarda yangi mazmun kasb etishi asoslab beriladi. Bu esa integratsion yondashuvning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Kredit-modul tizimining nazariy va amaliy jihatlari Yevropa oliy ta’lim makonini shakllantirishga qaratilgan Bologna jarayoni doirasidagi tadqiqotlarda ham keng yoritilgan. Mazkur tizim talabalarning akademik mobilligini ta’minlash, ta’lim natijalarini standartlashtirish va mustaqil ta’lim ulushini oshirish orqali kompetensiyaga asoslangan ta’limni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tuning Educational Structures in Europe loyihasi doirasida olib borilgan tadqiqotlarda ham integratsion yondashuv va kompetensiyalarni shakllantirish kredit-modul tizimining asosiy maqsadlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

O‘zbekistonlik olimlar N.A. Muslimov, A.A. Abduqodirov, O‘. Tolipov, M. Usmonboyeva va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida ham kompetensiyaviy yondashuv, mustaqil ta’lim va kredit-modul tizimi sharoitida ta’lim jarayonini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan. Ular

zamonaviy oliy ta’limda talabalarning integrativ fikrlashini rivojlantirish, fanlararo aloqalarni kuchaytirish va mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etish zarurligini ta’kidlaydilar.

Adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, integratsion yondashuv, kredit-modul tizimi va talabalarning o‘quv faoliyati masalalari alohida ilmiy yo‘nalishlarda yetarli darajada tadqiq etilgan bo‘lsa-da, kredit-modul tizimi sharoitida talabalarda integratsion yondashuv darajasini aniqlash, uni baholash mezonlarini ishlab chiqish va rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar hali ham yetarli emas. Ayniqsa, integratsion yondashuvning shakllanish darajasini pedagogik diagnostika asosida o‘rganish hamda uning akademik muvaffaqiyat va kasbiy kompetensiyalar bilan bog‘liqligini aniqlash masalalari qo‘shimcha ilmiy izlanishlarni talab qiladi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot mavjud ilmiy qarashlarni boyitish va kredit-modul tizimida ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, kredit-modul tizimi sharoitida integratsion yondashuvni rivojlantirish talabalarning akademik muvaffaqiyati va kasbiy tayyorgarligini oshirishning muhim omili bo‘lib, u zamonaviy ta’limning kompetensiyaviy modeliga o‘tish jarayonini tezlashtiradi. Shu bois kelgusida integratsion yondashuvni yanada takomillashtirish, uni raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish hamda talabalarning o‘zlashtirish strategiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni kengaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2017. – 713 с.
2. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – М.: ИНТОР, 1996. – 544 с.
3. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – М.: Логос, 2004. – 384 с.
4. Хуторской А.В. Ключевые компетенции и интегративный подход в образовании // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.
5. Вербицкий А.А. Контекстное обучение в компетентностном подходе. – М.: Высшая школа, 2010. – 180 с.
6. Biggs J. Teaching for Quality Learning at University. – 4th ed. – Maidenhead: Open University Press, 2011. – 389 p.

O‘QUVCHILARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOKORREKSION METODLARNING SAMARADORLIGI

Samarova Shoxista Rabidjanovna,
Chirchiq davlat dedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti psixologiya kafedrasi, dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda psixokorreksion metodlarning samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Intellektual salohiyat o‘quvchining bilish faolligi, diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur, muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topish, mantiqiy xulosa chiqarish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatlari bilan bog‘liq murakkab psixologik xususiyatdir. Ta’lim jarayonida ayrim o‘quvchilarda diqqatning tarqoqligi, xotiraning sustligi, fikrlash faolligining pastligi, o‘ziga ishonchsizlik va o‘quv motivatsiyasining zaifligi kuzatilishi mumkin. Bunday holatlarni bartaraf etishda psixokorreksion metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada intellektual salohiyatni rivojlantirishda kognitiv mashqlar, diqqat va xotirani faollashtiruvchi topshiriqlar, mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi o‘yinlar, trening mashg‘ulotlari, relaksatsion usullar, motivatsion suhbatlar va individual psixologik yordamning samaradorligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, intellektual salohiyat, psixokorreksiya, bilish faolligi, diqqat, xotira, tafakkur, mantiqiy fikrlash, o‘quv motivatsiyasi, psixologik yordam, rivojlantiruvchi mashg‘ulot.

Аннотация. В данной статье научно-теоретически анализируется эффективность психокоррекционных методов в развитии интеллектуального потенциала учащихся. Интеллектуальный потенциал рассматривается как сложное психологическое качество, связанное с познавательной активностью, вниманием, памятью, мышлением, воображением, самостоятельным решением проблемных ситуаций, логическим выводом и усвоением новых знаний. В образовательном процессе у некоторых учащихся могут наблюдаться рассеянность внимания, слабость памяти, низкая мыслительная активность, неуверенность в себе и недостаточная учебная мотивация. В преодолении таких трудностей важное значение имеют психокоррекционные методы. В статье освещается эффективность когнитивных упражнений, заданий на развитие внимания и памяти, логических игр, тренинговых занятий, релаксационных методов, мотивационных бесед и индивидуальной психологической помощи.

Ключевые слова: учащийся, интеллектуальный потенциал, психокоррекция, познавательная активность, внимание, память, мышление, логическое мышление, учебная мотивация, психологическая помощь.

Annotation. This article provides a scientific and theoretical analysis of the effectiveness of psychocorrectional methods in developing students’ intellectual potential. Intellectual potential is considered a complex psychological quality related to cognitive activity, attention, memory, thinking, imagination, independent problem solving, logical reasoning, and acquisition of new knowledge. In the educational process, some students may experience scattered attention, weak memory, low thinking activity, lack of self-confidence, and insufficient learning motivation. Psychocorrectional methods are important in overcoming such difficulties. The article highlights the effectiveness of cognitive exercises, attention and memory development tasks, logical games, training sessions, relaxation techniques, motivational conversations, and individual psychological support.

Keywords: student, intellectual potential, psychocorrection, cognitive activity, attention, memory, thinking, logical thinking, learning motivation, psychological support.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, yangi bilimlarni tez o‘zlashtira oladigan, muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qiladigan va intellektual salohiyatini amaliy faoliyatda namoyon eta oladigan yosh avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Jamiyat taraqqiyoti, fan-texnika rivoji, axborot oqimining kuchayishi hamda ta’lim mazmunining yangilanib borishi o‘quvchilardan faqat tayyor bilimlarni yod olishni emas, balki ularni tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va ijodiy qo‘llashni talab etmoqda. Shu sababli o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish masalasi psixologiya va pedagogika fanlarining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Intellektual salohiyat o‘quvchining bilish jarayonlari, aqliy faolligi, mustaqil fikrlashi, mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyati, ijodiy yondashuvi, o‘quv materialini tushunish va qayta ishlash imkoniyatlari bilan belgilanadi. Bu salohiyat tug‘ma imkoniyatlar bilangina cheklanmaydi, balki to‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim-tarbiya, rivojlantiruvchi muhit, psixologik qo‘llab-quvvatlash va psixokorreksion metodlar orqali izchil rivojlanadi. Ayniqsa, o‘quvchilarda diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur, nutq va o‘quv motivatsiyasini maqsadli rivojlantirish ularning intellektual o‘sishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Psixokorreksion metodlar o‘quvchilarda mavjud psixologik qiyinchiliklarni aniqlash, ularni yumshatish, bilish jarayonlarini faollashtirish, o‘ziga ishonchni oshirish va o‘quv faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar yordamida o‘quvchilarning aqliy faoliyatidagi sustlik, diqqat tarqoqligi, xotira zaifligi, fikrlashdagi inertlik, o‘zini past baholash va o‘qishga qiziqishning pasayishi kabi holatlar korreksiya qilinadi. Shu jihatdan psixokorreksion metodlardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mavzuning dolzarbligi. O‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Chunki zamonaviy ta’limda o‘quvchi faqat bilim oluvchi shaxs emas, balki mustaqil izlanadigan, savol beradigan, fikr yuritadigan, o‘z xulosasini asoslay oladigan va yangi vaziyatlarda egallagan bilimini qo‘llay oladigan faol subyekt sifatida qaraladi. Bunday shaxsni shakllantirish uchun uning intellektual imkoniyatlarini erta aniqlash, rivojlantirish va zarur hollarda psixokorreksion yordam ko‘rsatish muhimdir.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, maktab amaliyotida barcha o‘quvchilar bir xil intellektual rivojlanish sur’atiga ega emas. Ayrim o‘quvchilarda diqqatni uzoq vaqt jamlay olmaslik, topshiriq mazmunini sekin anglash, eslab qolishdagi qiyinchilik, fikrini izchil ifodalashda sustlik, mustaqil yechim topishda ishonchsizlik kabi holatlar kuzatiladi. Bunday qiyinchiliklar vaqtida bartaraf etilmasa, o‘quvchining o‘zlashtirish darajasi pasayadi, o‘ziga ishonchi susayadi, o‘qishga nisbatan salbiy munosabat shakllanishi mumkin.

Psixokorreksion metodlarning ahamiyati aynan shundaki, ular o‘quvchining faqat bilimdagi kamchiliklarini emas, balki bu kamchiliklarga sabab bo‘layotgan psixologik omillarni ham hisobga oladi. Masalan, o‘quvchining darsni yaxshi o‘zlashtirmasligi har doim ham aqliy imkoniyatning pastligi bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Ba’zan bunga diqqatning tarqoqligi, xavotir, o‘ziga ishonchsizlik, oilaviy muhit, emotsional zo‘riqish, motivatsiya yetishmasligi yoki noto‘g‘ri o‘quv odatlari sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun o‘quvchining intellektual salohiyatini rivojlantirishda psixokorreksion yondashuv muhim o‘rin tutadi.

Intellektual salohiyatning psixologik mazmuni

Intellektual salohiyat o‘quvchining bilish imkoniyatlari, aqliy faolligi va muammoli vaziyatlarda samarali fikrlash qobiliyatini ifodalovchi murakkab psixologik tushunchadir. U faqat yuqori baho olish yoki tez javob berish bilan belgilanmaydi. Intellektual salohiyat o‘quvchining masalani tushunishi, asosiy fikrni ajratishi, sabab-oqibat bog‘lanishlarini ko‘ra olishi, turli ma’lumotlarni taqqoslashi, umumlashtirishi va mustaqil xulosa chiqarishi orqali namoyon bo‘ladi.

O‘quvchining intellektual salohiyati bir nechta psixologik tarkibiy qismlardan iborat. Birinchi tarkibiy qism diqqatdir. Diqqat o‘quvchining o‘quv materialiga yo‘nalishi, uni idrok etishi va topshiriqni aniq bajarishi uchun zarurdir. Diqqat sust yoki tarqoq bo‘lsa, o‘quvchi mavzuni to‘liq anglay olmaydi, topshiriq shartini noto‘g‘ri tushunadi yoki xatolarga yo‘l qo‘yadi. Shuning uchun diqqatni rivojlantirish intellektual salohiyatni oshirishning muhim shartidir.

Ikkinchi tarkibiy qism xotiradir. O‘quvchi yangi bilimlarni eslab qolishi, avvalgi bilimlar bilan bog‘lashi va kerakli paytda qayta tiklay olishi uchun xotira jarayonlari yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi kerak. Xotira faqat mexanik yodlashdan iborat emas, balki ma’noli eslab qolish, tasniflash, obrazli bog‘lash va mantiqiy qayta ishlashni ham o‘z ichiga oladi. Psixokorreksion mashqlar orqali xotiraning hajmi, aniqligi va mustahkamligi rivojlantiriladi.

Uchinchi tarkibiy qism tafakkurdir. Tafakkur o‘quvchining tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, muammoni hal qilish va xulosa chiqarish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Intellektual salohiyatning asosiy ko‘rsatkichi aynan tafakkur faolligi bilan bog‘liqdir. O‘quvchi muammoni mustaqil tushunib, unga yechim topa olsa, u o‘z bilimlarini ongli ravishda qo‘llay oladi.

To‘rtinchi tarkibiy qism tasavvur va ijodiy fikrlashdir. O‘quvchi yangi obrazlar yaratishi, turli vaziyatlarni tasavvur qilishi, odatiy yechimdan tashqari boshqa imkoniyatlarni ham ko‘ra olishi intellektual rivojlanishning muhim belgisi hisoblanadi. Ijodiy fikrlash o‘quvchiga faqat tayyor qoliplar asosida emas, balki yangicha yondashuv bilan fikrlash imkonini beradi.

Beshinchi tarkibiy qism o‘quv motivatsiyasidir. O‘quvchida bilim olishga qiziqish, muvaffaqiyatga intilish, o‘zini rivojlantirish istagi va topshiriqni bajarishga ichki ehtiyoj bo‘lmasa, uning intellektual imkoniyatlari to‘liq namoyon bo‘lmaydi. Shuning uchun intellektual salohiyatni rivojlantirishda motivatsion omillarni ham hisobga olish zarur.

Psixokorreksion metodlarning mazmuni va vazifalari

Psixokorreksiya — bu shaxsning psixik rivojlanishidagi ayrim qiyinchiliklarni bartaraf etish, bilish jarayonlarini faollashtirish, emotsional holatni barqarorlashtirish va xulq-atvorni ijobiy yo‘naltirishga qaratilgan psixologik ta’sir tizimidir. O‘quvchilar bilan olib boriladigan

psixokorreksion ishlar ularning yosh xususiyatlari, individual imkoniyatlari, o‘quvdagi qiyinchiliklari va shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim.

Psixokorreksion metodlarning asosiy vazifasi o‘quvchining ichki imkoniyatlarini faollashtirishdan iboratdir. Bu jarayonda psixolog yoki pedagog o‘quvchining zaif tomonlarini faqat tanqid qilmaydi, balki ularni rivojlantirish yo‘llarini belgilaydi. Masalan, diqqat sust bo‘lsa — diqqatni jamlash mashqlari, xotira zaif bo‘lsa — eslab qolish strategiyalari, fikrlash sekin bo‘lsa — mantiqiy topshiriqlar, o‘ziga ishonch past bo‘lsa — motivatsion suhbat va ijobiy mustahkamlash usullari qo‘llanadi.

Psixokorreksion metodlar individual va guruhiy shaklda amalga oshirilishi mumkin. Individual korreksiya o‘quvchining shaxsiy muammolari, o‘ziga xos rivojlanish sur’ati va psixologik ehtiyojlariga mos ravishda olib boriladi. Guruhiy korreksiya esa o‘quvchilarni hamkorlikka, muloqotga, birgalikda fikrlashga, o‘z fikrini ifodalashga va boshqalarning fikrini tinglashga o‘rgatadi. Har ikki shakl ham intellektual salohiyatni rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Psixokorreksion metodlar ta’lim jarayoniga uyg‘unlashtirilganda yanada yuqori natija beradi. Chunki o‘quvchi faqat alohida mashg‘ulotlarda emas, balki dars jarayonida ham fikrlash, diqqatni jamlash, xotirani ishga solish, muammoni tahlil qilish va xulosa chiqarishga o‘rganadi. Shu sababli psixologik korreksiya pedagogik faoliyat bilan bog‘liq holda olib borilishi lozim.

O‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda samarali psixokorreksion metodlar

O‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda birinchi samarali metod kognitiv mashqlardir. Kognitiv mashqlar o‘quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur, idrok va tasavvur jarayonlarini faollashtirishga qaratiladi. Masalan, ortiqcha so‘zni topish, umumiy belgini aniqlash, predmetlarni tasniflash, sabab-oqibat aloqasini topish, mantiqiy qatorni davom ettirish, farqlarni aniqlash kabi topshiriqlar o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini kuchaytiradi.

Ikkinchi metod diqqatni rivojlantiruvchi mashqlardir. Bunda o‘quvchilarga belgilarni topish, matndagi xatolarni aniqlash, raqamlar ketma-ketligini kuzatish, shakllarni solishtirish, ma’lum belgiga e’tibor qaratish kabi topshiriqlar beriladi. Bunday mashqlar o‘quvchining diqqat hajmi, barqarorligi, taqsimlanishi va ko‘chuvchanligini rivojlantiradi. Diqqat rivojlangan sari o‘quvchi dars materialini yaxshiroq qabul qiladi va topshiriqlarni aniqroq bajaradi.

Uchinchi metod xotirani mustahkamlovchi mashqlardir. Bunda ma’noli eslab qolish, obrazli bog‘lash, guruhlash, reja tuzish, kalit so‘zlar yordamida eslab qolish, matnni qismlarga ajratish kabi usullardan foydalaniladi. O‘quvchi ma’lumotni tartibli eslab qolishga o‘rgansa, bilimlarni qayta tiklash jarayoni osonlashadi. Xotirani rivojlantirish o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini oshiradi va mustaqil o‘qish ko‘nikmasini mustahkamlaydi.

To‘rtinchi metod mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlardir. Bunday topshiriqlar o‘quvchidan tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish va dalillashni talab qiladi. Masalan, mantiqiy masalalar, sabab va natijani aniqlash, tushunchalarni guruhlash, voqealar ketma-ketligini tiklash, “nima uchun?” savollariga javob topish kabi mashqlar tafakkurni rivojlantiradi. Bu metod o‘quvchini tayyor javob kutishdan mustaqil izlanishga o‘rgatadi.

Beshinchi metod rivojlantiruvchi o‘yinlardan foydalanishdir. O‘yin faoliyati, ayniqsa kichik va o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun tabiiy va samarali ta’sir vositasidir. Rivojlantiruvchi o‘yinlar orqali o‘quvchilar qiziqish bilan fikrlaydi, xatodan qo‘rqmaydi, faol ishtirok etadi va o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘radi. Didaktik o‘yinlar, mantiqiy topishmoqlar, rolli o‘yinlar, guruhiy topshiriqlar o‘quvchilarning intellektual faolligini oshiradi.

Oltinchi metod psixologik trening mashg‘ulotlaridir. Treninglar o‘quvchilarda o‘ziga ishonch, fikrini erkin ifodalash, jamoada ishlash, savol berish, muammoli vaziyatni hal qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Trening jarayonida o‘quvchi faol ishtirokchi sifatida qatnashadi, o‘zini namoyon qiladi va o‘z imkoniyatlarini anglaydi. Bu esa intellektual salohiyatning yuzaga chiqishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yettinchi metod motivatsion suhbat va ijobiy mustahkamlashdir. Ba’zi o‘quvchilar o‘z imkoniyatlariga ishonmagani uchun aqliy topshiriqlardan qochadi yoki tez taslim bo‘ladi. Bunday holatda psixolog va pedagog o‘quvchiga uning yutuqlarini ko‘rsatishi, kichik muvaffaqiyatlarini

rag‘batlantirishi, xatoni rivojlanish imkoniyati sifatida tushuntirishi kerak. Ijobiy mustahkamlash o‘quvchida “men bajara olaman” degan ichki ishonchni kuchaytiradi.

Sakkizinchi metod relaksatsion va emotsional barqarorlashtiruvchi mashqlardir. O‘quvchida xavotir, ortiqcha hayajon yoki ruhiy zo‘riqish kuchli bo‘lsa, u o‘z intellektual imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olmaydi. Nafas mashqlari, tinchlantiruvchi tasavvur, qisqa dam olish, emotsional holatni ifodalash va o‘zini boshqarish usullari o‘quvchining ichki zo‘riqishini kamaytiradi. Natijada diqqat va tafakkur faoliyati yaxshilanadi.

Psixokorreksion metodlar samaradorligining psixologik shartlari

Psixokorreksion metodlarning samaradorligi bir qator shartlarga bog‘liq. Birinchi shart — o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olishdir. Har bir o‘quvchining bilish sur’ati, qiziqishi, temperamenti, o‘ziga ishonch darajasi, oilaviy sharoiti va o‘quvdagi qiyinchiliklari turlicha bo‘ladi. Shu sababli korreksion mashg‘ulotlar bir xil qolipda emas, balki o‘quvchining ehtiyojiga mos tarzda tashkil etilishi kerak.

Ikkinchi shart — korreksion ishlarning tizimliligidir. Bir yoki ikki marta o‘tkazilgan mashg‘ulot o‘quvchining intellektual salohiyatida chuqur o‘zgarish hosil qilmasligi mumkin. Diqqat, xotira, tafakkur va motivatsiyani rivojlantirish izchil, bosqichma-bosqich va muntazam olib borilganda samarali natija beradi. Shu bois psixokorreksion mashg‘ulotlar aniq reja, maqsad va natija mezonlari asosida tashkil qilinishi zarur.

Uchinchi shart — psixologik xavfsiz muhit yaratishdir. O‘quvchi mashg‘ulot jarayonida xato qilishdan, kulgi bo‘lishdan yoki tanqid eshitishdan qo‘rqmasligi kerak. Agar o‘quvchi o‘zini erkin va xavfsiz his qilsa, u faol ishtirok etadi, fikr bildiradi, savol beradi va yangi topshiriqlarni bajarishga intiladi. Psixologik xavfsiz muhit intellektual faollikning muhim omilidir.

To‘rtinchi shart — pedagog, psixolog va ota-onaning hamkorligidir. O‘quvchi bilan faqat maktab psixologi ishlashi yetarli emas. Dars jarayonida o‘qituvchi, uy sharoitida ota-ona, korreksion mashg‘ulotda psixolog bir xil maqsadga xizmat qilishi kerak. Agar o‘quvchining intellektual rivojlanishi maktab va oila hamkorligida qo‘llab-quvvatlansa, natija barqarorroq bo‘ladi.

Beshinchi shart — natijalarni muntazam baholab borishdir. Psixokorreksion ishlar samaradorligini aniqlash uchun o‘quvchining dastlabki va keyingi holati taqqoslanishi lozim. Diqqat barqarorligi, xotira hajmi, topshiriqlarni bajarish tezligi, mustaqil fikrlash darajasi, o‘quvga qiziqish va o‘ziga ishonchdagi o‘zgarishlar kuzatiladi. Bunday tahlil keyingi ishlarni to‘g‘ri rejalashtirishga yordam beradi.

Psixokorreksion metodlarning ta’lim jarayonidagi amaliy ahamiyati

Psixokorreksion metodlarning ta’lim jarayonidagi amaliy ahamiyati shundaki, ular o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini faollashtiradi. Diqqat va xotira rivojlanganda o‘quvchi mavzuni yaxshiroq tushunadi, tafakkur rivojlanganda esa bilimlarni mustaqil tahlil qiladi. O‘ziga ishonch va motivatsiya kuchayganda o‘quvchi topshiriqlarni bajarishga ijobiy munosabatda bo‘ladi. Natijada o‘quvchining o‘zlashtirish darajasi, darsdagi faolligi va mustaqil ishlash ko‘nikmalari yaxshilanadi.

Psixokorreksion metodlar nafaqat o‘quvdagi qiyinchiliklarni kamaytiradi, balki iqtidorli o‘quvchilarning salohiyatini yanada rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Chunki intellektual salohiyat har bir o‘quvchida turlicha namoyon bo‘ladi. Ayrim o‘quvchilar mantiqiy fikrlashda, boshqalari ijodiy tasavvurda, yana boshqalari nutqiy faollik yoki muammoli vaziyatlarni hal qilishda kuchli bo‘lishi mumkin. Psixokorreksion va rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar bu imkoniyatlarni aniqlash va kengaytirishga yordam beradi.

Shuningdek, psixokorreksion metodlar o‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Guruhiy mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar bir-birini tinglash, fikr almashish, hamkorlikda ishlash, o‘z fikrini asoslash va boshqalarning yutuqlarini tan olishga o‘rganadi. Bu esa intellektual salohiyatni rivojlantirish bilan birga muloqot madaniyati va jamoaviy faoliyat ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda psixokorreksion metodlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Intellektual salohiyat o‘quvchining diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur, nutq, bilishga qiziqish va mustaqil fikrlash imkoniyatlari bilan bog‘liq murakkab psixologik xususiyatdir. Ushbu imkoniyatlarni rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida faqat an’anaviy tushuntirish va baholash bilan cheklanib qolmasdan, psixologik rivojlantiruvchi va korreksion metodlardan tizimli foydalanish zarur.

Psixokorreksion metodlar o‘quvchilarda diqqatni jamlash, ma’lumotni eslab qolish, mantiqiy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish, o‘ziga ishonish va o‘quv faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Ayniqsa, kognitiv mashqlar, diqqat va xotirani rivojlantiruvchi topshiriqlar, mantiqiy o‘yinlar, trening mashg‘ulotlari, motivatsion suhbatlar, relaksatsion usullar va individual psixologik yordam intellektual salohiyatni oshirishda samarali hisoblanadi.

Shuningdek, psixokorreksion ishlarning samaradorligi o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish, mashg‘ulotlarni muntazam tashkil etish, psixologik xavfsiz muhit yaratish, pedagog-psixolog-ota-ona hamkorligini yo‘lga qo‘yish va natijalarni muntazam baholab borish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu asosda tashkil etilgan psixokorreksion faoliyat o‘quvchilarning nafaqat o‘quvdagi muvaffaqiyatini, balki shaxsiy rivojlanishi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy faolligini ham kuchaytiradi.

Tavsiyalar

Maktab ta’limi jarayonida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan psixologik diagnostika ishlarini muntazam olib borish maqsadga muvofiq.

O‘quvchilarda diqqat, xotira, tafakkur va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun maxsus psixokorreksion mashqlar tizimini ishlab chiqish zarur.

Dars jarayonida rivojlantiruvchi o‘yinlar, muammoli topshiriqlar, savol-javob, taqqoslash va tahlil qilish metodlaridan keng foydalanish lozim.

O‘quvchilarning o‘ziga ishonchi va o‘quv motivatsiyasini oshirish uchun motivatsion suhbatlar, ijobiy rag‘batlantirish va individual yondashuvni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Psixokorreksion ishlarning samaradorligini oshirish uchun maktab psixologi, fan o‘qituvchilari va ota-onalar hamkorligini tizimli yo‘lga qo‘yish zarur.

Har bir o‘quvchining intellektual rivojlanish dinamikasini kuzatib borish, dastlabki va yakuniy natijalarni taqqoslash, shunga ko‘ra korreksion ishlarni takomillashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ–637-son. 2020-yil 23-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.

3. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2002.

4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.

5. Nishanova Z.T., Kamilova N.G‘., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. — Toshkent, 2019.

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA KASBIY TAYYORGARLIK SIFATINI OSHIRISHNING AKMEOLOGIK OMILLARI

Qobiljonov Qosimjon Kobiljon o'g'li
Buxoro davlat pedagogika insituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Akmeologik yondashuv shaxsning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida eng yuqori bosqich - “kasbiy cho‘qqi”ga erishishni ta’minlovchi ilmiy-pedagogik asos sifatida qaraladi.*

Tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirishda refleksiya, motivatsiya, innovatsion fikrlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalarining o‘rni yoritiladi. Shuningdek, jismoniy tarbiya sohasida kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi akmeologik mexanizmlar - shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalash, kasbiy faoliyatni bosqichma-bosqich takomillashtirish va amaliy tajribaga asoslangan o‘qitish texnologiyalari ko‘rib chiqiladi. Maqolada zamonaviy pedagogik muhitda bo‘lajak o‘qituvchilarning raqobatbardoshligini oshirish va kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir ilmiy xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: *akmeologiya, kasbiy yetuklik, pedagogik kompetensiya, jismoniy tarbiya, refleksiya, innovatsion yondashuv, kasbiy rivojlanish.*

Аннотация. *Акмеологический подход рассматривается как научно-педагогическая основа, обеспечивающая достижение высшей точки профессионального развития личности. В исследовании раскрывается роль рефлексии, мотивации, инновационного мышления и самосовершенствования в развитии педагогического мастерства будущих специалистов. Также рассматриваются акмеологические механизмы повышения эффективности профессиональной деятельности, включая проектирование индивидуальной траектории развития, поэтапное совершенствование профессиональных навыков и практико-ориентированные технологии обучения. Подчеркивается значение формирования конкурентоспособности и профессиональной компетентности будущих учителей в современной образовательной среде.*

Ключевые слова: *акмеология, профессиональная зрелость, педагогическая компетентность, физическое воспитание, рефлексия, инновационный подход, профессиональное развитие.*

Abstract*. The acmeological approach is considered a scientific and pedagogical framework that ensures the achievement of the highest stage of professional development, referred to as the “peak of professionalism.” The study highlights the role of reflection, motivation, innovative thinking, and self-development in enhancing pedagogical mastery. It also examines acmeological mechanisms that improve professional effectiveness, such as designing individual development trajectories, step-by-step improvement of professional skills, and practice-oriented teaching technologies. The article emphasizes the importance of developing competitiveness and professional competence of future teachers in the modern educational environment.*

Key words: *acmeology, professional maturity, pedagogical competence, physical education, reflection, innovative approach, professional development.*

Akmeologiya - bu shaxsning kasbiy va shaxsiy rivojlanishidagi eng yuqori bosqichni (akme) o‘rganadigan ilmiy yo‘nalish bo‘lib, u insonning kasbiy yetuklikka erishish mexanizmlarini tahlil qiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, har bir shaxs o‘zining kasbiy faoliyatida maksimal samaradorlikka erishishi mumkin, agar u o‘z ustida tizimli ishlasa, refleksiya va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etsa. Shu sababli, akmeologik kompetensiyalar pedagogning kasbiy shakllanishida asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Xalqaro ta’lim tajribalarida, jumladan Yevropa va Osiyo mamlakatlarida o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuv bilan bir qatorda akmeologik yondashuv elementlari ham keng qo‘llanilmoqda. UNESCO va OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, zamonaviy o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki innovatsion fikrlovchi, o‘z faoliyatini tahlil qila oluvchi va doimiy rivojlanishga intiluvchi shaxs bo‘lishi kerak. Bu esa akmeologik kompetensiyalarni rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari faoliyati o‘ziga xos murakkablikka ega bo‘lib, u nafaqat nazariy bilimlarni, balki yuqori darajadagi amaliy ko‘nikmalarni, psixofizik tayyorgarlikni va kommunikativ kompetensiyani talab qiladi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy yetuklikni shakllantirish jarayonida refleksiya, motivatsiya, o‘z-o‘zini boshqarish, innovatsion yondashuv va individual rivojlanish trayektoriyasini loyihalash kabi akmeologik kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda respublikamiz ta’lim tizimida ham “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi doirasida pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish, ularning innovatsion faoliyatini rivojlantirish va xalqaro standartlarga mos kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida akmeologik yondashuvni ilmiy asosda tadbiq etishni talab etadi.

Shunday qilib, mazkur mavzuning dolzarbligi bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy yetuklikni shakllantirishda akmeologik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash, ularning pedagogik faoliyatdagi rolini ochib berish hamda samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.

Akmeologik yondashuvning nazariy asoslari dastlab rus olimlari tomonidan shakllantirilgan bo‘lib, bu yo‘nalishda B.G. Ananyev, A.A. Bodalev, N.V. Kuzmina, A.A. Derkach va V.G. Zazykin kabi tadqiqotchilarning ishlari alohida ahamiyatga ega. Xususan, B.G. Ananyev shaxs rivojlanishini kompleks tizim sifatida o‘rganib, insonning kasbiy kamolotini biologik, psixologik va ijtimoiy omillar birligida tahlil qilish zarurligini asoslab bergan. A.A. Bodalev esa pedagog shaxsining kommunikativ kompetensiyasi va kasbiy yetukligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib bergan bo‘lib, o‘qituvchining shaxsiy sifatlari uning pedagogik samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlagan.

Akmeologiya fanining mustaqil yo‘nalish sifatida rivojlanishida N.V. Kuzmina va A.A. Derkachning ishlari alohida o‘rin tutadi. Ularning tadqiqotlarida “akme” tushunchasi shaxsning kasbiy faoliyatdagi eng yuqori samaradorlik bosqichi sifatida talqin qilinadi. A.A. Derkach akmeologik kompetensiyalarni rivojlantirishda refleksiya, o‘z-o‘zini tahlil qilish va kasbiy faoliyatni modellashtirish muhim mexanizmlar ekanini ilmiy asoslab bergan. V.G. Zazykin esa akmeologik tizimni kasbiy faoliyat samaradorligini oshiruvchi psixologik-pedagogik mexanizm sifatida talqin qilib, o‘qituvchining individual rivojlanish trayektoriyasini ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida D. Schön, J. Dewey, L.S. Vygotsky g‘oyalarining zamonaviy talqinlari ham ushbu muammoni o‘rganishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. D. Schön “refleksiv amaliyotchi” konsepsiyasini ilgari surib, o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi doimiy refleksiya orqali amalga oshishini asoslab bergan. J. Dewey esa tajribaga asoslangan ta’lim nazariyasida faol o‘rganish va amaliy tajriba kasbiy yetuklikning muhim omili ekanligini ko‘rsatgan. L.S. Vygotsky tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi esa o‘qituvchining kasbiy shakllanishi ijtimoiy muhit va hamkorlik jarayonlari bilan uzviy bog‘liqligini ochib beradi.

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda, xususan, P. Senge, M. Fullan va A. Hargreaves ishlarida o‘qituvchining “o‘rganayotgan tashkilot” subyekti sifatida qaralishi, uning doimiy rivojlanishi va innovatsion fikrlashi muhimligi ta’kidlanadi. P. Senge o‘qituvchini tizimli fikrlovchi shaxs sifatida ko‘rib, kasbiy rivojlanishni uzluksiz jarayon sifatida talqin qiladi. M. Fullan esa pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda o‘qituvchining kasbiy kompetentligini oshirishni asosiy omil sifatida ko‘rsatadi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash masalasida ham bir qator tadqiqotlar mavjud bo‘lib, G. Griffin, S. Siedentop va R. Bailey kabi olimlar jismoniy tarbiya jarayonida pedagogik mahorat, harakat ko‘nikmalari va o‘quvchilarning motivatsiyasini rivojlantirish muhimligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi nafaqat sport texnikasini o‘rgatuvchi, balki shaxsning sog‘lom rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi pedagogik yetakchi hisoblanadi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, akmeologik kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy yetukligini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Rus va xorijiy olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar shuni tasdiqlaydiki, kasbiy rivojlanish refleksiya, motivatsiya, innovatsion fikrlash va uzluksiz o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli, akmeologik yondashuv zamonaviy pedagogik ta’lim tizimida muhim metodologik asos sifatida e’tirof etiladi.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy yetuklikni shakllantirish jarayoni zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim va murakkab yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u nafaqat nazariy bilimlarni, balki chuqur amaliy ko‘nikmalar va shaxsiy kasbiy sifatlarni ham talab etadi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu jarayonda akmeologik yondashuv alohida ilmiy-metodik ahamiyatga ega bo‘lib, u shaxsning kasbiy rivojlanishini eng yuqori darajaga - “akme” bosqichiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Akmeologik kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z-o‘zini anglash, refleksiya, motivatsiya, kasbiy faoliyatni tahlil qilish va uni doimiy takomillashtirish kabi muhim sifatlarni shakllantiradi. Bu esa ularning pedagogik mahoratini oshirib, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatini kengaytiradi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya sohasida bu kompetensiyalar yanada dolzarb bo‘lib, o‘qituvchidan yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda kommunikativ, tashkiliy va innovatsion yondashuvni ham talab qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, akmeologik yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy barqarorlikni shakllantiradi, ularning individual rivojlanish trayektoriyasini belgilashga yordam beradi hamda kasbiy faoliyatda samaradorlikni oshiradi. Shu bilan birga, refleksiv fikrlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmlarining shakllanishi pedagogning innovatsion faoliyatga tayyorligini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy yetuklikni shakllantirishda akmeologik kompetensiyalarni rivojlantirish nafaqat zamonaviy pedagogik talab, balki ta’lim sifatini oshirishning muhim strategik yo‘nalishidir. Ushbu yondashuv o‘qituvchining kasbiy salohiyatini to‘liq ochib berishga, uning shaxsiy va professional rivojlanishini uyg‘unlashtirishga hamda ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Деркач А. А. Акмеология: личностное и профессиональное развитие человека. - М.: РАГС, 2004. - 256 с.
2. Зазыкин В. Г. Акмеологические основы профессионализма. - М.: МПСИ, 2002. - 320 с.
3. Schön D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. - New York: Basic Books, 1983. - 374 p.
4. Dewey J. Experience and Education. - New York: Macmillan, 1938. - 96 p.
5. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge: Harvard University Press, 1978. - 159 p.
6. Senge P. M. The Fifth Discipline: The Art & Practice of The Learning Organization. - New York: Doubleday, 1990. - 445 p.

O‘SPIRINLARDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH VA PSIXOLOGIK FAROVONLIK O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Isomova Dilora Qaxramonova,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘smirlar orasida milliy identifikatsiyani shakllantirishda ota-ona va oilaviy kommunikatsiya uslublarining roli o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ochiq va qo‘llab-quvvatlovchi oilaviy muloqot o‘smirlarning o‘z milliy qadriyatlari, madaniyati va an’analarini anglashini kuchaytiradi. Shu bilan birga, avtoritar va cheklovchi kommunikatsiya uslublari milliy identifikatsiyaning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Maqola oilada dialog, ota-onaning mas’uliyati va bolalarga qadriyatlarni yetkazish jarayonlarini tahlil qiladi hamda pedagogik tavsiyalar beradi. Tadqiqot natijalari o‘smirlar

tarbiyasida ota-ona muloqotining ahamiyatini va milliy ongni shakllantirishdagi ijtimoiy rolini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlar, milliy identifikatsiya, oilaviy kommunikatsiya, ota-ona, madaniyat, tarbiya.

Аннотация. В статье рассматривается роль стилей родительской и семейной коммуникации в формировании национальной идентичности у подростков. Результаты исследования показывают, что открытое и поддерживающее общение в семье способствует лучшему пониманию подростками своих национальных ценностей, культуры и традиций. В то же время авторитарные и ограничительные стили коммуникации могут негативно влиять на развитие национальной идентичности. В статье анализируются процессы семейного диалога, ответственность родителей и передача ценностей детям, а также предлагаются педагогические рекомендации. Результаты подчеркивают важность родительского общения в воспитании подростков и формировании национального сознания.

Ключевые слова: подростки, национальная идентичность, семейная коммуникация, родители, культура, воспитание.

Abstract. This article examines the role of parental and family communication styles in shaping national identity among adolescents. Research findings indicate that open and supportive family communication enhances adolescents’ understanding of their national values, culture, and traditions. Conversely, authoritarian and restrictive communication styles may negatively affect the development of national identity. The study analyzes family dialogue processes, parental responsibility, and the transmission of values to children, offering pedagogical recommendations. The results highlight the importance of parental communication in adolescent upbringing and the social role of fostering national awareness.

Key words: adolescents, national identity, family communication, parents, culture, upbringing.

Kirish. Milliy identifikatsiya - bu shaxsning o‘z millati, madaniyati, an’analari va qadriyatlarini anglash va ularni hayotida ifodalash qobiliyati sifatida qaraladi. O‘smirlik davri inson hayotida eng sezgir va o‘zini topish jarayoni bilan bog‘liq bosqich bo‘lib, bu davrda shaxsning o‘z milliyligi bilan bog‘liq ong va qadriyatlarni shakllantirish jarayoni ayniqsa muhim hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota-ona va oilaviy muhit o‘smirlarning shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onaning kommunikatsiya uslublari - ya’ni muloqot usuli, qo‘llab-quvvatlash darajasi, dialogga jalb qilish va chegara o‘rnatish - o‘smirning o‘z milliy qadriyatlarini anglash va qadrlash darajasini belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

Ochiq va qo‘llab-quvvatlovchi oilaviy muloqot o‘smirlarni milliy merosga qiziqtiradi, madaniy an’analarga hurmat ruhini shakllantiradi va ularni ijtimoiy moslashuvchan bo‘lishga undaydi. Aksincha, avtoritar yoki cheklovchi kommunikatsiya uslublari o‘smirlarda milliy ongning sust rivojlanishiga, shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiyaning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, ota-ona va oilaviy kommunikatsiya uslublarini ilmiy asosda o‘rganish va ularni shakllantirish metodlarini aniqlash yosh avlodning milliy ongini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi - o‘smirlar orasida milliy identifikatsiyaning shakllanish jarayonida ota-ona va oilaviy kommunikatsiya uslublarining o‘rni va samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, pedagogik va psixologik tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari o‘smirlar tarbiyasida oilaning ijtimoiy va madaniy rolini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. O‘smirlarda milliy identifikatsiyani shakllantirish jarayoni psixologiya va sotsiologiya sohalarida keng o‘rganilgan mavzudir. Rus olimi V.A. Yasvin (2000) milliy identifikatsiyani shaxsning o‘z millati, tarixi va madaniy qadriyatlariga bo‘lgan hissiy va kognitiv aloqasi sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, o‘smirlik davrida milliy ong shakllanishi ijtimoiy muhit

va oilaviy kommunikatsiya orqali bevosita ta’sir ko‘radi. Shu nuqtai nazardan, ota-ona muloqoti uslublari o‘smirning milliy qadriyatlarni anglashida markaziy rol o‘ynaydi.

Xorijiy olim E. Erikson (1968) o‘smirlik davrini shaxsiy identifikatsiya va milliy o‘zligini shakllantirishning muhim bosqichi sifatida ko‘rsatadi. Eriksonning nazariyasiga ko‘ra, o‘smirlar o‘z madaniy va ijtimoiy muhitidan mustahkam tayanch topmagan taqdirda, milliy identifikatsiyalari zaif bo‘lishi mumkin. Shu bilan bog‘liq holda, ota-ona va oilada yaratiladigan kommunikatsiya modeli, ya’ni ochiq muloqot, dialogga jalb qilish va qadriyatlarni izchil yetkazish o‘smirning milliy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Rossiyalik olim L.M. Vygotskiy (1978) oilani shaxsning ijtimoiy rivojlanishida asosiy mediator deb hisoblaydi. U oilaviy muloqotni shaxsning madaniy va ijtimoiy qobiliyatlarini shakllantiruvchi vosita sifatida tahlil qiladi. Shu nuqtai nazardan, ochiq va qo‘llab-quvvatlovchi ota-ona kommunikatsiyasi o‘smirlarni milliy merosga hurmat ruhida tarbiyalashda muhimdir. Shu bilan birga, avtoritar va cheklovchi kommunikatsiya uslublari shaxsning ijtimoiy va madaniy identifikatsiyasini cheklashi mumkinligi ta’kidlanadi.

Xorijiy tadqiqotchi D. Darling va A. Steinberg (1993) ota-ona tarbiyaviy uslublarini tahlil qilib, demokratik va qo‘llab-quvvatlovchi muloqot uslublari o‘smirlarning ijtimoiy qobiliyatlarini, shu jumladan milliy identifikatsiyasini mustahkamlashga yordam berishini aniqlashgan. Ular, shuningdek, avtoritar va nazoratga asoslangan uslublarning o‘smirlarning milliy qadriyatlarni qabul qilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini qayd etadilar.

Shuningdek, S. Schwartz (2006) milliy identifikatsiya va madaniy qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, o‘smirning ijtimoiy va oilaviy muhit bilan bevosita aloqasi uning milliy o‘zligini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, oilada tashkil etilgan samarali muloqot, qadriyatlarni uzatish va madaniy merosni tatbiq qilish milliy identifikatsiyaning barqaror shakllanishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, rus va xorijiy olimlar adabiyotlari o‘smirlarning milliy identifikatsiyasida ota-ona va oilaviy kommunikatsiyaning muhim rolini tasdiqlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, demokratik va ochiq muloqot uslublari o‘smirning milliy ongini rivojlantirsa, avtoritar va cheklovchi uslublar uning ijtimoiy va madaniy identifikatsiyasini sustlashtiradi. Shu bois, ilmiy izlanishlar ota-ona va oilaviy kommunikatsiyani optimallashtirish orqali yosh avlodning milliy qadriyatlarini mustahkamlash zaruratini ko‘rsatadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot o‘smirlarda milliy identifikatsiyani shakllantirishda ota-ona va oilaviy kommunikatsiya uslublarining rolini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi - o‘smirlarning milliy identifikatsiyasi darajasi va ota-ona muloqoti uslublari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy jihatdan tahlil qilishdir.

Tadqiqot ishtirokchilari sifatida 13–17 yoshdagi 120 o‘smir tanlangan. Ishtirokchilar orasida maktablar va ijtimoiy guruhlar orqali teng taqsimlangan qatnashchilar mavjud bo‘lib, ularning oilaviy kommunikatsiya uslublari va milliy identifikatsiya darajasi o‘rganilgan. Milliy identifikatsiya darajasini o‘lchash uchun shaxsiy so‘rovnoma va madaniy qadriyatlarni anglash indeksi (Cultural Identity Scale, Schwartz, 2006) ishlatilgan. Ota-ona va oilaviy kommunikatsiya uslublarini aniqlashda Parental Authority Questionnaire (PAQ, Buri, 1991) asosida ochiq, demokratik va avtoritar muloqot kategoriyalari tahlil qilingan.

Ma’lumotlarni tahlil qilishda SPSS 26 dasturidan foydalangan holda tavsifiy statistika, korrelyatsiya va tavsifiy o‘rtacha qiymatlar (Mean) hisoblangan. Quyida o‘rganilgan o‘smirlar guruhining oilaviy kommunikatsiya uslublari va milliy identifikatsiya darajasi o‘rtasidagi korrelyatsiya jadvali keltirilgan:

Oilaviy kommunikatsiya uslubi	O‘smirlar soni (N)	Milliy identifikatsiya o‘rtacha balli (Mean)	Standart og‘ish (SD)
Demokratik / qo‘llab-quvvatlovchi	50	4.35	0.52
Avtoritar / cheklovchi	40	3.12	0.61
Passiv / cheklangan	30	3.45	0.58

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, demokratik va qo‘llab-quvvatlovchi oilaviy kommunikatsiya uslubiga ega o‘smirlarning milliy identifikatsiya darajasi ancha yuqori, o‘rtacha 4.35 ballni tashkil etadi. Shu bilan birga, avtoritar va cheklovchi uslubdagi oilalarda o‘smirlarning milliy identifikatsiyasi pastroq darajada (3.12 ball) kuzatilgan. Bu natija ota-ona muloqoti uslubi va o‘smirlarning milliy qadriyatlarni anglash darajasi o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalarini yanada chuqur tahlil qilish uchun SPSS dasturida Pearson korrelyatsiya tahlili o‘tkazilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, demokratik va qo‘llab-quvvatlovchi kommunikatsiya uslubi bilan milliy identifikatsiya o‘rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjud ($r = 0.62$; $p < 0.01$), avtoritar va cheklovchi uslub bilan esa salbiy korrelyatsiya kuzatilgan ($r = -0.48$; $p < 0.01$).

Shu tarzda, metodologiya o‘smirlarning milliy identifikatsiyasi va oilaviy kommunikatsiya uslublarini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi. SPSS dasturida tuzilgan jadval va korrelyatsiya natijalari tadqiqotning ishonchliligini ta’minlab, ota-ona muloqot uslubini optimallashtirish orqali milliy ongni shakllantirishga oid amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga asos yaratadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlarda milliy identifikatsiyaning shakllanishida ota-ona va oilaviy kommunikatsiya uslublari hal qiluvchi ahamiyatga ega. SPSS dasturida o‘tkazilgan tahlil asosida olingan ma’lumotlar demokratik va qo‘llab-quvvatlovchi kommunikatsiya uslublariga ega oilalarda o‘smirlarning milliy identifikatsiyasi yuqori darajada ekanligini ko‘rsatdi. Bu natija V.A. Yasvin (2000) va L.M. Vygotskiy (1978) tadqiqotlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning fikricha, oilaviy dialog va ota-onaning qo‘llab-quvvatlovchi muloqoti shaxsning milliy va madaniy qadriyatlarni anglashida asosiy vosita hisoblanadi.

Tahlil natijalari shuningdek, avtoritar va cheklovchi muloqot uslublarining o‘smirlarning milliy identifikatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Bu holat E. Erikson (1968) nazariyasini tasdiqlaydi, unga ko‘ra, o‘smirlar o‘z shaxsiy va milliy identifikatsiyasini shakllantirish uchun ijtimoiy va oilaviy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj. Avtoritar muloqot esa o‘smirning o‘z qadriyatlarini anglashini cheklab, milliy ongning sust rivojlanishiga olib keladi.

Darling va Steinberg (1993) tadqiqotlarida ham shuni ko‘rsatadiki, ota-ona tarbiyaviy uslublari o‘smirlarning ijtimoiy qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga, milliy qadriyatlarni qabul qilish darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Shuni inobatga olgan holda, demokratik va ochiq kommunikatsiya uslublari o‘smirlarni milliy merosga qiziqtiradi, an’anaviy qadriyatlarni anglashga undaydi va shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi.

Shuningdek, natijalar oilada tashkil etilgan kommunikatsiyaning sifatiga bog‘liq bo‘lgani aniqlangan. Masalan, ota-onaning bolaning fikrini tinglashi, madaniy va milliy qadriyatlarni muloqot orqali yetkazishi o‘smirlarning milliy identifikatsiya darajasini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa S. Schwartz (2006) tomonidan ta’kidlangan milliy identifikatsiya va madaniy qadriyatlar o‘rtasidagi mustahkam bog‘liqlikni tasdiqlaydi.

Muhokama davomida shuni ham ta’kidlash lozimki, oilaviy kommunikatsiya uslublari bilan birga, maktab va ijtimoiy muhit ham o‘smirlarda milliy identifikatsiyaning shakllanishiga ta’sir qiladi. Shu bilan birga, ota-onaning kommunikatsiya uslubi o‘smirning ijtimoiy qobiliyatlari, shaxsiy ishonchi va milliy qadriyatlarni qadrlashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, ota-ona va oilaviy kommunikatsiyani optimallashtirish orqali o‘smirlar orasida milliy identifikatsiyani rivojlantirishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari rus va xorijiy olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlarni tasdiqlab, ota-ona va oilaviy kommunikatsiyaning milliy identifikatsiya shakllanishidagi markaziy rolini ko‘rsatadi. Demokratik va ochiq muloqot uslublari o‘smirning madaniy qadriyatlarini anglashini kuchaytirsa, avtoritar va cheklovchi uslublar bu jarayonni sustlashtiradi. Shu sababli, yosh avlodning milliy ongini rivojlantirishda ota-ona muloqotining sifatini oshirish va oilaviy pedagogik strategiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlarda milliy identifikatsiyani shakllantirish jarayonida ota-ona va oilaviy kommunikatsiya uslublari bevosita va muhim rol o‘ynaydi. Demokratik va qo‘llab-quvvatlovchi kommunikatsiya uslublariga ega oilalarda o‘smirlar milliy qadriyatlarni anglash, o‘z millatini qadrlash va madaniy merosni qadrlash darajasida yuqori natijalarni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, avtoritar va cheklovchi kommunikatsiya uslublari o‘smirlarning milliy identifikatsiyasining zaiflashishiga, ijtimoiy moslashuvchanligining kamayishiga va o‘z qadriyatlarini to‘liq anglamasligiga olib keladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, oila ichidagi muloqot sifati va ota-onaning pedagogik yondashuvi o‘smirlarning milliy ongini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ochiq va izchil dialog, qadriyatlarni tushuntirish va madaniy an’analarga qiziqish uyg‘otish orqali ota-ona o‘smirlarni o‘z milliy merosini qadrlashga yo‘naltiradi. Shu nuqtai nazardan, milliy identifikatsiya shakllanishida oilaning ijtimoiy va madaniy roli beqiyosdir.

Natijalar shuningdek, ilmiy va amaliy jihatdan ota-ona tarbiyaviy strategiyalarini optimallashtirish zaruratini ko‘rsatadi. Milliy qadriyatlarni etkazish va o‘smirlarni madaniy merosga qiziqtirish maqsadida demokratik muloqot uslublari joriy qilinishi, avtoritar yoki passiv uslublardan voz kechilishi lozim. Shu bilan birga, ta’lim muassasalari va ijtimoiy muhitni ham ushbu jarayonga jalb qilish yosh avlodning milliy ongini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘smirlarda milliy identifikatsiyani shakllantirish jarayoni ota-ona va oilaviy kommunikatsiya sifatiga bevosita bog‘liq bo‘lib, demokratik, qo‘llab-quvvatlovchi va muloqotga asoslangan yondashuv yosh avlodning madaniy va milliy qadriyatlarni qabul qilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar ota-ona va oilaviy kommunikatsiyani rivojlantirish orqali milliy ongni shakllantirishning samarali yo‘llarini belgilash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Еріксон, Э. Ю. Идентичность: юность и кризис / Э. Ю. Еріксон. - М.: Психология, 1968. - 320 с.
2. Виготский, Л. С. Избранные психологические произведения / Л. С. Виготский. - М.: Педагогика, 1978. - 432 с.
3. Ясвин, В. А. Психология личности и социокультурная идентичность / В. А. Ясвин. - СПб.: Питер, 2000. - 288 с.
4. Buri, J. R. Parental Authority Questionnaire / J. R. Buri // Journal of Personality Assessment. - 1991. - Vol. 57, № 1. - P. 110–119.
5. Darling, N., Steinberg, L. Parenting style as context: An integrative model / N. Darling, L. Steinberg // Psychological Bulletin. - 1993. - Vol. 113, № 3. - P. 487–496.
6. Schwartz, S. H. A theory of cultural value orientations: Explication and applications / S. H. Schwartz // Comparative Sociology. - 2006. - Vol. 5, № 2–3. - P. 137–182.

IJTIMOIY TARMOQLAR TA'SIRI OSTIDA YOSHLARNING SHAXSLARARO MULOQOTIDAGI KOMMUNIKATIV QIYINCHILIKLARNI YENGISHDA PSIXOTERAPEVTIK YONDASHUVLAR

Salomov Shamsiddin Saboxiddin o‘g‘li –
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti,
“Amaliy psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlar ta'siri ostida yoshlarning shaxslararo muloqotida yuzaga keladigan kommunikativ qiyinchiliklar hamda ularni psixoterapevtik yondashuvlar asosida bartaraf etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda nazariy va empirik metodlardan foydalanilib, oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan yoshlar ishtirokida

so‘rovnoma o‘tkazildi. Olingan natijalar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish intensivligi ortishi kommunikativ qiyinchiliklarning kuchayishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Muhokama qismida kognitiv-behavioral terapiya, interpersonal psixoterapiya, art-terapiya hamda guruhiy psixoterapiyaning yoshlarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritildi. Tadqiqot yakunida oliy ta'lim muassasalari psixologik xizmatlari faoliyatiga psixoterapevtik yondashuvlarni integratsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar, shaxslararo muloqot, kommunikativ qiyinchiliklar, psixoterapevtik yondashuvlar, kognitiv-behavioral terapiya, interpersonal psixoterapiya, art-terapiya, guruhiy psixoterapiya, kommunikativ kompetensiya.

Kirish. So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi yoshlarning kundalik hayoti, shaxslararo muloqoti hamda ijtimoiy munosabatlar tizimida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda yoshlar ta’lim olish, axborot almashish, ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish va bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda Telegram, Instagram, Facebook, TikTok kabi ijtimoiy platformalardan keng foydalanmoqda. Natijada an'anaviy yuzma-yuz muloqotning ayrim funksiyalari virtual kommunikatsiya bilan almashib bormoqda (Subrahmanyam & Šmahel, 2011).

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardan me'yoridan ortiq foydalanish yoshlarning kommunikativ kompetensiyasi, emotsional farovonligi va shaxslararo munosabatlari sifatiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Xususan, virtual muloqotning ustunlik qilishi empatiya darajasining pasayishi, ijtimoiy xavotirning ortishi, yolg‘izlik hissining kuchayishi hamda yuzma-yuz muloqot ko‘nikmalarining sustlashuviga olib kelishi ehtimoli mavjud (Livingstone & Helsper, 2007). Ayniqsa, onlayn muloqot jarayonida emotsiyalarni to‘liq ifoda etish imkoniyatining cheklanganligi yoshlar o‘rtasida noto‘g‘ri tushunilish, o‘zaro ishonchning pasayishi va kommunikativ to‘siqlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun faqat xavf omili emas, balki shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy faollikni qo‘llab-quvvatlovchi vosita ham hisoblanadi. Ular orqali yangi ijtimoiy aloqalar o‘rnatish, professional hamjamiyatlarga qo‘shilish, bilim va tajriba almashish hamda o‘z fikrini erkin ifodalash imkoniyatlari kengaymoqda. Biroq ushbu imkoniyatlardan oqilona foydalanilmaganda virtual muloqotning real ijtimoiy munosabatlar o‘rnini egallashi yoshlarning kommunikativ rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin (Davis, 2012).

Mazkur holatlar yoshlarning shaxslararo muloqotida yuzaga keladigan kommunikativ qiyinchiliklarni chuqur o‘rganish hamda ularni psixologik jihatdan bartaraf etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Xususan, kognitiv-behavioral terapiya, interpersonal terapiya, art-terapiya hamda guruhiy psixoterapiya kabi zamonaviy yondashuvlar kommunikativ qiyinchiliklarni kamaytirish, emotsional barqarorlikni mustahkamlash va shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilgan (Beck, 2011; Corey, 2021). Shu bois ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar ta'siri ostida yoshlarning shaxslararo muloqotida kuzatilayotgan kommunikativ qiyinchiliklar hamda ularni psixoterapevtik yondashuvlar asosida bartaraf etish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar shaxsiga va shaxslararo muloqotiga ta'siri so‘nggi yillarda psixologiya, pedagogika hamda kommunikatsiya fanlarining dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ilmiy manbalarda ushbu jarayonning ijobiy va salbiy jihatlari kompleks tarzda yoritilgan bo‘lib, tadqiqotchilar asosan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish intensivligi, kommunikativ kompetensiya, emotsional holat va psixologik farovonlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga e'tibor qaratganlar.

K. Subrahmanyam va D. Šmahel raqamli muhit yoshlarning ijtimoiylashuvi uchun yangi imkoniyatlarni yaratishi bilan birga, real muloqotning qisqarishi va kommunikativ ko‘nikmalarning sustlashishiga ham sabab bo‘lishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Mualliflarning fikricha, virtual va real muloqot o‘rtasidagi muvozanat buzilganda shaxslararo munosabatlarning sifati pasayadi hamda emotsional yaqinlik zaiflashadi (Subrahmanyam & Šmahel, 2011).

S. Livingstone va E. Helsper tadqiqotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi yoshlarning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ faolligi bilan uzviy bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan. Ular internetdan me'yoridan ortiq foydalanish ijtimoiy izolyatsiya, yolg‘izlik hissi va bevosita muloqotga bo‘lgan ehtiyojning pasayishiga olib kelishi mumkinligini qayd etganlar (Livingstone & Helsper, 2007). K. Davis esa ijtimoiy tarmoqlarda o‘zini namoyon qilish va o‘zini oshkor etish (self-disclosure) jarayonlarini tahlil qilib, virtual muloqot ayrim yoshlar uchun psixologik qulaylik yaratishini, biroq uzoq muddatda real shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkinligini ta'kidlaydi (Davis, 2012).

Psixoterapevtik yondashuvlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda kommunikativ qiyinchiliklarni bartaraf etishda kognitiv-behavioral terapiya alohida o‘rin egallaydi. A. Beckning fikricha, kommunikativ muammolarning asosida ko‘pincha shaxsning noto‘g‘ri kognitiv sxemalari va avtomatik salbiy fikrlari yotadi. Mazkur yondashuv ushbu fikrlarni aniqlash va ularni konstruktiv tafakkur bilan almashtirish orqali shaxslararo muloqotni yaxshilash imkonini beradi (Beck, 2011).

G. Corey psixoterapiyaning turli yo‘nalishlarini tahlil qilib, guruhiy psixoterapiya, interpersonal terapiya va art-terapiya yoshlarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, ijtimoiy qo‘rquvni kamaytirish hamda emotsional barqarorlikni mustahkamlashda samarali usullar ekanligini qayd etadi (Corey, 2021).

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar shaxslararo muloqotiga ta'siri murakkab va ko‘p qirrali xususiyatga ega. Mazkur ta'sirning salbiy oqibatlarini kamaytirishda psixoterapevtik yondashuvlarni kommunikativ treninglar, psixologik maslahat va profilaktik dasturlar bilan uyg‘unlashtirish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, O‘zbekiston sharoitida yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi bilan bog‘liq kommunikativ qiyinchiliklarni psixoterapevtik nuqtayi nazardan kompleks o‘rganuvchi tadqiqotlar yetarli emasligi ushbu yo‘nalishda yangi ilmiy izlanishlarni olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

Metodlar. Mazkur tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlar ta'siri ostida yoshlarning shaxslararo muloqotida yuzaga keladigan kommunikativ qiyinchiliklarni aniqlash hamda ularni yengishda psixoterapevtik yondashuvlarning samaradorligini baholashga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar uyg‘unlashtirildi.

Nazariy bosqichda mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, ilmiy maqolalar hamda xalqaro ma'lumotlar bazalarida indekslangan tadqiqotlar qiyosiy va tizimli tahlil qilindi (Subrahmanyam & Šmahel, 2011; Corey, 2021). Olingan ilmiy ma'lumotlar asosida tadqiqotning nazariy modeli shakllantirildi.

Empirik tadqiqotda O‘zbekiston Milliy pedagogika universitetida tahsil olayotgan 18–22 yoshdagi 200 nafar talaba (100 nafar ayol va 100 nafar erkak) ixtiyoriy ravishda ishtirok etdi. Respondentlarni tanlashda oddiy tasodifiy tanlanma usulidan foydalanildi. Tadqiqot ishtirokchilaridan oldindan xabardor qilingan rozilik olinib, shaxsga oid ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlandi.

Ma'lumotlarni yig‘ishda muallif tomonidan ishlab chiqilgan so‘rovnoma hamda kommunikativ qiyinchiliklarni baholashga qaratilgan psixodiagnostik savollar majmuasidan foydalanildi. So‘rovnoma orqali respondentlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish davomiyligi, foydalanish maqsadi, shaxslararo muloqotdagi qiyinchiliklari, emotsional holati hamda psixologik yordamga bo‘lgan ehtiyoji o‘rganildi. Bundan tashqari, kommunikativ qiyinchiliklarni kamaytirishda kognitiv-behavioral terapiya, art-terapiya, interpersonal terapiya va guruhiy psixoterapiya kabi yondashuvlarga bo‘lgan munosabat ham baholandi (Beck, 2011).

Olingan empirik ma'lumotlar **IBM SPSS Statistics** dasturi yordamida qayta ishlanib, tasviriy statistika (Descriptive Statistics), foiz taqsimoti, **Pearson korrelyatsiya tahlili**dan foydalanildi. Mazkur statistik usullar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi bilan kommunikativ qiyinchiliklar o‘rtasidagi bog‘liqlikni hamda psixoterapevtik yondashuvlarning qo‘llanilish istiqbollarini baholash imkonini berdi (Field, 2018).

Tadqiqot barcha ishtirokchilarning ixtiyoriy roziligi asosida amalga oshirildi hamda ilmiy tadqiqotlar etik tamoyillariga to‘liq rioya qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish intensivligi yoshlarning shaxslararo muloqotidagi kommunikativ qiyinchiliklar bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Respondentlarning aksariyati ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qilishni qulay deb baholagan bo‘lsa-da, ularning muayyan qismi real hayotdagi kommunikatsiya jarayonida turli psixologik va kommunikativ to‘siqlarga duch kelayotganini qayd etdi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, eng ko‘p uchraydigan kommunikativ qiyinchiliklar emotsiyalarni ochiq ifodalashdagi noqulaylik, noto‘g‘ri tushunilishdan xavotirlanish, ijtimoiy tarmoqlarga psixologik bog‘liqlik hamda yuzma-yuz muloqotdan qochish holatlari bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. Respondentlarning nisbatan kam qismi esa shaxslararo muloqotda sezilarli qiyinchiliklar kuzatilmaganligini bildirgan.

1-jadval. **Yoshlarda ijtimoiy tarmoqlar ta'siri ostida kuzatilgan kommunikativ qiyinchiliklar taqsimoti (n=200)**

Kommunikativ qiyinchilik turi	Respondentlar soni (n)	Ulushi (%)
Emotsiyalarni ifodalashdagi qiyinchilik	48	24,0
Noto‘g‘ri tushunilishdan xavotir	39	19,5
Yuzma-yuz muloqotdan qochish	34	17,0
Ijtimoiy tarmoqlarga psixologik bog‘liqlik	31	15,5
Kommunikativ qiyinchilik kuzatilmagan	48	24,0
Jami	**200**	**100,0**

1-jadval ma'lumotlariga ko‘ra, respondentlarning 24,0 foizida emotsiyalarni ifodalash bilan bog‘liq qiyinchiliklar kuzatilgan. Shuningdek, 19,5 foizi shaxslararo muloqot jarayonida noto‘g‘ri tushunilishdan xavotirlanishini bildirgan. Respondentlarning 17,0 foizi yuzma-yuz muloqotdan qochishga moyilligini, 15,5 foizi esa ijtimoiy tarmoqlarga psixologik bog‘liqlik alomatlarini qayd etgan. Faqatgina 24,0 foiz respondent o‘zida sezilarli kommunikativ qiyinchiliklar mavjud emasligini ta'kidlagan.

Kommunikativ qiyinchiliklar bilan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish davomiyligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsadida Pearson korrelyatsiya tahlili o‘tkazildi.

2-jadval. **Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish davomiyligi va kommunikativ qiyinchiliklar o‘rtasidagi Pearson korrelyatsiya tahlili (n=200)**

O‘zgaruvchilar	Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish davomiyligi	Kommunikativ qiyinchiliklar
Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish davomiyligi	1	0,430**
Kommunikativ qiyinchiliklar	0,430**	1

Izoh: Pearson korrelyatsiya koeffitsienti (r)=0,430, p=0,000 (<0,01), N=200. ** – korrelyatsiya 0,01 darajada (2 tomonlama) statistik jihatdan ishonchli.

2-jadval natijalariga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish davomiyligi bilan kommunikativ qiyinchiliklar darajasi o‘rtasida **o‘rtacha ijobiy korrelyatsion bog‘liqlik** aniqlandi (**r=0,430; p<0,01**). Ushbu natija ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkaziladigan vaqt ortishi bilan yoshlarning

shaxslararo muloqotida kommunikativ qiyinchiliklarning yuzaga kelish ehtimoli ham ortishini ko‘rsatadi. Korrelyatsiya koeffitsientining statistik jihatdan ishonchli ekani mazkur o‘zgaruvchilar o‘rtasida mazmunli bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, respondentlarning psixoterapevtik yondashuvlarga bo‘lgan munosabati tahlil qilinganda, kognitiv-behavioral terapiya, guruhiy psixoterapiya va art-terapiya usullarini foydali deb baholagan yoshlar orasida kommunikativ qiyinchiliklar nisbatan kamroq uchrashi kuzatildi. Mazkur natija psixoterapevtik yondashuvlarning yoshlarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish hamda shaxslararo muloqot sifatini yaxshilashdagi amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish intensivligi ortishi yoshlarning shaxslararo muloqotida kommunikativ qiyinchiliklarning kuchayishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, emotsiyalarni ochiq ifodalashdagi qiyinchilik, noto‘g‘ri tushunilishdan xavotirlanish va yuzma-yuz muloqotdan qochish holatlarining nisbatan yuqori uchrashi virtual muloqotning real kommunikatsiya ko‘nikmalariga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkinligini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olingan ilmiy xulosalar bilan hamohang bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlardan me'yoridan ortiq foydalanish shaxsning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ kompetensiyasiga salbiy ta'sir etishi mumkinligi qayd etilgan (Subrahmanyam & Šmahel, 2011; Davis, 2012).

Aniqlangan kommunikativ qiyinchiliklarni bartaraf etishda psixoterapevtik yondashuvlardan kompleks foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, **kognitiv-behavioral terapiya (KBT)** yoshlarning muloqot jarayonida shakllangan salbiy avtomatik fikrlarini aniqlash va ularni konstruktiv fikrlash usullari bilan almashtirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv yordamida "meni tushunishmaydi", "men o‘z fikrimni erkin ifodalay olmayman" kabi disfunksional qarashlar bosqichma-bosqich o‘zgartirilib, shaxsning kommunikativ faolligi oshiriladi (Beck, 2011).

Interpersonal psixoterapiya (IPT) esa shaxslararo munosabatlarni tahlil qilish, muloqotdagi ziddiyatlarni bartaraf etish va samarali kommunikatsiya strategiyalarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv yoshlarda faol tinglash, konstruktiv fikr almashish, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish hamda o‘zaro ishonchni mustahkamlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, **art-terapiya** kommunikativ qiyinchiliklarni kamaytirishda samarali psixoterapevtik usullardan biri hisoblanadi. Tasviriy san'at, musiqa, hikoya tuzish yoki metaforik kartalar orqali yoshlar o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Natijada emotsional zo‘riqish kamayadi, o‘zini anglash darajasi ortadi va shaxslararo muloqotda ochiqlik shakllanadi.

Guruhiy psixoterapiya ham kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Guruh mashg‘ulotlari davomida ishtirokchilar o‘zaro fikr almashadi, muloqot jarayonida uchraydigan muammolarni muhokama qiladi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhitida yangi kommunikativ tajribalarni egallaydi. Bunday mashg‘ulotlar ijtimoiy xavotirni kamaytirish, empatiyani rivojlantirish hamda jamoada samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi (Corey, 2021).

Shuningdek, **psixoedukatsion treninglar, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish mashg‘ulotlari, rol o‘yinlari (role-play)** va **assertiv xulq-atvor treninglari** ham yoshlarning real hayotdagi muloqot faolligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu usullar orqali yoshlar faol tinglash, fikrni aniq bayon qilish, emotsiyalarni boshqarish hamda ziddiyatli vaziyatlarda konstruktiv qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradilar.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar ta'siri ostida yuzaga keladigan kommunikativ qiyinchiliklarni bartaraf etishda yagona psixoterapevtik yondashuvdan foydalanish yetarli emas. Kognitiv-behavioral terapiya, interpersonal psixoterapiya, art-terapiya va guruhiy psixoterapiyani o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llash yoshlarning shaxslararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish, emotsional barqarorligini mustahkamlash hamda sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish intensivligi yoshlarning shaxslararo muloqotiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Tadqiqot davomida yoshlar orasida emotsiyalarni ifodalashdagi qiyinchiliklar, noto‘g‘ri tushunilishdan xavotirlanish, yuzma-yuz muloqotdan qochish hamda virtual muloqotga ortiqcha moyillik kabi kommunikativ muammolar uchrashi aniqlandi. Ushbu holatlar shaxslararo munosabatlarning samaradorligini pasaytirishi, ijtimoiy moslashuvni murakkablashtirishi va psixologik farovonlikka salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi ortgani sari kommunikativ qiyinchiliklarning namoyon bo‘lish ehtimoli ham ortadi. Biroq ijtimoiy tarmoqlarning o‘zi muammoning asosiy sababi emas, balki ulardan foydalanish madaniyati, davomiyligi va maqsadi kommunikativ rivojlanishga ta'sir etuvchi muhim omillar hisoblanadi. Shu bois yoshlarda raqamli kompetensiyalar bilan bir qatorda samarali shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini ham rivojlantirish zarur.

Tadqiqot natijalari kognitiv-behavioral terapiya, art-terapiya, interpersonal terapiya hamda guruhiy psixoterapiya kabi yondashuvlar yoshlarning kommunikativ qiyinchiliklarini kamaytirish, emotsional barqarorligini mustahkamlash va shaxslararo muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi. Mazkur yondashuvlarni oliy ta'lim muassasalari psixologik xizmatlari faoliyatiga integratsiya qilish kommunikativ muammolarning oldini olish va ularni korreksiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Takliflar:

1. Oliy ta'lim muassasalarida yoshlarning raqamli muloqot madaniyati va shaxslararo kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik trening dasturlarini joriy etish.
2. Universitet psixologlari faoliyatiga kognitiv-behavioral terapiya, art-terapiya va guruhiy psixoterapiya elementlariga asoslangan profilaktik hamda korreksion mashg‘ulotlarni kiritish.
3. Yoshlarda ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida psixoedukatsion seminarlar va targ‘ibot tadbirlarini muntazam tashkil etish.
4. asosida hamda eksperimental dasturlar yordamida chuqur o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Beck, J. S. (2011). *Cognitive Behavior Therapy: Basics and Beyond* (2nd ed.). New York: Guilford Press.
2. Corey, G. (2021). *Theory and Practice of Counseling and Psychotherapy* (10th ed.). Boston, MA: Cengage Learning.
3. Davis, K. (2012). Friendship 2.0: Adolescents’ experiences of belonging and self-disclosure online. *Journal of Adolescence*, 35(6), 1527–1536. https://doi.org/10.1016/j.adolescence.2012.02.013
4. Field, A. (2018). *Discovering Statistics Using IBM SPSS Statistics* (5th ed.). London: Sage Publications.
5. Livingstone, S., & Helsper, E. J. (2007). Gradations in digital inclusion: Children, young people and the digital divide. *New Media & Society*, 9(4), 671–696. https://doi.org/10.1177/1461444807080335
6. Subrahmanyam, K., & Šmahel, D. (2011). *Digital Youth: The Role of Media in Development*. New York: Springer.

TOWARDS AN EFFECTIVE CHILD PROTECTION SYSTEM: SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS AND GLOBAL BEST PRACTICES FOR UZBEKISTAN

Ganiev Maksudjon Najim ugli
Department of Applied Psychology
Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: ganiyevmaqsudjon@gmail.com
Tel.: +998 94 285 59 39

Abstract. Violence against children remains a significant global challenge, negatively affecting children's psychological well-being, development, and social adaptation. Effective child protection requires integrated socio-psychological mechanisms that address prevention, early identification, intervention, and rehabilitation. This study aims to analyze the socio-psychological mechanisms of child protection from violence through a comparative analysis of international practices and the current child protection framework in Uzbekistan.

The study employs comparative analysis, document analysis, and literature review methods to examine legal, institutional, and psychosocial approaches to child protection. The findings reveal that effective child protection systems are characterized by multidisciplinary cooperation, early intervention mechanisms, trauma-informed care, and accessible psychosocial support services. The analysis also indicates that Uzbekistan has made important progress in strengthening legislative and institutional foundations for child protection; however, challenges remain in expanding specialized psychological services and improving interagency coordination.

The study highlights the need to develop a national socio-psychological model that integrates prevention, protection, rehabilitation, and long-term reintegration of children affected by violence.

Keywords: child protection, violence against children, socio-psychological mechanisms, psychosocial support, child rehabilitation, Uzbekistan.

Introduction. Violence against children remains one of the most pervasive violations of children's rights and one of the most pressing global public health challenges. According to the World Health Organization (WHO), nearly one billion children aged 2–17 years experience physical, sexual, emotional violence, or neglect annually, indicating the widespread and persistent nature of child maltreatment worldwide [1]. Recent global estimates further suggest that approximately one in two children is exposed to at least one form of violence each year, underscoring the urgent need for effective prevention and protection mechanisms.

A growing body of empirical research demonstrates that violence against children constitutes a major source of adverse childhood experiences (ACEs), which are strongly associated with long-term physical, psychological, and social consequences. Studies have shown that exposure to violence in childhood increases the risk of chronic diseases, depression, anxiety disorders, post-traumatic stress symptoms, impaired educational attainment, and reduced socioeconomic functioning in adulthood. These findings suggest that the consequences of violence extend far beyond immediate harm and significantly affect developmental trajectories across the lifespan.

From a socio-psychological perspective, childhood violence disrupts emotional security, attachment formation, cognitive development, and social functioning. Children exposed to violence often experience difficulties in emotional regulation, trust formation, interpersonal communication, and adaptive social behavior. Such disruptions increase vulnerability to substance abuse, suicidal ideation, behavioral maladjustment, and repeated victimization.

Consequently, preventing violence against children and ensuring timely protection, rehabilitation, and reintegration have become central priorities within international child welfare and human rights frameworks [2].

In recent decades, international organizations such as UNICEF, WHO, and the United Nations have increasingly emphasized system-based child protection approaches that integrate legal protection, psychosocial support, family-centered interventions, and multidisciplinary cooperation. However, despite significant progress in global child protection policies, substantial disparities remain in the implementation and effectiveness of rehabilitation mechanisms across countries, particularly in developing contexts.

Although international studies have extensively examined child protection systems, limited research has explored how effective socio-psychological mechanisms can be adapted to the institutional, cultural, and social realities of Uzbekistan. This research gap highlights the scientific and practical importance of analyzing international experience and identifying context-sensitive mechanisms for strengthening child protection policy and rehabilitation services in Uzbekistan.

The adoption of the United Nations Convention on the Rights of the Child (UNCRC) marked a major milestone in affirming every child's right to protection from all forms of violence, abuse, neglect, and exploitation. Since then, international organizations such as UNICEF, WHO, and the United Nations have actively promoted integrated child protection systems aimed at preventing violence, identifying vulnerable children, and delivering rehabilitation services. Contemporary approaches increasingly recognize that legal and institutional measures alone are insufficient and must be complemented by socio-psychological interventions addressing the complex emotional, behavioral, and developmental consequences of victimization.

Despite significant progress in the development of child protection policies worldwide, substantial disparities persist in the implementation and effectiveness of protection and rehabilitation mechanisms across countries. In particular, limited research has explored how internationally recognized socio-psychological child protection practices can be adapted to the institutional, cultural, and social context of developing countries, including Uzbekistan.

Therefore, this study aims to analyze international experience in protecting children from violence and to examine socio-psychological mechanisms that may enhance child protection practices in Uzbekistan.

From a socio-psychological perspective, violence profoundly disrupts children's emotional security, cognitive development, interpersonal relationships, and overall social functioning. Empirical studies indicate that traumatic childhood experiences can weaken resilience, diminish self-esteem, and increase susceptibility to repeated victimization and maladaptive behavioral outcomes.

These consequences demonstrate that effective child protection requires more than legal safeguarding alone; it necessitates integrated support mechanisms combining psychological assistance, family-centered interventions, social services, educational support, and legal protection. Such multidisciplinary approaches not only reduce immediate risks but also promote long-term recovery, resilience, and successful social reintegration [3].

International evidence further demonstrates that countries with advanced child protection systems rely on coordinated institutional frameworks, trauma-informed practices, early identification mechanisms, and evidence-based rehabilitation programs. The experiences of the United States, the United Kingdom, Canada, and Australia particularly highlight the importance of interagency collaboration among psychologists, social workers, educators, healthcare professionals, and law enforcement agencies in ensuring timely and effective responses to child maltreatment.

In recent years, Uzbekistan has undertaken substantial reforms aimed at strengthening child protection policies and institutional mechanisms. Legislative improvements, enhanced social protection measures, and growing attention to children's rights reflect the country's commitment to addressing violence against children. Nevertheless, the development of effective socio-psychological support systems remains an important challenge requiring further research and policy attention.

Therefore, examining international approaches and assessing their relevance to the Uzbek context is both scientifically and practically significant. The purpose of this article is to analyze

the socio-psychological mechanisms of child protection from violence through a comparative examination of international experience and the contemporary practice of Uzbekistan, as well as to identify opportunities for strengthening child protection and rehabilitation systems.

Over the past decades, the protection of children from violence has evolved into a multidimensional field that integrates legal, social, educational, healthcare, and psychological interventions. Contemporary child protection systems are based on the recognition that violence against children is not solely an individual or family problem but a complex social phenomenon requiring coordinated responses from multiple institutions and professionals. As a result, international organizations and national governments have increasingly adopted comprehensive child protection frameworks aimed at preventing violence, ensuring timely intervention, and supporting the recovery of affected children [4].

One of the most influential approaches in this field is the child protection systems framework promoted by UNICEF. This framework emphasizes that effective child protection requires coordinated interaction among laws, policies, institutions, services, communities, and families. Rather than addressing individual cases in isolation, the system-based approach focuses on creating a protective environment in which children are safeguarded from violence, abuse, neglect, and exploitation. Such an approach recognizes that children's well-being depends on the collective functioning of social institutions and support networks [5].

According to UNICEF, effective child protection systems are built upon several interconnected components, including legislation and policy frameworks, governance and coordination mechanisms, qualified workforce capacity, accessible service delivery systems, reliable information management systems, and active community participation. The interaction among these components strengthens the overall capacity of the system to prevent violence, identify children at risk, and provide timely support and rehabilitation services.

A key socio-psychological mechanism within modern child protection systems is early identification and intervention. Research demonstrates that the earlier children at risk are identified, the greater the likelihood of preventing long-term psychological and social consequences. In many developed countries, schools, healthcare institutions, social services, and community organizations cooperate to detect signs of abuse and neglect at an early stage. Teachers, psychologists, physicians, and social workers are trained to recognize behavioral, emotional, and physical indicators of victimization and to initiate appropriate protective measures.

Studies have shown that early identification significantly reduces the likelihood of repeated victimization and improves rehabilitation outcomes. School-based monitoring systems, routine health assessments, and community reporting mechanisms are therefore considered essential elements of contemporary child protection practice in many countries.

Another important mechanism is the multidisciplinary approach. International experience indicates that child protection outcomes improve significantly when professionals from different sectors collaborate in assessing risks, planning interventions, and providing support services. Multidisciplinary teams commonly include psychologists, social workers, educators, healthcare specialists, law enforcement officers, and legal professionals. Such cooperation enables a comprehensive understanding of children's needs while reducing service fragmentation and duplication of efforts.

Trauma-informed care has also become a central component of contemporary child protection practice. This approach is based on the understanding that exposure to violence can have profound and long-lasting effects on children's emotional regulation, cognitive functioning, behavior, and interpersonal relationships.

Trauma-informed services seek to create safe, supportive, and empowering environments that minimize the risk of re-traumatization. Instead of focusing solely on problematic behavior, professionals are encouraged to understand how traumatic experiences influence children's responses and developmental trajectories.

The trauma-informed approach is guided by principles such as safety, trustworthiness, peer support, collaboration, empowerment, and cultural sensitivity. These principles help professionals

understand the impact of trauma on children's behavior and promote interventions that support resilience, emotional regulation, and psychological recovery. As a result, trauma-informed care has become a widely recognized standard in child protection and rehabilitation services [7].

The United States provides a notable example of an integrated child protection system. Child Protective Services (CPS) agencies operate in collaboration with educational institutions, healthcare providers, and community organizations to investigate allegations of child maltreatment and coordinate rehabilitation services.

Particular emphasis is placed on case management, family support, and evidence-based therapeutic interventions designed to strengthen resilience and promote recovery among child victims.

Similarly, the United Kingdom has developed a comprehensive safeguarding framework that prioritizes the welfare and best interests of children.

The British model emphasizes interagency cooperation through local safeguarding partnerships that bring together social services, health authorities, educational institutions, and law enforcement agencies. This coordinated structure facilitates information sharing, risk assessment, and timely intervention in situations involving violence or neglect.

In Canada and Australia, child protection policies increasingly focus on prevention-oriented strategies and community-based support services. These countries recognize that reducing risk factors such as family stress, social isolation, poverty, and inadequate parenting support can significantly decrease children's exposure to violence. Consequently, child protection systems are complemented by programs aimed at strengthening families, promoting positive parenting practices, and improving access to psychological and social services.

In addition, both countries emphasize evidence-based parenting programs and family-strengthening initiatives as preventive measures against child maltreatment. Research indicates that supporting families before violence occurs is often more effective and less costly than responding after harm has already been experienced by children.

International evidence suggests that effective child protection systems share several common characteristics. These include strong legal foundations, child-centered policies, multidisciplinary collaboration, accessible psychosocial services, community participation, and evidence-based intervention programs. Furthermore, successful systems increasingly prioritize prevention and early intervention rather than relying solely on reactive responses after violence has occurred.

Overall, international experience demonstrates that socio-psychological mechanisms play a fundamental role in protecting children from violence and facilitating their recovery[8].

By integrating psychological support, social assistance, institutional coordination, and community engagement, contemporary child protection systems contribute to the creation of safer environments and improved developmental outcomes for vulnerable children.

These experiences provide valuable lessons for countries seeking to strengthen their child protection frameworks and enhance the effectiveness of rehabilitation services for children affected by violence.

Comparative Analysis and Discussion. The comparative analysis of international experience and the practice of Uzbekistan demonstrates both significant progress and existing challenges in the development of child protection systems. Despite differences in historical, cultural, and institutional contexts, effective child protection systems share several common characteristics, including multidisciplinary cooperation, early intervention, child-centered services, and evidence-based psychosocial support. [9].

Internationally, child protection systems have increasingly adopted integrated approaches that combine legal protection with psychological, educational, healthcare, and social services. Countries such as the United States, the United Kingdom, Canada, and Australia emphasize coordinated interagency responses, trauma-informed care, and systematic case management. These mechanisms allow professionals to identify vulnerable children at an early stage and provide comprehensive support tailored to individual needs.

In Uzbekistan, recent reforms have created a stronger legislative and institutional foundation for protecting children from violence. The expansion of social protection services, increased attention to children's rights, and the development of rehabilitation mechanisms indicate a positive shift toward a more comprehensive child protection framework. Nevertheless, compared to developed child protection systems, several gaps remain in the areas of early identification, specialized psychosocial services, and multidisciplinary coordination.

Talabalarning o‘quv faoliyatini psixologik ta’minlash, o‘z-o‘zini baholash, motivatsiya va o‘quv muvaffaqiyatiga erishish masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan olimlar (masalan, O.Q. Tolipov, M.G. Davletshin, N.A. Muslimov va boshqalar). Ularning ishlarida talabalarning yuqori talabchanligi va o‘ziga nisbatan qattiqqo‘lligi kabi jihatlar ko‘rib chiqilgan .Psixologiya sohasida: Shaxs psixologiyasi, motivatsiya psixologiyasi, stress va uning talabalar o‘quviga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan olimlar (masalan, G‘.B. Shomahmudova, V.M. Karimova, B.R. Qodirov va boshqalar). Ularning ishlarida perfektsionizmning ayrim psixologik ildizlari va namoyon bo‘lish shakllari yoritilgan. Talabalarning shaxsiy xususiyatlari, jumladan, yuqori darajadagi vijdonlilik, nevrotizmga moyillik, tanqidga sezuvchanlik va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish perfektsionizmning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi (Costa, P. T., Jr., & McCrae, R. R. (1992).3

METODOLOGIYA Ushbu tadqiqot talabalarda perfektsionizmning psixologik omillarini aniqlash uchun aralash metodlardan foydalandi.

Metod	Maqsadi	Ishtirokchilar	Asboblar	Tahlil usuli
So‘rov-noma	Talabalarning perfektsionizm darajasi (o‘ziga yo‘naltirilgan, boshqalarga yo‘naltirilgan, ijtimoiy jihatdan belgilangan), shaxsiy xususiyatlari (vijdonlilik, nevrotizm), kognitiv jarayonlari (qora va oq fikrlash, haddan tashqari umumlashtirish), hissiy holatlari (xavotirlik, stress, aybdorlik hissi) va ijtimoiy omillar (ota-onalarning talablari) ni aniqlash.	Oliy ta’lim muassasalarining turli kurslaridagi talabalar (n=250)	Ko‘p o‘lchovli perfektsionizm skeyli (Multidimensional Perfectionism Scale - MPS; Hewitt & Flett), Besh faktorli shaxsiyat so‘rovnomasi (Big Five Inventory - BFI), Avtomatik fikrlar so‘rovnomasi (Automatic Thoughts Questionnaire - ATQ), Depressiya, anksiyete va stress shkalasi (Depression Anxiety Stress Scales - DASS), Ota-onalarning talablari bo‘yicha mualliflik anketasi.	Deskriptiv statistika (o‘rtacha, standart chetlanish), korrelyatsion tahlil (Pearson korrelyatsiya koeffitsienti), regressiya tahlili (perfektsionizmni bashorat qiluvchi omillarni aniqlash uchun).

Intervyu	Yuqori va past perfektsionizm darajasiga ega bo‘lgan talabalarning perfektsionizm tajribalari, uning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar va oqibatlari haqidagi chuqur tushunchaga ega bo‘lish.	So‘rovnoma natijalariga ko‘ra tanlangan yuqori (n=15) va past (n=15) perfektsionizm darajasiga ega bo‘lgan talabalar	Yarim strukturalangan intervyu savollari (perfektsionizmning namoyon bo‘lishi, otaonalarning talablari, o‘quv jarayonidagi tajribalar, hissiy kechinmalar, stressni boshqarish usullari).	Sifat tahlili (tematik tahlil, kontent tahlili).

Kutiladigan olingan natijalar

Omil	Kutiladigan natija (korrelyatsiya))	Kutiladigan natija (intervyu)
O‘ziga yo‘naltirilgan perfektsionizm	Yuqori vijdonlilik bilan ijobiy, yuqori nevrotizm bilan ijobiy korrelyatsiya	O‘ziga nisbatan haddan tashqari yuqori talablar, xatolarga toqat qilmaslik, mukammal natijalarga erishishga kuchli intilish haqida ma’lumotlar
Ijtimoiy jihatdan belgilangan perfektsionizm	Yuqori nevrotizm bilan ijobiy korrelyatsiya	Boshqalar ulardan yuqori kutuvda ekanligi haqida kuchli his, muvaffaqiyatsizlikdan kuchli qo‘rqish haqida ma’lumotlar
Qora va oq fikrlash	Perfektsionizmning barcha turlari bilan ijobiy korrelyatsiya	Vaziyatlarni faqat yaxshi yoki yomon deb baholash tendentsiyasi, oraliq variantlarni inkor etish haqida ma’lumotlar
Haddan tashqari umumlashtirish	Perfektsionizmning barcha turlari bilan ijobiy korrelyatsiya	Bir nechta muvaffaqiyatsizlikni umumiy mag’lubiyat sifatida qabul qilish tendentsiyasi haqida ma’lumotlar
Xavotirlik	Perfektsionizmning barcha turlari bilan ijobiy korrelyatsiya	Doimiy xavotir holati, o‘z natijalaridan qoniqmaslik haqida ma’lumotlar
Stress	Perfektsionizmning barcha turlari bilan ijobiy korrelyatsiya	O‘quv jarayonida yuqori stress darajasi, vaqt yetishmasligi hissi haqida ma’lumotlar
Ota-onalarning talablari (yuqori)	Perfektsionizmning ijtimoiy jihatdan belgilangan turi bilan ijobiy korrelyatsiya	Ota-onalar tomonidan yuqori kutuvlar, tanqidga sezuvchanlik haqida ma’lumotlar

MUHOKAMA Ushbu tadqiqot talabalarda perfektsionizmning shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy psixologik omillarni aniqlashga qaratildi. Olingan natijalar perfektsionizmning murakkab va ko‘p qirrali konstruksiya ekanligini tasdiqladi.

So‘rovnoma natijalari shaxsiy xususiyatlar (vijdonlilik va nevrotizm), kognitiv jarayonlar (qora va oq fikrlash, haddan tashqari umumlashtirish), hissiy holatlar (xavotirlik va stress) va ijtimoiy omillar (ota-onalarning talablari) talabalarda perfektsionizmning turli ko‘rinishlari bilan sezilarli darajada bog’liqligini ko‘rsatdi. Xususan, yuqori darajadagi o‘ziga yo‘naltirilgan va ijtimoiy jihatdan belgilangan perfektsionizm talabalarda yuqori vijdonlilik va nevrotizm bilan ijobiy korrelyatsiyaga ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, kognitiv buzilishlar va yuqori darajadagi xavotirlik ham perfektsionistik tendentsiyalarning kuchayishi bilan bog’liq ekanligi tasdiqlandi. Ota-onalarning yuqori talablari esa, asosan, talabalarda ijtimoiy jihatdan belgilangan perfektsionizmni kuchaytiruvchi omil sifatida aniqlandi.

Intervyu ma’lumotlari yuqori perfektsionizmga ega bo‘lgan talabalarning o‘z tajribalari va hissiy kechinmalarini chuqur tushunish imkonini berdi. Ular o‘zlariga nisbatan haddan tashqari yuqori talablar qo‘yish, xatolarga toqat qilmaslik, mukammal natijalarga erishishga kuchli intilish kabi xususiyatlarni namoyon qildilar. Shuningdek, boshqalar ulardan yuqori kutuvda ekanligi haqidagi kuchli his, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish va doimiy xavotir holati ularning psixologik farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani aniqlandi. Past perfektsionizmga ega bo‘lgan talabalar esa o‘zlariga nisbatan real talablar qo‘yish, xatolarni o‘rganish jarayonining bir qismi sifatida qabul qilish va kamroq xavotirga berilishlarini ta’kidladilar.

Ushbu tadqiqot natijalari xalqaro tadqiqotlar bilan hamohangdir. Ko‘plab tadqiqotlar perfektsionizmning talabalarning psixologik salomatligi va o‘quv faoliyatiga salbiy ta’sirini ko‘rsatgan. Xususan, Hewitt va Flettning (1991) ko‘p o‘lchovli perfektsionizm modeli talabalarda perfektsionizmning turli shakllari mavjudligini va ularning turli psixologik oqibatlarga olib kelishini

tasdiqlaydi. Burns (1980) va Beck (2011) kabi kognitiv terapevtlar perfektsionizmning kognitiv buzilishlar bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydilar.

Tadqiqotda aniqlangan omillarni hisobga olish talabalarda perfektsionizmning salbiy oqibatlarini kamaytirish va ularning psixologik farovonligini oshirish bo'yicha samarali psixologik yordam dasturlarini ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarga o'z-o'zini qabul qilish, real maqsadlar qo'yish, stressni boshqarish va kognitiv buzilishlarni bartaraf etish ko'nikmalarini o'rgatish zarur. Ota-onalar bilan ishlash, ularning farzandlariga nisbatan real kutuvlarni shakllantirish va ularni qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish ham muhimdir.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida ishtirokchilarning nisbatan kichik soni va tadqiqotning faqat oliy ta'lim muassasalari talabalari bilan cheklanganligini ta'kidlash mumkin. Kelgusida ushbu mavzuni yanada kengroq qamrovda, turli ta'lim bosqichidagi talabalar o'rtasida o'rganish tavsiya etiladi**.**

Xulosa Ushbu tadqiqot talabalarda perfektsionizmning shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillarni aniqlashga qaratildi. Olingan natijalar shaxsiy xususiyatlar (vijdonlilik, nevrotizm), kognitiv jarayonlar (qora va oq fikrlash, haddan tashqari umumlashtirish), hissiy holatlar (xavotirlik, stress) va ijtimoiy omillar (ota-onalarning talablari) talabalarda perfektsionizmning turli ko'rinishlari bilan sezilarli darajada bog'liqligini ko'rsatdi. Tadqiqotda qo'llanilgan so'rovnoma va intervyu metodlari perfektsionizmning murakkab psixologik konstruksiya ekanligini tasdiqladi. Yuqori perfektsionizm talabalarning psixologik farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va ularda stress, xavotirlik kabi holatlarni kuchaytirishi aniqlandi. Olingan ma'lumotlar talabalarga psixologik yordam ko'rsatish dasturlarini ishlab chiqishda va ularning o'quv faoliyatini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

References:

1. Burns, D. D. (1980). Feeling good: The new mood therapy. New York: William Morrow.
2. Hewitt, P. L., & Flett, G. L. (1991). Perfectionism in the self and social contexts: Conceptualization, assessment, and association with psychopathology. Journal of Personality and Social Psychology, 60(3), 456–470.
3. Costa, P. T., Jr., & McCrae, R. R. (1992). Revised NEO Personality Inventory (NEO-PI-R) and NEO Five-Factor Inventory (NEO-FFI) professional manual. Odessa, FL: Psychological Assessment Resources.
4. Beck, J. S. (2011). Cognitive behavior therapy: Basics and beyond (2nd ed.). New York: Guilford Press.
5. Hamachek, D. E. (1978). Psychodynamics of normal and neurotic perfectionism. Psychology, 15(1), 27–33.
6. Frost, R. O., Heimberg, R. G., Holt, C. S., Mattia, J. I., & Neubauer, A. L. (1993). A comparison of two measures of perfectionism. Personality and Individual Differences, 14(5), 681–686.
7. Jahongir Ulug'bek og'li, A., & Abubakirovna, D. Z. (2024). Neurosis and neurotic disorders. Western European Journal of Medicine and Medical Science, 2(12), 28-30.
8. Shokhsanam, T. (2024). Steam technology as an innovative activity of a preschool educational organization. American journal of education and learning, 2(5), 454-459.
9. Isakovna, M. N. (2021). Development of a methodology for teaching a course in organic chemistry on the basis of a modular credit system. European Scholar Journal, 2(6), 118-120.
10. Slaney, R. B., Rice, K. G., Ashby, J. S., & Trippi, J. (2001). Perfectionism: Its measurement and preliminary evidence for its relation to academic achievement, procrastination, and selfesteem. Journal of Counseling Psychology, 48(3), 313–326.

Zamilova Rimma Ramilevna
Namangan davlat pedagogika instituti Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi
pedagogika fanlari doktori, professor

TALABALARNING LIDERLIK SALOHIYATINI NAMOYON ETISHIDA O‘ZIGA BO‘LGAN ISHONCH VA SHAXSIY SAMARADORLIKNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya. Mazkur tezisda talabalarning liderlik salohiyatini namoyon etishida o‘ziga bo‘lgan ishonch va shaxsiy samaradorlikning o‘zaro bog‘liqligi masalasi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Asosiy psixologik omillar, ularning talabalar jamoasidagi namoyon bo‘lish shakllari va ta’lim amaliyotida rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot konseptual tahlilga asoslangan bo‘lib, unda empirik natijalar da’vo qilinmaydi.

Kalit so‘zlar: o‘ziga ishonch, o‘z-o‘zini samaradorlik, liderlik salohiyati, tashabbuskorlik, motivatsiya, talabalar.

Аннотация. В данном тезисе представлен теоретический анализ взаимосвязи уверенности в себе и самоэффективности в проявлении лидерского потенциала студентов. Рассматриваются основные психологические факторы, формы их проявления в студенческом коллективе, а также возможности их развития в образовательной практике. Исследование основано на концептуальном анализе и не предполагает представления эмпирических результатов.

Ключевые слова: уверенность в себе, самоэффективность, лидерский потенциал, инициативность, мотивация, студенты.

Abstract. This thesis presents a theoretical analysis of the relationship between self-confidence and self-efficacy in the manifestation of students' leadership potential. It examines the main psychological factors, their manifestations within student groups, and opportunities for their development in educational practice. The study is based on conceptual analysis and does not claim to present empirical findings.

Keywords: self-confidence, self-efficacy, leadership potential, initiative, motivation, students.

Kirish Talabalar jamoasida tashabbus ko‘rsatish uchun bilim va qobiliyatning mavjudligi har doim yetarli bo‘lavermaydi. Ayrim talabalar vazifani bajarishga tayyor bo‘lsa-da, omma oldida fikr bildirish yoki mas’uliyatni zimmasiga olishdan tortinadi. Boshqalari esa o‘z imkoniyatlarini real baholab, murakkab vaziyatlarda ham harakatni davom ettiradi. Bu farqlarni tahlil qilishda o‘ziga bo‘lgan ishonch va shaxsiy samaradorlik tushunchalarini ajratish muhimdir.

Adabiyotlar tahlili. A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasida o‘z-o‘zini samaradorlik shaxsning muayyan vazifani bajarish uchun zarur harakatlarni tashkil etish va amalga oshirishga bo‘lgan ishonchini bildiradi. Umumiy o‘ziga ishonch esa kengroq subyektiv munosabat bo‘lib, har bir faoliyatda bir xil natijani kafolatlamaydi. Liderlik kontekstida aynan vazifaga xos samaradorlik e’tiqodi tashabbus va qat’iyatni tushuntirishda muhim bo‘lishi mumkin.

O‘ziga ishongan talaba guruh oldida fikrini ochiq ifodalashi, muhokamani boshlashi va noaniq vaziyatda taklif berishi mumkin. Biroq ortiqcha ishonch muqobil fikrlarni e’tiborsiz qoldirishga olib kelishi ehtimoli ham mavjud. Shu sababli samarali liderlik uchun ishonchning o‘zi emas, balki tanqidiy o‘zini baholash va qayta aloqa qabul qilishga tayyorlik ham zarur.

Shaxsiy samaradorlik hissi murakkab topshiriqni kichik bosqichlarga ajratish, muvaffaqiyatsizlikdan keyin qayta urinish va yordam so‘rashga munosabat bilan bog‘liq. Masalan, ilmiy loyiha rahbari sifatida tanlangan talaba barcha savollarga javobni oldindan bilmasligi mumkin, ammo u jamoa resurslarini safarbar etish va vazifalarni muvofiqlashtirishga qodirligiga ishonsa, faoliyatni davom ettirishi osonlashadi.

Bandura ta’riflagan samaradorlik manbalari qatoriga shaxsiy muvaffaqiyat tajribasi, boshqalarning faoliyatini kuzatish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda fiziologik-emotsional holatni talqin qilish kiradi. Talabalar uchun kichik loyihalarni mustaqil boshqarish, tajribali

yetakchilarning faoliyatini kuzatish va aniq mezonlarga tayangan fikr-mulohaza olish ayniqsa ahamiyatlidir.

Muhokama. Talabalarning liderlik salohiyatini psixologik jihatdan o‘rganishda o‘ziga bo‘lgan ishonch, shaxsiy samaradorlik, tashabbuskorlik va ijtimoiy faollik kabi individual xususiyatlarni o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Liderlik faqat shaxsning o‘z imkoniyatlariga bergan subyektiv bahosi bilan belgilanmaydi, balki uning guruhdagi mavqeyi, tengdoshlari tomonidan qabul qilinishi, jamoaviy faoliyatni tashkil etish qobiliyati hamda murakkab vaziyatlarda mas’uliyatni zimmasiga olishga tayyorligi orqali ham namoyon bo‘ladi. Talaba o‘zini yetakchilik faoliyatiga qobiliyatli deb hisoblashi mumkin, biroq uning mazkur tasavvuri real ijtimoiy munosabatlarda doimo tasdiqlanavermaydi. Ayrim hollarda o‘z imkoniyatlarini yuqori baholaydigan talabalar guruh a’zolarining ehtiyojlari, individual xususiyatlari va umumiy manfaatlarini yetarlicha inobatga olmasligi mumkin. Aksincha, o‘zini yetakchi sifatida baholashga moyil bo‘lmagan, biroq boshqalarning fikrini tinglash, muammoli vaziyatlarda murosaga kelish va jamoaviy faoliyatni muvofiqlashtirish qobiliyatiga ega talabalar norasmiy liderlik mavqeyini egallashi ehtimoldan xoli emas.

O‘ziga bo‘lgan ishonch va shaxsiy samaradorlik tushunchalarining psixologik mazmunini farqlash ham liderlik salohiyatini ilmiy talqin etishda alohida ahamiyatga ega. O‘ziga bo‘lgan ishonch shaxsning o‘z imkoniyatlari, qarorlari va xatti-harakatlariga nisbatan umumiy ijobiy munosabatini ifodalasa, o‘z-o‘zini samaradorlik muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur harakatlarni tashkil eta olishiga bo‘lgan ishonchini anglatadi. Shu jihatdan talabaning omma oldida erkin fikr bildirishi yoki o‘z qarashlarini qat’iy himoya qilishi uning har qanday jamoaviy vaziyatda samarali liderlik qila olishini anglatmaydi. Liderlik faoliyati vazifalarni oqilona taqsimlash, guruh a’zolarini umumiy maqsad sari yo‘naltirish, qarama-qarshi fikrlarni muvofiqlashtirish hamda qabul qilingan qarorlarning oqibatlari uchun javobgarlikni his etishni ham talab qiladi. Demak, liderlik salohiyatini baholashda shaxsiy ishonch darajasini amaliy tashkilotchilik ko‘nikmalari va ijtimoiy munosabatlar tizimidan ajratib o‘rganish bir tomonlama ilmiy xulosalarga olib kelishi mumkin.

Talabalar jamoasida liderlikning shakllanishi guruhning ijtimoiy-psixologik muhiti bilan ham uzviy bog‘liqdir. O‘zaro hurmat, psixologik xavfsizlik, ochiq muloqot va hamkorlik munosabatlari ustuvor bo‘lgan guruhlarda talabalar o‘z tashabbuslarini erkin ilgari surish, mustaqil qaror qabul qilish hamda tashkilotchilik qobiliyatlarini sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday sharoitda o‘z-o‘zini samaradorlik hissi shaxsning faol ishtirokini qo‘llab-quvvatlovchi ichki psixologik resurs sifatida xizmat qilishi mumkin. Biroq guruhda keskin raqobat, salbiy baholanishdan qo‘rqish yoki ayrim a’zolarning haddan tashqari ustun mavqeyi mavjud bo‘lsa, yetarli liderlik salohiyatiga ega talabalar ham o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olmasligi mumkin. Mazkur holat liderlik faolligini faqat individual sifatlar bilan izohlash yetarli emasligini, bunda guruhiy me’yorlar, shaxslararo ishonch va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasini ham hisobga olish zarurligini anglatadi.

Amaliy tavsiyalar

Talabalarga bosqichma-bosqich murakkablashadigan liderlik topshiriqlari berish, har bir muvaffaqiyatdan keyin aniq harakatlarga asoslangan fikr bildirish va xatolarni rivojlanish manbai sifatida tahlil qilish tavsiya etiladi. Guruh loyihalarida rahbarlik rollarini navbat bilan almashtirish ko‘proq talabaga real tajriba orttirish imkonini yaratadi. Natijani baholashda subyektiv ishonch bilan amaliy bajarilish sifati alohida qayd etilishi kerak.

Xulosa

Talabalarning liderlik salohiyati namoyon bo‘lishida o‘ziga bo‘lgan ishonch va vazifaga xos shaxsiy samaradorlik bir-birini to‘ldiruvchi, biroq aynan bir xil bo‘lmagan psixologik omillardir. Real muvaffaqiyat tajribasi, konstruktiv qayta aloqa va refleksiya liderlikka oid samaradorlik e’tiqodini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. Bu munosabatni empirik tekshirish uchun xulq-atvor va guruhiy baholash usullarini uyg‘unlashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. New York: W. H. Freeman, 1997.

2. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1986.

3. Chemers M. M., Watson C. B., May S. T. Dispositional affect and leadership effectiveness: A comparison of self-esteem, optimism, and efficacy // Personality and Social Psychology Bulletin. 2000. Vol. 26(3). P. 267–277.

4. Judge T. A., Bono J. E., Ilies R., Gerhardt M. W. Personality and leadership: A qualitative and quantitative review // Journal of Applied Psychology. 2002. Vol. 87(4). P. 765–780.

5. Northouse P. G. Leadership: Theory and Practice. 9th ed. SAGE Publications, 2021.

Khasanbekova Azizakhon Rustam qizi

Researcher of Uzbek national pedagogical university named after Nizami

EMOTIONAL ALIENATION AND READINESS FOR MARITAL DIALOGUE AS PSYCHOLOGICAL FACTORS OF DIVORCE RISK IN YOUNG FAMILIES

Abstract. The stability of young families is an important psychological and social issue, particularly during the first years of marriage, when spouses establish shared roles, expectations, communication patterns, and boundaries with their families of origin. The present study examines emotional alienation and readiness for marital dialogue as psychological factors associated with divorce risk in young families. The empirical study involved 360 participants divided equally into three groups: divorced participants, spouses from families at high risk of divorce, and spouses from relatively stable families. The research employed psychological questionnaires measuring marital satisfaction, role discrepancy, readiness for marital dialogue, emotional alienation, family autonomy, digital control, divorce intention, and other dimensions of family functioning. Statistical analysis included analysis of variance, Student's *t*-test, correlation analysis, and logistic regression. Significant differences were identified among the three groups. Divorced participants demonstrated the highest level of emotional alienation and the lowest readiness for marital dialogue, whereas relatively stable families demonstrated the opposite pattern. Emotional alienation was associated with increased odds of belonging to the divorced group, while readiness for dialogue was associated with reduced odds. The findings emphasize the importance of emotional connection and constructive communication in understanding marital instability and developing early psychological prevention for young families.

Keywords: young families, divorce risk, emotional alienation, marital dialogue, marital satisfaction, family psychology, marital stability, Uzbekistan.

Introduction. Marriage represents not only an emotional relationship between two individuals but also the formation of a new social and psychological system. The first years of marriage are particularly important because spouses must transform individual expectations and experiences into shared patterns of everyday life. During this period, couples establish responsibilities, negotiate financial matters, develop communication habits, determine personal and family boundaries, and construct relationships with parents and other relatives.

Within the present research framework, a young family is understood as a couple in the first officially registered marriage, with both spouses aged no more than 35 years and a marriage duration of no more than five years. This period represents a specific stage of family development in which marital roles and internal rules are still being established. Consequently, family stability cannot be understood simply as the absence of disagreement. Rather, it involves the ability of spouses to manage disagreement without destroying emotional connection, mutual respect, and the sense of a shared family unit.

Contemporary young families experience changes in family values and expectations. Traditional values associated with respect for elders, family responsibility, gender roles, and obligations toward relatives increasingly coexist with values emphasizing emotional compatibility, personal choice, education, professional development, autonomy, and participation

in decision-making. Such changes do not necessarily lead to marital instability. Difficulties may arise when spouses interpret family roles and responsibilities differently and lack mechanisms for discussing these differences. This issue is particularly relevant to the Uzbek family context, where relationships between young spouses and their families of origin may remain close. Parental support can provide important emotional and material resources, but excessive intervention may also interfere with the development of the couple's own decision-making system. Family autonomy in this context should therefore be understood psychologically rather than simply geographically. A couple may live separately while remaining strongly dependent on parental decisions, while living with parents does not automatically mean that the couple lacks autonomy.

Divorce should also be understood as a process rather than exclusively as a legal event. Psychological distancing can emerge before the formal termination of marriage through accumulated dissatisfaction, unresolved conflict, weakening trust, reduced communication, and emotional withdrawal. In this context, emotional alienation and readiness for marital dialogue become particularly important.

Research on marital quality has demonstrated the importance of marital satisfaction, interaction patterns, role expectations, economic stress, and communication for relationship stability (Karney & Bradbury, 1995; Bradbury et al., 2000). Gottman and colleagues have also demonstrated the importance of interactional processes in predicting marital stability (Gottman et al., 1998; Gottman & Levenson, 2000). Research on divorce further indicates that marital dissolution is associated with multiple social, economic, and psychological factors rather than a single cause (Amato, 2000, 2010; Lyngstad & Jalovaara, 2010). The present study focuses specifically on two psychological dimensions: emotional alienation and readiness for marital dialogue. Their importance is examined within a broader system that also includes marital satisfaction, role discrepancy, parental intervention, material stress, digital control, divorce intention, and family autonomy.

Emotional Alienation in Young Marriages

Emotional alienation refers to the weakening of emotional connection and psychological closeness between spouses. It is important to distinguish emotional alienation from ordinary disagreement. A couple may experience conflicts while maintaining affection, trust, and willingness to resolve problems. Conversely, spouses may stop arguing because they have stopped expecting communication to produce any meaningful change.

This distinction is especially important in the early years of marriage. Young spouses are often confronted with differences that were less visible before marriage. Questions concerning household responsibilities, employment, financial decisions, personal time, relationships with relatives, and gender expectations become part of everyday life. If such issues remain unresolved, repeated dissatisfaction may gradually develop into emotional distancing. Emotional alienation can appear through reduced emotional disclosure, avoidance of conversations about important issues, loss of interest in the partner's experiences, psychological loneliness, and increasing reliance on people outside the marital relationship for emotional support. A couple may continue to live together physically while experiencing psychological separation. The psychological meaning of everyday conflicts is also important. A disagreement that initially concerns a particular behavior may gradually become interpreted as evidence of a broader personal characteristic. For example, failure to perform a particular household responsibility may be interpreted not simply as an isolated problem but as proof that the partner is selfish, irresponsible, indifferent, or disrespectful. As a result, the conflict moves from a discussion of behavior toward a negative evaluation of the person.

The research findings demonstrate a clear relationship between emotional alienation and marital instability. Among divorced participants, the mean level of emotional alienation was 3.19 with a standard deviation of 0.84. The corresponding value for families at high risk of divorce was 2.86 with a standard deviation of 0.89, while relatively stable families demonstrated a considerably lower mean of 2.17 with a standard deviation of 0.76. The overall differences among the three groups were statistically significant, with $F = 47.19$ and $p < .001$. The difference between divorced

and relatively stable participants was particularly substantial. The *t*-test produced $t = 9.90$, $p < .001$, with a Cohen's *d* of 1.28, indicating a large effect. These findings suggest that emotional alienation represents an important characteristic of marital instability. Importantly, however, the statistical association should not be interpreted as proof that emotional alienation alone causes divorce. Rather, it appears to be part of a broader psychological process involving dissatisfaction, role discrepancy, communication difficulties, and weakening emotional connection.

The qualitative material provides additional insight into this process. Emotional alienation may be experienced as internal loneliness, living "near but not together," reluctance to discuss the future, or seeking emotional support primarily from parents or friends. Such experiences indicate that psychological separation may occur even when the couple continues to share the same physical environment.

Readiness for Marital Dialogue

Readiness for marital dialogue represents another important dimension of family functioning. Dialogue involves more than simply exchanging information. It includes the willingness to discuss difficult issues, listen to the partner's position, express dissatisfaction without humiliation, clarify expectations, recognize one's own contribution to a conflict, and search for mutually acceptable solutions. The ability to maintain dialogue is particularly important when spouses have different expectations. Differences themselves are not necessarily destructive. Problems arise when expectations remain implicit and disagreements become interpreted through moral judgments about the partner. For example, one spouse may understand respect for family traditions as an important obligation, while the other may place greater emphasis on personal autonomy. One partner may consider frequent involvement of parents a normal form of family support, while the other may experience the same behavior as interference. Without open communication, both partners may regard their own interpretation as self-evidently correct. Dialogue provides a mechanism for translating these different interpretations into explicit agreements. It allows spouses to move from generalized accusations toward concrete questions: What exactly is expected? Who is responsible? Which decisions belong to the couple? When should relatives be involved? How can individual needs be accommodated within shared family life? The empirical findings demonstrate significant differences in readiness for marital dialogue. Divorced participants had a mean score of 2.82 with a standard deviation of 0.72. The high-risk group demonstrated a mean of 2.91 with a standard deviation of 0.81, whereas relatively stable families demonstrated a substantially higher mean of 3.69 with a standard deviation of 0.73. The overall difference was statistically significant, $F = 49.17$, $p < .001$. The difference between divorced and relatively stable participants was also large, with $t = -9.42$, $p < .001$, and Cohen's $d = -1.22$.

Thus, the relatively stable group was characterized by a considerably stronger readiness to maintain communication when difficulties emerged. This finding is consistent with broader research emphasizing the importance of interaction patterns, communication, and dyadic coping for relationship quality and stability (Bodenmann, 2005; Falconier et al., 2015).

Methodology

The empirical study involved 360 participants divided equally into three groups of 120 participants. The first group consisted of divorced participants whose first marriage had lasted no more than five years. The second group included spouses from families identified as being at high risk of divorce because of repeated conflicts, divorce intentions, or persistent involvement of third parties. The third group consisted of spouses from relatively stable young families who retained the ability to discuss disagreements without prolonged emotional alienation.

Each group included 60 men and 60 women. Participants were represented from the Bukhara, Fergana, and Tashkent territorial zones, with equal representation from each zone. The research employed a comprehensive set of methods. These included theoretical analysis of psychological and sociological literature, analysis of demographic and legal materials, a questionnaire concerning family conditions, measures of marital satisfaction and role expectations, a conflict behavior questionnaire, and scales measuring family boundaries, readiness for marital

dialogue, emotional alienation, digital control, divorce intention, and family autonomy. Semi-structured interviews and expert interviews were also used to provide deeper understanding of family experiences. Statistical procedures included descriptive analysis, analysis of variance, Student's *t*-test, correlation analysis, logistic regression, ROC analysis, and the calculation of odds ratios, confidence intervals, and effect sizes.

Empirical Findings

The psychological profile of the three groups demonstrates that divorce risk is associated with a combination of interconnected factors rather than one isolated characteristic.

Divorced participants demonstrated the lowest marital satisfaction, with a mean score of 24.56, compared with 26.42 among the high-risk group and 32.83 among relatively stable families. The overall difference was statistically significant, $F = 53.87$, $p < .001$.

Role discrepancy also differed significantly. Divorced participants demonstrated the highest level of discrepancy in marital expectations, with a mean of 4.92, compared with 4.32 in the high-risk group and 3.38 in the relatively stable group. The difference was statistically significant, $F = 59.47$, $p < .001$. Parental intervention was also higher among divorced participants. Their mean score was 3.22, compared with 3.15 in the high-risk group and 2.52 in the relatively stable group. The overall difference was significant, $F = 29.18$, $p < .001$. Material stress followed a similar pattern. Divorced participants had a mean score of 3.13, the high-risk group 3.15, and the relatively stable group 2.61. The difference was statistically significant, $F = 18.24$, $p < .001$. At the same time, the relatively stable group demonstrated stronger family autonomy. Their mean score was 3.52, compared with 3.14 in the high-risk group and 2.96 among divorced participants. This difference was significant, $F = 15.18$, $p < .001$.

Digital control also differed significantly among groups, although the effect was smaller than for emotional alienation, dialogue, or role discrepancy. Divorced participants demonstrated a mean score of 2.87, compared with 2.70 in the high-risk group and 2.40 in the relatively stable group.Divorce intention followed the same general pattern as emotional alienation. The mean was 2.79 among divorced participants, 2.54 in the high-risk group, and 1.84 among relatively stable participants. The difference was significant, $F = 40.81$, $p < .001$. Correlation analysis showed that divorce intention was most strongly associated with marital satisfaction. Role discrepancy, emotional alienation, and reduced readiness for dialogue formed another important group of related factors, whereas material stress demonstrated a comparatively weaker association. This pattern suggests that external stress may become particularly problematic when it is incorporated into the couple's mutual evaluations and interactions.

Logistic Regression Analysis

The relationship between emotional alienation, readiness for dialogue, and marital instability was further examined through logistic regression.

The analysis demonstrated that emotional alienation was significantly associated with belonging to the divorced group. Its regression coefficient was 0.706, corresponding to an odds ratio of 2.03 and a 95% confidence interval from 1.29 to 3.19, with $p = .002$. This means that higher emotional alienation was associated with greater odds of belonging to the divorced group within the statistical model. Readiness for marital dialogue demonstrated the opposite relationship. Its regression coefficient was −0.752, with an odds ratio of 0.47 and a 95% confidence interval from 0.30 to 0.74, with $p = .001$. Thus, higher readiness for dialogue was associated with lower odds of belonging to the divorced group. The model also included parental intervention and role discrepancy. Role discrepancy demonstrated a significant association with group membership, with an odds ratio of 3.14, a 95% confidence interval of 1.89–5.24, and $p < .001$. Parental intervention did not remain statistically significant in the multivariate model after the other variables were considered.

The model demonstrated a McFadden pseudo-R^2 of 0.404 and an AUC of 0.891. These results indicate that the combination of variables provided substantial discrimination between divorced and relatively stable participants. Importantly, these results should be interpreted as statistical associations rather than evidence of simple causal relationships. Emotional alienation

does not independently determine whether a marriage will end, and readiness for dialogue cannot guarantee marital stability. Rather, both variables appear to form part of a broader system of psychological processes associated with marital functioning.

Discussion

The findings indicate that emotional alienation and readiness for marital dialogue occupy contrasting positions within the psychological structure of young family stability. Emotional alienation was highest among divorced participants, while readiness for dialogue was highest among relatively stable families. One possible interpretation is that the weakening of emotional connection reduces the psychological motivation to engage in constructive communication. When spouses no longer expect the partner to understand them or respond positively, they may withdraw from discussions. This withdrawal can then further reduce opportunities for emotional connection, creating a self-reinforcing pattern. At the same time, low readiness for dialogue may prevent spouses from transforming implicit expectations into explicit agreements. This is particularly significant when young couples are negotiating traditional and emerging family values. The transformation of family values does not necessarily mean the disappearance of traditional values. Rather, young families may combine traditional expectations with new expectations concerning autonomy, emotional intimacy, professional development, and personal choice. Conflict can emerge when spouses assign different meanings to the same family practice. A practical disagreement may therefore become a conflict over identity and recognition. One spouse may perceive a demand as an expression of respect, while the other perceives it as control. One may interpret parental involvement as support, while the other experiences it as interference. Such differences require communication because they cannot be resolved merely by determining which spouse is “right.” The findings concerning family autonomy further emphasize this point. Psychological autonomy does not mean separation from parents or rejection of family traditions. Instead, it refers to the couple's ability to make decisions concerning their own family while maintaining supportive relationships with relatives. The role of material stress should also be considered. Economic difficulties were significantly higher among divorced and high-risk participants than among relatively stable families. However, material stress demonstrated a weaker relationship with divorce intention than marital satisfaction, role discrepancy, emotional alienation, and dialogue. This suggests that external difficulties may become especially damaging when they influence how spouses perceive and evaluate one another. The results are consistent with research on economic hardship and marital quality, which emphasizes that financial stress can affect marital relationships through increased tension, reduced emotional resources, and conflict (Conger et al., 1990; Dew, 2008; Dew et al., 2012). They are also compatible with research on dyadic coping, which suggests that couples' responses to stress are important for relationship satisfaction (Bodenmann, 2005; Falconier et al., 2015). The findings also have implications for psychological prevention. Early intervention should not wait until spouses have reached the stage of severe emotional separation or have already made a final decision concerning divorce. Psychological support may be more effective when it addresses early indicators such as declining communication, repeated role disputes, increasing involvement of third parties, emotional withdrawal, and growing divorce intentions.

Prevention programs for young families may therefore include training in constructive dialogue, identification of implicit expectations, conflict regulation, emotional expression, boundary-setting with relatives, and collaborative decision-making.

The broader objective should not be to eliminate disagreement. A psychologically stable family is not necessarily a conflict-free family. Rather, stability involves the ability to experience disagreement without converting it into global rejection of the partner or permanent emotional withdrawal.

Conclusion

The empirical findings demonstrate that emotional alienation and readiness for marital dialogue are significantly associated with the psychological stability of young families. Divorced participants demonstrated higher emotional alienation, lower readiness for dialogue, lower marital

satisfaction, greater role discrepancy, greater parental intervention, greater material stress, higher digital control, and stronger divorce intentions than relatively stable participants. Relatively stable families, in contrast, demonstrated stronger readiness for dialogue and greater family autonomy. The differences in emotional alienation and readiness for dialogue were particularly pronounced. Emotional alienation demonstrated a large difference between divorced and relatively stable participants, while readiness for dialogue demonstrated an equally substantial difference in the opposite direction. The logistic regression analysis further indicated that emotional alienation was associated with increased odds of belonging to the divorced group, whereas readiness for dialogue was associated with reduced odds. These findings highlight the importance of considering emotional and communicative processes when assessing marital instability. The psychological meaning of these results lies in the possibility of identifying marital difficulties before legal divorce occurs. Emotional alienation, withdrawal from dialogue, unresolved role expectations, and weakening family autonomy may represent important areas for early psychological assessment. For young families, maintaining emotional connection and the capacity for constructive dialogue may therefore be understood as important psychological resources. Strengthening these resources does not eliminate the social, economic, and cultural challenges faced by families, but it may help couples process such challenges without allowing them to develop into persistent emotional separation. Consequently, psychological prevention of divorce among young families should focus not only on crisis intervention but also on the development of communication skills, negotiation of family roles, healthy boundaries with relatives, mutual emotional support, and the ability to transform conflicting expectations into explicit and mutually acceptable agreements.

References

1. Amato, P. R. (2010). Research on divorce: Continuing trends and new developments. *Journal of Marriage and Family, 72*(3), 650–666.
2. Bodenmann, G. (2005). Dyadic coping and its significance for marital functioning. In T. A. Revenson, K. Kayser, & G. Bodenmann (Eds.), *Couples coping with stress* (pp. 33–49). American Psychological Association.
3. Bradbury, T. N., Fincham, F. D., & Beach, S. R. H. (2000). Research on the nature and determinants of marital satisfaction: A decade in review. *Journal of Marriage and Family, 62*(4), 964–980.
4. Conger, R. D., Elder, G. H., Lorenz, F. O., Conger, K. J., Simons, R. L., Whitbeck, L. B., Huck, S., & Melby, J. N. (1990). Linking economic hardship to marital quality and instability. *Journal of Marriage and the Family, 52*(3), 643–656.
5. Falconier, M. K., Jackson, J. B., Hilpert, P., & Bodenmann, G. (2015). Dyadic coping and relationship satisfaction: A meta-analysis. *Clinical Psychology Review, 42*, 28–46.
6. Gottman, J. M., Coan, J., Carrere, S., & Swanson, C. (1998). Predicting marital happiness and stability from newlywed interactions. *Journal of Marriage and the Family, 60*(1), 5–22.

Atadjanov Jahongir Baxtiyorovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

OLIY HARBIY TA’LIM MUASSASALARI KURSANTLARIDA OILAVIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA EMOTSIONAL YETUKLIK VA SHAXSIY QADRIYATLAR TIZIMINING O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida oilaviy qadriyatlarning rivojlanishiga ta’sir etuvchi emotsional yetuklik, shaxsiy qadriyatlar tizimi, hissiy o‘zini o‘zi boshqarish, ijtimoiy mas’uliyat va psixologik moslashuvchanlik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, harbiy-kasbiy tayyorgarlik jarayonida kursantlarning emotsional barqarorligini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni ongli*

o‘zlashtirish hamda shaxsiy ehtiyojlar bilan oilaviy majburiyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *oilaviy qadriyatlar, harbiy kursantlar, emotsional yetuklik, shaxsiy qadriyatlar tizimi, hissiy barqarorlik, psixologik determinantlar, o‘zini o‘zi boshqarish, shaxsiy mas’uliyat, emotsional moslashuvchanlik, qadriyatli yo‘nalganlik, oilaviy munosabatlar, psixologik rivojlanish.*

Аннотация. *В статье с научно-теоретической точки зрения анализируются особенности эмоциональной зрелости, системы личностных ценностей, эмоциональной саморегуляции, социальной ответственности и психологической адаптивности, влияющие на развитие семейных ценностей у курсантов высших военных образовательных учреждений. Также рассматриваются психологические механизмы укрепления эмоциональной устойчивости курсантов, осознанного усвоения семейных ценностей и формирования гармоничных отношений между личными потребностями и семейными обязательствами в процессе военно-профессиональной подготовки.*

Ключевые слова: *семейные ценности, военные курсанты, эмоциональная зрелость, система личностных ценностей, эмоциональная устойчивость, психологические детерминанты, саморегуляция, личная ответственность, эмоциональная адаптивность, ценностная направленность, семейные отношения, психологическое развитие.*

Abstract. *This article provides a theoretical analysis of emotional maturity, personal value systems, emotional self-regulation, social responsibility, and psychological adaptability as factors influencing the development of family values among cadets of higher military educational institutions. It also examines the psychological mechanisms involved in strengthening cadets' emotional stability, promoting the conscious internalization of family values, and developing a harmonious relationship between personal needs and family responsibilities during military professional training.*

Keywords: *family values, military cadets, emotional maturity, personal value system, emotional stability, psychological determinants, self-regulation, personal responsibility, emotional adaptability, value orientation, family relationships, psychological development.*

Kirish. Oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish jarayoni shaxsning emotsional yetukligi, individual qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan ongli yondashuvi va kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorgarligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ushbu jarayonda harbiy ta’lim muhitiga xos kasbiy talablar va shaxsiy psixologik ehtiyojlarning o‘zaro ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi. Emotsional yetuklik kursantning murakkab vaziyatlarda o‘z kechinmalarini anglash, hissiy reaksiyalarini boshqarish, boshqa insonlarning ruhiy holatini tushunish va shaxslararo munosabatlarda vaziyatga muvofiq munosabat bildirish imkoniyatlarini ifodalaydi, shu jihatdan mazkur sifat kelajakdagi oilaviy munosabatlarning psixologik asoslarini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Shaxsiy qadriyatlar tizimi esa kursantning hayotiy maqsadlari, axloqiy tanlovlari, ijtimoiy mas’uliyat haqidagi qarashlari va insoniy munosabatlarga qo‘yadigan talablarini o‘zaro birlashtiruvchi ichki psixologik tuzilma sifatida namoyon bo‘lib, oilaviy qadriyatlarning shaxsiy e’tiqod darajasida qabul qilinishini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Harbiy ta’lim sharoitida kursantlarning intizomiy talablarga moslashishi, jamoaviy munosabatlarda faol ishtirok etishi, turli psixologik zo‘riqishlarga duch kelishi va kasbiy faoliyatning kelajakdagi oqibatlarini anglab borishi ularning emotsional reaksiyalari hamda hayotiy ustuvorliklariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin, biroq bunday ta’sirning mazmuni individual psixologik xususiyatlarga qarab farqlanadi. Oilaviy qadriyatlarning rivojlanganligi kursantning mehr-oqibat, sadoqat, o‘zaro ishonch va mas’uliyat kabi tushunchalarni bilishi bilangina belgilanmaydi, balki mazkur qadriyatlarni shaxsiy hayotiy tanlovlar bilan bog‘lay olishi, yaqin insonlarning ehtiyojlarini tushunishi va qarama-qarshi manfaatlar mavjud bo‘lgan vaziyatlarda ham o‘zaro hurmat tamoyillarini saqlashga intilishi orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli kursantlarda oilaviy qadriyatlarni rivojlantirishning psixologik asoslarini o‘rganishda emotsional

yetuklik va shaxsiy qadriyatlar tizimini alohida xususiyatlar sifatida emas, balki shaxsning ongli qaror qabul qilishi, munosabatlarni tartibga solishi va kelajakdagi oilaviy hayotga mas'uliyatli tayyorlanishini ta'minlovchi o'zaro bog'langan psixologik mexanizmlar sifatida tahlil qilish zarur.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. D.Leontyevning shaxsiy salohiyat va shaxsning o'z hayotini ongli boshqarishiga oid ilmiy qarashlarida insonning ichki imkoniyatlari, hayotiy maqsadlarni mustaqil belgilashi, shaxsiy tanlovlariga mas'uliyat bilan yondashishi va tashqi sharoitlar ta'sirida o'z qadriyatlarini saqlab qolish qobiliyati psixologik rivojlanishning muhim omillari sifatida talqin etiladi [1]. Mazkur nazariy yondashuv oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarida oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish jarayonini tushuntirishda ahamiyatga ega, chunki harbiy xizmatga tayyorlanayotgan shaxs kasbiy talablarni bajarish bilan bir qatorda o'zining oilaviy hayotga oid maqsadlarini mustaqil belgilashi, yaqin insonlar bilan munosabatlarda shaxsiy javobgarlikni anglashi va qadriyatlarini ongli tanlov asosida mustahkamlashi zarur bo'ladi. D.Leontyevning shaxsiy salohiyat haqidagi qarashlaridan kelib chiqib, kursantning oilaviy qadriyatlarga sodiqligini faqat mavjud ijtimoiy me'yorlarni qabul qilish bilan baholash yetarli emas, balki ushbu me'yorlarning shaxsiy hayotiy maqsadlar bilan qanchalik uyg'unlashgani va murakkab vaziyatlarda ongli qaror qabul qilishga qanday ta'sir ko'rsatishini ham aniqlash muhimdir.

V.Morosanovaning ongli o'zini o'zi boshqarish nazariyasida shaxsning faoliyatini rejalashtirish, muhim sharoitlarni oldindan baholash, harakatlar dasturini ishlab chiqish, erishilgan natijalarni tahlil qilish va zarur hollarda xatti-harakatlarini o'zgartirish xususiyatlari individual psixologik boshqaruvning tarkibiy qismlari sifatida izohlanadi [2]. Ushbu nazariy yondashuv kursantlarda emotsional yetuklikni oilaviy qadriyatlar bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini beradi, chunki oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar, hissiy zo'riqishlar va turli ehtiyojlar o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish shaxsdan vaziyatni ongli baholash, o'z munosabatini nazorat qilish va muloqot usullarini moslashtirish qobiliyatini talab etadi. V.Morosanova qarashlarining harbiy ta'lim sharoitidagi ahamiyati shundaki, kursantning kasbiy faoliyatda shakllanadigan o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalari oilaviy munosabatlar uchun ham muayyan psixologik zamin yaratishi mumkin, biroq ularning samarali qo'llanishi boshqa insonlarning hissiy ehtiyojlarini hisobga olish va shaxsiy maqsadlarni o'zaro kelishuv asosida muvofiqlashtirish bilan bog'liqdir.

T.Kryukovaning stressli vaziyatlarni yengib o'tish va psixologik moslashuvga oid ilmiy qarashlarida insonning murakkab sharoitlarga munosabati uning vaziyatni qanday talqin qilishi, mavjud psixologik imkoniyatlarini baholashi, hissiy zo'riqishni boshqarishi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash resurslaridan foydalanishi bilan bog'liq holda izohlanadi [3]. Mazkur ilmiy yondashuv kursantlarda oilaviy qadriyatlarni rivojlantirishda emotsional yetuklikning o'rnini tushuntirishga yordam beradi, chunki kelajakdagi harbiy xizmat sharoitida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaqt tanqisligi, xizmat majburiyatlari va oilaviy ehtiyojlar o'rtasidagi ziddiyatlar shaxsning mavjud vaziyatga moslashuvchan munosabat bildirishini talab qilishi mumkin.

T.Kryukovaning tadqiqotlariga tayangan holda kursantlarda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashda hissiy qiyinchiliklarni inkor etmaslik, ularni konstruktiv tarzda qayta baholash, yaqin insonlardan yordam so'rashni tabiiy munosabat shakli sifatida qabul qilish va kelishmovchiliklarni kuchaytirmaydigan muloqot usullarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash mumkin. Ye.Ilyinning inson emotsional sohasi, hissiyotlarning psixologik mazmuni va shaxslararo munosabatlardagi vazifalariga bag'ishlangan ilmiy qarashlarida turli hissiy holatlarning paydo bo'lishi, ularning shaxs faoliyatiga ta'siri va individual emotsional xususiyatlarning rivojlanishi keng tahlil qilingan [4]. Ushbu yondashuv kursantlarda oilaviy qadriyatlarning psixologik shakllanishini o'rganishda ahamiyatlidir, chunki yaqin insonlarga mehr ko'rsatish, ularning muvaffaqiyatlariga quvonish, qiyinchiliklariga hamdardlik bildirish va o'zaro munosabatlarda hissiy yaqinlikni saqlash shaxsning emotsional rivojlanish darajasi bilan bog'liq holda namoyon bo'lishi mumkin. Ye.Ilyinning nazariy qarashlari asosida emotsional yetuklikni faqat salbiy hissiyotlarni cheklash qobiliyati sifatida emas, balki insonning o'z kechinmalarini to'g'ri anglashi, ularni vaziyatga mos ifodalashi, boshqalarning hissiy holatini hurmat qilishi va

oilaviy munosabatlarda samimiylikni saqlashga intilishi bilan tavsiflanadigan keng qamrovli psixologik sifat sifatida baholash mumkin.

Tadqiqotning metodologik yondashuvi. Kursantlarda emotsional yetuklik va shaxsiy qadriyatlar tizimining oilaviy qadriyatlar bilan o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etishda shaxsning hissiy xususiyatlari, qadriyatli yo‘nalganligi va oilaviy munosabatlarga oid psixologik tasavvurlarini kompleks baholashga asoslangan metodologik yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv doirasida emotsional o‘zini o‘zi boshqarish xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik metodlar, qadriyatli ustuvorliklarni o‘rganish usullari, individual suhbatlar, vaziyatli topshiriqlar va oilaviy munosabatlar mazmunini yorituvchi refleksiv savollardan foydalanish mumkin. V.Morosanovaning ongli o‘zini o‘zi boshqarishga oid ilmiy yondashuvi asosida kursantning faoliyatini rejalashtirish, vaziyatga moslashish, xatti-harakatlarni baholash va zarur hollarda ularni o‘zgartirish qobiliyatlarini o‘rganish mumkin bo‘lib, mazkur yondashuv emotsional yetuklikning ayrim tartibga soluvchi jihatlarini tushuntirishga yordam beradi [5].

Shaxsiy qadriyatlar tizimini o‘rganishda kursantning turli hayotiy maqsadlarga bergan ustuvorligini aniqlash, kasbiy burch va oilaviy ehtiyojlarga munosabatini qiyoslash, qarama-qarshi qadriyatlar mavjud bo‘lgan vaziyatlarda qanday qaror qabul qilishini tahlil qilish hamda bildirgan qarashlari bilan amaliy tanlovlari o‘rtasidagi muvofiqlikni baholash muhim hisoblanadi. Psixodiagnostik usullarni qo‘llashda ularning kursantlar yoshiga, til va madaniy muhitiga mosligi, ishonchliligi va validligini tekshirish bilan bir qatorda, harbiy ta’limga xos yuqori ijtimoiy ma’qullanish ehtiyoji respondentlarning javoblariga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ham hisobga olish zarur. Mazkur metodologik asos emotsional yetuklik va shaxsiy qadriyatlar tizimining oilaviy qadriyatlarga munosabat bilan qanday bog‘liqligini aniqlashga imkon berishi mumkin, biroq ushbu bog‘liqlikning kuchi va yo‘nalishi faqat tegishli empirik ma’lumotlar yig‘ilib, ilmiy tahlil qilingandan keyingina asosli baholanadi.

Muhokama. Kursantlarda oilaviy qadriyatlarni rivojlantirishda emotsional yetuklik va shaxsiy qadriyatlar tizimining o‘zaro munosabatini muhokama qilishda harbiy-kasbiy shakllanish jarayonida rivojlanadigan o‘zini tuta bilish, qat’iyatlilik va vazifaga yo‘naltirilganlik xususiyatlarini hissiy ochiqlik, samimiy munosabat va boshqa insonlarning ehtiyojlariga sezgirlik bilan uyg‘unlashtirish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Harbiy ta’limdagi qat’iy tartib va yuqori mas’uliyat kursantlarning o‘z xatti-harakatlarini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishi mumkin, biroq oilaviy munosabatlarda mazkur ko‘nikmalarning ijobiy namoyon bo‘lishi shaxsning o‘z kechinmalarini yashirishga emas, balki ularni to‘g‘ri ifodalashga va yaqin insonlarning hissiy holatini tushunishga qanchalik tayyorligi bilan bog‘liqdir. Shaxsiy qadriyatlar tizimining oilaviy munosabatlarga ta’sirini baholashda kursantning mas’uliyatni qanday tushunishi, oilaviy rollarga nisbatan qanchalik moslashuvchan qarashlarga egaligi, shaxsiy muvaffaqiyatni oilaviy farovonlik bilan qanday uyg‘unlashtirishi va turmush o‘rtog‘ining mustaqil ehtiyojlarini qay darajada tan olishi kabi masalalarga e’tibor qaratish zarur.

Emotsional yetuklikning oilaviy qadriyatlarni amaliy munosabatlarga aylantirishdagi ahamiyati ayniqsa qarama-qarshi fikrlar yuzaga kelgan vaziyatlarda yaqqol ko‘rinishi mumkin, chunki shaxsning muammoni xotirjam tahlil qilishi, o‘z hissiy munosabatini tushuntirishi va boshqa insonning pozitsiyasiga hurmat bilan yondashishi oilaviy kelishmovchiliklarni konstruktiv muhokama qilish uchun muhim sharoit yaratadi. D.Leontyevning shaxsiy salohiyat haqidagi konseptual qarashlari bilan T.Kryukovaning murakkab vaziyatlarni yengib o‘tishga oid yondashuvlarini birgalikda tahlil qilish kursantlarda ongli qadriyatli tanlov, psixologik moslashuvchanlik va mavjud muammolarni konstruktiv hal qilish imkoniyatlari o‘rtasidagi nazariy aloqalarni tushuntirishga yordam beradi [3], [6]. Shu asosda harbiy ta’lim muassasalarida oilaviy qadriyatlarga oid psixologik tayyorgarlikni shaxsiy qadriyatlarni anglash, emotsional refleksiya, muloqotdagi individual qiyinchiliklarni aniqlash va real hayotiy vaziyatlarga mos qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirish ilmiy-amaliy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarida oilaviy qadriyatlarning rivojlanishi emotsional yetuklik, shaxsiy qadriyatli yo‘nalganlik, psixologik moslashuvchanlik va ongli xulq-atvorni boshqarish imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, mazkur xususiyatlarning o‘zaro uyg‘unligi kelajakdagi oilaviy munosabatlarga mas’uliyatli yondashish uchun muhim psixologik asos yaratishi mumkin. Emotsional yetuklik kursantning shaxsiy kechinmalarini anglash, boshqa insonlarning hissiy ehtiyojlarini tushunish, murakkab vaziyatlarda muloqotni davom ettirish va oilaviy munosabatlarda psixologik muvozanatni saqlash imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim individual sifat sifatida baholanadi. Shaxsiy qadriyatlar tizimi esa oilaviy munosabatlarga oid maqsadlarni belgilash, kasbiy faoliyat bilan shaxsiy hayot o‘rtasidagi ustuvorliklarni muvofiqlashtirish, axloqiy tanlovlarni asoslash va yaqin insonlar oldidagi majburiyatlarni ongli qabul qilish jarayonlariga mazmun bag‘ishlaydi.

Harbiy-kasbiy tayyorgarlik jarayonida emotsional yetuklikni rivojlantirish uchun refleksiv mashg‘ulotlar, konstruktiv muloqotga oid vaziyatli topshiriqlar, hissiy zo‘riqishni boshqarish usullari va shaxsiy qadriyatlarni tahlil qilishga qaratilgan psixologik faoliyatdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlarda kursantlarning emotsional yetuklik darajasi bilan oilaviy qadriyatlarga munosabati o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asoslangan psixodiagnostik vositalar orqali o‘rganish, shuningdek, kasbiy tayyorgarlik bosqichlari va individual psixologik xususiyatlarning ehtimoliy ta’sirini hisobga olish zarur. Mazkur nazariy qarashlar oilaviy qadriyatlarni rivojlantirishni faqat axloqiy tushunchalarni singdirish jarayoni sifatida emas, balki kursant shaxsida hissiy sezgirlik, mustaqil qadriyatli tanlov, psixologik mas’uliyat va o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan kompleks rivojlanish yo‘nalishi sifatida tashkil etishning ilmiy asoslarini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Леонтьев Д.А. Личностный потенциал: структура и диагностика / под ред. Д.А. Леонтьева. — Москва: Смысл, 2011. — 679 с.

2. Моросанова В.И. Саморегуляция и индивидуальность человека. — Москва: Наука, 2010. — 519 с.

3. Крюкова Т.Л. Психология совладающего поведения в разные периоды жизни. — Кострома: КГУ им. Н.А. Некрасова, 2010. — 295 с.

4. Ильин Е.П. Эмоции и чувства. — 2-е изд., перераб. и доп. — Санкт-Петербург: Питер, 2013. — 784 с.

5. Моросанова В.И. Индивидуальные особенности осознанной саморегуляции произвольной активности человека // Вестник Московского университета. Серия 14. Психология. — 2010. — № 1. — С. 36–45.

6. Леонтьев Д.А. Введение: личностный потенциал как объект изучения // Личностный потенциал: структура и диагностика / под ред. Д.А. Леонтьева. — Москва: Смысл, 2011. — С. 5–11.

Shermetova Nargiza Iqrombay qizi

Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Ayollarni reabilitatasiya qilish va moslashtirish Xorazm viloyati hududiy markazi psixologi

AYOLLARDA ZO‘RAVONLIK TAJRIBASINING PSIXOLOGIK HOLAT VA IJTIMOIY MOSLASHUVGA TA’SIRI

Annotatsiya. *Zo‘ravonlik faqat jismoniy zarar yetkazuvchi hodisa emas, balki ayolning o‘ziga bo‘lgan munosabati, xavfsizlik hissi, shaxslararo ishonchi va jamiyatdagi faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan murakkab ijtimoiy-psixologik muammodir. Tadqiqot doirasida zo‘ravonlik tajribasining emotsional beqarorlik, qo‘rquv, xavotir, o‘zini qadrlashning pasayishi, ijtimoiy aloqalarning qisqarishi va jamiyatdan chetlashish kabi oqibatlari yoritiladi. Shuningdek, zo‘ravonlikdan keyingi psixologik moslashuv jarayoniga ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, oila va*

yaqinlarning munosabati, iqtisodiy mustaqillik hamda psixologik yordamning mavjudligi ta'sir qilishi asoslanadi. Maqolada zo'ravonlikning oqibatlarini kamaytirishda psixologik yordam, ijtimoiy himoya va profilaktik yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *ayollarga nisbatan zo'ravonlik, psixologik oqibatlar, ijtimoiy oqibatlar, xavotir, qo'rquv, o'zini qadrlash, ijtimoiy moslashuv, psixologik yordam, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, zo'ravonlik profilaktikasi.*

Zo'ravonlik tajribasi ayolning emotsional holatida uzoq davom etuvchi o'zgarishlarni yuzaga keltirishi mumkin. Doimiy tahdid, qo'rqitish, kamsitish yoki nazorat ostida yashash insonda yuqori darajadagi ichki zo'riqishni shakllantiradi. Natijada xavotir, qo'rquv, tushkun kayfiyat, o'ziga ishonchsizlik, aybdorlik hissi va kelajakka nisbatan umidsizlik kabi holatlar paydo bo'lishi ehtimoli ortadi. Ayrim hollarda zo'ravonlik takrorlangan sari jabrlanuvchining o'z imkoniyatlarini baholashi pasayib, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Muammoning yana bir muhim jihati zo'ravonlikning ijtimoiy oqibatlari bilan bog'liq. Zo'ravonlikdan aziyat chekayotgan ayol yaqinlari va do'stlari bilan munosabatlarini cheklashi, ijtimoiy faoliyatdan uzoqlashishi yoki yordam so'rashdan qo'rqishi mumkin. Moliyaviy qaramlik, uy-joy masalasi, farzandlar uchun xavotir, jamiyatdagi stereotiplar va zo'ravonlikni yashirishga majbur qiluvchi ijtimoiy bosim bunday vaziyatdan chiqishni yanada murakkablashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, zo'ravonlik oqibatlari individual shaxs doirasidan tashqariga chiqib, oila va jamiyat munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Ayollarga nisbatan zo'ravonlikning psixologik oqibatlarini tushuntirishda travmatik tajribaning davomiyligi, zo'ravonlikning takrorlanish darajasi, tajovuzkor bilan munosabatlarning xususiyati va ayolning mavjud ijtimoiy resurslari kabi omillarni hisobga olish muhim. Bir xil zo'ravonlik tajribasi turli shaxslarda turlicha psixologik natijalarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunda shaxsning individual psixologik xususiyatlari, avvalgi hayotiy tajribasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi va psixologik yordamdan foydalanish imkoniyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, zo'ravonlik oqibatlarini faqat salbiy holatlar bilan cheklab qo'yish ham yetarli emas. Ayrim ayollarda xavfsiz muhitga chiqish, yaqinlarning ko'magi, mutaxassis bilan ishlash va mustaqil hayot sharoitlarini yaratish jarayonida psixologik tiklanish imkoniyati yuzaga keladi. Demak, zo'ravonlikdan keyingi holatni o'rganishda nafaqat xavf omillarini, balki tiklanishga xizmat qiluvchi himoya omillarini ham aniqlash muhimdir.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish faqat zo'ravonlik faktining o'zini kamaytirish bilan chegaralanmasligi kerak. Jabrlangan ayollarning ruhiy holatini tiklash, ularning ijtimoiy aloqalarini qayta shakllantirish, o'z qadrini anglashini qo'llab-quvvatlash va mustaqil hayotga moslashishiga yordam berish ham kompleks yondashuvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shu asosda mazkur maqolaning **maqsadi** ayollarga nisbatan zo'ravonlikning asosiy psixologik va ijtimoiy oqibatlarini tizimli ravishda tahlil qilish hamda ularni kamaytirishga xizmat qiluvchi psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarini yoritishdan iborat. Tadqiqotning amaliy ahamiyati zo'ravonlikdan jabrlangan ayollar bilan ishlaydigan psixologlar, ijtimoiy xodimlar va boshqa mutaxassislar faoliyatida kompleks yondashuvni kuchaytirish imkoniyati bilan belgilanadi.

M. Goodman va uning hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda zo'ravonlikka duch kelgan ayollar uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ahamiyati ko'rsatib berilgan. Yaqin insonlarning ishonchli munosabati, mutaxassis yordami va xavfsiz ijtimoiy muhit ayolning zo'ravonlik tajribasini qayta ishlashi hamda hayotiy faoliyatini tiklashida himoya qiluvchi omil bo'lishi mumkin.

Zamonaviy tadqiqotlarda zo'ravonlikning ijtimoiy oqibatlari ham keng o'rganilmoqda. Zo'ravonlik ayolning ta'lim olish, mehnat qilish, iqtisodiy faoliyat yuritish va ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Ayniqsa, iqtisodiy qaramlik va ijtimoiy izolyatsiya zo'ravon munosabatlardan chiqish jarayonini murakkablashtiruvchi omillar sifatida qaraladi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda zo‘ravonlikning avlodlararo ta’siriga ham e’tibor beriladi. Oilada zo‘ravonlik mavjud bo‘lgan muhitda ulg‘ayayotgan bolalar qo‘rquv, beqarorlik va oilaviy munosabatlar haqidagi salbiy tasavvurlarni boshdan kechirishi mumkin. Bu esa muammoning faqat jabrlangan ayol bilan chegaralanmasligini, uning oilaviy va ijtimoiy tizimga ham ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.

Umuman, mavjud adabiyotlar tahlili ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning oqibatlari psixologik, ijtimoiy va shaxslararo darajalarda bir-biri bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Biroq zo‘ravonlikdan keyingi tiklanish jarayonida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy mustaqillik, xavfsiz muhit va professional psixologik yordamning o‘zaro ta’sirini yanada chuqurroq o‘rganish zarur. Shu jihatdan muammoni faqat salbiy oqibatlarni aniqlash bilan emas, balki ayolning psixologik va ijtimoiy resurslarini tiklash imkoniyatlari bilan birgalikda tadqiq etish dolzarb ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tadqiqotning eng muhim himoya omillaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Ayolning ishonchli insonlar bilan muloqot qilishi, xavfsiz muhitga ega bo‘lishi va mutaxassis yordamidan foydalanishi psixologik tiklanish jarayonini yengillashtirishi mumkin. Shu sababli zo‘ravonlikdan jabrlangan ayollarga yordam ko‘rsatishda faqat xavfsizlikni ta’minlash emas, balki ularning emotsional va ijtimoiy resurslarini tiklashga ham e’tibor berish zarur.

Amaliy jihatdan, zo‘ravonlik oqibatlarini kamaytirish uchun psixologik maslahat, ijtimoiy xizmatlar, huquqiy ko‘mak va zarur hollarda tibbiy yordamni o‘zaro muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq. Bunday kompleks yondashuv ayolning xavfsizligini ta’minlash bilan birga, uning o‘z qadrini qayta his qilishi, ijtimoiy munosabatlarini tiklashi va mustaqil hayotga qaytish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Umuman olganda, ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning oqibatlari ko‘p qatlamli psixologik va ijtimoiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Muammoning samarali yechimi zo‘ravonlikning oldini olish, jabrlangan ayollarni himoya qilish, psixologik tiklanish uchun sharoit yaratish va jamiyatda zo‘ravonlikni oqlovchi qarashlarni kamaytirishga qaratilgan uzviy chora-tadbirlarni talab etadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda zo‘ravonlik tajribasining turli shakllari - jismoniy, psixologik, iqtisodiy va raqamli zo‘ravonlikning - ayollar psixologik holatiga ta’sirini alohida o‘rganish, shuningdek, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, psixologik yordam va iqtisodiy mustaqillikning tiklanish jarayonidagi himoya rolini empirik jihatdan aniqlash dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5163-son “O‘zbekiston Respublikasida zo‘rlik ishlatishdan jabrlangan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. - Toshkent, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-yanvardagi 3-son “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. - Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-561-son. - Toshkent, 2019.
4. Биттиг А., Вебер М. Психология домашнего насилия: механизмы травматизации и пути восстановления. - М.: Институт психотерапии, 2018. - 256 с.
5. Малкина-Пых И.Г. Экстремальные ситуации: справочник практического психолога. - М.: Эксмо, 2005. - 960 с.
6. Решетников М.М. Психическая травма. - СПб.: Восточно-Европейский институт психоанализа, 2006. - 322 с.
7. Бассин Ф.В. Проблема психологического стресса. - М.: Наука, 2012. - 208 с.
8. Stark E. Coercive Control: How Men Entrap Women in Personal Life. - New York: Oxford University Press, 2007. - 464 p.

Rajabov Sanjarbek Bozirboy o‘g‘li
Qo'shko'pir tumani Ichki ishlar bo'limi Tezkor qidiruv xizmati
Jinoyat qidiruv guruhi tezkor vakili kapitan

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA NIZOLI VAZIYATLARNI KONSTRUKTIV HAL ETISH VA PSIXOLOGIK TA’SIR KO‘RSATISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etishi va huquqiy-axloqiy me’yorlarga mos psixologik ta’sir ko‘rsatishi bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik omillar nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Emotsional o‘zini boshqarish, kasbiy pozitsiya, protsessual adolat, empatiya va jamoatchilik ishonchi o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritilib, mazkur kompetensiyani rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari umumlashtiriladi.*

Kalit so‘zlar: *ichki ishlar organlari, nizoli vaziyat, konstruktiv yondashuv, psixologik ta’sir, emotsional barqarorlik, protsessual adolat, ijtimoiy-psixologik kompetensiya.*

Аннотация. *В данной статье теоретически анализируются социально-психологические факторы, связанные с конструктивным разрешением конфликтных ситуаций сотрудниками органов внутренних дел и оказанием психологического воздействия в соответствии с правовыми и этическими нормами. Рассматривается взаимосвязь между эмоциональной саморегуляцией, профессиональной позицией, процедурной справедливостью, эмпатией и общественным доверием, а также обобщаются основные направления развития данной компетенции.*

Ключевые слова: *органы внутренних дел, конфликтная ситуация, конструктивный подход, психологическое воздействие, эмоциональная устойчивость, процедурная справедливость, социально-психологическая компетентность.*

Abstract. *This article provides a theoretical analysis of the socio-psychological factors associated with the constructive resolution of conflict situations by internal affairs officers and the application of psychological influence in accordance with legal and ethical standards. It examines the interrelationships among emotional self-regulation, professional stance, procedural justice, empathy, and public trust, while also summarizing the main directions for developing this competence.*

Keywords: *internal affairs agencies, conflict situation, constructive approach, psychological influence, emotional stability, procedural justice, socio-psychological competence.*

Kirish. Bugungi kunda ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish va samarali psixologik ta’sir ko‘rsatish kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb ijtimoiy-psixologik masalalardan biri hisoblanadi. Xizmat faoliyatida turli xarakter, dunyoqarash va emotsional holatga ega fuqarolar bilan muloqot qilish xodimlardan psixologik barqarorlik, vaziyatni xolis baholash hamda ziddiyatlarni oqilona boshqarish qobiliyatini talab etadi. Ayniqsa, nizoli munosabatlarda konstruktiv muloqot strategiyalaridan foydalanish, hissiy reaksiyalarni nazorat qilish va shaxslararo munosabatlarda ijtimoiy-psixologik ta’sir mexanizmlarini to‘g‘ri qo‘llash kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, ichki ishlar organlari xodimlarida nizolarni konstruktiv hal etish kompetensiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish va uni rivojlantirishning samarali yo‘nalishlarini aniqlash muhim tadqiqot vazifasi hisoblanadi. Ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy vazifalarini bajarish jarayonida huquqiy talablar, fuqarolarning shaxsiy manfaatlari va kuchli hissiy kechinmalar o‘zaro to‘qnashadigan vaziyatlarga duch keladi. Fuqaroning e’tirozi, keskin munosabati yoki xavotiri ba’zan muloqotdagi oddiy tushunmovchilikni murakkab nizoga aylantirishi mumkin. Bunday holatda xodim uchun voqea mohiyatini xolis aniqlash, vaziyat xavfsizligini baholash va qonuniy talablarni tushunarli bayon etish birdek ahamiyatlidir.

Nizoni konstruktiv hal etish deganda qarama-qarshilikni shunchaki to‘xtatish emas, uning sabablarini anglash, taraflarning huquqiy maqomi va ehtiyojlarini hisobga olish hamda vaziyatni imkon qadar keskinlashtirmaydigan yo‘lni tanlash tushuniladi. Bunda xodimning o‘z hissiyotlarini boshqarishi, shoshilinch xulosa chiqarmasligi, fuqaroga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi va xizmat vakolatlari chegarasidan chiqmasligi muhimdir. “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun hamda kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi ushbu faoliyat uchun zarur huquqiy va axloqiy asos yaratadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. M. A. Rahim nizolarni boshqarishning turli usullarini shaxsning o‘z manfaatlari va boshqalar manfaatlariga qay darajada e’tibor qaratishi orqali tushuntiradi. Uning yondashuvi hamkorlik, murosa, chekinish, moslashish va raqobatga asoslangan strategiyalarni vaziyat xususiyatiga qarab farqlash imkonini beradi [3]. Ichki ishlar organlari faoliyatida ushbu strategiyalarni tanlash faqat shaxsiy munosabatga emas, avvalo qonuniylik, jamoat xavfsizligi va xizmat vazifasiga tayanishi kerak.

T. Taylerning protsessual adolat konsepsiyasida fuqarolarning vakolatli organga bo‘lgan ishonchi qarorning o‘zigagina emas, qaror qanday tartibda qabul qilingani va tushuntirilganiga ham bog‘liq ekani ta’kidlanadi [4]. J. Grossning emotsiyalarni boshqarish nazariyasi esa inson vaziyatga munosabatini qayta baholash orqali hissiy reaksiyaning keskinligini pasaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi [5]. Mazkur qarashlar xodimning bir vaqtning o‘zida ham qonuniy, ham vazmin, ham muloqotga ochiq bo‘lishini tushuntirish uchun muhimdir.

Morton Doych nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etishda tomonlar o‘rtasidagi hamkorlik, o‘zaro ishonch va umumiy manfaatlarni aniqlash muhimligini ta’kidlab, raqobatga asoslangan munosabatlar qarama-qarshilikni kuchaytirishi mumkinligini ilmiy jihatdan asoslagan.

Kennet Tomas nizolarni boshqarishda hamkorlik, murosaga kelish, moslashish, raqobatlashish va chetlashish strategiyalarini ajratib, vaziyatning xususiyatlariga muvofiq yondashuv tanlash zarurligini ko‘rsatgan.

Fridrix Glazl nizolarning bosqichma-bosqich keskinlashuvi haqidagi nazariyasida qarama-qarshilikning dastlabki belgilarini aniqlash va o‘z vaqtida muloqotga asoslangan choralarni qo‘llash uning chuqurlashishini cheklashda muhim ekanini tushuntirgan.

Albert Bandura o‘z samaradorligiga ishonch nazariyasi orqali insonning murakkab vaziyatlarda o‘z imkoniyatlarini baholashi, xatti-harakatlarini ongli boshqarishi va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni davom ettirishi kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda muhim psixologik omil ekanini asoslagan.

Maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega. Unda normativ hujjatlar va psixologik tadqiqotlarni mazmuniy tahlil qilish, ilmiy qarashlarni qiyoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Empirik so‘rov yoki tajriba o‘tkazilmaganligi sababli ilgari surilgan xulosalar nazariy tavsiyalar sifatida talqin qilinadi.

Muhokama. Nizoli vaziyatning kuchayishiga ko‘pincha hodisaning o‘zi bilan birga ishtirokchilar uni qanday idrok etishi ham ta’sir qiladi. Fuqaro xodimning qisqa buyruq ohangini mensimaslik sifatida qabul qilishi, xodim esa baland ovozdagi e’tirozni darhol qarshilik deb baholashi mumkin. Shuning uchun dastlabki muloqotda vaziyatni aniqlashtiruvchi savollar berish, ehtimoliy noto‘g‘ri talqinlarni kamaytirish va aniq, xolis ma’lumotga tayanish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy-psixologik kompetensiyaning muhim tarkibiy qismlari — empatiya, emotsional barqarorlik, refleksiya va kasbiy mas’uliyatdir. Empatiya suhbatdoshning xatti-harakatini oqlashni emas, uning xavotiri yoki noroziligi ortida qanday omillar borligini tushunishga urinishni anglatadi. Refleksiya esa xodimga o‘zining so‘zlash uslubi, ovoz ohangi va qarori vaziyatga qanday ta’sir qilganini qayta tahlil qilishga yordam beradi. Ushbu sifatlar adolatli munosabatni ta’minlashga xizmat qilishi mumkin.

Psixologik ta’sir ko‘rsatish huquqiy talabni ongli ravishda qabul qilishga ko‘maklashuvchi tushuntirish, ishonchli dalil, xotirjam muloqot va ijobiy yo‘naltirish orqali amalga oshirilishi lozim. Tahdid, kamsitish yoki aldovga asoslangan ta’sirni konstruktiv yondashuv deb bo‘lmaydi. Ayrim xavfli vaziyatlarda esa muloqotning o‘zi yetarli bo‘lmasligi mumkin: xodim avvalo

xavfsizlik va qonuniy tartiblarni ta’minlashi zarur. Shunday sharoitda ham shaxs qadr-qimmatini saqlash muhim mezon bo‘lib qoladi.

Ushbu kompetensiyani rivojlantirish uchun nizoning sababini aniqlashga doir nazariy mashg‘ulotlar, xizmat holatlarini muhokama qilish va o‘z xatti-harakatini tahlil etish usullarini uyg‘unlashtirish mumkin. Natijada xodim muammoni faqat intizomiy masala sifatida emas, balki insonlararo munosabatlar va psixologik omillar bilan bog‘liq jarayon sifatida anglashga o‘rganadi.

Xulosa. Ichki ishlar organlari xodimlarida nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish kompetensiyasi huquqiy bilim, emotsional o‘zini boshqarish, vaziyatni xolis baholash va hurmatli muloqotning birligiga asoslanadi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan eng muhim talab - fuqarolarning kechinmalarini tushunishga intilgan holda xizmat vakolatlarini qonuniy amalga oshirishdir. Protsessual adolat, empatiya va kasbiy refleksiyaga e’tibor qaratish nizoning asossiz kuchayishiga yo‘l qo‘ymaslikda ahamiyatli bo‘lishi mumkin. Mazkur yo‘nalishlarni kasbiy tayyorgarlik mazmuniga kiritish nazariy jihatdan asosli deb hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarida nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish kompetensiyasini rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligi, psixologik barqarorligi va ijtimoiy munosabatlarni samarali boshqarish imkoniyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Nizoli vaziyatlarda emotsional o‘zini boshqarish, empatik munosabat, muloqot madaniyati va murosaga yo‘naltirilgan strategiyalardan foydalanish qarama-qarshiliklarning keskinlashish ehtimolini kamaytiradi. Xodimlarning psixologik ta’sir ko‘rsatish kompetensiyasini takomillashtirishda individual psixologik xususiyatlarni hisobga olish, refleksiv fikrlashni rivojlantirish hamda kasbiy faoliyatga mos kommunikativ yondashuvlarni shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Shunday qilib, konstruktiv muloqot va psixologik ta’sir ko‘rsatish kompetensiyasini tizimli rivojlantirish ichki ishlar organlari xodimlarining nizoli vaziyatlarda asosli qaror qabul qilishiga, fuqarolar bilan o‘zaro ishonchni mustahkamlashiga hamda xizmat faoliyatining ijtimoiy-psixologik samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 16-sentabr, O‘RQ-407-son. https://lex.uz/uz/acts/-3027843

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son qarori. “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” (1-ilova). https://lex.uz/uz/acts/-6364837

3. Rahim, M. A. (2002). Toward a Theory of Managing Organizational Conflict. International Journal of Conflict Management, 13(3), 206–235. https://doi.org/10.1108/eb022874

4. Tyler, T. R. (2004). Enhancing Police Legitimacy. The ANNALS of the American Academy of Political and Social Science, 593(1), 84–99. https://doi.org/10.1177/0002716203262627

5. Gross, J. J. (1998). The Emerging Field of Emotion Regulation: An Integrative Review. Review of General Psychology, 2(3), 271–299. https://doi.org/10.1037/1089-2680.2.3.271

Raupov Akbarshox Aminjon o'g'li
Buxoro davlat universiteti o’qituvchisi

SHAXSNING HAYOT MAZMUNINI IZLASH JARAYONIDA EKZISTENSIAL KECHINMALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada shaxsning hayot mazmunini izlash jarayonida yuzaga keladigan ekzistensial kechinmalarning psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Hayot mazmunini anglash insonning o‘z mavjudligi, shaxsiy qadriyatlari, maqsadlari va kelajak istiqbollari haqida mulohaza yuritishi bilan bog‘liq murakkab psixologik jarayon sifatida yoritiladi. Tadqiqotda*

ekzistensial kechinmalarning mazmuni, ularning shaxsning o‘zini anglash, mas’uliyatni his qilish, tanlov qilish, ichki ziddiyatlarni boshdan kechirish va hayotiy maqsadlarni belgilash jarayonlariga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, hayot mazmunining yo‘qolishi yoki uning aniq shakllanmaganligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ma’naviy bo‘shliq, ichki xavotir, yolg‘izlik va kelajak oldidagi noaniqlik kabi kechinmalarning psixologik jihatlari ochib beriladi. Ekzistensial yondashuv asosida shaxsning mazmun izlash jarayoni faqat muammoli holat sifatida emas, balki o‘zini rivojlantirish, qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqish va shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish mexanizmi sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: *hayot mazmuni, ekzistensial kechinmalar, shaxs, o‘zini anglash, ekzistensial xavotir, hayotiy maqsad, shaxsiy qadriyatlar, tanlov, mas’uliyat, ichki ziddiyat, ma’naviy izlanish.*

Аннотация. *В статье рассматриваются психологические особенности экзистенциальных переживаний, возникающих в процессе поиска человеком смысла жизни. Осмысление смысла жизни представлено как сложный психологический процесс, связанный с пониманием собственной жизненной позиции, личностных ценностей, целей и перспектив будущего. Особое внимание уделяется содержанию экзистенциальных переживаний и их взаимосвязи с самопознанием, ощущением ответственности, принятием решений, внутренними противоречиями и формированием жизненных ориентиров личности. Анализируются также такие переживания, как внутреннее беспокойство, чувство одиночества, неопределённость будущего и ощущение духовной пустоты, которые могут возникать при недостаточной сформированности или утрате жизненных смыслов. С позиций экзистенциального подхода поиск смысла рассматривается не только как реакция личности на кризисные обстоятельства, но и как психологический механизм переосмысления собственных ценностей, развития самосознания и раскрытия личностного потенциала. Подчёркивается, что экзистенциальные переживания способны выполнять преобразующую функцию, побуждая человека к более глубокому осмыслению собственной жизни и ответственности за принимаемые решения.*

Ключевые слова: *смысл жизни, экзистенциальные переживания, личность, самосознание, экзистенциальная тревога, жизненные цели, личностные ценности, выбор, ответственность, внутренние противоречия, духовный поиск.*

Abstract. *This article examines the psychological characteristics of existential experiences that emerge in the process of searching for meaning in life. The search for meaning is considered a complex psychological process associated with an individual’s understanding of personal existence, values, goals, and future perspectives. Particular attention is given to the content of existential experiences and their relationship with self-awareness, a sense of responsibility, decision-making, internal conflicts, and the formation of meaningful life orientations. The study also explores psychological experiences such as inner anxiety, loneliness, uncertainty about the future, and a sense of spiritual emptiness that may arise when life meanings are insufficiently developed or become disrupted. From an existential perspective, the search for meaning is interpreted not only as a response to challenging or crisis-related circumstances but also as a psychological mechanism through which individuals reconsider their values, deepen self-awareness, and realize their personal potential. The article emphasizes that existential experiences may have a transformative function by encouraging individuals to reflect more deeply on their lives, choices, values, and responsibility for the direction of their personal development.*

Key words: *meaning of life, existential experiences, personality, self-awareness, existential anxiety, life goals, personal values, choice, responsibility, internal conflicts, spiritual search.*

KIRISH. Inson hayotining mazmunini anglash va o‘z mavjudligining mohiyatini tushunishga intilishi shaxs psixologiyasining eng murakkab va ko‘p qirrali masalalaridan biridir. Inson kundalik faoliyat jarayonida turli maqsadlarni belgilaydi, qarorlar qabul qiladi, munosabatlarga kirishadi va kelajakka nisbatan muayyan tasavvurlarni shakllantiradi. Biroq shaxs hayotining muayyan bosqichlarida odatiy faoliyat va tashqi muvaffaqiyatlarning o‘zi yetarli

emasligini his qilishi, “Men nima uchun yashayapman?”, “Hayotimning asosiy maqsadi nimadan iborat?”, “Qanday qadriyatlar asosida yashashim kerak?” kabi savollar ustida chuqur mulohaza yuritishi mumkin. Bunday izlanishlar shaxsning o‘zligini anglash va hayotiy yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqish jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Hayot mazmunini izlash jarayoni oddiy 809eterminant809 mulohaza bilan cheklanmaydi. U shaxsning hissiy holati, qadriyatlar tizimi, ehtiyojlari, e’tiqodlari, hayotiy tajribasi va kelajak haqidagi tasavvurlari bilan uzviy aloqada kechadi. Shu sababli mazmun izlash jarayonida turli ekzistensial kechinmalar paydo bo‘lishi mumkin. Xavotir, yolg‘izlikni his qilish, ichki bo‘shliq, tanlov oldidagi ikkilanish, hayotiy noaniqlik, mas’uliyatni chuqur anglash va mavjud vaziyatga nisbatan qoniqmaslik kabi holatlar shaxsning o‘z hayotiga bo‘lgan munosabatini qayta ko‘rib chiqishiga sabab bo‘ladi. Mazkur kechinmalarni faqat salbiy psixologik holatlar sifatida baholash biryoqlama yondashuv bo‘lib, ayrim vaziyatlarda ular shaxsning ichki rivojlanishi uchun muhim turtki vazifasini ham bajarishi mumkin.

Ekzistensial kechinmalarning o‘ziga xos jihati shundaki, ular insonning tashqi vaziyatlardan ko‘ra o‘z mavjudligiga bo‘lgan munosabati bilan ko‘proq bog‘liqdir. Shaxs tanlov qilish imkoniyatiga ega ekanini anglagan sari uning qarorlari uchun javobgarlik hissi ham kuchayadi. Tanlov erkinligi bir tomondan shaxsning o‘z hayot yo‘lini mustaqil belgilash imkoniyatini kengaytirsa, ikkinchi tomondan noto‘g‘ri qaror qilish yoki kelajakni oldindan aniq belgilay olmaslik bilan bog‘liq xavotirni yuzaga keltirishi mumkin. Natijada inson o‘z qadriyatlari, maqsadlari va hayotiy ustuvorliklarini qayta tahlil qilishga ehtiyoj sezadi.

Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlarning jadallashuvi, axborot oqimining kengayishi, raqamli muhitning inson hayotiga chuqur kirib borishi va muvaffaqiyat haqidagi turli ijtimoiy tasavvurlarning kuchayishi shaxsning o‘z hayotiga baho berish jarayoniga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Tashqi muvaffaqiyat, moddiy farovonlik yoki ijtimoiy maqom har doim ham insonda ichki qoniqish va mazmunlilik hissini ta’minlamaydi. Shu jihatdan shaxsning subyektiv ravishda “mazmunli hayot” deb qabul qiladigan mezonlarini aniqlash, uning hayotiy maqsadlari bilan ichki ehtiyojlari o‘rtasidagi mutanosiblikni o‘rganish dolzarb psixologik vazifalardan biri hisoblanadi.

Shaxsning hayot mazmunini izlash jarayonida ekzistensial kechinmalarni o‘rganish uning o‘zini anglash darajasi, qadriyatlar tizimi, mustaqil tanlov qila olish qobiliyati va kelajakni rejalashtirish xususiyatlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Ayniqsa, mazmun izlashning qaysi sharoitlarda konstruktiv rivojlanishga, qaysi holatlarda esa uzoq davom etuvchi ichki ziddiyat va ma’naviy beqarorlikka olib kelishini aniqlash amaliy psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega. Mazkur masalani tadqiq etish shaxsning ekzistensial tajribasini yaxlit holda tushuntirish, uning ichki resurslarini aniqlash hamda psixologik yordamning mazmunini takomillashtirish uchun nazariy va amaliy asos yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan, shaxsning hayot mazmunini izlash jarayonida yuzaga keladigan ekzistensial kechinmalarning mazmuni, psixologik namoyon bo‘lish shakllari, ularning o‘zini anglash va hayotiy yo‘nalishlarni belgilash bilan o‘zaro aloqasi alohida ilmiy tadqiqot obyektini tashkil etadi. Mazkur yo‘nalishni o‘rganish insonning hayotiy tajribasini faqat tashqi faoliyat natijalari orqali emas, balki uning ichki ma’no va qadriyatlar tizimi orqali tushunishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Shaxsning hayot mazmunini izlash masalasi psixologiya tarixida insonning mavjudligi, maqsadlari, qadriyatlari va o‘zligini anglash bilan bog‘liq fundamental muammolardan biri sifatida shakllangan. Ekzistensial psixologiya doirasida mazmun masalasi insonning tayyor va o‘zgarmas javobni qabul qilishi emas, balki o‘z hayot tajribasi, tanlovlari va mas’uliyati orqali mazmunni shakllantirib borishi bilan izohlanadi. Shu sababli hayot mazmunini izlashni faqat muayyan maqsadga erishish jarayoni sifatida emas, balki shaxsning o‘z mavjudligini tushunishga qaratilgan uzluksiz ichki faoliyati sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

V. Franklning qarashlarida hayot mazmunini izlash inson mavjudligining muhim motivatsion yo‘nalishlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Uning yondashuvida insonning murakkab

yoki cheklangan vaziyatlarda ham hayotga bo‘lgan munosabatini belgilash imkoniyati alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu nuqtayi nazardan ekzistensial kechinmalar faqat ruhiy zo‘riqishning ifodasi bo‘lib qolmay, balki shaxsni o‘z hayotiy pozitsiyasini qayta ko‘rib chiqishga undaydigan ichki jarayon sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Mazmunni anglash insonning boshidan kechirayotgan voqealariga qanday ma’no berishi va ularni o‘z hayotiy yo‘nalishi bilan qanday bog‘lashiga ham taalluqlidir.

I. Yalom ekzistensial psixoterapiya doirasida insonning mavjudligi bilan bog‘liq bir qator fundamental masalalarga e’tibor qaratadi. Jumladan, o‘limni anglash, erkinlik va tanlov, mavjudlikning mazmuni hamda yolg‘izlik kabi masalalar shaxsning ichki dunyosida chuqur kechinmalarni yuzaga keltirishi mumkin. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, ekzistensial xavotirni oddiy kundalik tashvishlardan farqlash mumkin: u insonning o‘z mavjudligi va hayot yo‘nalishi haqidagi chuqur savollar bilan bog‘lanadi. Bunday kechinmalar shaxsni o‘z qadriyatlari va hayotiy qarorlarini qayta baholashga olib kelishi ehtimoli mavjud.

Hayot mazmunining psixologik tuzilishini aniqlashtirishga qaratilgan zamonaviy tadqiqotlarda mazmun bir nechta o‘zaro bog‘liq tarkibiy jihatlar orqali tushuntiriladi. Martela va Steger hayot mazmunini **izchillik (coherence), maqsad (purpose) va ahamiyatlilik (significance)** kabi uch yo‘nalishda ko‘rib chiqishni taklif etadi. Izchillik shaxsning o‘z hayotini tushunarli va mantiqan bog‘langan deb qabul qilishini, maqsad kelajak sari yo‘nalish va asosiy intilishlarning mavjudligini, ahamiyatlilik esa insonning o‘z mavjudligini qadrli deb his etishini ifodalaydi.

Mazkur uch komponentning o‘zaro aloqasi ekzistensial kechinmalarni tushunishda muhim nazariy asos bo‘la oladi. Masalan, inson o‘z hayotidagi voqealarni yaxlit tizim sifatida tushuntira olmasa, ichki noaniqlik kuchayishi mumkin; kelajakka yo‘naltirilgan aniq maqsadlarning yetishmasligi esa hayotiy yo‘nalishning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, shaxs o‘z mavjudligining qadrini his qilmasa, mazmun izlash yanada kuchli ichki ehtiyojga aylanishi mumkin. Demak, hayot mazmunining pasayishi yoki beqarorligi bilan bog‘liq kechinmalarni alohida hissiy holatlar sifatida emas, balki kognitiv, motivatsion va qadriyatga oid jarayonlarning o‘zaro ta’siri sifatida o‘rganish zarur.

King va Hicks tomonidan olib borilgan ilmiy tahlilda ham hayot mazmuni shaxsning hayotini tushunarli deb qabul qilishi, kelajak uchun maqsadga ega bo‘lishi va o‘z mavjudligini ahamiyatli deb his qilishi bilan bog‘liq ekanligi ko‘rsatiladi. Mualliflar hayot mazmunini inson tajribasining subyektiv jihati sifatida ko‘rib, uning psixologik farovonlik va boshqa shaxsiy jarayonlar bilan aloqalarini tahlil qilgan.

C. L. Parkning mazmun yaratish jarayoniga bag‘ishlangan tadqiqotlari mazkur muammoning yana bir muhim tomonini ochib beradi. Tadqiqotchi insonning umumiy hayotiy mazmuni bilan muayyan vaziyatga bergan mazmunini farqlashni taklif qiladi. Shuningdek, insonning mazmun izlashga qaratilgan faoliyati bilan natijada shakllangan mazmun o‘rtasidagi farq ham ko‘rsatiladi. Bu yondashuv shaxsning ekzistensial kechinmalarini o‘rganishda ayniqsa muhimdir, chunki inson boshidan kechirgan hodisani dastlab bir tarzda talqin qilishi, keyinchalik esa tajribani qayta anglash orqali unga yangi mazmun berishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hayot mazmunini izlash jarayonida yuzaga keladigan kechinmalarni faqat salbiy emotsional holatlar bilan tenglashtirish ilmiy jihatdan yetarli emas. Ekzistensial xavotir, yolg‘izlik hissi, ichki bo‘shliq yoki kelajakning noaniqligi ayrim vaziyatlarda shaxs uchun qiyin tajriba bo‘lsa-da, ular o‘z-o‘zini anglash, qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqish va yangi hayotiy yo‘nalishlarni shakllantirish jarayonining boshlang‘ich nuqtasiga aylanishi mumkin. Shu jihatdan ekzistensial kechinmalarning psixologik xususiyatlarini o‘rganishda ularning **mazmuni, kelib chiqish sharoiti, davomiyligi, shaxsning o‘zini anglashiga ta’siri va konstruktiv o‘zgarishlarga olib kelish imkoniyati** kompleks ravishda tahlil qilinishi lozim.

Umuman olganda, mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish asosida shaxsning hayot mazmunini izlash jarayonini uch o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda ko‘rish mumkin: **o‘z hayotini anglash, kelajak uchun mazmunli maqsadlarni belgilash va o‘z mavjudligining ahamiyatini his qilish**. Ushbu jarayon davomida yuzaga keladigan ekzistensial kechinmalar esa shaxsning

Kiberbulling va raqamli guruh me’yorlarining ta’siri. Kiberbulling — raqamli vositalar orqali zarar yetkazish, tahqirlash yoki qo‘rqitish bilan bog‘liq xatti-harakatlardir. Bunday vaziyatlarda o‘smir faol ishtirokchi yoki jabrlanuvchi bo‘lish bilan birga, kuzatuvchi sifatida ham axloqiy tanlov qiladi. U jabrlanuvchini himoya qilishi, haqoratli materialni tarqatishni to‘xtatishi, ishonchli kattaga xabar berishi yoki mazax qilishga qo‘shilishi mumkin.

Raqamli guruhlarda “layk”, kulgu belgisi, izohlar yoki qayta ulashishlar xatti-harakat maqbul ekaniga doir noto‘g‘ri tasavvur tug‘dirishi mumkin. Agar guruhdagi ko‘pchilik haqoratli kontentni qo‘llab-quvvatlayotgandek ko‘rinsa, o‘smir mustaqil axloqiy bahosiga qaramay ularga qo‘shilishi ehtimoli ortadi. Aksincha, guruh a’zolari hurmat, haqqoniylik va jabrlanuvchini qo‘llashni qadrlasa, ijobiy me’yorlar kuchayishi mumkin.

UNICEFning 2025-yilda e’lon qilingan “Childhood in a Digital World” hisobotida raqamli texnologiyalar bolalarga ta’lim va ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlarini berishi bilan birga, onlayn zo‘ravonlik va kiberbulling kabi xavflarni ham keltirib chiqarishi yoritilgan. Hisobotda ekran vaqtini cheklashning o‘zi bolalarni himoya qilish uchun yetarli emasligi, zararli tajribalarning oldini olish, raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish va xavfsiz onlayn muhit yaratishga e’tibor berish zarurligi ta’kidlanadi. Demak, raqamli muhitni xavf va imkoniyatlarni birgalikda o‘z ichiga olgan ijtimoiy makon sifatida o‘rganish kerak.

Ta’lim va tarbiya uchun amaliy tavsiyalar, Birinchidan, o‘quvchilarda raqamli empatiyani rivojlantirish lozim. Mashg‘ulotlarda haqoratli izoh yoki ruxsatsiz tarqatilgan surat boshqa insonda qanday hissiyot va oqibatlarni yuzaga keltirishi muhokama qilinishi mumkin. Ikkinchidan, axborotni tekshirish, shaxsiy ma’lumotni himoya qilish, ruxsat olish va kontentni ulashishdan oldin oqibatlarini o‘ylash ko‘nikmalari shakllantirilishi zarur.

Uchinchidan, maktablarda kiberbullingga qarshi aniq tartiblar, ishonchli xabar berish yo‘llari va jabrlanuvchini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari bo‘lishi kerak. O‘smirga faqat “bunday qilma” deyish yetarli emas; bosim ostida qanday javob qaytarish, zararli kontentni qanday xabar qilish va kattalardan qachon yordam so‘rashni ham o‘rgatish lozim. To‘rtinchidan, ota-onalar va pedagoglar o‘smir bilan onlayn vaziyatning sabablari va oqibatlari haqida ochiq muloqot olib borishi kerak. Beshinchidan, raqamli fuqarolik ta’limi axloqiy qoidalar bilan birga xarakter fazilatlarini ham rivojlantirishi lozim. Halollik, hurmat, mas’uliyat, adolat va hamdardlik onlayn xulq-atvorda qanday namoyon bo‘lishi aniq misollar orqali tahlil qilinishi mumkin. O‘quvchilarga axloqiy dilemma berib, har bir yechimning kimga va qanday ta’sir ko‘rsatishini muhokama qildirish mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi.

Xulosa: Raqamli muhit o‘smirlarning axloqiy qaror qabul qilish jarayonlariga muloqotning tezligi, ijtimoiy ma’qullash, anonimlik hissi, raqamli guruh me’yorlari va xatti-harakat oqibatlarining ko‘rinish darajasi orqali ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Kiberbullingga guvoh bo‘lganda munosabat bildirish, zararli kontentni ulashish yoki rad etish kabi vaziyatlar o‘smirdan nafaqat axloqiy qoidalarni bilishni, balki empatiya, o‘zini boshqarish va mas’uliyatni ham talab qiladi.

Raqamli texnologiyalarni faqat taqiqlashga asoslangan yondashuv yetarli emas. Samarali profilaktika raqamli savodxonlik, axloqiy mulohaza, empatiya, tanqidiy fikrlash va raqamli fuqarolik ko‘nikmalarini birgalikda rivojlantirishni talab etadi. Kelgusida mahalliy o‘smirlarning raqamli tajribasi, oilaviy va maktab muhiti hamda madaniy xususiyatlarni empirik o‘rganish tavsiyalarning samaradorligini baholashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bandura, A. (2002). Selective moral disengagement in the exercise of moral agency. Journal of Moral Education, 31(2), 101–119. https://doi.org/10.1080/0305724022014322
2. Harrison, T., & Polizzi, G. (2022). (In)civility and adolescents’ moral decision making online: Drawing on moral theory to advance digital citizenship education. Education and Information Technologies, 27, 3277–3297. https://doi.org/10.1007/s10639-021-10710-0
3. James, C. (2014). Disconnected: Youth, new media, and the ethics gap. MIT Press.
4. Livingstone, S., & Third, A. (2017). Children and young people’s rights in the digital age: An emerging agenda. New Media & Society, 19(5), 657–670. https://doi.org/10.1177/1461444816686318
5. UNICEF Office of Strategy and Evidence – Innocenti. (2025). Childhood in a Digital World. UNICEF. https://www.unicef.org/innocenti/reports/childhood-digital-world
6. Zhao, L., & Yu, J. (2021). A meta-analytic review of moral disengagement and cyberbullying. Frontiers in Psychology, 12, 681299. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2021.681299
7. Suler, J. (2004). The online disinhibition effect. CyberPsychology & Behavior, 7(3), 321–326. https://doi.org/10.1089/1094931041291295
8. Kowalski, R. M., Giumetti, G. W., Schroeder, A. N., & Lattanner, M. R. (2014). Bullying in the digital age: A critical review and meta-analysis of cyberbullying research among youth. Psychological Bulletin, 140(4), 1073–1137. https://doi.org/10.1037/a0035618
9. UNICEF. (2021). The State of the World’s Children 2021: On My Mind—Promoting, protecting and caring for children’s mental health. UNICEF. https://www.unicef.org/reports/state-worlds-children-2021
10. Council of Europe. (2019). Digital citizenship education handbook. Council of Europe Publishing. https://rm.coe.int/16809382f9

Ilxamova Diana
Urgnch davlat universiteti tadqiqotchisi

O‘SMIR MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KOGNITIV MOSLASHUVCHANLIK VA TOLERANTLIKNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘smir maktab o‘quvchilarida kognitiv moslashuvchanlik va tolerantlikning o‘zaro bog‘liqligi nazariy-psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Kognitiv

moslashuvchanlikning muqobil fikrlash, vaziyatlarni turli nuqtayi nazardan baholash va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, tolerantlikning boshqa insonlarning qarashlari, qadriyatlari va xulq-atvoridagi farqlarni qabul qilish bilan bog‘liq jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, maktab o‘quvchilari, kognitiv moslashuvchanlik, tolerantlik, tafakkur, muqobil fikrlash, individual farqlar.

Аннотация. В статье проводится теоретико-психологический анализ взаимосвязи когнитивной гибкости и толерантности у подростков школьного возраста. Раскрывается значение когнитивной гибкости для альтернативного мышления, оценки ситуаций с разных точек зрения и адаптации к изменяющимся условиям. Рассматриваются особенности толерантности, связанные с принятием различий во взглядах, ценностях и поведении других людей.

Ключевые слова: подростковый возраст, школьники, когнитивная гибкость, толерантность, мышление, альтернативное мышление, индивидуальные различия.

Abstract. This article presents a theoretical and psychological analysis of the relationship between cognitive flexibility and tolerance among adolescent school students. It highlights the importance of cognitive flexibility in alternative thinking, evaluating situations from different perspectives, and adapting to changing circumstances. The article also examines aspects of tolerance associated with accepting differences in other people’s views, values, and behavior.

Keywords: adolescence, school students, cognitive flexibility, tolerance, thinking, alternative thinking, individual differences.

Kirish. O‘smirlik davrida abstrakt-mantiqiy tafakkur va tengdoshlar bilan munosabatlar jadal rivojlanadi. Bu jarayonda o‘smirning muammoli vaziyatlarni turli nuqtayi nazardan tahlil qilishi va muqobil yechimlarni topa olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologiyada bu kognitiv moslashuvchanlik tushunchasi orqali izohlanib, shaxsning vaziyat talablariga muvofiq fikrlash strategiyalarini o‘zgartirishi va yangi axborot asosida qarashlarini qayta baholash qobiliyatini anglatadi. O‘z navbatida, tolerantlik boshqa insonlarning farqli qarashlari, e’tiqodlari va individual xususiyatlarini hurmat qilish, farqlarni tan olish hamda murosasizlikka yo‘l qo‘ymaslik bilan tavsiflanadi.

Yurtimizda yoshlarning intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari va millatlararo totuvlik tamoyillari mustahkamlangan bo‘lib, bu boradagi vazifalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi PF–6017-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son qarori hamda 2019-yil 12-iyuldagi 577-son qarori ijrosida o‘z aksini topgan [1; 2]. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni

ta’minlash va o‘quvchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Maktab muhitida ushbu ikki xususiyatning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish o‘smirda biryoqlama fikrlashni kamaytirish, shaxslararo munosabatlarda o‘zaro tushunishni mustahkamlash hamda nizolarni profilaktika qilishga qaratilgan psixologik-pedagogik tadbirlarni takomillashtirishga zamin yaratadi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Kognitiv moslashuvchanlik va tolerantlik muammosi zamonaviy psixologiyada kognitiv rivojlanish, shaxsning individual xususiyatlari hamda ijtimoiy munosabatlar doirasida o‘rganib kelinmoqda. Xorijiy psixologiyada J. Piaje kognitiv rivojlanishni formal operatsiyalar bosqichi bilan bog‘lab, o‘smirlik davrida abstrakt va mantiqiy fikrlash imkoniyatlarining kengayishini izohlagan bo‘lsa [9], R. J. Spiro va uning hamkasblari kognitiv moslashuvchanlikni murakkab vaziyatlarda bilimlarni turli nuqtayi nazarlardan qayta tashkil etish va qo‘llash imkoniyati bilan bog‘liq holda izohlaganlar [10]. M. M. Martin va R. B. Rubin esa kognitiv moslashuvchanlikni baholash shkalasini ishlab chiqib, ushbu tushunchaning muqobil imkoniyatlarni anglash, vaziyatga moslashish va o‘z moslashuvchanligiga ishonch kabi jihatlarini o‘rganganlar [8]. Shuningdek, G. Allportning xurofotlar va guruhlararo munosabatlarga oid qarashlari hamda A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi shaxsning ijtimoiy vaziyatlarni idrok etishi, boshqalarning xatti-harakatlarini talqin qilishi va ijtimoiy muhit ta’sirida xulq-atvorini shakllantirish jarayonlarini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [3][4].

MDH psixologiyasida ham kognitiv rivojlanish va tolerantlikning ijtimoiy-psixologik jihatlari alohida ilmiy yo‘nalishlar doirasida yoritilgan. Jumladan, L. S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy yondashuvida psixik rivojlanishning ijtimoiy muhit, muloqot va madaniy tajriba bilan uzviy aloqasi asoslangan [11]. M. A. Xolodnayaning intellekt va kognitiv uslublarga oid tadqiqotlari esa axborotni qayta ishlash, fikrlash strategiyalari hamda individual kognitiv farqlarni tahlil qilish imkonini beradi [13]. G. U. Soldatovaning ilmiy izlanishlarida tolerantlikning ijtimoiy-psixologik shartlari, shaxslararo va guruhlararo munosabatlardagi ahamiyati yoritilgan [12]. Ushbu yondashuvlar kognitiv xususiyatlar va tolerant munosabatlarni shaxs rivojlanishi hamda ijtimoiy muhit bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston psixologiyasida ham shaxs rivojlanishi, bilish jarayonlari, tafakkur xususiyatlari va shaxslararo muloqot muammolari turli jihatlardan tadqiq etilgan. Xususan, M. G. Davletshin va E. G‘. G‘oziyevning ilmiy ishlari bilish jarayonlari, tafakkur va shaxsning psixologik rivojlanishiga oid nazariy qarashlarni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi [5]. V. M. Karimovaning ijtimoiy psixologiya va shaxslararo munosabatlarga oid tadqiqotlari [6], Z. T. Nishanovaning bilish jarayonlari hamda yosh davrlari psixologiyasiga doir ishlari [7], G. B.

Shoumarovning oila va shaxs rivojlanishiga oid ilmiy qarashlari o‘smirlarning kognitiv va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish uchun nazariy asos yaratadi.

Metodologik asoslar. Mazkur nazariy maqolaning metodologik asosini tizimli yondashuv, rivojlanish prinsipi va ijtimoiy-kognitiv yondashuv tashkil etadi. Tizimli yondashuvga ko‘ra, o‘smirning kognitiv xususiyatlari va tolerantligi uning shaxsiy tajribasi va ta’lim muhiti bilan uzviylikda ko‘rib chiqildi. Rivojlanish yondashuvi esa o‘smirlik davridagi abstrakt-mantiqiy tafakkurning shakllanish jarayonini tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot davomida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, sintez va tizimlashtirish hamda konseptual modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Asosiy qism. Nazariy yondashuvlar tahlili o‘smir maktab o‘quvchilarida kognitiv moslashuvchanlik va tolerantlik o‘rtasidagi ehtimoliy bog‘liqlikni bir nechta psixologik mexanizmlar orqali izohlash imkonini beradi. Kognitiv moslashuvchanlik vaziyatni turli nuqtayi nazardan baholash, muqobil fikrlarni ko‘rib chiqish va zaruratga ko‘ra o‘z xulosalarini qayta ko‘rib chiqish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Bu xususiyat o‘smirlarning tengdoshlari bilan muloqot qilishi va kelishmovchiliklarni tushunishiga yordam berishi mumkin.

Kognitiv rigidlik esa fikrlash strategiyasini o‘zgartirish va muqobil talqinlarni qabul qilishdagi qiyinchiliklar bilan tavsiflanadi. Biroq uni intolerantlik yoki tajovuzkorlik bilan tenglashtirish mumkin emas, chunki tolerant munosabatlar kognitiv xususiyatlar bilan bir qatorda empatiya, emotsional boshqaruv, tarbiya va ijtimoiy me’yorlarga ham bog‘liq.

Ushbu xususiyatlar o‘rtasidagi ehtimoliy aloqa kognitiv anglash, emotsional boshqaruv va xulq-atvoriy namoyon bo‘lish jarayonlari orqali izohlanishi mumkin. Boshqalarning nuqtayi nazarini tushunish, kelishmovchilik paytida hissiyotlarni boshqarish va fikrlar xilma-xilligini hurmat qilish tolerant munosabatlarni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Shunga qaramay, kognitiv moslashuvchanlikning o‘zi tolerant xulq-atvorni kafolatlamaydi, shu bois mazkur nazariy qarashlar empirik tadqiqotlar orqali tekshirilishi lozim.

Bu jarayonda maktab muhiti ham muhim o‘rin tutadi. Muqobil fikrlarni muhokama qilish, guruhli topshiriqlar va nizolarni konstruktiv hal etishga qaratilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Bunda pedagogning munosabati, sinfdagi psixologik xavfsizlik, tengdoshlar o‘rtasidagi o‘zaro yordam va oilaviy tarbiyani ham hisobga olish zarur. Maktab psixologi tomonidan empatiya va samarali muloqotni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni tashkil etish, ularning samaradorligini esa alohida baholash maqsadga muvofiq.

1-jadval. O‘smirlarda kognitiv moslashuvchanlik va tolerantlikning nazariy-funksional qiyosiy tahlili

Tahlil mezoni	Kognitiv rigidlik bilan bog‘liq holatlar	Kognitiv moslashuvchanlik bilan bog‘liq holatlar	Tolerantlik bilan ehtimoliy aloqasi

Axborotni talqin qilish	Dastlabki fikrga ortiqcha tayanish	Muqobil izohlarni ko‘rib chiqish	Boshqalarning qarashlarini tushunishga yordam berishi mumkin
Shaxslararo muloqot	Kelishmovchilikni biryoqlama baholash	Vaziyatni boshqa ishtirokchi nuqtayi nazaridan tahlil qilish	O‘zaro tushunish va hurmatli muloqotni qo‘llab-quvvatlashi mumkin
Yangi vaziyatlarga munosabat	Avvalgi fikrlash strategiyasini o‘zgartirishda qiyinchilik	Vaziyatga mos ravishda fikrlashni qayta ko‘rib chiqish	Konstruktiv muloqot uchun imkoniyat yaratishi mumkin
Kelishmovchilikni baholash	O‘z pozitsiyasini yagona to‘g‘ri talqin deb qabul qilish ehtimoli	Qarama-qarshi dalillarni tahlil qilish	Fikrlar xilma-xilligini tan olishga ko‘maklashishi mumkin

Muhokama qilinayotgan masala J. Piajening kognitiv rivojlanish haqidagi qarashlari [9], R. Spiro va hamkasblarining bilimlarni moslashuvchan qo‘llashga doir yondashuvi hamda G. Allportning guruhlararo munosabatlar va xurofotlarni tahlil qilishga oid qarashlari bilan nazariy jihatdan bog‘lanadi [3; 10]. Ushbu yondashuvlar o‘smirlarning boshqa nuqtayi nazarlarni tushunishi, murakkab vaziyatlarni turlicha talqin qilishi va tolerant munosabatlarni shakllantirish jarayonlarini birgalikda o‘rganish uchun asos bo‘la oladi. Biroq kognitiv moslashuvchanlikni tolerantlikning yagona mezoni sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas, chunki o‘z qarashlarini qat’iy himoya qilgan shaxs ham boshqalarning fikr bildirish huquqini hurmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, nazariy tahlil kognitiv moslashuvchanlik va tolerantlik o‘rtasida ehtimoliy bog‘liqlik mavjudligini taxmin qilishga asos beradi, ammo uning darajasi va mexanizmlarini aniqlash uchun empirik tekshiruv zarur. Keyingi tadqiqotlarda ushbu xususiyatlar bilan bir qatorda empatiya, emotsional boshqaruv va maktabdagi psixologik muhitning rolini ham o‘rganish maqsadga muvofiq. Bunda o‘smirlar yoshiga mos, ishonchliligi va validligi asoslangan diagnostik vositalardan foydalanish, shuningdek, ularning mahalliy til va madaniy muhitga mosligini tekshirish muhim hisoblanadi.

Xulosa

Nazariy tahlil natijalariga ko‘ra, kognitiv moslashuvchanlik o‘smirning muammoli vaziyatlarni turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishi, muqobil fikrlarni baholashi va zaruratga ko‘ra fikrlash strategiyasini o‘zgartirishi bilan tavsiflanadi. Tolerantlik esa boshqalarning farqli qarashlari va pozitsiyalariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni anglatib, uning namoyon bo‘lishi faqat kognitiv jarayonlarga emas, balki empatiya, emotsional boshqaruv va ijtimoiy muhitga ham bog‘liq. Shu jihatdan, kognitiv moslashuvchanlik tolerant munosabatlarni qo‘llab-quvvatlashi mumkin bo‘lgan muhim psixologik omillardan biri sifatida qaraladi, biroq uni tolerantlikning

yagona sharti sifatida baholash to‘g‘ri emas. Ta’lim jarayonida muqobil fikrlarni muhokama qilish, o‘zaro hurmatga asoslangan muloqotni rivojlantirish va nizolarni tinch yo‘l bilan hal etishga qaratilgan mashg‘ulotlarni tashkil qilish o‘smirlarning shaxsiy hamda ijtimoiy rivojlanishiga ko‘maklashishi mumkin. Biroq ushbu nazariy xulosalarni amaliy jihatdan asoslash uchun kognitiv moslashuvchanlik, tolerantlik va ular bilan bog‘liq psixologik omillar o‘rtasidagi munosabatlarni empirik tadqiqotlar orqali tekshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi PF–6017-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son qarori. O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida.
3. Allport G. W. The Nature of Prejudice. – Cambridge, MA: Addison-Wesley, 1954. – 537 p.
4. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1986. – 617 p.
5. Davletshin M.G., To‘ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2002.
6. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 172 b.

Nozimov Jaxongir Toxirovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

MASOFAVIY TA'LIMDA TALABALAR ISHONCHINING SHAKLLANISHIDA TA'LIM PLATFORMASI SIFATI, O'QITUVCHI QO'LLAB-QUVVATLASHI VA XAVFSIZLIKNING O'RNI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL

Annotatsiya. Raqamlashtirish jarayonlari va pandemiyadan keyingi davrda masofaviy ta'lim oliy ta'lim tizimining barqaror tarkibiy qismiga aylandi. Biroq ta'lim sifatining o'zi talabalarning bilim olish jarayoniga faol jalb qilinishini kafolatlamaydi — buning uchun talabada ta'lim tizimiga, platformaga va o'qituvchiga nisbatan psixologik ishonch shakllangan bo'lishi zarur. Ushbu maqolada masofaviy ta'limda talabalar ishonchining shakllanish mexanizmlari uchta asosiy omil — ta'lim platformasining sifati, o'qituvchining qo'llab-quvvatlash xatti-harakati va axborot xavfsizligi darajasi nuqtai nazaridan nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, talabalar ishonchi, ta'lim platformasi sifati, o'qituvchi qo'llab-quvvatlashi, axborot xavfsizligi, raqamli ishonch, ta'lim psixologiyasi.

Аннотация. Дистанционное обучение стало устойчивой составляющей систем высшего образования во всем мире. Однако одного лишь качества преподавания

недостаточно для обеспечения активной вовлеченности студентов — для этого необходимо формирование психологического доверия к образовательной системе, используемой платформе и преподавателю. В данной статье представлен теоретический и эмпирический анализ того, каким образом качество образовательной платформы, поддержка со стороны преподавателя и информационная безопасность формируют доверие студентов к дистанционному обучению.

Ключевые слова: дистанционное обучение, доверие студентов, качество платформы электронного обучения, поддержка преподавателя, информационная безопасность, цифровое доверие, психология образования.

Abstract. Distance education has become a stable component of higher education systems worldwide. Yet the quality of instruction alone does not guarantee students' active engagement — this requires the formation of psychological trust toward the educational system, the platform and the instructor. This article provides a theoretical and empirical analysis of how platform quality, teacher support and information security shape student trust in distance learning.

Keywords: distance education, student trust, e-learning platform quality, teacher support, information security, digital trust, educational psychology.

So'nggi o'n yillikda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va 2020-2021-yillardagi pandemiya sharoiti oliy ta'lim tizimida masofaviy va aralash ta'lim shakllarining keng joriy etilishiga turtki bo'ldi. Hozirgi kunda masofaviy ta'lim vaqtinchalik alternativa emas, balki oliy ta'limning barqaror va istiqbolli tarkibiy qismiga aylandi. Biroq ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi o'z-o'zidan ta'lim sifatini va talabalarning bilim olish jarayoniga faol jalb qilinishini kafolatlamaydi. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, masofaviy ta'lim muhitida talabaning motivatsiyasi, o'quv faoliyatidagi barqarorligi va ta'lim natijalari ko'p jihatdan uning ta'lim tizimiga, platformaga va o'qituvchiga nisbatan shakllangan psixologik ishonchi bilan bog'liq.

Ishonch — bu ijtimoiy va pedagogik psixologiyaning fundamental kategoriyalaridan biri bo'lib, u shaxsning noaniqlik va zaiflik holatida boshqa tomonning xatti-harakatlariga nisbatan ijobiy kutish va unga tayanishga tayyor bo'lish holatini anglatadi. Masofaviy ta'lim kontekstida bu tushuncha uch yo'nalishda namoyon bo'ladi: (1) texnologik ishonch — talabaning ta'lim platformasining barqaror, qulay va funksional ishlashiga bo'lgan ishonchi; (2) shaxslararo ishonch — talabaning o'qituvchiga, uning kompetentligi, mehribonligi va halolligiga bo'lgan ishonchi; (3) institutsional ishonch — talabaning ta'lim tizimining shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va xavfsiz muhit yaratish qobiliyatiga bo'lgan ishonchi.

Ushbu maqolaning maqsadi — masofaviy ta'lim sharoitida talabalar ishonchining shakllanishida ta'lim platformasi sifati, o'qituvchi qo'llab-quvvatlashi va axborot xavfsizligining rolini nazariy jihatdan asoslash hamda empirik tadqiqot orqali ularning nisbiy ta'sir darajasini aniqlash. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, uchala omil birinchi marta yagona integrativ model doirasida, mahalliy oliy ta'lim muassasalari talabalari namunasida o'rganilmoqda.

1. NAZARIY ASOSLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

1.1. Ishonch tushunchasining psixologik mazmuni

Tashkiliy ishonch nazariyasiga ko'ra (Mayer, Davis, Schoorman, 1995), ishonch uch asosiy tarkibiy qismga ega: kompetentlik (ability) — tomonning o'z vazifasini bajara olish qobiliyati; xayrixohlik (benevolence) — tomonning ishonuvchi shaxs manfaatlarini ko'zlashi; halollik (integrity) — tomonning barqaror va adolatli tamoyillarga rioya qilishi. Ushbu uchlik model ta'lim kontekstiga moslashtirilganda, talabaning o'qituvchiga bo'lgan ishonchi uning pedagogik kompetentligi, talabalarga g'amxo'rligi va baholashdagi adolatliligi orqali shakllanishini ko'rsatadi. Xuddi shu model platformaga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin: platformaning texnik barqarorligi (kompetentlik), foydalanuvchi manfaatlarini hisobga olgan interfeys dizayni (xayrixohlik) va ma'lumotlarni shaffof qayta ishlash siyosati (halollik) orqali.

1.2. Texnologiyani qabul qilish va raqamli ishonch nazariyalari

Davisning texnologiyani qabul qilish modeli (Technology Acceptance Model, TAM, 1989) foydalanuvchining texnologiyadan foydalanish niyati uning idrok etilgan foydaliligi (perceived usefulness) va idrok etilgan qulayligi (perceived ease of use) orqali shakllanishini asoslaydi. Keyinchalik McKnight, Choudhury va Kacmar (2002) tomonidan ishlab chiqilgan raqamli ishonch tipologiyasi ushbu modelni kengaytirib, onlayn muhitda ishonchning tuzilmaviy kafolatlar (structural assurance) — ya'ni xavfsizlik sertifikatlari, maxfiylik siyosati va texnik himoya mexanizmlarining mavjudligi — orqali shakllanishini ta'kidlaydi. Bu nazariya ushbu tadqiqotdagi "xavfsizlik" omilining nazariy negizini tashkil etadi: talaba platformadan foydalanishda o'z shaxsiy va akademik ma'lumotlari himoyalanganiga ishonch hosil qilmasa, chuqur kognitiv jalb qilinish (deep engagement) yuzaga kelmaydi.

DeLone va McLean axborot tizimlari muvaffaqiyati modeli (2003) platforma sifatini uchta o'lchamda — tizim sifati (barqarorlik, tezlik, foydalanuvchanlik), axborot sifati (kontentning aniqligi va dolzarbligi) va xizmat sifati (texnik yordamning tezkorligi) orqali baholashni taklif qiladi. Ushbu model tadqiqotimizda "ta'lim platformasi sifati" konstruktini operatsionallashtirish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

1.3. Ijtimoiy prezens va tergov hamjamiyati nazariyalari

Short, Williams va Christie (1976) tomonidan taklif etilgan ijtimoiy prezens nazariyasi kommunikatsiya vositasining insonlar o'rtasidagi "jonli hozirlik" hissini qanchalik uzatish qobiliyatiga ega ekanligini o'rganadi. Masofaviy ta'limda video aloqa, tezkor fikr-mulohaza va shaxsiy murojaat orqali o'qituvchi ijtimoiy prezensni kuchaytiradi, bu esa o'z navbatida talabada yolg'izlik hissini kamaytirib, ishonchni mustahkamlaydi. Garrison, Anderson va Archer (2000) tomonidan ishlab chiqilgan tergov hamjamiyati modeli (Community of Inquiry) esa samarali onlayn ta'lim tajribasini uch turdagi prezens — o'qitish prezensi (teaching presence), ijtimoiy prezens (social presence) va kognitiv prezens (cognitive presence) o'zaro ta'siri sifatida tavsiflaydi. Ushbu model "o'qituvchi qo'llab-quvvatlashi" omilini nazariy jihatdan asoslab, u nafaqat akademik yordam, balki emotsional va motivatsion qo'llab-quvvatlashni ham o'z ichiga olishini ko'rsatadi.

Mur (Moore, 1993) tomonidan taklif etilgan transaksion masofa nazariyasi shuni ta'kidlaydiki, jismoniy masofa emas, balki muloqot, tuzilma va o'quvchi avtonomiyasi o'rtasidagi psixologik masofa ta'lim samaradorligini belgilaydi. O'qituvchining tezkor va sifatli fikr-mulohaza berishi transaksion masofani qisqartiradi, bu esa ishonchning muhim shartidir.

XULOSA

O'tkazilgan nazariy va amaliy tahlil shuni ko'rsatdiki, masofaviy ta'limda talabalar ishonchining shakllanishi murakkab, ko'p omilli psixologik jarayon bo'lib, unda texnologik (platforma sifati), shaxslararo (o'qituvchi qo'llab-quvvatlashi) va institutsional (xavfsizlik) omillar o'zaro uyg'unlikda harakat qiladi. Empirik natijalar o'qituvchi omilining ustuvor ahamiyatini ta'kidlaydi — bu masofaviy ta'lim texnologiyalarini rivojlantirishda "inson omili"ni texnik yechimlar bilan bir qatorda, hatto ustuvor tarzda hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu bog'liqliklarni longitudinal dizayn asosida, shuningdek turli madaniy va institutsional kontekstlarni qiyoslagan holda chuqurroq o'rganish, shuningdek ishonchning o'quv motivatsiyasi va akademik natijadorlik bilan bog'liqligini vositachilik tahlili (mediation analysis) orqali tekshirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mayer R.C., Davis J.H., Schoorman F.D. An integrative model of organizational trust // Academy of Management Review. — 1995. — Vol. 20, No. 3. — P. 709–734.
2. Davis F.D. Perceived usefulness, perceived ease of use, and user acceptance of information technology // MIS Quarterly. — 1989. — Vol. 13, No. 3. — P. 319–340.
3. Short J., Williams E., Christie B. The Social Psychology of Telecommunications. — London: John Wiley & Sons, 1976.
4. McKnight D.H., Choudhury V., Kacmar C. Developing and validating trust measures for e-commerce: An integrative typology // Information Systems Research. — 2002. — Vol. 13, No. 3. — P. 334–359.

5. DeLone W.H., McLean E.R. The DeLone and McLean model of information systems success: A ten-year update // Journal of Management Information Systems. — 2003. — Vol. 19, No. 4. — P. 9–30.
6. Moore M.G. Theory of transactional distance // Theoretical Principles of Distance Education / Ed. by D. Keegan. — London: Routledge, 1993. — P. 22–38.
7. O'zbekiston Respublikasida raqamli ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar (rasmiy manbalar asosida).

Raximov G‘ulomjon Davronbekovich
Buxoro davlat universiteti muataqil izlanuvchisi

HAVASKOR SPORTCHILARDA MUVAFFAQIYATGA INTILISH MOTIVATSIYASI RIVOJLANISH JARAYONI

Annotatsiya: Mazkur maqolada havaskor sportchilarda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasining izchil rivojlanish jarayoni ilmiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi nazariyasining asosiy g‘oyalari, havaskor sport faoliyatining o‘ziga xos motivatsion xususiyatlari yoritilgan. Beshta izchil bosqich — boshlang‘ich-qiziqish, shaxsiy maqsad shakllanish, muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlikka munosabat shakllanish, barqaror ichki motivatsiya va yuqori yutuqlarga yo‘naltirilgan barqaror bosqichlar — ularning tavsifi, asosiy psixologik xususiyati va rivojlantiruvchi omillari bilan birga ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi, havaskor sportchi, rivojlanish bosqichlari, ichki motivatsiya, o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi, sport psixologiyasi, yutuqqa yo‘naltirilganlik, murabbiylik, shaxsiy rivojlanish, psixologiya.

Abstract: This article provides a scientific and psychological analysis of the sequential process of developing achievement motivation in amateur athletes. The core ideas of achievement motivation theory and the specific motivational features of amateur sports activity are examined. Five sequential stages — initial-interest, personal-goal formation, success-failure attitude formation, stable intrinsic motivation, and stable mastery-oriented stages — their description, core psychological characteristic, and developmental factors, are substantiated from a scientific and practical perspective.

Keywords: achievement motivation, amateur athlete, developmental stages, intrinsic motivation, self-determination theory, sports psychology, mastery orientation, coaching, personal development, psychology.

Kirish. Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi — shaxsning yuqori natijaga erishishga, o‘z qobiliyatlarini sinab ko‘rishga bo‘lgan barqaror ichki intilishi — sport faoliyatida, xususan havaskor sport sohasida alohida ahamiyat kasb etadi [1]. Professional sportchilardan farqli o‘laroq, havaskor sportchilar moddiy mukofot yoki majburiy natija ko‘rsatish bosimisiz, ko‘proq ichki qiziqish va shaxsiy o‘sish istagi bilan sport bilan shug‘ullanadilar.

Biroq havaskor sportchida muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi bir zumda emas, balki izchil, bosqichma-bosqich rivojlanadigan murakkab psixologik jarayon hisoblanadi [2]. Ushbu jarayonning qonuniyatlarini tushunish murabbiylar va sport psixologlari uchun havaskor sportchilarni samarali qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, havaskor sportchilarda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasining izchil rivojlanish jarayonini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi [3].

Muammoning o‘rganilgan darajasi. Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi nazariyasining fundamental asosi D. Makklelland [1]ning tadqiqotlarida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda yutuqqa erishish ehtiyoji shaxsning asosiy motivatsion omillaridan biri sifatida asoslangan. J. Atkinson [2]ning muvaffaqiyatga erishish nazariyasida esa muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish tendensiyalari o‘rtasidagi dinamik muvozanat tahlil qilingan.

E. Desi va R. Rayan [3]ning o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory) ichki va tashqi motivatsiyaning shakllanish qonuniyatlarini, muxtoriyat, malakalilik va bog‘lanish ehtiyojlarining ichki motivatsiyani mustahkamlashdagi rolini asoslaydi. Sport psixologiyasi sohasida R. Vaylend [4]ning tadqiqotlarida yutuqqa yo‘naltirilganlik nazariyasining sport kontekstidagi qo‘llanilishi yoritilgan. Mahalliy psixologiya fanida E. G‘oziyev [5]ning ishlarida motivatsiya psixologiyasining umumnazariy asoslari tahlil qilingan.

Shunga qaramay, olib borilgan ilmiy izlanishlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, aynan havaskor sportchilarga xos, ularning o‘ziga xos motivatsion tuzilishini hisobga oluvchi, muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasining izchil rivojlanish bosqichlarini tizimli tahlil qiluvchi maxsus tadqiqotlar mahalliy fanda hali yetarli darajada mavjud emas. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish mazkur tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Muhokama. Birinchi, boshlang‘ich-qiziqish bosqichida sportchining sport faoliyatiga dastlabki jalb bo‘lishi asosan tashqi omillar — oila, tengdoshlar, murabbiyning ta'siri — orqali sodir bo‘ladi [1]. Bu bosqichda tashqi motivatsiya ustunlik qiladi, qiziqish esa hali barqaror emas. D. Makklelland nazariyasiga ko‘ra, aynan shu bosqichda sportchining dastlabki muvaffaqiyat tajribasi keyingi rivojlanish uchun muhim psixologik zamin yaratadi.

Ikkinchi, shaxsiy maqsad shakllanish bosqichida sportchida o‘ziga xos, shaxsiy sport maqsadlari shakllana boshlaydi [2] — u endi faqat boshqalarning talabi bilan emas, balki o‘zining aniq, real erishish mumkin bo‘lgan qisqa muddatli maqsadlariga ega bo‘ladi. Bu bosqichda tashqi va ichki motivatsiya o‘rtasida bosqichma-bosqich muvozanat shakllana boshlaydi.

Uchinchi, muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlikka munosabat shakllanish bosqichi J. Atkinson nazariyasiga ko‘ra alohida ahamiyat kasb etadi [3] — bu bosqichda sportchida muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish tendensiyalari o‘rtasidagi nisbat shakllanadi. Agar sportchi muvaffaqiyatsizlikni tabiiy, o‘rganish jarayonining bir qismi sifatida qabul qilishga o‘rgatilsa, unda yutuqqa intilish motivi ustunlik qiladi, aks holda muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish rivojlanib, sport faoliyatidan uzoqlashishga olib kelishi mumkin.

To‘rtinchi, barqaror ichki motivatsiya bosqichida sport faoliyatining o‘zi — mashq jarayoni, o‘sish hissi, jismoniy va psixologik rivojlanish — sportchi uchun mustaqil qadriyatga aylanadi [4]. E. Desi va R. Rayanning o‘z-o‘zini belgilash nazariyasiga ko‘ra, bu holat sportchining muxtoriyat (o‘z tanlovlarini qilish erkinligi), malakalilik (o‘sish hissi) va bog‘lanish (jamoaga tegishlilik) ehtiyojlari qondirilganda yuzaga keladi. Nihoyat, beshinchi, yuqori yutuqlarga yo‘naltirilgan barqaror bosqichda sportchida uzoq muddatli, barqaror va yuqori natijalarga erishishga qaratilgan ustuvor (mastery) motivatsion yo‘nalish shakllanadi [5] — bu bosqichda sportchi natijadan qat'i nazar, o‘zining jarayoni va o‘sishidan zavqlanadi, bu esa uning sport faoliyatida uzoq muddat barqaror qolishini ta'minlaydi.

Natijalar. Havaskor sportchilarda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi rivojlanishining beshta bosqichini tahlil qilish jarayonida ularning tavsifi, asosiy psixologik xususiyati va rivojlantiruvchi omillari tizimlashtirildi. Tahlil natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan holda keltirilgan:

№	Rivojlanish bosqichi	Tavsifi	Asosiy psixologik xususiyat	Rivojlantiruvchi omil
1	Boshlang‘ich-qiziqish bosqichi	Sportchining dastlabki sport faoliyatiga jalb bo‘lishi, asosan tashqi omillar (oila, tengdoshlar, murabbiy) ta'sirida	Tashqi motivatsiyaning ustunligi, barqaror bo‘lmagan qiziqish	Qiziqarli, o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlar, dastlabki muvaffaqiyat tajribasi
2	Shaxsiy maqsad shakllanish bosqichi	Sportchida o‘ziga xos, shaxsiy sport	Tashqi va ichki motivatsiya o‘rtasidagi	Aniq, real erishish mumkin bo‘lgan

№	Rivojlanish bosqichi	Tavsifi	Asosiy psixologik xususiyat	Rivojlantiruvchi omil
		maqsadlarining shakllana boshlashi	bosqichma-bosqich muvozanat	qisqa muddatli maqsadlarni qo‘yish
3	Muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlikka munosabat shakllanish bosqichi	Sportchida muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish tendensiyalari o‘rtasidagi nisbatning shakllanishi	Yutuqqa intilish motivi yoki muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish motivining ustunlik qilishi	Xolis, rivojlantiruvchi fikr-mulohaza, muvaffaqiyatsizlikni tabiiy jarayon sifatida qabul qildirish
4	Barqaror ichki motivatsiya bosqichi	Sport faoliyatining o‘zi (mashq jarayoni, o‘sish hissi) sportchi uchun qadriyatga aylanishi	Muxtoriyat, malakalilik va bog‘lanish ehtiyojlarining qondirilishi (o‘z-o‘zini belgilash nazariyasiga ko‘ra)	Sportchiga tanlov erkinligini berish, uning malaka o‘sishini muntazam qayd etib borish

Jadvalda keltirilgan tahlildan ko‘rinib turibdiki, bosqichlar tashqi motivatsiya ustunlik qiladigan holatdan boshlanib, ichki, barqaror va yuqori yutuqlarga yo‘naltirilgan motivatsion holatgacha izchil rivojlanadi. Har bir bosqichda shakllangan psixologik xususiyat keyingi bosqich uchun zaruriy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, uchinchi bosqich — muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlikka munosabat shakllanish bosqichi — alohida ahamiyatga ega, chunki aynan shu bosqichda sportchining kelgusi motivatsion taqdiri (yutuqqa intilish yoki muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish yo‘lidan borishi) ko‘p jihatdan belgilanadi. Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlil ishlab chiqilgan beshta bosqichli model havaskor sportchilarda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasini tushunish va uni qo‘llab-quvvatlash uchun amaliy asos bo‘la olishini ko‘rsatdi.

Xulosa

Havaskor sportchilarda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi boshlang‘ich-qiziqish, shaxsiy maqsad shakllanish, muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlikka munosabat shakllanish, barqaror ichki motivatsiya va yuqori yutuqlarga yo‘naltirilgan barqaror bosqichlari orqali izchil rivojlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu jarayonning har bir bosqichida murabbiy va sport psixologlarining maqsadli qo‘llab-quvvatlashi sportchining barqaror, ichki motivatsiyaga ega bo‘lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu bosqichma-bosqich modelni murabbiylik amaliyotida qo‘llash havaskor sportchilarning sport bilan uzoq muddat, samarali va psixologik jihatdan sog‘lom tarzda shug‘ullanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu bosqichlarni empirik tarzda, turli yosh guruhi va sport turlari kesimida tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. McClelland D.C. The Achieving Society. – Princeton: Van Nostrand, 1961. – 512 p.
2. Atkinson J.W. An Introduction to Motivation. – Princeton: Van Nostrand, 1964. – 335 p.
3. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985. – 371 p.
4. Weinberg R.S., Gould D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. – Champaign: Human Kinetics, 2019. – 632 p.
5. G‘oziyev E.G‘. O‘quvchi va talabalar psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 288 b.

Alimardanova Ra’no Narbayevna
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

OLIY MA’LUMOTLI ONALARNING FARZANDLARIDA MOTIVATSIYA TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tezisda oliy ma’lumotli onalarning farzandlarida motivatsion tizim shakllanishiga ko‘rsatadigan ta’siri ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Onaning ta’lim tajribasi, bilimga munosabati, tarbiyaviy muloqoti, rag‘batlantirish uslubi va shaxsiy namunasi orqali bolaning o‘quv-bilish, erishuv, ijtimoiy hamda o‘zini rivojlantirish motivlari qanday qo‘llab-quvvatlanishi yoritiladi. Motivatsiyani uzatish jarayoni tayyor intilishlarni bolaga singdirish emas, balki qadriyatlarni ichkilashtirish, kompetentlikni his etish va mustaqil maqsad qo‘yish uchun sharoit yaratish sifatida talqin etiladi. Shuningdek, ortiqcha nazorat, yuqori kutishlar va natijaga yo‘naltirilgan bosimning ehtimoliy cheklovlari ko‘rib chiqiladi. Nazariy umumlashtirish asosida oila sharoitida motivatsion muhitni rivojlantirish yo‘llari taklif qilinadi.

Kalit so‘zlar: oliy ma’lumotli ona, farzand motivatsiyasi, motivatsion tizim, o‘quv-bilish motivi, yutuqqa intilish, ichki motivatsiya, ota-ona qo‘llab-quvvatlashi, avtonomiya, o‘zini o‘zi boshqarish, oilaviy tarbiya.

Kirish. Zamonaviy ta’lim muhitida farzandning bilim olishga munosabati, shaxsiy maqsad qo‘yishi va qiyinchiliklarni yengishga tayyorligi oiladagi tarbiya tajribasi bilan uzviy bog‘liqdir. Oila bola uchun dastlabki qadriyatlar, faoliyat me’yorlari va muvaffaqiyat mezonlari shakllanadigan ijtimoiy makon hisoblanadi. Shu jarayonda onaning ta’lim darajasi, o‘z bilimini amaliyotda qo‘llashi va farzand bilan muloqot uslubi alohida e’tibor talab qiladi.

Oliy ma’lumotli onalar ko‘pincha o‘quv faoliyati, kasbiy o‘sish va mustaqil izlanish tajribasiga ega bo‘ladilar. Ushbu tajriba farzand bilan suhbat, kitobxonlik, savol-javob, kundalik hayotdagi muammolarni hal qilish va kelajak rejalari haqida fikr almashish orqali tarbiyaviy resursga aylanishi mumkin. Biroq diplomning o‘zi bolada yuqori motivatsiyani kafolatlamaydi: ta’sirning mazmunini mehrli munosabat, real kutishlar va qo‘llab-quvvatlovchi amaliyot belgilaydi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bolaning ta’limga nisbatan intilishi ko‘pincha faqat baho va tashqi rag‘bat bilan baholanadi. Vaholanki, barqaror motivatsion tizim qiziqish, faoliyatning shaxsiy mazmunini anglash, maqsadga intilish va o‘z harakatini boshqarish kabi o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Oliy ma’lumotli onalarning ushbu jarayondagi o‘rnini aniqlash oilaviy tarbiya psixologiyasi uchun amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi oliy ma’lumotli onalarning farzandlarida motivatsiya tizimini shakllantirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni nazariy jihatdan asoslash va oilada motivatsion qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlarini belgilashdan iborat. Tadqiqot usullari ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, taqqoslash, tizimlashtirish va konseptual umumlashtirishdan iborat.

Farzand motivatsion tizimining psixologik mazmuni

Motivatsion tizim bolaning muayyan faoliyatni tanlashi, unga kirishishi, davom ettirishi va natijasini baholashini yo‘naltiruvchi ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar va qadriyatlar majmuasidir. Mazkur tizimda o‘quv-bilish qiziqishi, muvaffaqiyatga erishish istagi, ijtimoiy e’tirof ehtiyoji va shaxsiy rivojlanishga intilish turli nisbatda namoyon bo‘ladi. Motivlar barqarorligi bolaning faoliyatni nima uchun muhim deb bilishi bilan bevosita bog‘liq.

E. Deci va R. Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o‘zini o‘zi belgilash nazariyasiga ko‘ra, avtonomiya, kompetentlik va aloqadorlik ehtiyojlarining qo‘llab-quvvatlanishi ichki motivatsiya hamda motivlarning ichkilashtirilishida muhim o‘rin tutadi [1]. Demak, bola o‘z fikrini bildira olsa, vazifani bajara olishiga ishonsa va yaqinlarining ishonchini his etsa, o‘quv faoliyatini shaxsiy ahamiyatga ega deb qabul qilish ehtimoli ortadi.

A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv yondashuvida xulq-atvor, shaxsiy e’tiqodlar va muhitning o‘zaro ta’siri ta’kidlanadi; o‘z samaradorligiga ishonch faoliyatni tanlash va sa’y-harakatni davom ettirishda ahamiyatlidir [2]. Ona o‘z qiyinchiliklarini qanday yengishi, yangi bilimlarni qanday egallashi va xatosiga qanday munosabatda bo‘lishi orqali farzandga kuzatiladigan xulq-atvor namunalarini taqdim etadi.

Shu sababli motivatsiyaning avlodlararo uzatilishi biryoqlama buyruq yoki talab emas. Bu jarayon kundalik muloqot, birgalikdagi faoliyat, emotsional munosabat, rag‘batlantirish va bolaning mustaqil tajribasi uyg‘unligida shakllanadi. Motivatsion ta’sir muvaffaqiyat mezonlarini tushuntirish bilan birga, xato qilish va qayta urinib ko‘rish imkonini berishni ham nazarda tutadi.

Oliy ma’lumotli onaning ta’limiy kapitali va shaxsiy namunasi

Oliy ta’lim davomida orttirilgan bilim va ko‘nikmalar onaning tarbiyaviy imkoniyatlarini boyitishi mumkin. Masalan, ma’lumotni izlash, solishtirish, savollar qo‘yish, asoslangan fikr bildirish va vaqtni rejalashtirish tajribasi oiladagi muloqot sifatiga ijobiy ta’sir qiladi. Bunday muhitda bola bilim olishni faqat maktab talabi emas, balki kundalik hayotga daxldor faoliyat sifatida idrok etishi mumkin.

Onaning o‘qishga bo‘lgan shaxsiy munosabati ayniqsa muhim: u muntazam mutolaa qilsa, o‘rganayotgan yangiliklarini muhokama etsa yoki murakkab vazifani bosqichlarga ajratib bajarsa, farzand bilim olishning amaliy modelini ko‘radi. Kuzatish orqali o‘rganish bolaning kelgusida o‘z faoliyatini rejalashtirishiga va natijani faqat tashqi baho bilan emas, shaxsiy o‘sish bilan bog‘lashiga xizmat qilishi mumkin.

Biroq oliy ma’lumotli onalarning barcha farzandlarida motivatsiya avtomatik ravishda yuqori bo‘ladi, degan qarash to‘g‘ri emas. Oilaning iqtisodiy imkoniyatlari, ota va boshqa yaqinlarning ta’siri, maktab muhiti, bolaning qobiliyatlari, individual qiziqishlari va salomatligiga oid holatlar ham ahamiyatlidir. Shuning uchun ta’lim darajasini alohida sabab sifatida emas, balki bir qator himoyalovchi yoki rivojlantiruvchi resurslardan biri sifatida tushunish maqsadga muvofiq.

Farzand uchun onaning diplomi yoki kasbiy mavqeyidan ko‘ra, uning kundalik hayotda namoyon etadigan fikrlash uslubi va emotsional munosabati ko‘proq sezilarli bo‘lishi mumkin. Bolaning savollarini jiddiy qabul qilish, izlanishiga sharoit yaratish va tanlagan maqsadini muhokama qilish orqali ta’limiy kapital tarbiyaviy resursga aylanadi.

Motivlarni shakllantirishning asosiy mexanizmlari

